



S.K. XUDOYQULOV

SOLIQ

STATISTIKASI

VA PROGNOZI

3361.2(04)

XB4

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI


S.K. XUDOYQULOV

SOLIQ STATISTIKASI VA PROGNOZI

(Kredit-modul bo'yicha)

DARSLIK

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan bakalavriatning «Soliqlar va soliqqa tortish» yo'nalishi
talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan.



TOSHKENT – 2022

UO‘K: 332.144.

KBK 67.408.12

**S.K. Xudoyqulov. Soliq statistikasi va prognozi. (Darslik). –T.:
«Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» 2022, 364 bet.**

ISBN 978-9943-8911-5-9

Mazkur darslik bakalavriatning «Soliqlar va soliqqa tortish» yo‘nalishida ta‘lim olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda «Soliq statistikasi va prognozi» fanining soliq sohasida mutaxassis kadrlar tayyorlashdagi o‘rni, soliq to‘lovchilari va soliq obyektlari hamda soliq tushumlarining statistik hisobini yuritish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning turli darajadagi byudjetlarga kelib tushish jarayonlarini prognoz qilishning o‘ziga xos mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, turli darajada soliq salohiyatini aniqlash tartiblari, soliq to‘lovchilarda soliqlarni rejalashtirish jarayoni hamda soliqlarni prognoz qilishning xorijiy davlatlar tajribasi kabi masalalari ham keng yoritib berilgan. Darslikda keltirilgan materiallar va ma‘lumotlar bo‘lajak soliq mutaxassislarning o‘z kasbiy bilim va malakalarini oshirish uchun asosiy manbalardan biri bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

UO‘K: 332.144.

KBK 67.408.12

**Taqrizchilar: i.f.d., prof. M.I.Alimardanov;
i.f.n., dots. I.O.Ergashev.**

ISBN 978-9943-8911-5-9

KIRISH

Soliq kategoriyasi iqtisodiyotda davlat va soliq to'lovchilar o'rtasidagi majburiy to'lovlar bilan bog'liq munosabatlarini izohlashi bilan bir qatorda ushbu munosabatlarni amalga oshirishda va davlatning maqsadli fondlarini shakllantirishni tashkil etish jarayonlari bilan bog'liq o'ta murakkab munosabatlarni ham keltirib chiqaradi. Soliq to'lovchilarning soliq potentsali bozor qonunlariga bog'liqligi byudjetni rejalashtirishda soliq potentsalni e'tiborga olishning murakkabligi, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning miqdoriga ta'sir etuvchi omillarning ko'pligi va ularning ta'sir doirasining kengligi(tezligi), byudjet jarayoni ijrosini ta'minlashi iqtisodiy indikatorlarga bog'liqligi, byudjetning xarajatlarini sarflashning daromadlar miqdoridan kelib chiqishligi, soliq tizimining oldiga qo'yilgan vazifalarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning darajasiga qarab o'zgarib borishligi, bozor munosabatlari sharoitida soliqlar iqtisodiyotga ta'sir etishning eng samarali va qulay usullaridan biri sifatida namoyon bo'lishligi kabi omillar soliq tizimida soliqlarni prognoz qilish jarayonini obyektiv zaruratga aylantiradi. Soliqlarni prognoz qilishning obyektiv zarurligining negizi avvalo markazlashtirilgan pul fondlarining tashkil etilishga bog'liq bo'ladi va fiskal siyosatning asosiy o'zagini tashkil etadi. Chunki, fiskal siyosat asosan pul fondlarining moliyaviy manbalarini aniqlash va ularni jalb etilishga qaratilgan bo'ladi. O'z navbatida soliqlarni prognoz qilishning zarurligini tavsiflovchi holatlar uning o'ziga xos belgilari bilan o'zaro bog'liqlikda bo'ladi.

Vaholanki, soliqlarni prognoz qilish jarayoni bir tomondan mavhumlikka ega bo'lsa, boshqa tomondan unga ta'sir qiluvchi omillarning ko'pligi bu jarayonning o'ta qaltis iqtisodiy munosabatlar tizimiga asoslanishini bildirib, chuqur ilmiy tahlillarga asoslangan holda oqilona qaror qabul qilishni talab etadi. Soliqlarni prognoz qilishning samaradorligi asosan byudjetning to'g'ri rejalashtirilganligi bilan izohlanadi. Agar soliqlar va unga tenglashtirilgan to'lovlar oqilona va

obyektiv prognoz ko'rsatkichlari aniqlansa va ular byudjetni tuzish jarayonida aks ettirilsa, byudjetdan moliyalashtirish jarayoni bir maromda bo'ladi. Shunday ekan soliqlarning byudjetga kelib tushish jarayoni ham ko'p jihatdan uni to'g'ri tashkil etilishiga bog'liq bo'ladi. bu jarayonda soliqlarni prognoz qilishning bossqichlarini to'g'ri aniqlash, soliq to'lovchilarni ma'lum bir mezonlar asosida guruhlash, yuridik va jismoniy shaxslar bo'yicha soliq tushumlarini prognoz qilishda talab qilinadigan shartlarni aniqlash va ularga amal qilish hamda soliqlarni prognoz qilishda qo'llanidigan modellar va usullarni to'g'ri qo'llash katta ahamiyat kasb etadi.

Soliqlarni prognoz qilish jarayoni esa o'z navbatida soliq, moliya, bojxona va g'aznachilik organlarining eng muhim asosiy faoliyatlaridan biriga aylanadi. Chunki, soliqlarni prognoz qilish jarayonini amalda ushbu organlarda faoliyat ko'rsatuvchi mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi. Demak, moliya-kredit organlarida soliqlarning byudjetga kelib tushish jarayonlarini maksimal darajada aniqlikda prognoz qilishda turli xil metodlardan foydalanish taqozo etiladi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil yanvar oyidagi "Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1257-sonli Qarorida soliq xizmati organlari tizimida ".....ishlarni tashkil etishning zamonaviy shakl va metodlaridan zarur darajada foydalanilmayati..." deb ko'rsatib o'tilganligi boshqa jarayonlar singari soliq tushumlarini prognoz qilish jarayonlarini ham yanada takomillashtirilib borilish zarurligi bildiradi. Soliqlarni prognoz qilish jarayonining asosiy qismi soliq xizmati organlari mutaxassislari zimmasiga tushadi. Soliqlar va boshqa tushumlarni to'g'ri prognoz qilish esa mutaxassis xodimlardan iqtisodiy bilimlardan tashqari aniq va murakkab hisob-kitoblarni amalga oshirish ko'nikma va bilimlarni hamda soliq fanlaridan tashqari, makroiqtisodiyot, statistika, ekonometrika, iqtisodiy tahlil, mikroiqtisodiyot, davlat moliyasini boshqarish, iqtisodiy rejalashtirish, davlat byudjeti va shu kabi

fanlarning mazmunidan ham xabardor(muayan darajada bilimga ega) bo'lish talab qiladi.

Ushbularni e'tiborga olgan holda mazkur darslikning mazmunini yoritishda quyidagi yo'nalishlarda yoritishga harakat qilindi. Darslikning dastlabki boblarida prognoz tushunchasining mohiyati, bashorat, prognoz va reja kabi tushunchalarning o'zaro xususiyatlari, soliqlarni prognoz qilishning turlari, ularni amalga oshirishda qo'llaniladigan modellar va metodlarning mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Keyingi boblarda esa soliqlarni prognoz qilishga ta'sir qiluvchi omillar, soliq salohiyatini aniqlash tartibi va unga ham ta'sir qiluvchi omillarni baholash mexanizmlari hamda soliq turlari bo'yicha soliqlarni prognoz qilishning uslubiy yo'nalishlari misollar tariqasida ifodalandi.

Darslikning so'ngi boblarida esa soliqlarni prognoz qilishni amalga oshirishning ayrim xorijiy davlatlardagi tajribalar, soliqlarni prognoz qilish jarayonidagi ayrim muammolar va ularning mazmuni hamda soliq to'lovchilarda soliqlarni rejalashtirish jarayonini tashkil etish tartiblari yoritildi.

Darslik ushbu fan doirasidagi dastlabki darsliklardan biri bo'lganligi u ayrim kamchiliklardan holi bo'lmasligi tabiiy. Muallif ushbu darslikda keltirilgan materiallar soliqlarni prognoz qilish jarayoni bilan qiziquvchi o'quvchilar ham bo'lajak soliqchi mutaxassislarining bu boradagi nazariy qarashlarini boyitishga xizmat qiladi deb umid qiladi va bu boradagi tanqidiy mulohazalar kelgusida ushbu darslikning mazmunini yanada boyitishga xizmat qiladi deb hisoblanadi.

Muallif.

I-BOB. «SOLIQ STATISTIKASI VA PROGNOZI» FANINING PREDMETI, MAQSADI, VAZIFALARI VA O'RGANISH USULLARI

1.1. «Soliq statistikasi va prognozi» fanining predmeti maqsad va vazifalari


«Soliq statistikasi va prognozi» fani ham o'z predmetiga ega. Darslikning «Kirish» qismida qisman ta'kidlaganimizdek, soliqlarni prognoz qilish jarayonining yuzaga kelishining asosiy shart-sharoiti bu milliy daromadni taqsimlash jarayonida markazlashgan pul fondlarini shakllantirishning zarurligidan kelib chiqadi. Ushbu markazlashgan pul fondlarining manbalarining asosiy qismini soliqlar va ularga tenglashtirilgan boshqa majburiy to'lovlar tashkil qiladi. Vaholanki, ushbu daromad manbalari esa bir tomondan davlatning soliq siyosatiga bog'liq bo'lsa, boshqa tomondan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning miqdori soliq to'lovchilarning faoliyati(iqtisodiy hatti harakati va moliyaviy natijalari)ga bog'liq bo'ladi. O'z navbatida davlatning soliq siyosatining darajasi(progressiv yoki rag'batlantiruvchi) esa ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir qilib, soliq tushumlarining kamayishi yoki tabiiy ravishda oshib borishiga olib keladi. Bu jarayonda esa davlat byudjeti va boshqa pul fondlarini rejalashtirish jarayonidan kelib chiqadi. Biroq, ushbu rejalashtirishning asosini esa prognozlashtirish jarayoni tashkil qiladi. Soliq to'lovchilarning iqtisodiy faoliyati esa bozor munosabatlari sharoitida esa bozor qonunlariga bog'liq bo'ladi. Bozor qonunlari qaysilarining moliyaviy holatiga ijobiy ta'sir qilsa, boshqa birlariga, masalan, bozor qoidalariga amal qilmagan holda iqtisodiy faoliyat yurituvchilarning faoliyatiga esa salbiy ta'sir qiladi, natijada esa soliqlar tushumlarining pul fondlariga bir maromda tushishi jarayoni buziladi. Agar, bu holatlarni e'tiborga olmasdan turib ushbu pul fondlarini rejalashtirish amalga oshirilsa ulardan qilinadigan xarajatlarning yo'nalishiga ta'sir qiladi. Bu yerda ikki holat yuzaga

keladi. Birinchisi, pul fondlari, masalan, Davlat byudjetidan qilinadigan xarajatlarga nisbatan daromadlar ko'proq tushadi va moliyalashtirishda muammo kelib chiqmaydi, biroq, moliyaviy imkoniyatga nisbatan moliyaviy rejalashtirish amalga oshirilmaganligini ko'rsatadi. Ikkinchi holatda esa rejalashtirilgan xarajatlar, ya'ni byudjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlar smetasiga muvofiq tasdiqlangan xarajatlarni to'la moliyalashtirish imkoniyati bo'lmaydi, chunki, daromadlar tushumi bilan rejalashtirilgan xarajatlar o'rtasida katta tafovutni kelib chiqqan bo'ladi. Natijada esa davlatning ijtimoiy xizmatlari ham miqdor ham sifat jihatdan kamayib ketadi. Demak, bunday salbiy holatlarning oldini olishning eng muhim usullari sifatida pul fondlariga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni obyektiv tarzda prognozlashtirish va ularni oqilona rejalashtirish jarayonini amalga oshirish hisoblanadi.

Bu yerda ko'rinadiki, milliy daromadni davlat manfaatlari (aslida xalq manfaatlari) va milliy daromadni ishlab chiqaruvchilar o'rtasida qayta taqsimlash jarayonida shakllantiriladigan pul fondlariga soliq tushumlarining kelib tushish jarayonlarining hajmini oldindan aniqlash bilan keng qamrovli o'ta murakkab munosabatlar yuzaga keladi. Bu jarayonlar esa soliq tizimining xususiyatlarini o'rganuvchi boshqa fanlar, masalan «Soliq nazariyasi», «Soliqlar va soliqqa tortish», «Soliq huquqi», «Soliq nazorati», «Soliq ma'murchiligi», «Soliq siyosati» va shu kabi fanlar doirasida chuqur alohida o'rganilmaydi. Shuningdek, soliq tizimi doirasida soliq to'lovchilarning yuzaga kelishi, ularni soliq to'lovchi sifatida ro'yxatga olish, soliq obyektlarining yuzaga kelishi va ularni hisobga olish hamda soliq tushumlarining statistik hisobini yuritishga oid o'ziga xos munosabatlar ham kelib chiqadiki, yuqorida qayd etib o'tilgan fanlar doirasida ushbu jarayonlar juda qisman doira ko'riladi, ammo, ularning barcha jihatlari qamrab olinmaydi. Demak, qayd qilingan jarayonlarni alohida o'rganuvchi alohida fanga ehtiyoj kelib chiqadi. Shu boisdan ham «Soliq statistikasi va prognozi» fanining yuzaga kelishiga ehtiyoj tug'iladi. Demak, «Soliq statistikasi va prognozi» fani soliq tizimini o'rganuvchi fanlar orasida o'ziga xos alohida o'rganish

predmetiga ega. Bu jarayon asosan uch muhim ketma-ketlikdagi bosqichlarni qamrab oladi. Birinchisi yuqorida aytilganidek, soliq to'lovchilarning yuzaga kelishi, ularni soliq to'lovchi sifatida ro'yxatga olish, soliq obyektlarini hisobga olish hamda soliq tushumlarining turli darajadagi byudjetlarga kelib tushishini statistik hisobini yuritish bosqichi bo'lsa, ikkinchi bosqichi bu soliqlarni prognoz qilishning muhim asosi bo'lgan turli darajadagi soliq salohiyatini aniqlash hisoblanadi va uchinchi bosqichi esa turli darajadagi pul fondlari(asosan byudjet tizimi byudjetlariga)ga soliqlarning kelib tushishi jarayonini prognoz qilish bosqichlaridan iborat bo'ladi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda «Soliq statistikasi va prognozi» fanining predmetini quyidagicha aniqlash mumkin.

«Soliq statistikasi va prognozi» fanining predmeti bu - soliq to'lovchilar va soliq obyektlarining yuzaga kelishi, ularni davlat ro'yxatiga olish, soliq tushumlarining hisobi olish va ular bilan bog'liq davlat vakolatli organlarning o'zaro munosabatlari, soliq salohiyatini aniqlash hamda soliqlarni prognoz qilish jarayoni bilan bog'liq munosabatlar yig'indisidan iboratdir.



1-rasm. Soliq statistikasi va prognozi» fanining predmeti tarkibi.

Demak, bundan ko'rinadiki, «Soliq statistikasi va prognozi» fani bir biri bilan bog'liq bir qator munosabatlar tizimini yaxlit holda tashkil qiladi. Ushbu jarayonlarning bog'liqligi shundaki, agar soliq to'lovchilar

va soliq obyektlari o'z vaqtida ro'yxatga olinsa ular o'z navbatida alohida hamda yaxlit holda byudjetlarga soliq tushumlarini prognoz qilish jarayonida muhim miqdoriy omil bo'lib xizmat qiladi. O'z navbatida esa soliq tushumlarini turli darajadagi byudjetlarga kelib tushishini to'g'ri statistik hisobini yuritish esa byudjetga soliq tushumlarini umumlashtirish imkoni va ularning byudjetlar o'rtasida taqsimlanish jarayonlarini to'g'ri olib borishni ta'minlaydi.

Soliq salohiyatni aniqlash(baholash) esa soliqlarni prognoz qilish jarayonining asosiy va muhim sifat omillaridan biri hisoblanadi. Soliq salohiyatini milliy iqtisodiyot, tarmoqlar, alohida olingan soliq to'lovchilar (ayniqsa donor soliq to'lovchilar), tumanlar hamda aholi qatlamlari bo'yicha aniqlash esa soliq turlari hamda umumiy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha soliqlarning kelib tushish darajasini baholash imkoniyatini beradi va uning darajasiga qarab esa davlat o'zining soliq siyosatini belgilash imkoniyati tug'iladi.

Boshqa fanlar singari «Soliq statistikasi va prognozi» fanining maqsadi va vazifalari uning tadqiqot predmetidan kelib chiqadi. Shu jihatdan olganda «Soliq statistikasi va prognozi» fanining maqsadi talabalarga soliq to'lovchilar va soliq obyektlarini hisobga olish va soliq tushumlarining byudjetlarga kelib tushishi statistikasini tashkil etish, soliq potentsialini aniqlash hamda soliq turlari bo'yicha soliqlarni prognoz qilish jarayonlarining xususiyatlarini nazariy va amaliy jihatlarini yoritib berishdan iboratdir.

«Soliq statistikasi va prognozi» fanining maqsadidan kelib chiqib, uning oldiga qo'yiladigan quyidagi vazifalar belgilanadi:

✦ Soliqlarni prognoz qilishning iqtisodiy zarurligini asoslab berish;

✦ prognoz, bashorat va reja kabi tushunchalarning mohiyati va ularning o'zaro farqlarini ko'rsatib berish;

✦ soliq to'lovchilar va soliq obyektlarini hisobga olish(davlat ro'yxatiga olish) kabi jarayonlarni yoritib berish;

✦ soliq tushumlarini turli byudjetlarga kelib tushish jarayonlarini va ularning byudjetlar o'rtasida taqsimlanish jarayonlari hamda ushbu holat bilan bog'liq tegishli vakolatli davlat organlari o'rtasidagi munosabatlarni ko'rsatib berish;

✦ soliq salohiyati tushunchasining mohiyatini ochib berish, soliq salohiyatini turli darajalarda baholash mexanizmlari hamda ularga ta'sir qiluvchi omillarni yoritib berish;

✦ soliqlarni prognoz qilish va soliqlarni rejalashtirishning davlat byudjetini rejalashtirish jarayonidagi rolini yoritib berish;

✦ soliqlarni prognoz qilish jarayonida qo'llaniladigan modellar va metodlarning mohiyatini ochib berish va ularni qo'llashning amaliy jihatlarini ko'rsatib berish;

✦ soliqlarni prognoz qilishning ayrim xorijiy davlatlardagi amaliy tajribalarni yoritib berish;

✦ soliq to'lovchi xo'jalik yurituvchi subyektlarda soliqlarni rejalashtirish mexanizmlarini ko'rsatib berish;

✦ soliqlarni prognoz qilish jarayonida mavjud ayrim nazariy va amaliy muammolarning mazmuni bilan tanishtirish va ularni echimlarini topish yuzasidan talabalarda ilmiy mushohadalar yuritish ko'nikmalarini shakllantirish;

✦ Soliq statistikasi va prognozi jarayoniga oid axborot manbalarini taqdim etish va shu kabi vazifalar.

1.2. «Soliq statistikasi va prognozi» fanining tadqiqot predmetini o'rganish metodlari

«Soliq statistikasi va prognozi» fani ham boshqa iqtisodiy fanlar singari o'z predmetini ma'lum bir metodlarni qo'llagan holda o'rganadi. Ushbu metodlar umumiy tartibda bilish metodlari bo'lib, ularning o'zi ham ilmiy tadqiqot hamda uslubiy yo'nalishdagi metodlar sifatida amal qiladi. Mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiluvchi, ya'ni ixtisoslik fanlari ko'rincha uslubiy yo'nalishdagi metodlardan foydalansada, shu

bilan birgalikda ilmiy tadqiqot metodlaridan ham foydalanish taqozo etiladi. «Soliq statistikasi va prognozi» fanining o'ziga xos xususiyati shundaki, ushbu fanda doirasida yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, iqtisodiy munosabatlar tashqari mantiqiy mushohadalash va murakkab hisob-kitoblarni amalga oshirishni ham taqozo qiladi. Fanning o'rganish metodlari¹ esa fanni o'rganuvchilarga fan doirasidagi kechadigan iqtisodiy munosabatlar va jarayonlarning mohiyati hamda bu boradagi muammolarni tadqiq etishni engillashtirsa, fanni o'rganuvchilarga esa fanning mazmunini anglashda va uni o'zlashtirishda katta ahamiyatga egadir.

O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida keltirilishicha metod (yun. metodos — bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot) — voqelikni amaliy va nazariy egallash, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'l yo'riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli. Metodlar haqidagi ta'limot fanda metodologiya deb ataladi. Bilish metodlari voqelikni qamrab olishi jihatidan 3 turga bo'linadi: yalpi umumiy bilish metodlari — hamma fanlarda va bilishning barcha bosqichlarida ham ko'llaniladigan umumiy va universal metodlari — metodologiya; umumiy bilish metodlari — bir qancha yoki barcha fanlarda qo'llaniladigan va bilishning muayyan bosqichi (empirik, nazariy yoki empirik bosqichdan nazariy bosqichga o'tish chegarasi)da qo'llaniladigan bilish metodlari; xususiy yoki metodlari — ayrim fan doirasida qo'llaniladigan bilish metodlaridir. Metodologiya (metod va ...logiya so'zlaridan) — tadqiqotchining nazariy va amaliy faoliyatini tashkil etish, tiklash tamoyillari va usullari tizimi hamda bunday tizim haqidagi ta'limot. Metodologiya metodlar haqidagi ta'limot yoki yalpi-umumiy bilish metodi, deb ham ta'riflanadi². Metodlarning muhim xususiyati o'rganish jarayonini soddalashtirish va samaraga erishishda asosiy vosita hisoblanadi. Shu jihatdan olganda fanning o'rganish metodlari umumiy va xususiy xarakterda bo'ladi. Umumiy bilishning

¹ Ko'pgina iqtisodiy va ilmiy adabiyotlarda metod va usullar mohiyati jihatidan sinonim tarzida tavsiflanadi. Biroq, ilmiy nuqtai nazaridan metod kengroq tushuncha hisoblanadi.

² Qarang: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi "M" harfi. Toshkent. 460-461 betlar.

falsafiy metodlar barcha fanlar, jumladan «Soliq statistikasi va prognozi» fani uchun metodologik asos boʻlib xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda «Soliq statistikasi va prognozi» fani oʻz predmetini oʻrganishda quyidagi metodlardan foydalanadi.

«Soliq statistikasi va prognozi»da oʻrganishning asosiy metodlaridan biri bu *dialektik metod* hisoblanadi. Ushbu metodning mohiyati dialektika kategoriyasi bilan bogʻliq boʻlib, dialektika [yun. dialektike (techne) — suhbat olib borish, bahslashish sanʼati] — borliqning vujudga kelishi, uning taraqqiyoti haqidagi falsafiy taʼlimot hamda voqelikni bilish va unga asoslangan tafakkur uslubidir.³ Dialektik metod fan tadqiqot markazida turgan masala yoki muaommani boshqa elementlarning mavjudligi bilan birga qarash, oʻrganish va ular oʻzaro taʼsirda kechadigan degan jarayon sifatida olib qarashni ifodalaydi. Soliqlarni prognoz qilish jarayonining muhim xususiyati shundaki, prognoz koʻrsatkichlari va uning natijalariga taʼsir qiluvchi omillar juda koʻp boʻlib, ushbu omillarni har birining taʼsirini baholash(aniqlash) zarur boʻlishi bilan birgalikda ular bir-biri bilan bogʻliqda boʻladi, bu holat esa oʻrganishning dialektik metodidan keng foydalanish zurligini bildiradi. Dialektik metodni qoʻllash yuz berayotgan har qaysi jarayon va hodisalarning holatini oʻz-oʻzicha emas, balki boshqa omillar taʼsiri sifatidagi natija deb qarashni va shu tartibda yondoshishni anglatadi.

Demak, dialektik metod orqali fan obyektini oʻrganishda har bir iqtisodiy jarayonning oʻzini boshqa omillar keltirib chiqarganligi va ularning taʼsirida mavjud boʻlishligini hamda uning oʻzining ajralmas ichki elementlariga egaligi aniqlanadi va shu tartibda obyekt kashf etiladi va uning xususiyatlari aniqlanadi.

«Soliq statistikasi va prognozi» fanida eng koʻp qoʻllaniladigan metodlardan biri bu *abstraksiya metodidir*. Abstraksiya lotin tilidan olingan boʻlib, »*abstractio*»-diqqatni chetga tortish, chalgʻitish degan maʼnoni anglatadi. Tadqiqotning umumiy mantiqiy metodi sifatida oʻrganilayotgan hodisaning bir qancha xossalari va nisbatlaridan fikran

³ Qarang: Oʻzbekiston Milliy entsiklopediyasi "D" harfi. Toshkent, 242-463 betlar.

uzoqlashish, ayni paytda tadqiqot jarayonida qiziqtirgan xossalarni (eng avvalo, muhim, umumiy xossalarni) ajratish jarayoni. Mazkur jarayon natijasida har xil «mavhum predmetlar» olinadi. Bunda «mavhum predmetlar» deganda alohida tushunchalar va kategoriyalar («rivojlanish», «qarama-qarshilik», «fikrlash» va b.) hamda ularning tizimlari tushuniladi.

Soliqlarni prognoz qilish jarayonida qayd etilganidek, prognoz ko'rsatkichlarining aniqligiga maksimal darajada erishish uchun juda ko'p holatlar va jarayonlarni tahlil qilish, maxsus hisob-kitoblarni amalga oshirishni taqozo etadi. Ammo, ushbu ko'plab jarayon va holatlarning barchasini birdaniga qamrab olish tadqiqotni qiyinlashtirib, maqsadga erishishda chetga chiqishlarga olib keladi. Bu yerda abstraktsiya metodining ahamiyati shundaki, o'rganish jarayonida o'rganilayotgan vaqt uchun unchalik muhim bo'lmagan ikkinchi darajali va ta'sir doirasi juda past bo'lgan omillarga emas, asosiy jarayonga e'tibor berish lozim bo'ladi. Bu esa o'rganish jarayonining samaradorligini oshiradi.

Induktsiya va deduktsiya metodlari ham «Soliq statistikasi va prognozi» fanini o'rganishda keng qo'llaniladi. Aslida fan tadqiqot metodlari sifatida induktsiya va deduktsiya tushunchalari ham lug'aviy ma'noda lotin tilidan olingan bo'lib, »Inductio» – bilib olmoq, tagiga etmoq, deductio – xabar olish, qaytib ko'rish» degan ma'nolarni anglatib, o'rganish jarayonida tadqiqot obyektining qaysi qismlari bo'yicha yo'nalish lozimligini ko'rsatib beradi. Boshqacha qilib aytganda soliqlarni prognoz qilish va ularning statistikasiga oid tushunchalari va jarayonlarini tushuntirish va o'rganishda uning ayrim qismlarini alohida holda o'rganib, uning asosida umumiy xulosalar chiqarish, hamda umumiy xulosalar(tushunchalar)dan quyi tomonga qarab yo'nalishga asoslanishni bildiradi. Induktsiya va deduktsiya bir-biriga bog'liq bo'ladi va ular o'rganilayotgan tadqiqot obyektini yagona tizim asosida o'rganishga yordam beradi. «Soliq statistikasi va prognozi»fanida mazkur metodlardan foydalanganda soliqlarni prognoz qilish jarayoni va soliq statistikasi tushunchalari va jarayonlarini umumiy yaxlit tizim deb

qarash va ularning quyidan yuqoriga va aksincha tartibda yondoshishni bildiradi. Soliqlarni prognoz qilish jarayoni aslida mikro darajada amalga oshirilib, ular umumiy soliq tushumlarining prognozini ifodalasada, shu bilan birgalikda makroiqtisodiy darajada prognoz qilish jarayoni asosida olingan natijalar tarmoq, sohalar, soliq to'lovchilar va hududlar bo'yicha olingan natijalar bilan solishtirish lozim bo'ladi, bu erda o'rganish jarayoni yuqoridan quyi darajaga qarab yo'naladi. Induktsiya va deduktsiya metodlari turli yo'nalishdagi holatlarni bir-biriga solishtirish imkonini bersa, shu bilan birgalikda olingan natijalarni qaytib tekshirish yoki isbotlashni ifodalaydi. Bu holat esa prognoz uchun muhim sanaladi. Chunki, yuqorida tavsifi keltirilgan abstraktsiya metodini qo'llash jarayonida ayrim ikkinchi darajali deb qaralgan omillar ma'lum bir vaqtdan so'ng ta'sirchan omilga aylanib qolishi mumkin. Induktsiya va deduktsiya metodini qo'llashda esa bunday «nobarqaror omillar» aniqlanadi va ularning ta'siri e'tiborga olinadi.

Sintez va tahlil metodlari. O'rganishning sintez metodi grekcha so'z bo'lib, «σύνθεσις», «synthesis-birlashtirish, bog'lash, joylashtirish, to'ldirish» degan ma'nolarni anglatib, soliqqa oid tushunchalar va munosabatlar o'rganilayotganda ularning chala, etishmayotgan qismlarini to'ldirgan holda, ularni bir butunlikda tushuntirish lozimligini bildiradi. Alohida olingan hudud, soliq to'lovchi yoki tarmoqning soliq to'lash imkoniyatini aniqlamasdan ushbu darajalar bo'yicha soliqlarni prognoz ko'rsatkichlarini aniqlash imkoni bo'lmaydi.

Fanning o'rganish obyektni tahlil jarayonida fikr murakkablikdan oddiylikka, tasodifdan zaruratga qarab, xilma-xillikdan ayniyatga va birlikka qarab harakat qiladi. Tahlil qilishning maqsadi qismlarni, murakkab butunning unsurlari sifatida bilish va ular o'rtasidagi aloqa va qonuniyatlarni aniqlashdan iboratdir. Biroq, tahlil mohiyatni ajratib qarashga olib keladiki, mavhum holda qolayotgan birlik, xilma-xillikdagi birlik sifatida hali ochilmagan bo'ladi. Sintez, aksincha, tahlil vositasi bilan ajratilgan qismlar, xossalar, munosabatlarni yagona bir butunga birlashtirish jarayonidan iborat. Sintez birlikdan tafovutga va xilma-

xillikka qarab yo'naltirilgan bo'lib, umumiylik va ayrimlikni, birlik va xilma-xillikni muayyan jonli butunga birlashtiradi. Tahlil va sintez chambarchas bog'liq holda amal qiladi.

«Soliq statistikasi va prognozi»ni o'rganishda qo'llaniladigan metodlar sirasiga *analogiya metodi* ham kiradi. Analogiya metodi (moslik, o'xshashlik)—o'xshash bo'lmagan obyektlarning ayrim jihatlari, xossalari va munosabatlaridagi o'xshashliklarni aniqlash. Aniqlangan o'xshashlik asosida tegishli analogiya bo'yicha xulosa chiqariladi. Uning umumiy sxemasi: B obyekt a, b, c, d belgilarga ega; C obyekt b, c, d belgilarga ega; binobarin, C obyekt a belgiga ega bo'lishi mumkin. Analogiya haqiqiy emas, balki ehtimoliy bilim beradi. Analogiya bo'yicha xulosa chiqarishda muayyan obyekt («model»)ni ko'rib chiqish natijasida olingan bilim boshqa nisbatan kam o'rganilgan obyektga ko'chiriladi⁴. Ya'ni, iqtisodiy fanlar, jumladan «Soliq statistikasi va prognozi» fanini o'rganishda ayrim olingan tushunchalar va munosabatlarga xos belgilar, uning elementi yoki unga yaqin bo'lgan tushunchalarda takrorlanishi, uchrashi mumkinligi e'tiborga olinadi. Masalan, moliyaviy rejalashtirish, soliqlarni rejalashtirish byudjetni rejalashtirish yoki moliyaviy prognozlashtirish, byudjetni prognozlashtirish, soliqlarni rejalashtirish tushunchalari bir-birlarida uchraydi. Moliyaviy rejalashtirishni aniqlash asosidagina byudjetni rejalashtirish va soliqlarni rejalashtirishning mohiyati ochiladi. O'z navbatida byudjetni rejalashtirish esa soliqlarni rejalashtirish bilan bog'liq bo'ladi va ular o'xshash jarayonlar hisoblanadi. Xuddi shuningdek, korxonalar doirasida soliqlarni rejalashtirish va soliqlarni byudjetlashtirish tushunchalari qo'llaniladi, bir qarashda bu ikkala tushuncha sinonimdek, qaraladi, ammo, iqtisodiy adabiyotlarda ularning o'zaro farqlari ham keltiriladi (bu jarayon keyingi boblarda yoritib beriladi). Bundan ko'rinadiki, analogiya metodi orqali soliqqa oid tushunchalar va munosabatlarni o'rganishda ularning ichki mexanizmlarida uchraydigan aynan va yaqin o'xshashliklarni aniqlash orqali ularning mohiyati tushuniladi hamda

⁴ www.faylasuf.uz/.../256-fan-metodologiyasi.

ularning o'zaro yaqin kategoriyalar ekanligi aniqlanadi. Bu esa o'rganishning keyingi bosqichlarida qo'l keladi.

Barcha fanlarda keng qo'llaniladigan metodlardan biri o'rganishning *mantiqiy metodidir*. Fanlarning predmetini o'rganishda shunday holatlar, faktlar va jarayonlar bo'ladiki, ularni ma'lum bir ko'rsatkich, dalil yoki boshqa bir manba bilan tasdiqlab yoki uning mohiyatini anglab bo'lmaydi, ayni bu holat «Soliq statistikasi va prognozi» fanida ham uchraydi. Chunki, har qaysi darajadagi o'rganishning o'zi mantiqqa asoslanadi. Mantiqiylik metodi bir tomondan o'rganishda ma'lum bir maxsus yondoshuvlar qilinish lozimligi ko'rsatsa, boshqa tomondan ayrim jarayonlarda boshqa metodlar samara bermasligini va faqat ilmiy-nazariy mushohada qilish lozimligi va uning zarurligini ko'rsatib beradi. Bilishga intilish mantiqiy harakat bo'lib, mazkur metod barcha fanlar uchun umumiy metodologik ahamiyat kasb etadi. Soliqlarni prognoz qilish jarayonida turli xil maxsus modellar va metodlar (statistik, matematik, ekonometrik) larni qo'llash bilan birgalikda ayrim holatlar yuzga keladiki, olingan natijalarning qay birining aniqligi darajasini aniqlashda esa albatta mantiqiy metodga asoslanishga to'g'ri keladi. Ilmiy bilishning mantiqiylik metodi iqtisodiy ko'rsatkichlar etarli samara bermaganda yoki ularni qo'llash imkoni bo'lmaganda, jarayonlarning harakatida haddan tashqari stixiyalilik ko'p kuzatilganda, iqtisodiy qonuniyatlar kechishi turlicha kasb etgan va shu kabi holatlarda o'rganishning va xulosa qilishning samarali metod sifatida namoyon bo'ladi.


Shuningdek, soliq turlari bo'yicha soliq tushumlarining prognoz ko'rsatkichlarini aniqlashda esa soliq to'lovchilarning soliq to'lash madaniyati, soliqlardan bo'yin tovlash holati yoki davlat soliq xizmati organlarida ro'yxatda turmaslik, soliqq qarzdorligining oshishi va shu kabi jarayonlarning ta'sirini baholashda esa albatta mantiqiy mushohadalarga asoslanishga to'g'ri keladi.

Albatta, fanlarni o'rganishda o'ziga xos tartibda qo'llaniladigan metodlardan biri sifatida *tarixiylik metodi* ham amal qiladi. Bu metod o'z-o'zidan ko'rinadiki, hodisa, jarayonlar va voqeyiliklarning mohiyatini

o'rganishda ularning tarixiy amal qilish holatlariga asoslanadi. Soliqlarni prognoz qilish jarayonining amalga oshirila boshlanishi, unga zaruriy omillarning yuzaga kelishi, unda qo'llaniladigan modellar va metodlarning turlarining yaratilishi va ularning samara berish darajasi, turli xil davrlarga oid prognoz ko'rsatkichlari ma'lumotlari va shu kabilarga ega bo'lishda esa tarixiylik metodi yordam beradi. Prognoz jarayonida qo'llaniladigan ekstrapolatsiya metodlaridan eng ko'p tarqalgan metodlar sifatida trend qatorlari metodida esa aynan o'rganilayotgan ko'rsatkichning o'zidan oldingi qatorning avvalgi davrdagi holatini e'tiborga olgan holda tahlil amalga oshiriladi, trend metodining mohiyati esa tarixiylikka asoslanadi (qator ko'rsatkichining avvalgi davrdagi holatiga asoslanadi).

Tarixiylik yondoshuv asosida esa soliqlarni prognoz qilishga oid kategoriya va munosabatlarning o'zgarish tendentsiyalari aniqlanadi, ulardan qaysi vaqtlarda qanday foydalanilganligi va ular qanday samara berganligini tahlil qilish imkoniyati tug'iladi.

«Soliq statistikasi va prognozi» fanining predmetini o'rganishning asosiy metodlaridan biri *modellash tirish metodi* hisoblanadi. Modellash tirish metodi fan predmetini o'rganishning keyingi zamonaviy metodlaridan biri hisoblanib, fan doirasida turli xil tahlillar va murakkab hodisalarni ularning turli xil komponentlarini birgalikda o'rganishda eng ko'p samaraga ega metod sanaladi. Aslini olganda soliqlarni prognoz qilish jarayonining o'zi modellash tirish jarayonidan iborat. Modellash tirish asosan modellarga asoslanadi. Ya'ni o'rganilayotgan jarayonning modeli ishlab chiqilib, u modellash tiriladi. Masalan, soliqlarni prognoz qilish jarayonida makroiqtisodiy modellar, mikroimatatsion modellar, ekstrapolatsiya modellar va shu kabi modellardan keng foydalaniladi. Ushbu modellarni qo'llash orqali soliqlarni prognoz qilishda turli xil ko'rsatkichlar ma'lum bir tartibda joylashtirilgan holda maqsadga qaratilgan natijalarga erishish mumkin bo'ladi (bu haqda keyingi boblarda batafsil to'xtalib o'tiladi).



Yuqorida qayd etib o'tilganlardan tashqari yana ilmiy bilishning boshqa metodlari ham mavjudki. «Soliq statistikasi va prognozi» fanining predmetini o'rganishda ularning u yoki bu turidan ma'lum bir darajalarda foydalaniladi.

1.3. «Soliq statistikasi va prognozi» fanining boshqa fanlar bilan aloqasi

«Soliq statistikasi va prognozi» fani o'z o'rganish predmetini boshqa bir qator aniq, ijtimoiy va iqtisodiy fanlar bilan birgalikda o'rganadi va ular bilan bog'liq bo'ladi. Albatta iqtisodiy fanlar uchun umumiy metodologik fan sifatida xizmat qiladigan «Iqtisodiyot nazariyasi» fani bilan umumiy iqtisodiy holatlarni birgalikda o'rgansa, «Iqtisodiy ta'limotlar tarixi», «Iqtisodiy tarix» kabi fanlar bilan birgalikda soliqlarni prognoz qilish jarayoni bilan bog'liq nazariy qarashlar, g'oyalarni hamda soliqlarni prognoz qilish jarayonining turli davrlarda qanday rivojlanganlik holatlari o'rganiladi.

«Soliq statistikasi va prognozi» fani shuningdek, makroiqtisodiy jarayonlarni o'rganuvchi «Makroiqtisodiyot», ijtimoiy-iqtisodiy rejalashtirishni tadqiq etuvchi «Iqtisodiy rejalashtirish» kabi fanlar juda bog'lanadi. Soliqlarni prognoz qilish jarayonida eng muhim bosqichlardan bir bu uni amalga oshirishda qo'llaniladigan modellar va metodlarni aniqlash va ulardan unumli foydalanish hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlar metodologiyasida model va metodlar ilmiy bilishning muhim quroli sifatida qayd etiladi. Prognozda qo'llaniladigan makroiqtisodiy modellarni ekonometrik (tarkibsiz) va gibridli(tarkibli) guruhlarga ajratiladi. Ekonometrik modellar davlatning iqtisodiy siyosatini qiyosiy tahlil qilishga mo'ljallanmagan bo'ladi. Gibridi modellar esa o'rta va uzoq muddatli iqtisodiy muvozanatni modellashtirishga xizmat qilib iqtisodiy islohotlarning oqibatlarini tahlil qilishda ahamiyatlidir. Ushbu ikkala modellarning o'xshashligi shundaki, iqtisodiy nazariyalarga asoslanadi davlatning iqtisodiy siyosatining stsenariyalarini ishlab chiqishga xizmat


qiladi. Gibridli makroiqtisodiy modellar makroiqtisodiy nazariyalarga asoslangan holda iqtisodiy jarayonlarning afzallik jihatlari alohida olingan statistik metodlar orqali aralashtirilib, ular ma'lum bir o'lechlarga keltiriladi, bunda esa eng muhim iqtisodiy indikatorlar(masalan, yalpi ichki mahsulot, investitsiya, iste'mol darajasi v sh.k.) asosiy mezon sifatida olinadi. Biroq, alohida olingan parametrlar makroiqtisodiy tahlillarga asoslangan holda ularning dinamik jarayonini o'rganish qiyin, shu sababli ekonometrik metodlardan foydalaniladi. Bu esa makroiqtisodiy modellarni ikki turga bo'linishiga olib keldi. Ushbu modellarda asosan statistik qonuniyatlarga asoslanib, o'zaro bog'liqlikdagi parametrlarning qaysi biri ko'proq ta'sirchan xususiyatga ega bo'lishiga alohida urg'u beriladi. Ekonometrik modellar esa ko'proq qisqa muddatli makroiqtisodiy prognozlashtirishda ko'proq samara beradi. Statistik metodlar va hisoblash texnikalarning takomilashib borishi ekonometrik modellarning afzalliklarini ko'rsatib bermoqda. Bundan ko'rinadiki, «Soliq statistikasi va prognozi» fani «Makroiqtisodiyot», «Ekonometrika» va «Statistika» kabi fanlar bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. «Soliq statistikasi va prognozi» fanining «Statistika» fani bilan bog'liqligi yana shu narsalarda ko'rinadiki, soliq to'lovchilar va soliq obyektlarini hisobga olish, turli darajadagi byudjetlarga soliq tushumlarini kelib tushish jarayonlarini ham miqdor jihatdan ham sifat jihatidan hisobga olishda statistikaning umumiy tamoyillaridan foydalaniladi. Ayni bu jarayonlarda, ya'ni soliq tushumlarining byudjetga kelib tushish jarayoni esa banklar orqali amalga oshiriladiki, bunda «Soliq statistikasi va prognozi» fani «Bank ishi» fani bilan o'zaro bog'liqlikda bo'ladi.

O'z navbatida byudjetni rejalashtirish va soliqlarni rejalashtirish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlarini esa albatta «Iqtisodiy rejalashtirish» fani bilan birgalikda o'rganadi. Chunki, mazmunan olib qaralgan soliqlarni rejalashtirish va prognozlashtirish jarayonlari mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning prognoz ko'rsatkichlarining bir bo'lagi hisoblanadi. Makroiqtisodiy rejalashtirish va

2-BOB. SOLIQ TUSHUMLARI HISOBI VA UNI TASHKIL ETISH

2.1. Soliq statistikasi va uning mohiyati

Soliq tizimining muhim tarkibiy qismini soliq statistikasi tashkil etadi. Soliq statistikasi mazmunan va tashkiliy jihatdan statistikaning umumiy qonuniyatlari, metodlari va tashkiliy mexanizmlariga asoslanishi bilan bir qatorda soliq mexanizmining asosiy tamoyillariga asoslandi, ya'ni soliq statistikasi soliq to'lovchilar va soliq tushumlarining yuzaga kelish va amal qilish jarayonlarini boshqa moliyaviy munosabatlar bilan bog'liq holda uni ham miqdor va sifat ko'rsatkichlar asosida hisobga olib boradi. Shu jihatdan olganda soliq statistikasining asosida soliqqa oid munosabatlarni ham miqdor ham sifat jihatdan hisobga oladi va hisob tizimida o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Shu jihatdan olganda *soliq statistikasi deganda soliq tizimida soliq to'lovchilar, soliq obyektlarining yuzaga kelishi, ularni hisobga olish, turli darajadagi byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisobga olish hamda soliq to'lovchilar(soliq obyektlari) va soliq tushumlarini hisobga olishda tegishli vakolatli organlar o'rtasidagi munosabatlar yig'indisi tushuniladi.* Soliq stasistikasi quyidagi tarkibga ega bo'ladi:



2-rasm. Soliq statisikasining tarkibiy tuzilishi.

Soliq statistikasi soliq tizimi va boshqa iqtisodiy munosabatlar doirasida bir qator vazifalarni bajaradi. Uning bu vazifalari davlat statistikasining asosiy vazifalari hamda uning tarkibiga kiruvchi munosabatlarning mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Shunga ko'ra soliq statistikasi quyidagi vazifalarni bajaradi:

➤ Soliq to'lovchilar va soliq obyektlarining yuzaga kelish jarayonlarini hisobga olish;

➤ soliq tushumlarining turli darajadagi byudjetlarga kelib tushishining uzluksiz hisobini olib borish;

➤ soliq, moliya, bank, statistika va boshqa tegishli vakolatli organlar o'rtasida soliq to'lovchilar, soliq obyektlari va soliq tushumlarini hisobga olish bilan bog'liq o'zaro iqtisodiy-huquqiy munosabatlarga oid ma'lumotlarni muvofiqlashtirish;

➤ soliq to'lovchilar, obyektlar va tushumlarga oid jarayonlar hamda ularning natijalari to'g'risidagi statistika ma'lumotlarini yig'ish, qayta ishlash, to'plash, saqlash, umumlashtirish, tahlil etish va tegishli tartibda undan foydalanuvchilarga tadqim qilish;

➤ davlat organlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, yuridik shaxslar, davlat muassasalari va xalqaro tashkilotlarni, shuningdek jamoatchilikni belgilangan tartibda soliq statistikasi ma'lumotlari bilan ta'minlash;

➤ statistika ishlarini tashkil etish uchun zarur bo'lgan iqtisodiy-statistika tasniflagichlar tizimidan foydalanishi va shu kabilar.

Soliq statistikasi mohiyati jihatdan Davlat statistikasining asosiy tamoyillari: ishonchlilik, xolislik, beg'arazlik; dolzarblik, qiyosiylik va barqarorlik; qulaylik, ochiq-oydinlik va oshkoralik; statistika hisobotini yig'ish, qayta ishlash va umumlashtirish tartibiga har qanday aralashishni istisno etuvchi soliq statistikasi ishlarini tashkil etish tizimini yaratish kabi tamoyillariga asoslanadi.

Davlat soliq xizmati organlarida soliq statistikasi ishlarini tashkil qilish Davlat soliq qo'mitasida «Byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalarga to'lovlarni tahlil qilish va prognozlash boshqarmasi»,

viloyat Davlat soliq boshqarmalari va tuman(shahar) Davlat soliq inspeksiyalarida esa «Soliq va majburiy to'lov tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limi» hamda «Buxgalteriya hisobi va butlash bo'limi» tomonidan amalga oshiriladi, shuningdek, ushbu bo'linmalar mutaxassisleri tomonidan soliq va majburiy to'lovlar tushumi bo'yicha tahlil ishlari bilan birga soliqlarni prognoz qilish jarayoni ham amalga oshiriladi. Soliq statistikasini tashkil qilish va uni amalga oshirishda statistikaning metodlaridan ham keng foydalaniladi. Bunda variatsiyalar, tanlanma kuzatish, statistik kuzatishlar va shu kabilar asosiy rol o'ynaydi.

Soliq statistikasini amalga oshirishda uni amalga oshiruvchilar tomonidan statistikaning turli xil metodlaridan foydalanishda ulardagi mavjud ma'lumotlarga hamda statistik kuzatuvlar asosida olingan axborotlarga tayaniladi. Bunda davlat statistika kuzatuvlari soliq, moliya va bank tizimi hamda iqtisodiyotda soliqlar bilan bog'liq sodir bo'layotgan hodisalar hamda jarayonlar to'g'risidagi statistika ma'lumotlarini muntazam ravishda yig'ib borishdan iborat bo'lib, ular birlamchi hisob hujjatlari asosida va bevosita kuzatuvlar yo'li bilan o'tkaziladi. Soliq statistikasi ma'lumotlari to'liq, xolis, ishonchli bo'lishi hamda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, banklar, boshqa yuridik shaxslar (zarur hollarda ularning vakolatxonalari va filiallari), jismoniy shaxslar, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan davlat statistikasi vakolatli organi tasdiqlagan muddatlarda va davlat statistika kuzatuvlari shakllari bo'yicha taqdim etiladi. Davlat statistika kuzatuvlarining shakllari bo'yicha statistika ma'lumotlari qonun hujjatlariga muvofiq qog'ozda yoki elektron shaklda taqdim etilishi mumkin. Buxgalteriya hisobi, moliyaviy va boshqa hisobotlarni tartibga soluvchi, qonun hujjatlari bilan belgilangan normalar statistika hujjatlarini to'ldirish (statistika ko'rsatkichlari hisobi) uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Statistika ma'lumotlaridan davlat manfaatlarini ko'zlab va ilmiy maqsadlarda, jamoatchilikni

xabardor etish, bunday ma'lumotlardan foydalanuvchilarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash uchun foydalaniladi.

2.2. Soliq to'lovchilarning hisobini tashkil etish tartibi

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq ruhsat etiladigan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tish talab etiladi. Buning uchun ular belgilangan tartib asosida ta'sis hujjatlarini tegishli davlat ro'yxatidan o'tkazish vakolati berilgan organlarga murojaat qiladi. Bunday vakolatli organlar jumlasiga O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyat adliya boshqarmalari, tumanlar (shaharlar) hokimliklari huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish inspeksiyalari kiradi. Tartibga ko'ra auditorlik tashkilotlar, sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlari, birjalar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining tegishli qarorlari bilan aksiyadorlik kompaniyalari (shu jumladan davlat-aksiyadorlik kompaniyalar va xoldinglar) shaklida tashkil etilayotgan xo'jalik boshqaruvi organlari, shuningdek xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar va Toshkent shahrida tashkil etiladigan bozorlar va soliq maslahatchilari tashkilotlari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa tashkilotlar — O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan; xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar va tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda tashkil etiladigan bozorlar va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa tashkilotlar — Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar adliya boshqarmalari tomonidan; barcha tadbirkorlik subyektlari, shu jumladan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar, tumanlar va shaharlar hokimliklari huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish inspeksiyalari tomonidan amalga oshiriladi.

Soliq nazoratini amalga oshirish maqsadida yuridik va jismoniy shaxslar soliq organlarida hisobga qo'yilishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidentlarini hisobga qo‘yish Soliq kodeksi u yoki bu soliqni to‘lash majburiyatining paydo bo‘lishini bog‘laydigan holatlar mavjudligidan qat’i nazar amalga oshiriladi.

Soliq organlarida hisobga qo‘yish va hisobdan chiqarish bepul amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslarni soliq organlarida soliq to‘lovchi sifatida hisobga qo‘yish ularga vakolatli organ tomonidan identifikatsiyalovchi ID-kartalarni yoki jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqamini berish bilan bir vaqtda amalga oshiriladi. Bunda soliq to‘lovchi hisobga qo‘yilganligini tasdiqlovchi alohida hujjat berilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxsini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish chog‘ida u bir vaqtning o‘zida soliq organlarida va davlat statistika organlarida hisobga qo‘yilgan holda berilgan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganlik to‘g‘risidagi guvohnoma soliq to‘lovchining hisobga qo‘yilganligini tasdiqlovchi hujjatdir.

Chet davlatlarning qonunchiligiga muvofiq tashkil etilgan chet el yuridik shaxslariga (shu jumladan kompaniyalar va boshqa korporativ tuzilmalarga) berilgan soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami to‘g‘risidagi guvohnoma soliq to‘lovchining ro‘yxatdan o‘tkazilganligini tasdiqlovchi hujjatdir⁵.

Soliq to‘lovchilarni hisobga olish ma‘lumotlari asosida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi O‘zbekiston Respublikasi soliq to‘lovchilarining yagona reestrini yuritadi.

O‘zbekiston Respublikasi soliq to‘lovchilarining yagona reestrda mavjud bo‘lgan ma‘lumotlarning tarkibi hamda reestrni yuritish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilanadi.

Ichki ishlar organlari identifikatsiyalovchi ID-kartalar berilganligi, shu jumladan yo‘qotilgan yoki amal qilish muddati o‘tgan pasportlar yoki identifikatsiyalovchi ID-kartalar o‘rniga identifikatsiyalovchi ID-kartalar

⁵ O‘zbekiston Respublikasining 2022 yil 14 martdagi O‘RQ-759-sonli Qonuniga asosan to‘rtinchi — oltinchi qismlar bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi. 14.03.2022 y., 03/22/759/0213-son

berilganligi faktlari to'g'risida, bekor qilingan pasportlar yoki identifikatsiyalovchi ID-kartalar haqida o'zlari joylashgan joydagi soliq organlariga har oyda xabar berib borishi, shuningdek turar joyni ijaraga olish (ijaraga berish) shartnomasi, tekin foydalanishga berish shartnomasi mavjud emasligi yoki ijaraga olish (ijaraga berish) shartnomasining soliq organlarida majburiy hisobga qo'yilishiga rioya etilmaganligi bo'yicha aniqlangan faktlar to'g'risida o'zlari joylashgan joydagi soliq organlariga uch kun ichida xabar berishi shart.

Yuridik va jismoniy shaxslarni Soliq kodeksning 128-moddasida nazarda tutilgan tartibda olinadigan ma'lumotlar asosida soliq organlarida hisobga olish, agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, soliq organlari tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

Soliq organlari o'zlaridagi mavjud ma'lumotlar asosida soliq to'lovchilar hisobga olinishini (hisobdan chiqarilishini) va soliq to'lovchilar to'g'risida ma'lumotlar hisobi yuritilishini ta'minlashi shart.

O'zbekiston Respublikasi soliq to'lovchilarining yagona reestrda mavjud bo'lgan ma'lumotlar asosida soliq organlarida hisobga qo'yish quyidagilarga nisbatan amalga oshiriladi:

1) yuridik shaxs o'zi joylashgan erida, filiali va (yoki) vakolatxonasi joylashgan erida;

2) chet el notijorat nohukumat tashkilotining o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi hududida bo'linmasi orqali amalga oshirish joyida;

3) yakka tartibdagi tadbirkor O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan ro'yxatga muvofiq tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish joyida yoki o'z yashash joyida.

Faoliyatini boshqa alohida bo'linmalar orqali amalga oshirish chog'ida chet el yuridik shaxsini hisobga qo'yish, agar ushbu moddaning uchinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, hisobga qo'yish to'g'risidagi ariza asosida amalga oshiriladi. Chet el yuridik

shaxsini soliq organlarida hisobdan chiqarish xuddi shunday tartibda amalga oshiriladi.

Hisobga qo'yish to'g'risidagi ariza chet el yuridik shaxsi tomonidan u O'zbekiston Respublikasi hududida o'z faoliyatini boshlagan kundan e'tiboran o'ttiz kalendar kundan kechiktirmay soliq organiga beriladi. Hisobdan chiqarish to'g'risidagi ariza bunday shaxs tomonidan u O'zbekiston Respublikasi hududida o'z faoliyatini tugallagan kundan e'tiboran o'n besh kalendar kundan kechiktirmay beriladi.

Hisobga qo'yish (hisobdan chiqarish) to'g'risidagi ariza berilayotganda chet el yuridik shaxsi mazkur ariza bilan bir vaqtning o'zida soliq organiga hisobga qo'yish (hisobdan chiqarish) uchun zarur bo'lgan hujjatlarni taqdim etadi. Bunday hujjatlarning ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

Chet el yuridik shaxsni O'zbekiston Respublikasining soliq rezidenti sifatida soliq organida hisobga qo'yish (hisobdan chiqarish) soliq organi tomonidan bunday chet el yuridik shaxsining o'zini O'zbekiston Respublikasining soliq rezidenti deb e'tirof etishi to'g'risidagi (O'zbekiston Respublikasining soliq rezidenti maqomidan voz kechishi haqidagi) arizasi asosida amalga oshiriladi.

Soliq organida avval ko'rsatilgan asoslar bo'yicha hisobdan chiqarilgan chet el yuridik shaxsini hisobga qo'yish soliq organi tomonidan hisobga olish to'g'risidagi ariza va ushbu moddaning o'n uchinchi qismida ko'rsatilgan hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

Ushbu modda o'n uchinchi — o'n oltinchi qismlarining qoidalari mazkur xizmatlarni elektron shaklda ko'rsatuvchi yoki bunday xizmatlarni bevosita vositachi sifatida o'zining O'zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasasi orqali ko'rsatuvchi chet el yuridik shaxslariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Yakka tartibdagi tadbirkor bo'lmagan jismoniy shaxslarni soliq organlarida hisobga qo'yish Soliq kodeksning 133-moddasida ko'rsatilgan organlar taqdim etadigan ma'lumot yoki jismoniy shaxsning

arizasi asosida mazkur jismoniy shaxsning yashash joyidagi soliq organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Yashash joyi soliq solish maqsadlari uchun jismoniy shaxsning turgan joyi bo'yicha aniqlanadigan jismoniy shaxslar o'zi turgan joydagi soliq organiga soliq organlarida hisobga qo'yish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilishga haqli.

Soliq to'lovchida hisobga qo'yish joyini aniqlash xususida qiyinchiliklar yuzaga kelgan taqdirda, qaror u taqdim etgan ma'lumotlar asosida soliq organi tomonidan qabul qilinadi.

Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ tomonidan yuridik shaxsni tashkil etgan barcha tadbirkorlik subyektlarining davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi haqidagi ma'lumotlar «Yuridik shaxslarning Davlat reestri»ga kiritiladi. Yakka tartibdagi tadbirkorlarni, yuridik shaxs bo'lmagan dehqon xo'jaliklarini va yuridik shaxs bo'lmagan oilaviy tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risidagi ma'lumotlar tegishli reestrlarga ya'ni, «Yakka tartibdagi tadbirkorlarning davlat reestri», «Yuridik shaxs bo'lmasdan tashkil etilgan dehqon xo'jaliklarining davlat reestri», «Yuridik shaxs bo'lmagan oilaviy tadbirkorlik subyektlarining davlat reestri»lariga muvofiq shakllar bo'yicha kiritiladi.

Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ tadbirkorlik subyektiga Davlat soliq qo'mitasi va Davlat statistika qo'mitasining tegishli idoraviy saytlaridan foydalanib real vaqt rejimida internet tarmog'idan olingan soliq to'lovchilar identifikatsiya raqamlarini (STIR) va korxonalar va tashkilotlarning umumdavlat tasniflagichi (KTUT) kodlarini beradi. Yuridik shaxslarga korxonalar va tashkilotlarning umumdavlat tasniflagichi kodlarini xos raqami berilganidan keyin, ro'yxatdan o'tkazuvchi organ elektron pochta aloqasi orqali yuridik shaxs tomonidan arizalar ko'rsatilgan pochta manzilidagi davlat soliq xizmati organlariga STIR berish uchun belgilangan shaklda ushbu organ mansabdor shaxsining elektron imzosi bilan tasdiqlangan so'rovnomalarni yuboradi(so'rovnomalalar shakli quyida keltirilmoqda).

Elektron pochta aloqasi mavjud bo'lmagan hollarda STIR berish uchun so'rovnoma faksimil aloqa orqali yuboriladi. Bunda STIR berish va uni ro'yxatdan o'tkazuvchi organga yuborish vaqti sakkiz ish soatidan oshmasligi lozim. Davlat soliq xizmati organi ro'yxatdan o'tkazuvchi organ tomonidan tadbirkorlik subyektlariga STIR berish uchun yuborilgan so'rovnomaning belgilangan shaklga mos kelmasligini yoki xato va kamchiliklar bilan to'ldirilganligini aniqlasa, ro'yxatdan o'tkazuvchi organga ushbu so'rovnomaning qayta ishlash uchun bir ish soati ichida yuboradi. Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ tomonidan qayta ishlash uchun yuborilgan so'rovnomadagi kamchiliklarni tuzatish uchun ketgan vaqt davlat soliq xizmati organi tomonidan STIR berish uchun belgilangan sakkiz ish soatiga kirmaydi. So'rovnomadagi kamchiliklar tuzatilib, davlat soliq xizmati organiga qayta yuborilganda, yangidan yuborilgan so'rovnoma deb hisoblanadi.

Ro'yxatdan o'tkazuvchi organdan elektron pochta yoki faksimil aloqa orqali so'rovnomalarning kelgan vaqtini qayd etish maqsadida davlat soliq xizmati organlarining tegishli bo'limlarida quyida keltirilgan shakllardagi «Yuridik shaxslarga STIR berish va ularni davlat soliq xizmati organlarida hisobga olishni monitoring qilish» va «Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkor va yuridik shaxs bo'lmagan tashkil etilgan dehqon xo'jaligiga STIR berish va ularni davlat soliq xizmati organlarida hisobga olishni monitoring qilish» jurnallar yuritiladi.

1-javdal.

Faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshiradigan chet el yuridik shaxsini soliq organida hisobga qo'yish to'g'risida

ARIZA

№	Yuridik shaxs nomi		So' rovnomaning uzatilgan		So' rovnoma yuborish shakli		So' rovnomani qayta ishlash uchun qaytarilgan sana, vaqti va sababi	Tadbirkorlik subyektiga STIR berish uchun DSQga yuborilgan sanasi va vaqti	DSQ tomonidan STIR berildi		Ro' yxatga oluvchi organga Ma' lumotnoma yuborilgan sana va vaqt	Belgilangan 8 ish soatidan ortiq muddatda STIR berishining sababi
	1	2	3	4	5	6			7	8		
			raqami	sanasi va vaqti	Elektron hujjat	faksimil			STIR raqami	vaqti va sanasi		

2-jadval.

Faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshiradigan chet el yuridik shaxsini soliq organida hisobga qo'yish to'g'risida

№	Jismoniy shaxs nomi		So' rovnomaning uzatilgan		So' rovnoma yuborish shakli		So' rovnomani qayta ishlash uchun qaytarilgan sana, vaqti va sababi	Tadbirkorlik subyektiga STIR berish uchun	DSQ tomonidan STIR berildi		Ro' yxatga oluvchi organga Ma' lumotnoma	Belgilangan 8 ish soatidan ortiq muddatda STIR berishining sababi
	1	2	3	4	5	6			7	8		
			raqami	sanasi va vaqti	Elektron hujjat	faksimil			STIR raqami	vaqti va sanasi		

Jurnallar tikilgan, raqamlangan, sanasi ko'rsatilib, mansabdor shaxsning imzosi bilan tasdiqlangan hamda muhrlangan bo'lishi, ro'yxatdan o'tkazuvchi hamda davlat soliq xizmati organlarida texnik talablarga javob beradigan kompyuter va faks o'rnatilgan bo'lishi lozim. Tadbirkorlik subyektlariga STIR berish uchun yuborilgan so'rovnoma davlat soliq xizmati organlarining tegishli bo'linmasida alohida elektron manzilga ega bo'lgan kompyuterda qabul qilib olinadi. Elektron hujjatlarda taqdim etilayotgan so'rovnomalardagi ma'lumotlarning himoyasini ta'minlash maqsadida, elektron hujjat aylanishining ishtirokchilari tomonidan kriptografiya himoya vositalari qo'llaniladi. Davlat soliq xizmati organlari belgilangan shakllardagi so'rovnomalarni qabul qilib olgach, aniq vaqt rejimida soliq to'lovchilarning identifikatsion raqamlari markazlashtirilgan bazasi orqali tadbirkorlik subyektiga STIR beradi. Tadbirkorlik subyektlariga STIR berilgandan keyin, davlat soliq xizmati organlari ro'yxatdan o'tkazuvchi organlarga tadbirkorlik subyektiga STIR berilganligi to'g'risidagi ma'lumotnomani elektron pochta orqali yuboradi.

Soliq to'lovchilar identifikatsiya raqamlarining soliq tizimidagi ahamiyati shundaki, u orqali O'zbekiston Respublikasi soliq to'lovchilarining identifikatsiya raqamlari yagona reestrini shakllantirish, soliq to'lovchilarni hisobga olishni tartibga solish, soliqlarning byudjetga tushishini hisobga olish va davlat soliq xizmati organlarining o'zaro hamkorligi bo'yicha ma'lumotlarni kompyuterda ishlashni joriy etish, soliq qonunchiligiga rioya etilishi bo'yicha axborotlarning yaxlitligi va ishonchiligi ko'p tomonlama tekshirilishi va nazorat qilinishini tashkil etish, davlat soliq xizmati organlari bilan davlat hokimiyati va boshqaruvining boshqa organlari, tijorat banklari va moliyaviy, shuningdek ko'char va ko'chmas mulk bo'yicha operatsiyalarni amalga oshiruvchi boshqa tashkilotlar o'rtasida axborot ayirboshlashni birxillashtirish, xo'jalik yurituvchi subyektlar, shu jumladan jismoniy shaxslar tomonidan daromadlar, to'langan soliqlar, ijtimoiy va boshqa sug'urtalar

bo'yicha davlat jamg'armalariga to'lovlarni hisobga olishni bixillash-tirish imkoniyatini beradi.

Ro'yxatdan o'tkazuvchi organlar davlat ro'yxatidan o'tkazish amalga oshirilgan kundan boshlab bir kun mobaynida tadbirkorlik subyekti joylashgan joy bo'yicha davlat reestridan olingan uning to'g'risidagi ma'lumotlarni «Statistika va soliq organlariga taqdim etish uchun zarur bo'lgan tadbirkorlik subyektlari to'g'risidagi ma'lumot-lar»ga muvofiq shakl bo'yicha: yuridik shaxslar bo'yicha — statistika va soliq organlariga, aktsiyadorlik jamiyatlari hisoblangan yuridik shaxslar bo'yicha esa, shuningdek qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organiga va yuridik shaxs bo'lmagan yakka tadbirkorlar, yuridik shaxs bo'lmagan dehqon xo'jaliklarini va yuridik shaxs bo'lmagan oilaviy tadbirkorlik subyektlari bo'yicha soliq organiga rasman taqdim etadilar. Soliq xizmati organlari — yuridik shaxsni, yakka tartibdagi tadbirkorni, yuridik shaxs bo'lmasdan tashkil etilgan dehqon xo'jaligini yuridik shaxs bo'lmasdan tashkil etilgan oilaviy tadbirkorlik subyektini, shu jumladan byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga, ish bilan ta'minlash jamg'armasi va yo'l jamg'armasiga (tegishli jamg'armalarga badal to'lovchilar hisoblangan subyektlar uchun) sug'urta badallari to'lovchi sifatida (yuridik shaxs bo'lmasdan tashkil etilgan dehqon xo'jaliklaridan tashqari) hisobga qo'yadi. Davlat statistika organlari — ro'yxatdan o'tkazuvchi organ tomonidan berilgan statistika kodlarini tekshiradi va yuridik shaxsni Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registriga kiritadi.

Zarur ro'yxatdan o'tkazish va ruxsat berish tartib-qoidalari tugagandan keyin ro'yxatdan o'tkazuvchi organ belgilangan muddatda: tadbirkorlik subyektlari — yuridik shaxslarga «Yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida guvohnoma»ni va «ro'yxatdan o'tkazildi» degan belgi qo'yilgan ta'sis hujjatlarini, ro'yxatdan o'tkazuvchi organning muhri bilan tasdiqlangan muhr va shtamp eskizini beradi. Yakka tartibdagi tadbirkorga va yuridik shaxs bo'lmasdan tashkil etiladigan dehqon xo'jaliklariga esa «Yakka tartibdagi tadbirkor (yuridik

shaxs bo'lmagan tashkilotning dehqon xo'jaligi)ni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida guvohnoma»ni, shuningdek ro'yxatdan o'tkazuvchi organning muhri bilan tasdiqlangan (ularning xohishiga ko'ra) muhr va shtamp eskizini beradi. Yuridik shaxs bo'lmagan oilaviy tadbirkorlik subyektlariga esa «Yakka tartibdagi tadbirkorni (yuridik shaxs bo'lmagan oilaviy tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida guvohnoma»ni, shuningdek ro'yxatdan o'tkazuvchi organning muhri bilan tasdiqlangan (ularning xohishiga ko'ra) muhr va shtamp eskizini beradi.

Agar, tadbirkorlik subyektlari — yuridik shaxslarning ta'sis hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan taqdirda tadbirkorlik subyektining vakolatli boshqaruv organi tomonidan tegishli qaror qabul qilingan paytdan boshlab 1 oy mobaynida ularni ro'yxatdan o'tkazgan organga o'zlari kelgan holda, pochta aloqasi vositasida yoki Internet tarmog'i orqali quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

ariza;

tadbirkorlik subyektining vakolatli boshqaruv organining ta'sis hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qarori;

o'zgartirish va qo'shimchalar matnining vakolatli shaxs tomonidan imzolangan va tadbirkorlik subyektini muhri bilan tasdiqlangan ikki nusxasi;

nomi o'zgargan taqdirda — davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik haqidagi guvohnomaning asl nusxasi va firma nomining zaxiraga olinishi tasdig'i, almashtiriladigan muhr va shtamp, shuningdek yangi muhr va shtampning ikki nusxadagi eskizi;

davlat boji belgilangan miqdori to'langanligi haqida bank to'lovi hujjati;

ustav fondining miqdori ko'paytirilgan taqdirda — tadbirkorlik subyektini vakolatli organining ta'sis hujjatlarida e'lon qilingan ustav fondi miqdorining shakllantirilganligi haqidagi hujjat, shuningdek mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar uchun-ishtirokchi hissasining to'liq kiritilganligi haqida jamiyat tomonidan jamiyat

ishtirokchisiga berilgan guvoohnoma nusxasi hamda jamiyat ishtirokchilari tomonidan qo'shimcha hissalar va uchinchi shaxslar tomonidan hissalar to'liq miqdorda qo'shilganligini tasdiqlovchi hujjatlar;

ustav fondi kamaytirilgan taqdirda — ularga ma'lum bo'lgan barcha kreditorlar ustav fondi miqdori kamaytirilishi va uning yangi miqdori haqida yozma ravishda xabardor etilganligini va ommaviy axborot vositalarida qabul qilingan qaror haqida axborot e'lon qilinganligining tasdig'i (ularga ma'lum barcha kreditorlar ustav fondi miqdori kamaytirilishi va uning yangi miqdori haqida yozma ravishda xabardor etilgan va ommaviy axborot vositalarida qabul qilingandan keyin bir hafta muddatda taqdim qilinadi);

ulush (hissa) yoki aktsiya boshqaga o'tgan taqdirda — ushbu ulush (hissa) yoki aktsiyaning boshqaga o'tganligini tasdiqlovchi hujjat (shartnoma, xat va shu kabilar).

Tadbirkorlik subyektlari o'z pochta manzili o'zgartirgan taqdirda o'n kun muddatda bu haqda ro'yxatdan o'tkazuvchi organlarni yozma ravishda xabardor qilishlari shart. Bunda davlat boji olinmaydi. Ro'yxatdan o'tkazuvchi organlar xabarnomani olgandan boshlab ikki kun muddatda ushbu o'zgarish haqida davlat soliq xizmati va davlat statistika organlarini xabardor qiladi. Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat reestriga o'zgartirish kiritishni taqozo etuvchi tadbirkorlik subyekti — yuridik shaxsning faoliyati turi va unda ishlovchilarning o'rtacha yillik soni o'zgarsa davlat statistika organlari tadbirkorlik subyektini jalb qilmagan holda qonunchilikka muvofiq holda taqdim qilinadigan yillik statistik hisobotlar asosida tegishli o'zgartirishlar kiritadi va bu haqda ro'yxatdan o'tkazuvchi organlar, davlat soliq xizmati organlari hamda tadbirkorlik subyektini xabardor qiladi.

Yakka tartibdagi tadbirkor unga berilgan davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik haqidagi guvoohnomada ko'rsatilgan faoliyat joyi o'zgartirgan taqdirda, o'n kun muddatda bu haqda ro'yxatdan o'tkazuvchi organlarni yozma ravishda xabardor qiladi. Ro'yxatdan o'tkazuvchi organlar xabarnomani olgan paytdan boshlab ikki kun muddatda ushbu

o'zgarish haqida davlat soliq xizmati organlarini xabardor qiladi. Ro'yxatdan o'tkazuvchi va davlat soliq xizmati organlari ko'rsatib o'tilgan axborotni olganlaridan keyin uch kun muddatda yakka tartibdagi tadbirkorni ro'yxatdan o'tkazish va hisobga qo'yish hujjatlariga kiritilgan o'zgartirishlar haqida yozma ravishda xabar berishlari lozim. Yuridik shaxs bo'lmagan oilaviy tadbirkorlik subyekti nomidan ish ko'ruvchi yakka tartibdagi tadbirkor davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida unga berilgan guvohnomada ko'rsatilgan yuridik shaxs bo'lmagan oilaviy tadbirkorlik subyekti qatnashchilari tarkibi o'zgartirish taqdirda o'n kun muddatda bu haqda ro'yxatdan o'tkazuvchi organi yozma ravishda xabardor qiladi. Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ xabarnoma olingan paytdan boshlab ikki kun muddatda ushbu o'zgarishlar to'g'risida davlat soliq xizmati organlariga xabar qiladi, tegishli davlat reestrlariga o'zgartirishlar kiritadi, davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risidagi yangi guvohnomani rasmiylashtiradi, tadbirkorlik subyektini xabardor qiladi va unga davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik to'g'risidagi ushbu guvohnomani beradi.

2.3. Soliq to'lovchilarda soliq obyektlarining yuzaga kelishi va ularga oid jarayonlarni hisobga olish

Soliq statistikasining ajralmas qismi bu soliq obyektlarini hisobga olish jarayonidir. Bu jarayonlarni amalga oshirish tartibi va mexanizmlari O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 126, 128-132 moddalari hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining 2014 yil 17 iyundagi 2014-25-son qarori bilan tasdiqlangan «Soliq solish obyektlari hamda soliq solish bilan bog'liq obyektlar to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish tartibi to'g'risidagi Nizom» va boshqa tegishli me'yoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

Soliq to'lovchini hisobga qo'yish soliq solish obyekti joylashgan erdagi soliq organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Soliq to'lovchini obyektlar bo'yicha hisobga qo'yish u Soliq kodeksning 129-moddasida belgilangan tartibda hisobga qo'yilganidan keyin, agar ushbu Kodeksga muvofiq soliq to'lovchida soliq to'lovchi sifatida hisobga olinmagan joydagi yer solig'i, mol-mulk solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va (yoki) noruda qazilma boyliklari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq to'lash majburiyati yuzaga kelgan bo'lsa, amalga oshiriladi.

Hisobga qo'yilmagan joyda yer solig'ini, mol-mulk solig'ini yoki suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lash majburiyati o'zida yuzaga kelgan soliq to'lovchi mazkur majburiyat yuzaga kelgan kundan e'tiboran o'n kun ichida soliq solish obyektlarini ular joylashgan erda hisobga qo'yish uchun davlat soliq xizmati organlariga qonunchilikda belgilangan tartibda murojaat qilishi kerak, bundan Soliq kodeksidagi 133-moddasining uchinchi va beshinchi qismlariga muvofiq soliq organlariga bunday ma'lumotlarni taqdim etish organlar, muassasalar va tashkilotlarning majburiyati bo'lgan hollar mustasno.

Hisobga olinishi davlat soliq xizmati organlari tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladigan soliq solinadigan obyektlar bo'yicha mol-mulk solig'i va yer solig'i to'lovchisi bo'lgan jismoniy shaxslarga nisbatan Soliq kodeksidagi 133-moddaning uchinchi qismida ko'rsatilgan majburiyat tatbiq etilmaydi.

Soliq organi soliq to'lovchiga ilgari berilgan soliq to'lovchining identifikatsiya raqamiga muvofiq uni murojaat qilgan kundan e'tiboran uch ish kundan kechiktirmay obyektning joylashgan eri bo'yicha hisobga oladi.

Soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bog'liq obyektlarni hisobga olish davlat soliq xizmati organi tomonidan har bir soliq to'lovchi bo'yicha hamda u to'layotgan barcha soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha, soliq solish obyektlari hamda soliq solish bilan bog'liq obyektlar to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish, shu jumladan elektron shaklda shakllantirish va yuritish orqali amalga oshiriladi.

Soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog'liq obyektlar to'g'risidagi ma'lumotlar bazasi obyekt joylashgan joydagi hududiy davlat soliq xizmati organlarida ichki va tashqi axborot manbalari asosida elektron ko'rinishda shakllantiriladi.

Ichki manbalar quyidagilardan iborat:

a) soliq to'lovchilar tomonidan davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladigan choraklik, yillik moliyaviy hisobotlar, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblar, aniqlashtirilgan soliq hisobotlari, tushuntirish xatlari, ma'lumotlar va ma'lumotnomalar to'g'risidagi;

b) quyidagilarning summasi ko'rsatilgan soliq to'lovchilarning shaxsiy kartochkalari to'g'risidagi:

hisoblangan, to'langan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar;

qaytarilgan, kamaytirilgan hamda ortiqcha to'langan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar;

soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarzdorlik va hisoblangan penyalar;

v) qo'shimcha yoki kamaytirishga hisoblangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'g'risidagi soliq tekshiruvlari dalolatnomalari, shuningdek soliq tekshiruvlari materiallari bo'yicha sud qarorlari asosida yoki ixtiyoriy ravishda to'langan (undirilgan) jarimalar summalari to'g'risidagi;

g) soliq qonunchiligi sohasida yo'l qo'yilgan huquqbuzarlik uchun ma'muriy jarima qo'llanilgan shaxslar va qo'llanilgan jarima summasi to'g'risidagi;

d) jismoniy va yuridik shaxslarni ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'z ichiga oluvchi davlat soliq xizmati organlarida hisobga qo'yilgan soliq to'lovchilar to'g'risidagi;

e) soliq to'lovchilarning mol-mulk, yer soliqlari hamda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha soliq solish obyektlarini hisobga qo'yish to'g'risidagi;

j) chakana savdo va xizmat ko'rsatish sohasida bank kassalariga naqd pul tushumi kelib tushishi bo'yicha o'tkazilgan xronometrajlar natijalari to'g'risidagi axborotlar.

Tashqi manbalar quyidagilardan iborat:

a) davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlarning tadbirkorlik subyektlari to'g'risidagi;

b) O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida nazarda tutilgan tegishli organlar va tashkilotlar tomonidan davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladigan soliq to'lovchilarning majburiyatlari yuzaga kelganligi (tugatilishi) to'g'risidagi;

v) O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining yozma so'roviga asosan tegishli axborot taqdim etuvchi boshqa organlar va tashkilotlarning soliq to'lovchilarning majburiyatlari yuzaga kelganligi (tugatilishi) to'g'risidagi axborotlari va shu kabilar.

Soliq to'lovchi sifatida quyidagilar hisobga qo'yiladi:

yuridik shaxslar - O'zbekiston Respublikasining rezidentlari o'zlari joylashgan erdagi (pochta manzilidagi) davlat soliq xizmati organida, yuridik shaxsning soliq majburiyatini mustaqil ravishda bajaradigan alohida bo'linmalari - alohida bo'linmaning joylashgan eridagi yoki faoliyatni amalga oshirayotgan joyidagi davlat soliq xizmati organida, jismoniy shaxslar - O'zbekiston Respublikasining rezidentlari jismoniy shaxsning yashash joyidagi davlat soliq xizmati organida;, uridik shaxslar - O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari - doimiy muassasaning joylashgan eridagi va (yoki) faoliyatni amalga oshirayotgan joyidagi davlat soliq xizmati organida, mol-mulk solig'i va yer solig'i to'lovchilar bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar - O'zbekiston Respublikasining norezidentlari - soliq solish obyekti joylashgan erdagi davlat soliq xizmati organida.

Soliq to'lovchida u hisobga qo'yilganidan keyin yer solig'i, mol-mulk solig'i yoki suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lash bo'yicha soliq majburiyati hisobga qo'yilgan joydan tashqarida yuzaga

kelgan taqdirda, soliq to'lovchi soliq Kodeksining 133-moddasiga muvofiq soliq solish obyekti joylashgan erdagi davlat soliq xizmati organida obyekt bo'yicha hisobga qo'yilishi kerak. Bir vaqtning o'zida davlat soliq xizmati organlarida va davlat statistikasi organlarida hisobga qo'yilgan holda davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan yuridik va jismoniy shaxslar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joyda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hisobga qo'yilishi lozim.

Yuridik shaxslar - O'zbekiston Respublikasining rezidentlari, ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilganlar bundan mustasno, davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran o'n kun ichida davlat soliq xizmati organiga hisobga qo'yish to'g'risidagi arizani taqdim etishi shart. Arizaga yuridik shaxs davlat ro'yxatidan o'tkazilganligini tasdiqlovchi hujjatning ko'chirma nusxasi ilova qilinadi. Soliq majburiyatlarini mustaqil ravishda bajaradigan alohida bo'linmani hisobga qo'yish uchun mazkur alohida bo'linmani tashkil etgan yuridik shaxs uni tashkil etish to'g'risida va (yoki) mustaqil balansga ajratish haqida qaror qabul qilingan kundan e'tiboran o'n kun ichida davlat soliq xizmati organiga hisobga qo'yish to'g'risidagi arizani taqdim etishi shart. Arizada mazkur alohida bo'linmani tashkil etgan yuridik shaxsning - soliq to'lovchining identifikatsiya raqami albatta ko'rsatiladi. Arizaga yuridik shaxsning alohida bo'linmani tashkil etish to'g'risidagi qarori, shuningdek uning rahbariga berilgan ishonchnoma ilova qilinadi.

Jismoniy shaxslar - soliq solish obyekti vujudga kelgan kundan e'tiboran o'n kun ichida ushbu Kodeksga muvofiq davlat soliq xizmati organiga hisobga qo'yish to'g'risidagi arizani taqdim etishi shart.

Yuridik shaxslar - O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari mazkur faoliyatni amalga oshirish boshlangan kundan e'tiboran bir yuz sakson uch kundan kechiktirmasdan davlat soliq xizmati organiga doimiy muassasa sifatida hisobga qo'yish to'g'risidagi arizani taqdim etidi. Doimiy muassasa orqali faoliyatni amalga oshirayotgan yuridik shaxsning - O'zbekiston Respublikasi norezidentining hisobga

qo'yish to'g'risidagi arizasiga shartnoma yoki yuridik shaxs - O'zbekiston Respublikasining norezidenti nomidan O'zbekiston Respublikasida ish yuritish uchun berilgan ishonechnoma, shuningdek majburiyatlarining bajarilishi doimiy muassasa tashkil topishiga olib keladigan shartnoma mavjud bo'lsa, shu shartnoma ilova qilinadi.

Yer solig'i, shuningdek ko'chmas mulkka taalluqli qismida mol-mulk solig'i to'lovchilari bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar - O'zbekiston Respublikasi norezidentlari er uchastkasiga, ko'chmas mulkka bo'lgan huquq davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran o'n kun ichida davlat soliq xizmati organiga hisobga qo'yish to'g'risidagi arizani taqdim etadi. Arizaga unda ko'rsatilgan ma'lumotlarni tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi.

Agar yuridik shaxs - O'zbekiston Respublikasining rezidenti alohida bo'linmalardan bir nechtasiga ega bo'lsa, hisobga qo'yish har bir alohida bo'linma bo'yicha tegishli davlat soliq xizmati organlarida amalga oshiriladi. Agar yuridik shaxs - O'zbekiston Respublikasining norezidenti O'zbekiston Respublikasida bir nechta doimiy muassasaga ega bo'lsa, u har bir doimiy muassasa bo'yicha tegishli davlat soliq xizmati organlarida hisobga turishi shart. Bitta yuridik shaxsning - O'zbekiston Respublikasi norezidentining bir nechta doimiy muassasa bo'yicha soliq hisobotini jamlashga yo'l qo'yilmaydi.

Soliq to'lovchini obyektlar bo'yicha hisobga qo'yish soliq solish obyekti joylashgan erdagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi. Soliq to'lovchini obyektlar bo'yicha hisobga qo'yish belgilangan tartibda hisobga qo'yilganidan keyin, agar soliq to'lovchida soliq to'lovchi sifatida hisobga qo'yilmagan joydagi yer solig'i, mol-mulk solig'i yoki suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lash majburiyati yuzaga kelgan bo'lsa, amalga oshiriladi. Hisobga qo'yilmagan joydagi yer solig'ini, mol-mulk solig'ini yoki suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lash majburiyati yuzaga kelgan soliq to'lovchi tegishli er uchastkasiga bo'lgan huquq davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran yoxud mol-mulk solig'i yoki suv

resurslaridan foydalanganlik uchun soliq solish obyektini vujudga kelgan kundan e'tiboran o'n kun ichida soliq solish obyektlarini ular joylashgan erda hisobga qo'yish uchun davlat soliq xizmati organlariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda murojaat etadi.

Davlat soliq xizmati organi soliq to'lovchining ilgari berilgan identifikatsiya raqamiga muvofiq soliq to'lovchi murojaat etgan kundan uch kundan kechiktirmay uni obyektlar bo'yicha hisobga qo'yadi.

Yuridik shaxs to'g'risidagi hisob ma'lumotlari tarkibiga quyidagilar kiradi, xususan:

- 1) soliq to'lovchining identifikatsiya raqami;
- 2) to'liq va qisqartirilgan nomi;
- 3) joylashgan eri (pochta manzili);
- 4) tashkiliy-huquqiy shakli;
- 5) davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sana, joyi va raqami;
- 6) ustav fondining (ustav kapitalining) miqdori — tijorat tashkilotlari uchun;
- 7) alohida bo'linmalar to'g'risidagi ma'lumotlar;
- 8) O'zbekiston Respublikasining rezidentlari bo'lgan ishtirokchilar soliq to'lovchisining identifikatsiya raqami, chet ellik ishtirokchining mamlakati hamda har bir muassising ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushi ko'rsatilgan holda ishtirokchilarning to'liq tarkibi — tijorat tashkilotlari uchun.

Oldingi tahrirga qarang.

Jismoniy shaxslar to'g'risidagi hisob ma'lumotlari tarkibiga ularning quyidagi shaxsiga doir ma'lumotlari kiritiladi:

- 1) familiyasi, ismi, otasining ismi;
- 2) fuqaroligi;
- 3) jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami;
- 4) pasportining yoki identifikatsiyalovchi ID-kartasining seriyasi va raqami, berilgan sanasi va joyi;
- 5) yashash joyi (manzili).

Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun hisob ma'lumotlari tarkibiga ushbu moddaning uchinchi qismida ko'rsatilgan ma'lumotlardan tashqari, quyidagilar ham kiritiladi:

- 1) davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sana, joyi va raqami;
- 2) faoliyat turi;
- 3) faoliyat amalga oshiriladigan joy.

Oldingi tahrirga qarang.

Soliq to'lovchi soliq organlarining ma'lumotlar bazasida mavjud bo'lgan o'z hisob ma'lumotlarini soliq organining so'roviga ko'ra soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali tasdiqlashi kerak.

Oldingi tahrirga qarang.

Soliq to'lovchilar to'g'risida hisob ma'lumotlarini yuritish, soliq to'lovchilar tomonidan ularni tasdiqlash, bu ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga taqdim etish tartibi, shuningdek soliq to'lovchilarning ayrim toifalari uchun ma'lumotlar tarkibini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

Soliq to'lovchilarni hisobga qo'yish va soliq to'lovchilarni obyektlar bo'yicha hisobga qo'yish O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 131 moddasida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Soliq to'lovchilar — jismoniy shaxslarni hisobga qo'yish tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyalarining jismoniy shaxslarga soliq solish bo'limlari (tuzilmalari) tomonidan amalga oshiriladi. Bunda, jismoniy shaxsning pasport ma'lumotlari asosida quyidagi shaklda Soliq to'lovchi — jismoniy shaxsni ro'yxatga olish varaqasi to'ldiriladi.

6-3-3-10-0000000

**СОЛИҚ ТЎЛОВЧИ — ЖИСМОНИЙ ШАХСНИ РЎЙХАТГА ОЛИШ
ВАРАҚАСИ**

01. Солиқ тўловчининг идентификация рақами — С П И Р: _____

Босма ҳарфлар билан тўлдирилди (қўлга тўлдирилганда)

02. Фамилияси			
03. Иسمи			
04. Отасининг исми			
05. Тутилган санаеси (кун, ой, йил)			
06. Тутилган жойи			
МАЖЛИСИ 07. Почта индекси			
08. Қорақалпоқiston Respublikasi, viloyat, Toshkent sh.			
09. Tuman, shahar			
10. Shahar, kichik, ovul, mavze			
11. Mahalla, участка, daha			
12. Kcha, tor k'chi, berya k'cha			
13. Uy, korxon, blok		14. Xona	
15. Telefon raqami		16. Ujra tuzatib berilgan	
17. Elektron mavzasi		19. Raqami	
ПАСПОРТИ 18. seriyasi			
20. Kim tomonidan berilgan			
21. Kachon berilgan (kun, oy, yil)		22. Amal qilinish muddati (kun, oy, yil)	
23. Fuqaroligi: O'zbekiston Respublikasi fuqarosi:	met ul fuqarosi	fuqaroligi bo'lmagan boshq.	
24. Fuqarolig yuriti:			
25. Jins: erkak	ayol		
26. Tuzilgan vaqti (kun, oy, yil)			
27. Kamgariq beriladigan pensiya darajasi raqami			

28. Varaqalaghi qizuvlarini aniq va haqiqiylikni tasdiqlayman.

Солиқ тўловчининг имзоси _____

3-rasm. Soliq to'lovchi-jismoniy shaxsni ro'yxatga olish varaqasi.

Ushbu shakl tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyasining jismoniy shaxslarga soliq solish bo'limi (tuzilmasi) mas'ul xodimi tomonidan ushbu davlat soliq inspeksiyasining soliq va majburiy to'lovlarning tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish va ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limi (tuzilmasi) mas'ul xodimiga taqdim etiladi. O'z navbatida, ushbu mas'ul xodim tomonidan soliq to'lovchi to'g'risidagi barcha ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi soliq to'lovchilarining yagona reestriga kiritiladi.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi soliq to'lovchilarning yagona reestrda ishlodan o'tkazilgach, tuman (shahar) davlat soliq inspeksiya tomonidan jismoniy quyida keltirilayotgan shaklda Soliq to'lovchining O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasida ro'yxatga olinganligi va unga identifikatsiya raqami berilganligi to'g'risida guvoohnoma beriladi.

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ДАВЛАТ СОЛИҚ КЎМИТАСИ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ НАЛОГОВЫЙ КОМИТЕТ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

Салиқ тўловчининг Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ кўмитасида
рўйхатга олинганлиги ва unga идентифиқация рақами берилганлиги тўғрисида
ГУВОҲНОМА

УДОСТОВЕРЕНИЕ
о регистрации в Государственном налоговом комитете Республики Узбекистан и
присвоении идентификационного номера налогоплательщику

**СОЛИҚ ТЎЛОВЧИ — ЖИСМОНИЙ ШАХС
(НАЛОГОПЛАТЕЛЬЩИК — ФИЗИЧЕСКОЕ ЛИЦО)**

Фамилияси:
(Фамилия)

Исми:
(Имя)

Отасининг исми:
(Отчество)

Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ кўмитасида рўйхатга олинди ва unga куйилган
салиқ тўловчининг идентифиқация рақами (СТИР) берилди.

(Зарегистрирован в Государственном налоговом комитете Республики Узбекистан и
ему присвоен идентификационный номер налогоплательщика (ИНН))



СТИР берилган сана:
(дата присвоения ИНН)

ДСН бошлиғи
(начальник ГИИ)

Ф И О : _____

Имзо _____
(подпись)

Мухр
(печать)

Гувоҳнома чоп этилган сана:
(дата печати удостоверения)

**4-rasm. Soliq to'lovchining O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq
qo'mitasida ro'yxatga olinganligi va unga identifikatsiya raqami berilganligi
to'g'risida GUVOHNOMA.**

Soliq to'lovchi — jismoniy shaxsni ro'yxatga olish varaqasidagi ma'lumotlar o'zgariganda esa ushbu jismoniy shaxs tomonidan «Soliq to'lovchi — jismoniy shaxsni ro'yxatga olish varaqasidagi ma'lumotlar o'zgarish varaqasi» shakl(11-ilova) to'ldiriladi. Jismoniy shaxsning mol-mulk, yer soliqolari hamda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha soliq solish obyektlari to'g'risidagi ma'lumotlari asosida tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyasining jismoniy shaxslarga soliq solish bo'limi (tuzilmasi) mas'ul xodimi tomonidan «Soliq to'lovchi — jismoniy shaxsning soliqlarini hisobga qo'yish varaqasi» (12-ilova) to'ldiriladi hamda ushbu davlat soliq inspeksiyasining soliq va majburiy to'lovlarning tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish va ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limi (tuzilmasi) mas'ul xodimiga taqdim etiladi va mazkur ma'lumotlar Jismoniy shaxslarning soliq majburiyatlarini hisobga olish dasturiy majmuasiga kiritiladi.

Tuman (shahar)lar hokimliklari huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish inspeksiyalari hamda adliya organlari tomonidan ro'yxatdan o'tkazilmaydigan soliq to'lovchi — yuridik shaxslarni tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyasida soliq to'lovchi sifatida hisobga qo'yish uchun soliq to'lovchi — yuridik shaxslarning mansabdor shaxslari tomonidan «Soliq to'lovchi — yuridik shaxsni ro'yxatga olish varaqasi»(14-ilova) to'ldiriladi hamda ushbu davlat soliq inspeksiyasining yuridik shaxslarga soliq solish bo'limi (tuzilmasi) mas'ul xodimi tomonidan qabul qilib olinadi. Soliq to'lovchi — yuridik shaxsning mansabdor shaxsi tomonidan belgilangan tartibda Soliq to'lovchi — yuridik shaxsni ro'yxatga olish varaqasi to'ldirilgandan keyin tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyasining yuridik shaxslarga soliq solish bo'limi (tuzilmasi) mas'ul xodimi uni ushbu davlat soliq inspeksiyasining soliq va majburiy to'lovlarning tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish va ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limi (tuzilmasi) mas'ul xodimiga taqdim etadi. O'z navbatida, ushbu mas'ul xodim tomonidan soliq to'lovchi to'g'risidagi barcha ma'lumotlar

O‘zbekiston Respublikasi soliq to‘lovchilarining yagona reestriga kiritiladi.

Ma‘lumotlar O‘zbekiston Respublikasi soliq to‘lovchilarning yagona reestrda ishlovdan o‘tkazilgach, tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyasi tomonidan soliq to‘lovchi — yuridik shaxsga Soliq to‘lovchining O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasida ro‘yxatga olinganligi va unga identifikatsiya raqami berilganligi to‘g‘risida guvohnoma beriladi, soliq to‘lovchi—yuridik shaxsning alohida bo‘linmasiga belgilangan shaklda Soliq to‘lovchi—yuridik shaxsning alohida bo‘linmasi O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasida ro‘yxatga olinganligi va unga identifikatsiya raqami berilganligi to‘g‘risida guvohnoma beriladi.

Soliq to‘lovchi—yuridik shaxsni ro‘yxatga olish varaqasidagi ma‘lumotlar o‘zgaranda, soliq to‘lovchi—yuridik shaxsning mansabdor shaxsi tomonidan bunday o‘zgarishlar yuzaga kelgan kundan e‘tiboran o‘n kunlik muddatda «Soliq to‘lovchi-yuridik ro‘yxat ma‘lumotlaridagi o‘zgarish varaqasi» (13-ilova) shakli to‘ldiriladi va tegishli tartibda rasmyilashtirilib qo‘yiladi. Soliq to‘lovchi—yuridik shaxs to‘g‘risida qo‘shimcha ma‘lumotlar yuzaga kelganda soliq to‘lovchi — yuridik shaxsning mansabdor shaxsi tomonidan «Soliq to‘lovchi—yuridik shaxs to‘g‘risida qo‘shimcha ma‘lumotlar varaqasi» to‘ldiriladi.

Soliq to‘lovchilarni O‘zbekiston Respublikasi soliq to‘lovchilarining yagona reestrda chiqarish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

soliq to‘lovchi— jismoniy shaxslar — O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari — ular vafot etgandan keyin, basharti soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash majburiyatlari ularning merosxo‘rlari tomonidan to‘liq uzilgan yoki soliq qarzi belgilangan tartibda hisobdan chiqarilgan bo‘lsa; soliq to‘lovchi—yuridik shaxslar—O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari—ular tugatilganidan keyin, basharti soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash majburiyati to‘liq uzilgan yoki soliq qarzi belgilangan tartibda hisobdan chiqarilgan bo‘lsa; O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari—ularning O‘zbekiston

Respublikasi soliq to'lovchilarining yagona reestriga kiritilishini belgilagan holatlar bekor bo'lgan, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati to'liq uzilgan taqdirda va shu kabilar.

Yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlar, ro'yxatdan o'tkazilgan joydagi davlat soliq xizmati organiga ushbu yuridik shaxslar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay tegishli yuridik shaxslarning davlat reestridan ko'chirma topshiradi. Mazkur organlar davlat soliq xizmati organiga tegishli yuridik shaxslarga taalluqli davlat reestriga kiritilgan har qanday o'zgartishlar to'g'risida ham bunday o'zgartishlar kiritilgan kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay ma'lum qilishi lozzim. Litsenziya va (yoki) boshqa ruxsat etuvchi hujjatlar beradigan organlar bunday hujjatlar berilgan shaxslar joylashgan erdagi davlat soliq xizmati organlariga shunday hujjatlar berilganligi hollari haqida ma'lum qilishi, shuningdek mazkur hujjatlar bekor qilinganligi, ularning amal qilishi to'xtatib turilganligi yoki tugatilganligi to'g'risida ma'lumot berishi shart.

Ichki ishlar organlari o'zlari joylashgan erdagi davlat soliq xizmati organlariga pasportlar berilganligi, shu jumladan yo'qotilgan yoki amal qilish muddati o'tgan pasportlar o'rniga pasportlar berilganligi faktlari haqida, bekor qilingan pasportlar to'g'risida har oyda ma'lum qilishi lozim. Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlar har yili 1 fevralgacha o'zlari joylashgan erdagi davlat soliq xizmati organlariga tegishli hududda joylashgan er uchastkasi va boshqa ko'chmas mulk, uning mulkdorlari (egalari) to'g'risida 1 yanvar holatiga ko'ra ma'lumot berishi, shuningdek er uchastkasi va boshqa ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlar yil davomida yuzaga kelganda - mazkur ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran o'n kun ichida ma'lum qiladi.

Suv resurslarini hisobga oluvchi organlar suvdan foydalanish yoki suv iste'moli joyidagi davlat soliq xizmati organlariga 1 fevraldan kechiktirmasdan o'tgan yil yakunlari bo'yicha o'lchov asboblari siz foydalanilgan suv hajmlari to'g'risida xabar qilishi shart. Davlat notarial

idoralari tegishincha ko'chmas mulk oldi-sotdi shartnomalari, mol-mulk ijarasi shartnomalari tasdiqlanganligi va ijara haqi miqdori. shuningdek meros qilib olish yoki hada tarzida fuqarolarning mulkiga o'tayotgan mol-mulk qiymati to'g'risida ko'rsatilgan notarial harakatlar amalga oshirilgan kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay o'zlari joylashgan erdagi davlat soliq xizmati organlariga ma'lum qiladi. Er resurslarini hisobga oluvchi va (yoki) baholovchi organlar er uchastkasiga nisbatan huquqi yuzaga kelgan (tugatilgan) shaxslarni ko'rsatgan holda er uchastkasiga nisbatan huquq berilganligi (tugatilganligi) hamda qishloq xo'jaligi erlarining normativ qiymati to'g'risida er uchastkasi joylashgan erdagi davlat soliq xizmati organlariga ma'lum qilishi lozim. Foydalanishga berilgan yer qa'ri uchastkalarining davlat hisobi yuritilishini amalga oshiruvchi va (yoki) yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqlarini davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlar o'zlari joylashgan erdagi davlat soliq xizmati organlariga yer qa'ri uchastkasi joylashgan er hamda mazkur yer qa'ri uchastkasidan foydalanish huquqi berilgan shaxs to'g'risidagi axborotni yer qa'ri uchastkasidan foydalanish huquqi ro'yxatdan o'tkazilgan (hisobga olingan) kundan e'tiboran o'n kun ichida ma'lum qiladi.

Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmasdan O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasiga depozitariylarda ro'yxatga olingan aksiyalarga doir bitimlar to'g'risidagi axborotni taqdim etishi shart. Banklar yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga faqat ular davlat soliq xizmatining tegishli organida hisobga qo'yilganligini tasdiqlovchi hujjatni ko'rsatgan taqdirda bank hisobvaraqlari ochishi mumkin va hisobvaraqlar ochilganligi to'g'risida o'sha organga keyingi kundan kechiktirmay ma'lum qiladi. Bojxona organlari har oyda eksport-import operatsiyalari, shuningdek tovarlar harakati haqidagi ma'lumotni davlat soliq xizmati organlariga ma'lum qiladi.

2.4. Turli darajadagi byudjetlarga soliq to'lovlarining kelib tushishi jarayonini hisobga olish tartibi

Soliq xizmati organlarida byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisobga olish jarayoni ham ma'lum bir tartibda amalga oshiriladi. Davlat soliq xizmati organlari, bojxona organlari hamda zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirish vazifasi yuklatilgan boshqa davlat organlari hamda tashkilotlari byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga tushumlar hisobini yuritishi kerak. Davlat soliq xizmati organlari byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga tushumlar hisobini soliq to'lovchining shaxsiy kartochkasida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning, shuningdek pena va jarimalarning hisoblangan hamda to'langan summalarini aks ettirish orqali yuritadi.

Soliq to'lovchining shaxsiy kartochkasi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning har bir turi bo'yicha ochiladi. Soliq to'lovchining shaxsiy kartochkasini yuritish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilanadi. Bojxona organlari tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o'tilishi munosabati bilan to'lanishi lozim bo'lgan boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha byudjetga hamda davlat maqsadli jamg'armalariga tushumlar hisobini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan belgilangan tartibda yuritadi. Undirilishi boshqa davlat organlari va tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan ayrim turdagi boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha byudjetga tushumlarni hisobga olish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

Soliq tushumlarini hisobga olish jarayonida soliq xizmati organlaridan tashqari boshqa moliya-kredit muassasalari ham ishtirok etadi. Qayd etish joizki soliq tushumlarini hisobga olish jarayoni avvalo

ushbu tushumlarni hisobga oluvchi tegishli bank hisobvaraqlarini (soliq to'lovchilarning emas, balki, bankning o'zining hisobvaraqlari) ochish talab etiladi. Shu maqsadda esa davlat byudjetiga kelib tushgan mablag'larning to'g'ri va o'z vaqtida kirim qilinishini ta'minlash maqsadida moliya, soliq, bojxona va boshqa vakolatli organlarning xos raqamlari bilan 23402, 23403, 23407, 23409, 20207, 20205 va 23411 balans hisobvaraqlari O'zbekiston Respublikasi byudjet tasnifini qo'llash bo'yicha Yo'riqnomaning (ro'yxat raqami 2146, 2010 yil 11 oktyabr) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2010 y., 40-41-son, 356-modda) 2-ilovasida keltirilgan daromadlar turiga asosan belgilangan shaxsiy hisob raqamlarga muvofiq banklarda ochiladi.

Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan Davlat byudjetiga o'tkaziladigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar banklar tomonidan qabul qilinadi va belgilangan tartibda 23402, 23403, 23407, 23409, 20207, 20205 va 23411 balans hisobvaraqlariga kirim qilinadi. Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va miqdorda yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan davlat bojlari, yig'img'lar va soliq bo'lmagan to'lovlardan, ma'muriy va moliyaviy jazolardan ajratmalar banklar tomonidan 23411 balans hisobvarag'ida ochilgan mos shaxsiy hisob raqamlarga kirim qilinadi va o'rnatilgan tartibda Davlat byudjeti hamda tegishli vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning byudjetdan tashqari jamg'armalari o'rtasida taqsimlanadi. Davlat byudjetining 23402, 23403, 20207 va 20205 balans hisobvaraqlarining shaxsiy hisob raqamlarga kirim qilingan mablag'lar dasturiy ravishda belgilangan miqdorlarda ajratma qilinadi va to'liq yagona g'azna hisob raqamiga o'tkaziladi. Bunda, ajratma qilingan mablag'larning tegishli respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, mahalliy byudjetlar va byudjetdan tashqari jamg'armalarning G'aznachilikda ochilgan shaxsiy g'azna hisob raqamlariga to'g'ri kirim qilinishini ta'minlash maqsadida dasturiy ravishda shakllantiriladigan to'lov hujjatlarining to'lov maqsadida ularning shaxsiy g'azna hisob raqamlari alohida ko'rsatiladi.

Hududiy moliya organlari G'aznachilikning hududiy bo'linmalari bilan birgalikda mazkur shaxsiy g'azna hisob raqamlari ro'yxatini xizmat ko'rsatuvchi tijorat bankiga taqdim etadi. Banklar o'z navbatida, ajratmalarni dasturiy yo'l bilan to'g'ri taqsimlanishini ta'minlash maqsadida taqdim etilgan shaxsiy g'azna hisob raqamlarini dasturga kiritilishini ta'minlashi lozim. Mazkur shaxsiy g'azna hisob raqamlarning dasturga to'g'ri kiritilganligi bank, moliya va G'aznachilikning hududiy bo'linmalari tomonidan har yilning 1 yanvar holatiga xatlovdan o'tkaziladi va uch tomonlama dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash milliy valyutada, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda esa, chet el valyutasida amalga oshirilishi mumkin. Bunda chet el valyutasida to'langan soliq va boshqa majburiy to'lovlar avval O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining tegishli valyuta hisobvaraqlariga kirim qilinadi va belgilangan tartibda milliy valyutaga konvertatsiya qilinadi. Milliy valyutaga konvertatsiya qilingan soliq va boshqa majburiy to'lovlar mazkur daromadlarning tegishlilikiga qarab respublika byudjetining daromadiga, yoki Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy byudjetlarning daromadiga o'zaro hisob-kitoblari bo'yicha olib boriladi. Bunda chet el valyutasining milliy valyutaga nisbatan kursining o'zgarishi hisobiga yuzaga keladigan ijobiy farq respublika byudjeti daromadiga kirim qilinadi.

Yuridik shaxslar tomonidan Davlat byudjetiga to'lanadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar naqd pulsiz shaklda amalga oshiriladi. Jismoniy shaxslar tomonidan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar naqd pul yoki naqd pulsiz shaklda to'lanishi mumkin. Davlat byudjetiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash maqsadida taqdim etilgan to'lov hujjatlarining to'g'ri to'ldirilganligi va to'lov to'g'ri amalga oshirilayotganligi bank tomonidan tekshirilgandan keyin to'lovga qabul qilinishi lozim. Banklarga taqdim etilgan to'lov hujjatlari noto'g'ri to'ldirilgan bo'lsa, ularning sabablari ko'rsatilgan holda to'lov hujjatlari taqdim etuvchilarga qaytariladi. Yuridik shaxslar tomonidan xodimlarga hisoblangan ish haqidani ushlab qolingani daromad solig'i hamda

fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya badalini Davlat byudjetiga hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat-tijorat Xalq banki filialida ochilgan 22628 balans hisobvarag'ining 999 tartib raqamiga o'tkazish uchun to'lov topshiriqnomasini joriy oyning ikkinchi yarmida ish haqi olish uchun topshiradigan chek bilan yoki ish haqini plastik kartochkasiga o'tkazayotgan bir vaqtda taqdim etiladi.

Agar, bankka ish haqi olish uchun topshiradigan chek bilan yoki ish haqini plastik kartochkasiga o'tkazayotgan bir vaqtda to'lov topshiriqnomalari taqdim etilmasa, ish haqi olish uchun naqd pul berishga yoki ish haqini plastik kartochkasiga o'tkazishga ruxsat etilmaydi. Yuridik shaxslar tomonidan daromad solig'i va fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya badalini o'tkazish uchun banklarga taqdim etilgan to'lov topshiriqnomalariga «To'lov maqsadida « » « » oyi ish haqidan ushlab qolingani daromad solig'i yoki fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya badali summasi o'tkazildi» deb yozib qo'yiladi. Yuridik shaxslarning hisobvaraqlarida mablag'lar etarli bo'lmasa, banklarga taqdim etilgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar summasini o'tkazish bo'yicha to'lov topshiriqnomasi «Muddatida to'lanmagan hisob-kitob hujjatlari» kiritiladi va to'lovlar belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Bank tomonidan soliq (yig'im), bo'nak to'lovi, penya va jarima summasini o'tkazish to'g'risidagi soliq to'lovchining topshiriqnomasini, soliq organining inkasso topshiriqnomasini bajarmaslik (bajarilishini kechiktirish) —

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki qayta moliyalashtirish stavkasining bir yuz ellikdan bir qismi miqdorida, lekin kechiktirilgan har bir kalendar kun uchun o'tkazilmagan summa bir foizining beshdan bir qismidan ko'p bo'lmagan miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Davlat byudjetiga to'lanadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar alohida yozilgan to'lov hujjatlariga asosan Davlat byudjeti daromadlari hisobvarag'iga kiritiladi. Davlat byudjeti daromadlari hisobvarag'iga kelib tushgan mablag'larning kiritilganligi to'g'risida hisobvaraqdan

ko'chirma va ilovalar banklar tomonidan qog'oz yoki elektron fayl ko'rinishida soliq, bojxona va boshqa tegishli organlarga belgilangan tartibda taqdim etiladi.

2.5. Soliq tushumlari to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish va ayirboshlash tartibi

Davlat byudjeti va uning tarkibidagi byudjetlarga soliq tushumlarining kelib tushishi soliq xizmati organlari banklar va moliya organlari o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar doirasida amalga oshiriladi. Soliq tushumlarining hisobini olib borish uchun yuqorida keltirib o'tilgan banklarning va G'aznachilik organlarining maxsus hisobvaraqlaridan tashqari Davlat byudjetiga tushumlar bo'yicha ma'lumotlarni tezkor yig'ish, qayta ishlash va ayirboshlashni amalga oshirishni avtomatizatsiyalashgan jarayoni uchun mo'ljallangan vositalar majmui hisoblangan Moliya vazirligi qoshida AHM axborot tizimi (MVAHMAT), O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan, tijorat banklaridan va O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasidan kelib tushgan, Davlat byudjetiga tushumlar bo'yicha ma'lumotlarni qayta ishlashda ishlatiladigan, tarkibida STIR elektron ma'lumotnomasi, bank kodlari, hududlar, soliq to'lovchilar va boshqa zarur ko'rsatkichlardan foydalaniladigan elektron axborotlar ma'lumotnomasi- Me'yoriy axborotlar ma'lumotnomasi (MAM), O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasidan soliq to'lovchilarning shaxsiy hisobvaraqlaridan hisoblangan summalar miqdori, soliq to'lovchilarning identifikatsiya raqami (STIR), bank va boshqa kerakli rekvizitlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladigan, soliq to'lovchilar to'g'risidagi elektron ma'lumotlar bazasi ham tashkil qilinadi. Markaziy bank, banklar va Davlat soliq qo'mitasi tomonidan Davlat byudjetiga tushumlar to'g'risida ma'lumotlarni olish, shuningdek qayta ishlash va ayirboshlash Moliya vazirligining Axborot hisoblash markazi tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat soliq qo'mitasi o'zining axborotlar bazasidan har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 5-sanasiga Moliya vazirligining Axborot hisoblash markaziga soliq to'lovchilarning STIR to'g'risidagi ma'lumotni, shuningdek hisobot choragidan (yilidan) keyingi oyning 30-sanasiga hisoblangan summalar, to'lov muddati kechiktirilgan summalar va maqsadli sxemalar (1-N sonli shakl hisobotiga kiritilmagan holda) bo'yicha o'tkazilgan summalar to'g'risidagi ma'lumotni quyida keltirilgan shaklda beradi.

3-jadval.

20__ y. _____ ga soliq to'lovchilar to'g'risidagi
MA'LUMOT

Tashkilotlar bo'yicha t/r	T/r	Soliq to'lovchilarning nomi (vazirlik, idora va boshqa to'lovchilar)	STIR	___ chorak uchun hisoblangan summalar***:
a	b	v	f	2
1.	1.	«O'zbekneftgaz» MXK		
	1.1.	Qarashli tashkilot 1		
	1.2.	Qarashli tashkilot 2		
2.	2.2.	«O'zbekenergo» DAK		
	2.1.	Qarashli tashkilot 1		
	2.2.	Qarashli tashkilot 2		
...	...	Boshqa soliq to'lovchilar		

Bu ma'lumotnomada oylik ravishda hisobot oyidan keyingi oyning 5-sanasiga jadvalning 1-ustunini, shuningdek hisobot choragi (yili)dan keyingi oyning 30-sanasiga qo'shimcha ravishda 2-4-ustunlari to'ldirilgan holda taqdim qilinadi hamda Davlat byudjetiga tushumlar ustidan monitoring amalga oshiriladigan barcha vazirlik va idoralar ko'rsatiladi. Boshqa soliqlar turkumida esa Soliq to'lovchilardan tushumlarning barcha turlari bo'yicha umumlashtirilgan soliq to'lovchilarning shaxsiy hisobvaraqlaridagi hisoblangan summalar to'liq ko'rsatiladi. Banklar har kuni ertalab soat 10⁰⁰ gacha Markaziy bankning Axborotlashtirish Bosh

markaziga «Banklar tomonidan(kundalik ravishda) tushgan pul mablagʻlari yuzasidan 230402 hisob boʻyicha shaxsiy hisobvaraقدan koʻchirmaga talablar» hujjatida koʻzda tutilgan talablarga muvofiq shartli hisobvaraقدar raqami kesimida balans raqami 23402 «Respublika byudjetining mablagʻlari» hisobvaraقدarlardan, maʼlumotlar taقدim qilinadigan kundan oldingi, oxirgi amaliyot kuni uchun shaxsiy hisobvaraقدarlardan pul mablagʻlari harakati toʻgʻrisidagi koʻchirmalardan maʼlumot beradilar, Markaziy bankning Axborotlashtirish Bosh markazi esa mazkur maʼlumotlarni ertalabki 11⁰⁰ gacha Moliya vazirligining Axborot hisoblash markaziga yuboradi.

4-jadval.

Banklar tomonidan (kundalik ravishda) tushgan pul mablagʻlari yuzasidan 23402 hisob boʻyicha shaxsiy hisobvaraقدan koʻchirmaga TALABLAR

T/r	Nomi	Rekvizit turi	Maksimal qiymati
1.	Soliq toʻlovchining nomi	tekst/simvol	70
2.	Soliq toʻlovchining STIR	Raqam	9
3.	Oluvchi bankning nomi	Tekst	80
4.	Oluvchi bankning MFO kodi	Raqam	5
5.	Oluvchi DSQ hisob raqami nomeri	«	20
6.	Toʻlov hujjati raqami	«	10
7.	Summa	«	17
8.	Hujjat turi	«	2
9.	Toʻlov maqsadi	Tekst/simvol	175
10.	Sana	Date	10
11.	Oluvchi soliq inspeksiyasi STIR (mavjud boʻlganda) yoki «000000000»	Raqam	9

Axborotlarni qayta ishlash natijasida olingan maʼlumotlarning bir xilligini taʼminlash uchun Markaziy bankning Axborotlashtirish bosh

markazi Moliya vazirligining Axborot hisoblash markaziga shaxsiy hisobvaraqlar va bank kodlari bo'yicha amaldagi ma'lumotnomalarni, shuningdek ushbu ma'lumotnomalarga kiritiladigan keyingi o'zgartirishlarni taqdim qiladi. Moliya vazirligining Axborot hisoblash markazi axborot tizimining ma'lumotlar bazasi Davlat byudjetiga tushumlar to'g'risida operativ ma'lumotlarni Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasiga tezkor taqdim etish va Davlat byudjetiga tushumlar summamini soliq to'lovchilar kesimida, ularning shaxsiy hisobvaraqlaridan hisoblangan summalar hisobini yuritish maqsadida Davlat soliq qo'mitasi va banklardan qabul qilingan ma'lumotlarni jamlash, qayta ishlash va ayirboshlashni ta'minlaydi.

Ma'lumotlar Taraflar tomonidan telekommunikatsiya tarmog'i kanallari orqali Moliya vazirligi Axborot hisoblash markazi ko'rsatgan manzildagi elektron pochtaga elektron shaklda (fayl ko'rinishida) taqdim qilinadi. Telekommunikatsiya tarmog'i kanallari orqali beriladigan barcha ma'lumotlar tekst ko'rinishida (ASCII) bo'lishi shart va qonun hujjatlarida belgilangan tartibdagi algoritim bo'yicha shifrlanadi.

Moliya vazirligining AHM axborotlar tizimining ma'lumotlar bazasi (MAM) quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- a) vazirlik, idora, tashkilot va muassasalar ma'lumotnomasi;
- b) shartli hisobvaraqlar raqami (ShHR);
- v) soliq to'lovchining identifikatsion raqami (STIR);
- g) bank rekvizitlari nomi;
- d) boshqa axborotlar elektron ma'lumotnomasi.

Moliya vazirligining Axborot hisoblash markazi Davlat soliq qo'mitasidan olinadigan ma'lumotlar asosida Moliya vazirligi AHM axborot tizimi (MVAHMAT)da Markaziy bank va banklardan olinadigan ma'lumotlarni qayta ishlaydi va tahlil qiladi va kunlik asosda quyida keltirilayotgan jadvaldagi shaklga asosan Davlat byudjetiga tushumlar to'g'risidagi tezkor ma'lumotlarni shakllantiradi hamda Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasiga taqdim qiladi.

20__ y. «__» _____															
O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga tushumlar to'g'risidagi															
TEZKOR MA'LUMOTLAR															
(ming so'm)															
Tashkilotlar bo' yicha	Tr	Soliq to' lovchilar nomi (vazirlik, idoralar va boshqa soliq to' lovchilar)	Hisobot kuni uchun tushgan	Summa											
				Birinchi chorak											
				Jami		shu jumladan:						Hisoblangan	Kamomad (ust. 10 ... ust. 3 ... ust. 12 ... ust. 13)	Muhlat berilgan	Maqsadli sxemalar (1-8 sonli shakl hisobiga kiritilmagan holda) bo' yicha
				prognoz	haqiqiy	yanvar	fevral	mart	prognoz	haqiqiy	prognoz				
a	v										0	1	2	13	
1.		«O'zbekneftgaz» MNK (jami):													
		Qarashli tashkilot 1													
		Qarashli tashkilot 2													
		...													
2.		«O'zbekenergo» DAK (jami):													
		Qarashli tashkilot 1													
		Qarashli tashkilot 2													
...		...													
		JAMI:													

Barcha chiqadigan ma'lumotlar Moliya vazirligining Axborot hisoblash markazida axborot tizimida mavjud ma'lumotlar bazasi asosida shakllantiriladi va uning tegishli ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi.

Davlat byudjetiga kelib tushgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar hisobidan respublika byudjetiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga va mahalliy byudjetlarga hamda byudjetdan tashqari

jamg'armalarga belgilangan miqdorda ajratma qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Davlat byudjeti daromadlari hisobidan respublika byudjetiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga va mahalliy byudjetlarga hamda byudjetdan tashqari jamg'armalarga ajratma qilish miqdorini G'aznachilikka, Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligiga, viloyat (shahar) moliya boshqarmalariga hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga etkazadi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki o'z navbatida ajratmalar miqdorini O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining hududiy Bosh boshqarmalari hamda tijorat banklarining Bosh ofislariga ijro uchun yuboradi. G'aznachilik Davlat byudjeti daromadlari hisobidan respublika byudjetiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga va mahalliy byudjetlarga hamda byudjetdan tashqari jamg'armalarga ajratma qilish miqdorini G'aznachilikning hududiy bo'linmalariga etkazadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi va viloyatlar (Toshkent shahar) moliya boshqarmalari tegishli ajratma qilish miqdorini har bir shahar va tuman moliya organlariga etkazadi, shahar va tuman moliya organlari esa, g'aznachilikning hududiy bo'linmalariga va tegishli tijorat banklariga etkazadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi va viloyatlar (Toshkent shahar) moliya boshqarmalari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining hududiy Bosh boshqarmalari va tijorat banklari Davlat byudjeti daromadlari hisobidan respublika byudjetiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga va mahalliy byudjetlarga hamda byudjetdan tashqari jamg'armalarga ajratma qilish miqdorini asossiz ravishda o'zgartirishga haqli emas. Davlat byudjeti daromadlari hisobidan respublika byudjetiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga va mahalliy byudjetlarga hamda byudjetdan tashqari jamg'armalarga ajratma qilish miqdori, shuningdek tegishli byudjetlar va byudjetdan tashqari jamg'armalarning shaxsiy g'azna hisobvaraqlari joriy yil davomida o'zgarsa, belgilangan tartibda qo'shimcha xabar qilinadi.

Davlat byudjeti daromadlari hisobiga kelib tushgan kunlik soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar hisobidan respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston

Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlarga hamda byudjetdan tashqari jamg'armalarga ajratmalar banklar tomonidan dasturiy ravishda o'rnatilgan ajratma miqdorida joriy amaliyot kuni davomida amalga oshiriladi va har bir tegishli byudjetlar bo'yicha alohida memorial orderlar bilan shakllantirilib to'liq yagona g'azna hisobvarag'iga o'tkaziladi. Bunda, dasturiy ravishda shakllantirilgan memorial orderlarning to'lov maqsadida respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar hamda byudjetdan tashqari jamg'armalarning shaxsiy g'azna hisobvaraqlari alohida ko'rsatiladi. Davlat byudjeti daromadlari kelib tushgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar hisobidan respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlarga hamda byudjetdan tashqari jamg'armalarga ajratmalar har bir shaxsiy hisobvaraqlar bo'yicha alohida amalga oshiriladi.

Byudjetga ortiqcha to'langan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan tartibda soliq to'lovchilarning yozma arizasiga ko'ra qaytarib beriladi yoki kelgusi to'lovlar yoxud boshqa to'lovlar hisobiga o'tkaziladi. Davlat byudjetiga ortiqcha to'langan bojxona to'lovlari Ortiqcha to'langan yoki undirilgan bojxona to'lovlari qaytarish to'g'risidagi yo'riqnomaga (qarang: ro'yxat raqami 947, 2000 yil 14 iyul, O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralarining me'yoriy hujjatlari axborotnomasi, 2000 y., 13-son) asosan tartibga solinadi. Ortiqcha to'langan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni qaytarish ortiqcha to'langan summa qaysi byudjetga yoki davlat maqsadli jamg'armasiga o'tkazilgan bo'lsa, o'sha byudjet yoki davlat maqsadli jamg'armasi mablag'laridan soliq to'lovchining yozma arizasi asosida, zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirib olish majburiyati yuklatilgan vakolatli davlat organlari va tashkilotlariga tegishli ariza berilgan sanadan e'tiboran o'ttiz ish kuni ichida amalga oshiriladi.

Moliya organlari byudjetga ortiqcha o'tkazilgan soliqlarni va boshqa majburiy to'lovlarni soliq to'lovchilarga qaytarish yoki kelgusi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar hisobiga o'tkazish to'g'risidagi

davlat soliq xizmati organlarining yozma xulosasini olgan kundan keyingi ish kunidan kechikmasdan banklarga to'lov topshiriqnomalarini taqdim etadi. Moliya va boshqa tegishli vakolatli organlar tomonidan taqdim etilgan to'lov topshiriqnomasiga asosan byudjetga noto'g'ri yoki ortiqcha o'tkazilgan mablag'larni 23402, 23403, 23407, 23409, 20207, 20205 va 23411 balans hisobvaraqlarining mos shaxsiy hisobvarag'idan kunlik tushumlar hisobidan respublika byudjetiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga va mahalliy byudjetlarga ajratmalar qilishdan oldin boshqa to'lovlar hisobiga o'tkaziladi yoki soliq to'lovchilarga qaytariladi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning mos daromadlar ShHR ga kelib tushgan kunlik tushumlar etarli bo'lmaganda moliya organlari tomonidan banklarga taqdim etilgan to'lov topshiriqnomalari bo'yicha to'lovlarni qisman to'lashga ruxsat etiladi. Alohida hollarda, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning mos daromadlar shaxsiy hisobvaraqa kelib tushgan kunlik tushumlar etarli bo'lmaganda, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining xulosasiga asosan tegishli moliya organlarining to'lov topshiriqnomalariga muvofiq soliq to'lovchiga yagona g'azna hisobvarag'idan (tegishli byudjetlarning tushumlarini kamaytirgan holda) qaytarishga ruxsat etiladi.

Tayanch so'z va iboralar:

Soliq statistikasi, soliq to'lovchilarni hisobga olish, soliq obyektlarini hisobga olish, tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish inspeksiyasi, yuridik shaxslarning Davlat reestri, yuridik shaxs bo'lmagan oilaviy tadbirkorlik subyektlarining davlat reestri, soliq to'lovchilar identifikatsiya raqami, korxonalar va tashkilotlarning umumdavlat tasniflagichi, yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida guvohnoma, soliq to'lovchi-jismoniy shaxsni ro'yxatga olish varaqasi, soliq to'lovchi — jismoniy shaxsning soliqlarini hisobga qo'yish varaqasi, soliq to'lovchi — yuridik shaxsni ro'yxatga olish varaqasi, balans hisobvaraqlari, shaxsiy g'azna hisob raqamlari, AHM

axborot tizimi, STIR elektron ma'lumotnomasi, bank kodlari, me'yoriy axborotlar ma'lumotnomasi, memorial order.


Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Soliq statistikasining mohiyati nimani aytib bering.
2. Soliq statistikasining tarkibi nimalardan iborat?
3. Soliq to'lovchilarning soliq statistikasini tashkil etish va amalga oshirish tartibi qanday?
4. Soliq obyektlarini davlat soliq xizmati organlarida hisobga olish mexanizmini tushuntirib bering.
5. Soliq to'lovchilar va soliq obyektlarining statistikasi bilan bog'liq davlat vakolatli organlarning faoliyati qanday yo'lga qo'yilgan?
6. Soliq tushumlarini bank muassasalarida hisobga olish tartibini aytib bering.
7. G'aznachilik organlarida byudjetga kelib tushadigan soliq tushumlari qanday hisobga olinadi?
8. Soliq tushumlarni hisobga olish uchun tijorat banklarida qanday balans hisobvaraqlar ochiladi?
9. Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan Davlat byudjetiga o'tkaziladigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar banklar tomonidan qabul qilinish tartibini tushuntirib bering.
10. Soliq tushumlari haqidagi ma'lumotlar Moliya vazirligida qanday umumlashtiriladi?
11. Markaziy bank tomonidan byudjetga soliq tushumlarini hisobga olish tartibi va u haqda axborotlarni umumlashtirish tartibi qanday tashkil qilinadi?
12. Soliq to'lovchilar identifikatsiya raqami nima?
13. Korxonalar va tashkilotlarning umumdavlat tasniflagichi deganda nima tushuniladi?
14. Shaxsiy g'azna hisob raqamlarining mazmuni va ularni tashkil etishdan maqsad nima?

3-BOB. SOLIQLARNI PROGNOZ QILISHNING IQTISODIY MOHIYATI

3.1. Prognoz va uning yuzaga kelishining ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari

Tabiat va jamiyatda yuz beradigan tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayon(hodisa, voqeelik)larning rivojlanish xususiyatlari va ularning kelgusidagi holatini aniqlashning shakllari sifatida ilmiy jamoatchilik o'rtasida gipoteza, prognoz va reja kabi shakllari tan olinadi. Jarayonlarni oldindan ko'ra(ayta) olishning ushbu shakllari ilmiy-tadqiqot metodologiyasida ham muhim o'rin tutadi.



5-rasm. Oldindan ko'ra(ayta) olish shakllari.

Gipoteza qadimgi grek tilidan olingan bo'lib «ὑπόθεσις»-»taxmin» degan ma'noni bildirib, tabiat va jamiyatdagi jarayonlarni ilmiy-nazariy jihatdan o'rganishda muhim metodik vazifani o'taydi. Faylasuflar va ilmiy tadqiqot metodologiyasi bilan shug'ullannuvchi olimlarning umumiy fikriga ko'ra gipoteza haqiqat va yolg'onning o'rtasida mavjud bo'lib, unga asoslangan yoki uni qo'llash natijasida olingan natijalarga qarab uning haqiqatga yoki yolg'onga aylanadi. Shu bilan birgalikda gipoteza ilmiy tadqiqot jarayonlarida boshqaruvchi rolni ham o'ynaydi

va u ilmiylik xususiyatlari bilan qorishib ketadi. Gipoteza shu tufayli ham tabiat va jamiyatdagi ro'y beradigan hodisa va voqeqlik hamda munosabatlarning kelgusidagi holatini aniqlashda katta ahamiyat kasb etadi. Gipotezaning qo'yilishi esa ilmiylikka undaydi va shu orqali u prognoz tushunchasi bilan qorishib ketadi. Prognoz esa ta'kidab o'tganimizdek, gipotezalarga tayangan holda ilmiy-qonuniyatlarga asoslanadi. O'rganilayotgan jarayonning kelgusidagi holatini aniqlashda ularni birga qo'llash muhim metodik yo'llanmalarni beradi va ular birgalikda rejalarini shakllantirishga asos bo'ladi.

Prognozlashtirish boshqaruv tizimining muhim va zaruriy elementi hisoblanadi. Prognozlashtirish natijasida boshqaruv jarayonida boshqaruv obyektining kelgusidagi holati va unga ta'sir etuvchi omillarning yo'nalishlari aniqlanadi. Boshqaruvni amalga oshirishdan ko'zlangan maqsadning erishishning taktik yo'nalishlari va unga o'zgartirish imkoniyati paydo bo'ladi. Rossiyalik iqtisodchi olim N.N. Moisevning ta'kidlashicha⁶ har qanday iqtisodiy obyektini prognozlashtirish uchta xususiyatga: tizimlilik, obyektivlilik va bilish mumkinlik (poznavaemost) kabilarga ega bo'ladi, shu jihatdan har qaysi obyektini prognozlashtirish jarayoniga fundamental nuqtai nazardan qarashga to'g'ri keladi. Iqtisodiyotda obyektiv ravishda yuz beradigan jarayon va hodisalar mohiyati va o'rniga qarab murakkabligi bilan farqlanadi. Ushbu jarayonlarning kelgusidagi holatini aniqlash o'z-o'zidan ham shunday maqomda bo'ladi. Iqtisodiy nazariyalarda bunday jarayonlarning kelgusidagi holatini aniqlashga doir yo'nalishlar paydo bo'lishiga turtki bo'ldi, provardida esa murakkablik va kaos(tartibsizlik) nazariyalari vujudga keldi.⁷

Murakkablik nazariyasiga ko'ra iqtisodiy jarayonlarni prognozlashtirish murakkabligiga qarab murakkablashadi va prognoz natijalarining

⁶ Моисеев Н.Н. Избранные труды (в 2-х томах). Т.2. Междисциплинарные исследования глобальных проблем. – М.: Тайдеке Ко, 2003. – 64 с.

⁷ Qarang: I.Пригожин И., Стенгерс П. Прыжок из хаоса. Новый диалог человека с природой. – М.: Эдиториал УРСС, 2000. – 132 с.

2. 2. Ласло Э. Макродвииг (К устойчивости мира курсом перемен) / Пер. с англ. Ю.А. Данилова. – М.: Тайдеке Ко, 2004. – 207 с.


obyektivligi ham past bo'ladi. Ushbu nazariyaga muqobil ravishda «xaos nazariyasi» taraflari esa murakkab hodisalarni prognoz qilish natijalarida variantlarning eng ishonchlisini tanlash munosabatlariga katta e'tibor beradi. Ushbu nazariyada murakkab hodisalarni prognoz qilishda obrazlar stsenariyasi va trendlar stsenariyalarga asoslanish lozimligi ta'kidlanadi. Ba'zi bir nazariy qarashlarda masalan, V.M.Kolpakovning fikricha har qanday obyektning prognoz jarayonida eng muhim narsa aniqlik darajasini aniqlovchi -risklarni baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Risklar va tashqi omillarni baholash iqtisodiy noaniqlik darajasini belgilab beradi, risklar omillarning teskari ta'sirini kuchaytiradi.⁸ Qayd etilgan nazariyalarga ko'ra har qanday iqtisodiy jarayonlarni prognoz qilish variantlarning muqobilligini to'g'ri tanlashga, iqtisodiy obyektning ichki xususiyatida va to'satdan yuz beradigan hodisalarni to'g'ri baholashga, qolaversa, har qanday iqtisodiy obyektning prognozlashda murakkab jihatlarni oddiqlikdan farqlashni, o'z navbatida qo'llaniladigan yondoshuvlarni ajrata olishdan kelib chiqqan holda amalga oshirish zarur.

Har qanday iqtisodiy faoliyat qilingan xarajatlar va uning natijalarini baholashga, boshqacha so'z bilan aytganda faoliyatini tahlil qilish va prognozlashtirishga asoslanadi. Biroq, iqtisodiy faoliyat murakkab iqtisodiy makonda kechadi, iqtisodiy fanlar, jumladan iqtisodiy prognoz qilishning asosiy vazifalaridan biri ham oldindan aniqlash qiyin bo'lgan vaziyatlarning salbiy ta'sirini yumshatuvchi tadbirlarni aniqlashdan iborat bo'ladi. Jamiyat tsivilizatsiyasi darajasi prognoz jarayoni darajasini ham belgilab bergan. Olamni ilmiy bilishda falsafiy qarashlarning birlamchiligi prognozning vujudga kelish ildizlari ham falsafiy qarashlarga borib taqaladi. Shu jihatdan olganda prognozdan ko'ra bashoratlar ko'proq rol o'ynagan.

Tadqiqotlarga asoslanib aytish mumkinki, bashorat va prognoz kabi tushunchalar ilmiy kategoriyalar sifatida o'xshash bo'lsada, ammo

⁸ Колпаков В.М. Теория и практика принятия управленческих решений. – К.: МАУП, 2004. – 504 с.

jarayon(hodisa, munosabat, voqeylik)larning kelgusidagi holatini izohlashda ichki mazmuni jihatdan farqlanadi.



6-rasm: Bashorat va prognoz tushunchalarining farqlanishi.

Bu farqlanish ularning mohiyati bilangina emas, shuningdek, ularda qo'llaniladigan usullar va natijalarning ishonchliligi bilan farqlanadi. Natijalarning farqlanishi esa har doim ham bir xil bo'lmagan. Dastlabki, vaqtlarda diniy bashoratlarda boshqalarga nisbatan ustunlik yuqori bo'lgan. Falsafiy qarashlardagi bashoratlarda esa aksariyat hollarda bashoratlar g'ayritabiiy xususiyatlarga ega bo'lgan. Shu boisdan iqtisodiy adabiyotlarda⁹ bashoratlar teologik va intuitiv turlar bo'linadi. Teologik bashoratlar zamirida diniy qarashlar yotadi. (Teologiya (yun. theos — xudo va ...logiya) — xudoning mohiyati va irodasi haqidagi diniy talimotlar majmui.) Teologik bashoratlarning aksariyati xudo tomonidan insoniyatga yuborilgan payg'ambarlar, valiy, ilohiy qobiliyatga ega shaxslar tomonidan insoniyat kelajagi, diniy munosabatlarning rivojlanish holatlari, dunyoning intihosi va shu kabi masalalarga bag'ishlangan bo'lib, ularda iqtisodiy masalalar deyarli o'rin olmagan.

Tarixiy evolyutsion rivojlanish natijasida turli xil qarashlarning vujudga kelishi bashorat borasida haqiqatni dalil bilan isbotlamasdan,

⁹ Qarang: В.С.Панфилов. Финансовое и экономическое прогнозирование: методология и практика. М.: Макс Пресс, 2009 - 472 с.; Вишнев С.М. Основы комплексного прогнозирования. М.: Наука ка, 1977. 57-62 с.; Анципкин А.П. Методология прогнозирования развития народного хозяйства // Вопросы экономики. 1980. № 1. 46-47с.; Модели и методы налогового прогнозирования на макроуровне Васильева М.В. Управленческий учет, (2011),12 (декабрь), с55-63.; Налоговое прогнозирование Лавренчук Е.Н. Экономические науки, (2011), 74 (январь), с 257-260.

bevosita fahm-farosat bilan anglab olish qobiliyatiga, fikran ilg'ab olish («aqliga kelish») yo'li bilan tajriba doirasidan chiqish, shaxsiy qobiliyati yoki bilib olinmagan aloqalar, qonuniyatlarni jonli shaklda umumlash-tirishga asoslangan intuitiv bashoratlar vujudga kela boshladi. Intuitsiya - lotincha «intuitio — sinchiklab qarayman» degan ma'nonini anglatib bashorat qilishning mazkur turi mutaxassislarning fikricha hissiy, aqliy va mistik turlarga bo'linadi va bashorat qilish ham insonning aqliy mushohada va boshqa sezgi obrazlariga bog'liq bo'lmagan holda intuitiv sezishga oqibatida, hodisalarning mohiyatini birdaniga aql bilan ilg'ab olish natijasida, ilohiy qudrat bilan muloqot jarayonida vujudga keladigan mutlaqo ongsiz ilohiy ilhom mistik idrok qilish natijasida oldindan aytishga asoslanadi.

Manbalarga ko'ra bunday yo'nalishdagi bashoratlarga asoslangan holda davlatni idrok qilish tajribalari ham mavjud, chunonchi, qadimgi Rimda «Sivillinlar kitobi» deb nom olgan kitobdagi bashoratlar davlatni boshqarish va uning kelgusidagi maqomini aniqlashning muhim manbai sifatida foydalanilgan.¹⁰

Ammo olamni bilishga, uning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini tadqiq etishga qaratilgan bilimlarning chuqurlashib borishi bashoratni ilmiy asoslangan va ideologiyaga asoslangan turlariga bo'linishga olib keldi. Bashoratning bunday tarzda qo'yilishi rutinli(mutaassiblikka) va dinamikaga asoslangan ijtimoiy hayot kechirish, qolaversa iqtisodiyotni yuritishga ma'lum bir darajada turtki bo'ldi, ya'ni jamiyatning rivojlanishi, unda insonlarning turmush tarzining kelgusidagi holati muttassiblikka bog'langanligi iqtisodiy taraqqiyotni rivojlanmasligiga salbiy ta'sir etgan, iqtisodiy faollikni, taraqqiyotni susaytirgan, iqtisodiy individlar ongiga ta'sir salbiy qilgan. Fanning rivojlanib borishi esa bashoratning ilmiy asoslanishga o'tishini tezlashtirdi, jamiyatdagi obyektiv qonuniyatlar kashf etila boshlandi, provardida esa bashorat bilan birgalikda prognozlash jarayonlari kuchayib bordi. Bundan

¹⁰ В.С.Панфилов. Финансовое и экономическое прогнозирование: методология и практика. М.:Макс Пресс, 2009 - 17 с.

ko'rinadiki, prognoz tushunchasi bashoratdan ilmiy asoslanganligi, qonuniyatlarga, tahlillarga va mushohadalashning tartibli amalga oshirilishiga asoslanishi bilan farqli xususiyatlarga ega bo'ladi.

Prognoz qilish jarayonining ijtimoiy ildizini albatta insoniyatning olamni bilishi va unda uning o'rni kelajakda qanday bo'lishi mumkinligini bilishga intilishiga borib taqalsa, uning iqtisodiy ildizini kishilik jamiyatida taqsimot munosabatlarining murakkablashib borishi, jamiyat tsivilizatsiyasi natijasida ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalari ajraluvi natijasida ular o'rtasidagi nisbat(proportsiyani)ni o'rnatishga ehtiyojning mavjudligi tashkil etadi.

Boshqacha qilib aytganda sohalari o'rtasidagi nisbat munosabatlarini o'rnatish esa davlatning jamiyatda sinfiy siyosiy kuch sifatida yuzaga kelishini taqozo etadi. O'z navbatida esa davlat bunday proportsiyalarni ta'minlashda taqsimot munosabatlarini tartiblashdan foydalanadi, ya'ni ishlab chiqarish sohasida yaratilgan qiymatni qayta taqsimlash maqsadida turli xil markazlashga pul fondlarini tashkil etish bilan hal etadi. Albatta bunday pul fondlari sifatida davlat byudjeti (xazinasini)ning manbalarini aniqlash, uni chamalash(prognozlash) davlat moliya xo'jaligining muhim qirralari sifatida namoyon bo'ladi. Bundan ko'rinadi, davlat jamiyatda taqsimot munosabatlarida faol ishtirok etib, o'zining faoliyatining moliyaviy asoslarini ta'minlashga harakat qiladi, bunday moliyaviy manbalarni joriy etish, uni undirish bilan birgalikda uning darajasini(kelajakdagi hajmini) doim aniqlash turish uning manfaatlariga mos keladi.

Manbalarga¹¹ ko'ra prognoz qilishning shakllanishi ma'lum bir bosqichlarga ega. Yuqorida ta'kidlangandek, dastlabki prognozlash va rejalashtirish bashorat tusida bo'lgan. Bu jarayon asosan falsafiy-tarixiy shakllanish deb atalib, unda diniy, hissiy va filosofik yondoshuvlar ustun bo'lgan va eramizdan avvalgi IV-V asrlargacha ushbu yo'nalishdagi


¹¹ Qarang: Едронова, В.М. Прогнозирование налоговых поступлений в субъекте Российской Федерации/ В.М. Едронова, Н.Н. Акимов // Финансы и кредит. - 2008. - №17 - С.51-54; Винокурова, Г.П. Налоги и налогообложение в Российской Федерации: учебное пособие / Г.П. Винокурова. - Йошкар-Ола.: МарГТУ, 2003. - 46 с.; Васильева, М.В. Методы налогового прогнозирования на макроуровне / М.В. Васильева // Управленческий учет. - 2011. - №6 - С.63-73.

bashoratlar hukmron bo'lib, falsafiy bashoratlarning asosini Platon va Konfutsiyalar ta'limoti tashkil etadi. Keyingi bosqich XV-XVI asrlarga tegishli bo'lib, bu bosqichda nazariy va amaliy ishlanmalar chuqurlashtirildi, bashoratlar insonning aqliy faoliyati natijalariga tayanildi va bashoratda tashqi muhitning ta'sirlari baholandi va mantiqiy xulosalarga asoslandi. XIX-XX asrlarda prognoz va rejalashtirishda muhim bosqich bo'lib, bu davrlarda prognozlashtirish va rejalashtirish jarayonlarida turli xil modellar va metodlar qo'llanila boshlandi, prognoz ko'rsatkichlari rejalashtirishda, qolaversa davlat boshqaruvida e'tiborga olinila boshlandi. Prognozlashtirish va rejalashtirishning hozirgi bosqichi asosan XX asrdan to hozirgi kunlargaacha davrni qamarab olib, bu davrlarda prognozlash jarayonini algoritmlash, uning inofrmatsion bazasini oshirish, axborot texnologiyalardan keng foydalanila boshlandi, uning natijalarining ishonchligining oshishi, prognoz jarayoniga ta'sir qiluvchi omillarni baholashning chuqurlashuvi bilan izohlanadi.

3.2. Iqtisodiy prognozlar va ularning mohiyati

Prognoz-grekcha (prognosis) so'z bo'lib-"oldindan ko'ra bilish," "oldindan aytish" degan ma'noni bildiradi. Iqtisodiy-ijtimoiy mohiyati bu- ko'zlangan maqsadga erishish(iqtisodiy holatga erishish)ning ilmiy asoslangan holda turli xil variantlarini baholashdan iboratdir.

Prognoz qilish turlari jud ko'p. Chunki, aytib o'tganimizdek, tabiat va jamiyatdagi har qaysi jarayon va hodisalarda rivojlanish jarayoni davom etadiki, ularning kelgusidagi holatini bilishga intilish prognoz jarayoni orqali amalga oshiriladi. Prognoz tushunchasi va uning mohiyatini o'rganish maqsadida ularni ma'lum bir mezonlar asosida guruhlarga ajratish mumkin. Shu jihatdan ularni ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni qamrab olishi; ko'lami va funktsional belgisiga ko'ra guruhlanadi.




7-rasm. Prognoz turlari.

Bunday guruhlash ular o'rtasidagi o'zaro aloqalarning yo'nalishlarini, ya'ni bir-biriga ta'sirini aniqlash imkoniyatini ham kuchaytiradi. Tabiiy-iqlim jarayonlarni qamrab oluvchi prognoz guruhiga kiruvchi prognoz turlari, ya'ni, masalan, resurslarni prognozlashtirish er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarida muhim rol o'ynasa, demografik prognozlashtirish esa jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va pensiya fondining mablag'larini prognoz qilish hamda real jismoniy shaxslar bo'yicha soliq

to'lovchilarning dinamikasini hamda aholining daromad keltiruvchi va transfert oluvchilar o'rtasidagi nisbatni ko'rsatib beradi.

Ilmiy-texnikaviy jarayonlarni prognoz qilish va uning ilg'or natijalari oqibatida esa ishlab chiqarish va uning omillarini joylashtirishga imkon yaratadi, chunonchi, atom elektr energiyasidan foydalanish va uni ishlab chiqilishi energiya ishlab chiqarish va uning iste'molini aniqlashning prognoz ko'rsatkichlariga katta ta'sirga ega, axborot texnologiyalari sohasidagi yangi o'zgarishlar, bu sohadagi prognozlar yangi turdagi «mahsulotlarni» beradi, ularning amalga oshirilishi esa boshqa sohalardagi taraqqiyotni kuchaytirishga xizmat qilishi bilan bir qatorda prognoz jarayonlarini tezlashtirishga yordam beradi(masalan, Excel programmasi, dasturiy mahsullar, ekonometrik hisoblarni amalga oshiruvchi maxsus programmalar va shu kabilar.)

Prognoz turlarini makro va mikro darajada guruhlash ular o'rtasida o'zaro bog'liqlikni aniqlash bilan birgalikda prognozni amalga oshirish jarayonlarining tashkiliy jihatlari va ularda qo'llaniladigan metodlar, prognozning oldiga qo'yilgan maqsad va olinadigan natijalarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Makroiqtisodiy prognoz milliy iqtisodiyot darajasida kechadigan va makro darajada yuz beradigan umumiy qonuniyatlarga bo'ysinadigan jarayonlarni qamrab olib, milliy iqtisodiyot, sohalar, tarmoqlar, hamda xalqaro munosabatlarga oid prognoz ko'rsatkichlarini ifodalasa, mikrodarajadagi prognoz hududlar, korxonalar, jismoniy shaxslar kesimida prognoz qilinayotgan obyektlarning prognoz ko'rsatkichlarini aks ettiradi. Ta'kidlash lozimki, prognoz turlari ichida iqtisodiy prognoz ham ko'lami, ham murakkabligi, qolaversa, boshqa prognozlarning umumiy yo'nalishlarini ko'rsatib berishda katta ahamiyatga egadir (8-rasm).



8-rasm. Iqtisodiy prognoz.

8-rasmdan ko‘rinadiki, iqtisodiy prognozlar ham ko‘lami, muddatligi, funktsional belgisi, jarayonlarni qamrab olishiga ko‘ra ma‘lum guruhlarga bo‘linadi. Iqtisodiy prognozlar muhim xususiyati shundaki, ular bir tomondan iqtisodiy qonunlar asosida mavjud bo‘lib harakat qilsa, boshqa tomondan ularning holatiga ta‘sir etuvchi omillar ham ichki jihatdan ham tashqi jihatdan ta‘sir etadi.

Iqtisodiy prognozlarni to‘g‘ri amalga oshirish faqat ularning ichki xususiyatlarini emas, balki, boshqa omillarning xususiyatlarini ham birdek baholashni taqozo qiladi, bu iqtisodiy prognozning boshqa prognozlardan muhim farqini ifodalaydi. Masalan, agrar tarmoqning rivojlanish ko‘rsatkichlarida tabiiy-jug‘rofiy omillarning ta‘siri ustun ahamiyatga ega, qayta ishlab tarmog‘ining ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari esa kon rudalarining joylashuv va ularning tarkibining xususiyatlariga ko‘proq bog‘liq bo‘ladi. Iqtisodiy prognozlar funktsional belgisiga qarab turkumlash ularni tadqiq etishning yo‘llarini aniqlashga xizmat qiladi, shu jihatdan ular normativli, izlanuvli, miqdoriy, sifatiy va kombinatsiyalashgan turlarga ajratiladi.

3.3. Soliqlarni prognoz qilishning iqtisodiy mohiyati

O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi jarayonida soliq siyosati ijtimoiy-iqtisodiy ustuvor yo‘nalishlarni davlat tomonidan rag‘batlantirishga qaratilgan bo‘lib, bu sohadagi islohotlar o‘zining ijobiy samarasini bermoqda. Iqtisodiyotni modernizatsiyalashning hozirgi sharoitida byudjet-soliq siyosatining muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri bu byudjet jarayoni va soliq tushumlarining o‘zaro muvofiqligini ta‘minlash, qolaversa, soliqlarning yig‘uvchanlik darajasini oshirish, shu orqali byudjet daromadlarining bir maromda shakllantirishga erishishdan iboratdir. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimov ta‘kidlaganidek, “Printsipiial muhim ustuvor vazifalardan biri – soliq siyosatini yanada takomillashtirishdir. Aytish joizki, ...ustuvor vazifalarning barchasi soliq siyosatimizning

takomillashtirish bilan bevosita bog'liq"¹². Soliq siyosatini yanada takomillashtirishda byudjet-soliq siyosatining yaxlitligini ta'minlash, uning negizida bosh masalalardan biri bo'lgan byudjet daromadlarini rejalashtirishda soliq salohiyatini e'tiborga olgan holda soliq tushumlarining byudjetga kelib tushishini ta'minlashga qaratilgan soliqlarni prognoz qilish jarayonini tashkil etish hisoblanadi.

Biroq, bu jarayon hozirgi kunda fudamental muammolardan biri sifatida namoyon bo'lib kelmoqda. "Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1257-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorida soliq xizmati organlari tizimida ".....ishlarni tashkil etishning zamonaviy shakl va metodlaridan zarur darajada foydalanilmayati..." deb ko'rsatib o'tilganligi boshqa jarayonlar singari soliq tushumlarini prognoz qilishning samarali usullari ishlab chiqilmaganligini ham bildiradi.

Demak, byudjet-soliq munosabatlarining samaradorlik darajasida soliq munosabatlari muhim va hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bizga ma'lumki, jamiyatda ehtiyojlar cheksizligi qonuniyati mavjud, bu holat davlatning moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojiga ham tegishlidir. Moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojning cheksizligi va uning hajmining qanchalik ko'pligi davlat faoliyatining samaradorligini ta'minlovchi omillardan biri bo'ladi. Albatta bu borada davlat soliq siyosatida progressiv soliqqa tortish tamoyillarini kuchaytirish orqali masalani hal etish mumkin, ammo, ushbu tamoyil ma'lum bir vaqtlar va davrlardagina o'z samarasini berish mumkin.¹³ Milliy iqtisodiyotdan uzluksiz ravishda yaratilgan yangi qiymatni(milliy daromadni) byudjetga safarbar etish iqtisodiyotda tanazzulga olib kelishi byudjet-soliq munosabatlariga oid ilmiy nazariyalarda juda ko'plab isbotlab berilgan.¹⁴

Shunday ekan, milliy iqtisodiyotdan qancha miqdorda soliq sifatida daromadlarni byudjetga safarbar etish mumkin va uning ham

¹² Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. Toshkent, 2005. – 88 bet.

¹³ Ingliz iqtisodchisi J.Keynsning progressiv soliqqa tortish nazariyasining AQSH iqtisodiyotiga ta'sirini eslash mumkin.

¹⁴ Masalan, A.Laffer egri chizig'ining mohiyati.


iqtisodiyotga ham byudjet orqali davlatning faoliyatiga ta'sirini muntazam baholab turish domiy muaommolardan biri bo'lib yuzaga chiqadi. Bu esa soliqlarni byudjetga kelib tushish darajasini, soliq to'lovchilarning soliq to'lash imkoniyati (salohiyati)ni aniqlashni zaruriyat qilib qo'yadi. Albatta, soliq to'lovchilarning soliq to'lash imkoniyati maksimal darajada ularning ixtiyoridagi moliyaviy resurslar hajmida bo'lishi mumkin. Biroq, yuqorida ta'kidlaganidek, ularning moliyaviy resurslarini ham ularning o'zlari ham davlat manfaatlarini¹⁵ yo'lida oqilona taqsimlash iqtisodiy jihatdan samaralidir. Bu jarayon aslida milliy iqtisodiyotni sotsial-iqtisodiy prognozlashtirish va unga asoslangan holda sotsial-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Milliy iqtisodiyotdagi sotsial-iqtisodiy nisbatlarni o'rnatish maqsadida markazlashgan pul fondlarining to'laqonli amal qilishini ta'minlash o'z navbatida davlatning moliyaviy boshqaruv funksiyasini keltirib chiqaradi.

Moliyaviy boshqaruvning muhim tarkibiy qismini esa moliyaviy rejalashtirish va prognozlashtirish tashkil etadi. Moliyaviy rejalashtirish jarayonida esa soliqlarni prognoz qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Soliqlarni prognoz qilish jarayonining zarurligi shundaki, iqtisodiy munosabatlar bozor qonunlari doirasida stixiyali tarzda kechadi, soliq to'lash majburiyati yuklatilgan iqtisodiy individlarning faoliyati raqobat muhitiga bog'liq bo'lib, ular turlicha darajada daromadlarga ega bo'ladi, ularning moliyaviy imkoniyatlari ham o'zgaruvchan xususiyatga ega bo'ladi, bundan tashqari ularning faoliyatiga ta'sir etuvchi juda ko'plab omillar mavjud bo'ladiki, ularning ta'sirida milliy daromadni o'zlashtirish darajasi tabaqalashadi va notekislikni keltirib chiqaradi provardida jamiyatning soliq imkoniyatlarining keskin farqlanishi obyektiv ravishda mavjud bo'ladi. Bundan tashqari boshqaruv jarayonida qarorlar qabul qilishda ilmiy asoslangan axborotlarga tayanish eng muhim shartlardan biri sanaladi.

¹⁵ Davlat manfaatlarini deganda uni ikki tomonlama tushunish kerak. Aslida davlat jamiyat a'zolari, jumladan, ishlab chiqarish sohasi vakillarining ham manfaatlarini ko'zlaydi.

Ilmiy asoslangan axborotlarni olish usullaridan biri sifatida ham prognoz qilish jarayoni yuzaga chiqadiki. byudjet-soliq jarayonida qarorlar qabul qilishda prognozning, jumladan, soliqlarni prognoz qilishga zarurligi mavjud bo'ladi. Soliqlarni prognoz qilish jarayoni sotsial-iqtisodiy prognozlashtirishning tarkibiy qismi sifatida uning zarurligi, amalga oshirish tartiblari va uning natijalarining qarorlar qabul qilish(rejalashtirishga asos qilib olinishi)da milliy iqtisodiyotning qaysi tizimga asoslanganligiga ham bog'liqdir.

Ma'lumki tabiat va jamiyatda sodir bo'ladigan har qanday ijtimoiy-iqtisodiy jarayon va hodisalarni zarurligini keltiruvchi chiqaruvchi omillar mavjud bo'ladi. Aynan ushbu qonuniyat soliqlarni prognoz qilish jarayoniga ham tegishli bo'lib, uning zarurligini ifodlovchi bir qator omillar mavjud.



9-rasm. Soliqlarni prognoz qilishning zaruriy omillari.

Keltirilgan rasmdan ko'rinadiki, soliqlarni prognoz qilishning obyektiv zarurligining negizi avvalo markazlashtirilgan pul fondlarining tashkil etilishga bog'liq bo'ladi va fiskal siyosatning asosiy o'zagini

tashkil etadi. Chunki, fiskal siyosat asosan pul fondlarining moliyaviy manbalarini aniqlash va ularni jalb etilishga qaratilgan bo'ladi. O'z navbatida soliqlarni prognoz qilishning zarurligini tavsiflovchi holatlar uning o'ziga xos belgilari bilan o'zaro bog'liqlikda bo'ladi.


Rejali totalitar iqtisodiyotga asoslangan iqtisodiy tizimda soliqlarga munosabat va ularning byudjetni shakllantirishdagi roliga muvofiq ravishda prognoz jarayonining zarurligi belgilangan va amalga oshirilgan, ya'ni passiv holatda bo'lgan. Bozor iqtisodiyotga asoslangan milliy xo'jalik yuritish sharoitida esa soliqlarni prognoz qilishning zarurligi, uning moliyaviy boshqaruvdagi roli hamda amalga oshirish tartiblari o'zgacha, ya'ni faol ahamiyatga ega bo'ladi.

Soliq tushumlarini prognoz qilish jarayoni boshqa iqtisodiy jarayonlardan alohida muhim farqi va murakkabligi shundaki, soliqni prognozlash jarayoni bir tomondan yuqori ehtimollikka asoslansa, boshqa tomondan ushbu jarayonni to'g'ri amalga oshirish juda ko'plab omillarning ta'sirini to'g'ri baholash va chuqur ilmiy tahlillarga asoslangan holda oqilona qaror qabul qilishni talab etadi. Albatta soliqlarni prognoz qilish jarayoni ma'lum tarkibga ega bo'ladi. Bizningcha u quyidagi tarkibga ega (10-rasm).

Soliqlarni prognoz qilish jarayoni avvalo soliq to'lovchilarning yuzaga kelish jarayonlarini prognoz qilish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni byudjetga kelib tushishini prognoz qilish, milliy iqtisodiyot, hudud, tarmoqlar va alohida olingan soliq to'lovchilarning soliq salohiyatini aniqlash hamda byudjetni rejalashtirish va soliqlarni prognozlash natijalarini bog'liqligini ta'minlashdek o'zaro bog'liq va ketma-ketlikka asoslangan jarayonlardan iborat bo'ladi.


Iqtisodiy prognoz umumiy prognozda qanday rol o'ynasa, obyektlarni qamrab olishi nuqtai nazardan moliyaviy prognozlar ham iqtisodiy prognoz guruhida shunday ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy prognozlar tarkibiy jihatdan moliyaviy resurslarni prognozi, byudjetni prognozashtirish, markazlashgan va markazlashmagan pul fondlarini prognozashtirish hamda soliqlarni prognozashtirishdan iborat bo'ladi.

Moliyaviy prognozlar iqtisodiy prognozlarning boshqa turlarining amal qilishining muhim sharti va asosi hisoblanadi.



10-rasm. Soliqlarni prognoz qilish jarayonining tarkibiy tuzilishi.

Ta'kidlash lozimki an'anaviy iqtisodiyot moliyaviy mablag'larga unchalik bog'liq bo'lmasligi mumkin, ammo, tsivilizatsiyalashgan iqtisodiyot sharoitida moliyaviy prognozlarni amalga oshirmasdan turib, boshqa sohalarining rivojlanish ko'rsatkichlarining prognozi haqiqatdan yiroq bo'ladi. Masalan, agar moliyaviy resurslarning amal qilishi va ularning prognoz ko'rsatkichlari aniqlamasdan turib ishlab chiqarishning prognozlarni aniqlash mantiqsizlik bo'ladi, chunki, ishlab chiqarish omillarini jalb qilish va ular asosida ishlab chiqarishni tashkil etish moliyaviy resurslarsiz amalga oshmaydi, yoki pulga bo'lgan talabni aniqlamasdan turib iqtisodiyotni pul bilan ta'minlash stixiyali kechadi va ishlab chiqarishning rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladi. Shu bilan birgalikda ta'kidlash lozimki, moliyaviy prognoz ichida ham soliqlarni prognoz qilish jarayoni alohida o'ringa ega.



11-rasm. Soliqlarni prognoz qilishning guruhlanishi.


Yuqorida keltirilgan 10-rasmdan ko‘rinadiki, soliqlarni prognoz qilish jarayoni ham ma‘lum mezonlarga asosan guruhlanadi. Bunday guruhlanish ularning mohiyatini va ular o‘rtasidagi farq va o‘zaro bog‘liqlikni ko‘rsatib beradi. Soliqlarni prognoz qilish ko‘lamiga soliq to‘lovchilarning yuzaga kelish jarayonlarini prognoz qilish, soliq tushumlarini byudjetga kelib tushish jarayonini prognoz qilish milliy iqtisodiyot, tarmoq, hududlar, soliq to‘lovchilarning soliq salohiyatini baholash (aniqlash) kabi jarayonlarni qamrab olib o‘z navbatida uning makro va mikro darajadagi jarayonlarni qamrab olinishini ifodalaydi. Prognoz obyektlarini qamrab olishi jihatdan esa bdjetning solikli daromadlar qismini prognoz qilish, soliq va majburiy to‘lovlarni prognoz qilish hamda soliq prognoziga ta‘sir etuvchi omillar bilan bog‘liq, byudjet, pul-kredit demografik, tashqi iqtisodiy jarayonlarning ta‘siriga oid munosabatlarining yo‘nalishlarini prognoz qilishga ajraladi.

Funksional belgisiga qarab intuiativli, formatsiyalashgan, sifatii, miqdoriy hamda kombinatsiyalashgan guruhlariga ajratilishi ularni tadqiq qilish nuqtai nazardan yondoshiladi. Soliqlarni prognoz qilishning mud-datliligi bo‘yicha guruhlanishi iqtisodiy va moliyaviy prognozlarda farqli ravishda ularning muddatliligi oralig‘i qisqaroq. Sababi soliqlarni prognoz qilish jarayonining ko‘pi bilan 5-7 yildan ortiq muddatga ko‘rsat-kichlarini aniqlash metodik jihatdan mumkin bo‘lsada, ammo, soliq tizimi tez o‘zgaruvchan va moslashuvchan bo‘lganligi sababli ularning juda uzoq muddatli prognoz ko‘rsatkichlari haqiqatdan uzoqlashib qoladi.

3.4. Soliqlarni prognoz qilishning maqsadi, prognozning vazifalari va tamoyillari

Soliq prognozining mohiyatini aniqlashda yana muhim bosqichlardan biri bu uning maqsadi va vazifalarining belgilanishidir. Soliqlarni prognoz qilishning maqsadi - byudjet-soliq siyosatida belgilangan vazifalarga erishish borasida byudjetga soliq tushumlarini tushishi

prognozining umumiy va xususiy qonuniyatlarini aniqlash, milliy, hudud va soliq to'lovchilarning soliq salohiyatiga baho berish hamda byudjetni rejalashtirishga oid muhim natijaviy axborotlarni taqdim qilishdan iborat bo'lsa, uning vazifalari quyidagilardan tashkil topadi:




12-rasm. Soliqlarni prognoz qilishning maqsadi va vazifalari.

Keltirilgan rasmdan ko'rinadiki, soliqlarni prognoz qilishning vazifalari sifatida quyidagi vazifalar yuzaga chiqadi:

- Turli darajadagi byudjetlarni optimal rejalashtirish uchun uning daromad manbalarining kelib tushishining turli variantlardagi prognoz ko'rsatikchlarini aniqlash;
- milliy iqtisodiyotni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni prognozlarini aniqlashda muhim axborot manbalari bilan ta'minlash;
- milliy iqtisodiyot, hududlar, tarmoqlar va soliq to'lovchilarning soliq salohiyatini muntazam aniqlash va unga ta'sir etuvchi omillarning ta'sirini baholash;
- barcha bosqichdagi soliqlarni prognoz qilish jarayoniga ta'sir etuvchi omillarning ta'sirini baholash;
- iqtisodiyotdagi turli darajadagi dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun zaruriy axborotlarni shakllantirish;
- turli darajadagi byudjetlar o'rtasida byudjetlararo munosabatlarni tartibga solishda muhim moliyaviy instrument sifatida ishtirok etish;
- davlatning YaIMni qayta taqsimlash borasidagi va soliq siyosatining asosiy yo'nalishlarini aniqlashga oid muhim uslubiy yo'nalishlarni ko'rsatib berish va hakoza.

Har qaysi iqtisodiy jarayonning o'ziga xos belgilari bo'ladi. Ushbu belgilar uning boshqa iqtisodiy kategoriyalardan farqli jihatlarini ko'rsatishi bilan birga uning ichki xususiyatlarini ham ochib berishga xizmat qiladi. Shu jihatdan olganda soliqlarni prognoz qilish tushunchasi (jarayoni)ning ham o'ziga xos belgilari mavjud bo'lib ular quyidagilarda ifodalanadi (13-rasmga qarang). Soliq prognozining eng muhim belgilaridan biri bu uning mavhumligidir, ya'ni prognoz aslida mavhum bo'lgan jarayon va hodisalarni qamrab oladi, ushbu mavhumlikni aniqlash esa prognoz jarayonini to'g'ri tashkil qilish, unda qo'llaniladigan metodlar va modellarni to'g'ri qo'llash hamda axborot bazasini to'g'ri shakllantirgan holda ularni to'g'ri qayta ishlash kabi tadbirlar(jarayonlar)ga bog'liq bo'ladi.



13-rasm. Soliqlarni prognoz qilishning belgilari va tamoyillari

Soliqlarni prognoz qilishning mavhumlik belgisi esa o'z navbatida uning keyingi belgisi bo'lgan ehtimollikka asoslanish belgisini ham keltirib chiqaradi (prognoz ko'rsatkichlari doim ehtimoliy bo'ladi, uning haqqoniyligini esa haqiqiy holat ko'rsatib beradi), prognoz jarayonining aniqliligi esa o'z navbatida tahlillar va ilmiy asoslangan holda ish yuritishni talab etadi. Prognozning yana muhim belgilari sifatida albatta u oldindan ko'ra bilish va aytishlik tamoyili asosida mavjud bo'lishligi, juda ko'p omillar ta'siriga egaligi hamda natijalarning muqobil variantlarda olinishligi kabi muhim belgilari yuzaga chiqadi. Prognozni tashkil qilishdan maqsad ham iqtisodiy jarayon, hodisa va voqeyliklarning kelgusidagi holati va rivojlanish tendentsiyalarini oldindan aytish hisoblanadi. Albatta bu jarayonda prognoz ko'rsatkichlariga juda ko'plab omillar ta'sir qiladi va bu uning muhim belgisi sifatida yuzaga chiqadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning real amal qilishi, ularning samaradorligiga erishish ko'p jihatdan uning amal qilish tamoyillarini aniqlashga bog'liq. Soliqlar iqtisodiy kategoriya sifatida majburiy to'lovlarni ifodalasa, iqtisodiy munosabatlar sifatida soliq to'lovchilar va davlat o'rtasida majburiy to'lovlarni to'lash bilan bog'liq iqtisodiy-huquqiy munosabatlarni ham ifodalaydiki, bunday munosabatlarning samarasi nafaqat soliq tamoyillariga, shuningdek, soliqni prognoz qilish tamoyillariga ham bog'liqdir.

Soliqlarni prognoz qilish va rejalashtirish jarayonida eng muhim narsa bu uni tashkil etish va amalga oshirish tamoyillaridir. Tamoyillar bu jarayonni tashkil etish va uning yo'nalishining «Yo'lchi yulduzi» hisoblanadi. Shu boisdan soliqlarni prognoz qilishda uning tamoyillarini to'g'ri belgilab olish prognoz natijalarining haqqoniyligini ta'minlaydi. Soliqlarni prognoz qilish tamoyillari avvalo jarayonlar va ilmiy tadqiqotlarni tashkil etishning umumiy tamoyillariga asoslansada, shu bilan birgalikda uning ichki xususiyatidan kelib chiqqan holda o'z xususiy tamoyillariga ham ega. Soliqlarni prognoz qilish tamoyillarining belgilanishiga qarab uni tashkil etish va amalga oshirish tartiblari belgilanadi. Amaliy nuqtai nazaridan soliqlarni prognoz qilishning

tamoyillari xususida ko'plab ilmiy yondoshuvlar mavjud bo'lib ularni umumlashtirgan holda quyidagilarni keltirib o'tish mumkin: tizimlilik tamoyil(barcha jarayonlar va elementlarni o'zaro bog'liklikda qarash) muvofiqlik tamoyili(prognoz jarayonida model, metod va axborotlar to'plamining bir-biriga muvofiqligi), variantlilik tamoyili-prognoz natijalari bir necha variantlarda ishlab chiqilishi), moslashuvchanlik tamoyili (prognoz ko'rsatkichlari va axborotlarining prognoz belgilariga moslashuvi), ishonchlilik tamoyili (prognoz natijalarining ishonchliligi), rentabellik tamoyili(prognoz natijalari samarasi prognoz jarayonini tashkil etish, uni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlardan yuqori bo'lishi).

Soliqlarni prognoz qilish tamoyillarini aniq belgilash va ularga asoslanish soliq tizimini samaradorligini ta'minlashga olib keladi, prognoz jarayonini amalga oshirishning umumiy yo'nalishlarini tavsiflaydi, uning qonuniyatlarini ko'rsatib beradi, binobarin, soliqlarni prognoz qilishning umumiy tendentsiyalarini aniqlash prognoz jarayonining aniqligini ta'minlaydi. Soliqlarni prognoz qilish jarayoni mavhumlikka va ehtimollik asoslanishi hamda juda ko'p omillar ta'sirida mavjud bo'lishi uning amal qilishining o'ziga xos tamoyillarini taqozo qiladi. Umumiy tartibda soliqlarni prognoz qilish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

To'lovga qobiliyatlilik tamoyili. Soliqlarni prognoz qilishda asosiy tamoyillardan biri to'lovga qobiliyatlilik tamoyili bo'lib, uning asosiy mohiyati byudjet daromadlarini shakllantirishda soliqlar miqdorini, ya'ni, byudjet daromadlar so'mmasini faqat o'tgan yilgi ko'rsatkichlarni inflyatsiyani hisobga olgan ko'rsatkichlar asosida emas, balki, soliq to'lovchilarning to'lovga qobiliyatini va soliqlarning adolatlilik tamoyilini hisobga olgan holatdan kelib chiqib aniqlashni taqozo etadi. Soliq to'lovchilarning soliqlarni to'lash imkoniyatini ularning moliyaviy ko'rsatkichlarini chuqur tahlil etgan holda, ularning foyda olish darajasi dinamikasiga alohida e'tibor qaratish zarur bo'ladi.

Soliqlarni prognoz qilishda **miqdoriylik tamoyilini** ham qo'llash o'z mohiyatiga ega. Prognoz jarayonida soliq to'lovchilar soni va miqdorini e'tiborga olish soliq tushumlari hajmi aniqlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu tamoyilning mohiyati shundaki soliq tushumlarining prognoz qilishda soliq to'lovchilarining sonining dinamik o'zgarishi, ya'ni yangi tashkil etilayotgan yoki tashkil etilishi kutilayotgan soliq to'lovchilar miqdori, ularda yaratilgan ish o'rinlari soni, o'z faoliyatini tugatgan (bankrot bo'lgan) soliq to'lovchilar soni, zarar ko'rib ishlayotgan va uzluksiz daromad olib kelayotgan soliq to'lovchilar soni, yangi tashkil etilayotgan korxonalarining sohalar bo'yicha tarkibi doimiy soliq imtiyozlariga ega bo'lganlarning qanchasi o'z faoliyatini davom ettirganlar soni va shu kabi ko'rsatkichlarga asoslanish lozim.

Soliqlarni prognoz qilishda **hisobga olish tamoyiliga** amal qilish soliqlarni prognoz qilishda va soliqlar miqdorini belgilashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bu tamoyilda soliqlar bo'yicha byudjetga boqimanda so'mmalariga ega bo'lgan soliq to'lovchilar, boqimanda qarzlarning vujudga kelish sabablarini tahlil etish, davlat tomonidan faoliyatni rag'batlantirish maqsadida berilgan soliq imtiyozlarining samarasi, soliq to'lashdan qochayotgan, soliq qonunchiligini muntazam soliq to'lovchilarning faoliyati natijasida byudjetga kelib tushishi lozim bo'lgan soliq tushumlari bo'yicha yo'qotishlarni alohida hisobga olish asosiy e'tiborda bo'ladi.

Tizimlilik tamoyili. Ma'lumki, soliqni prognoz qilish jarayonida juda ko'plab iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalanishga to'g'ri kelib, ularni bir-biri bilan bog'liq holda o'rganishni toqoz etadi. Bu tamoyilning mohiyati shundaki, qo'llaniladigan ko'rsatkichlar va o'rganiladigan jaryonlarni o'zaro bog'liqda qarab, ularga ta'sir etuvchi omillarning ham ta'sirini e'tiborga olishni taqozo etadi. Prognoz jarayonida unchalik muhim bo'lmagan ko'rsatkichlarni e'tibordan chetda qoldirish yoki ko'rsatkichlarning prognoz jarayonidagi rolini etarlicha baholamaslik prognoz natijalariga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Masalan, foyda solig'i

bo'yicha soliq tushumlari prognoz qilinayotganda foyda solig'i to'lovchilari soni, ya'ni miqdor ko'rsatkichlari asos qilib olinib, sifat ko'rsatkichlar bo'lgan-soliq to'lovchilarning moliyaviy natijalari(foyda yoki zarar) prognoz jarayonidan chetda qolib, miqdor va sifat ko'rsatkichlar yaxlit(bog'liq) holda o'rganmaslik prognoz natijalarining haqqoniyligi pasayishiga(ehtimollikni oshishiga) olib kelishi shubhasiz.

Ta'kidlanganidek, soliq prognozi mavhumlik va ehtimolikka asoslanadi. Biroq, prognoz jarayoni yakunida esa aniqlikka asoslangan holda ko'rsatkichlarga erishish bosh maqsadlardan biri sanaladi. Bu esa soliq prognozining **ehtimollikdan aniqlikka intilish tamoyili** asosida ta'minlanadi. Prognoz jarayonining dastlabki va oraliq bosqichida ehtimollik ko'rsatkichlari asosiy rol o'ynaydi. Ammo bosh maqsad-yuqori aniqlikka asoslangan prognoz ko'rsatkichlariga ega bo'lishga erishish ehtimollik ko'rsatkichlarining aniqlik ko'rsatkichlariga tarnasformatsiyalashuvini taqozo etadi. Bu tamoyilning o'ziga xos yana bir xususiyati bu prognoz jarayonida qo'llaniladigan usullarni to'g'ri tanlashni, prognoz jarayonining qaysi davrida yoki shaklida qo'llaniladigan metodlarning qaysi biri ehtimollik ko'rsatkichlarini aniqlikka aylantirishini tavsiflaydi. Prognoz jarayonida ehtimollik ko'rsatkichlarining aniqligini ta'minlashga erishish prognoz jarayonining samaradorligini bildiradi. Agar ehtimollik ko'rsatkichlarining ta'siri kamayib borsa, prognoz natijalarining aniqligi oshib borishi, provardida esa natijalar asosida rejalar tuzilishiga erishiladi.

Soliqni prognoz qilish jarayonida ta'kidlanidek, byudjet daromadlari qismiga kelib tushadigan moliyaviy resurslarning hajmini maksimal darajada aniqlikda hisoblash bo'lib, prognoz jaryonida ham asosiy e'tibordan biri sifatida barcha jarayonlar prognozning maqsadiga qaratilishi lozimligini taqozo etadi. Biroq, prognoz jarayonida umumiy maqsad byudjetning daromadlar qismiga soliq tushumlarining kelib tushishini baholash bo'lsa, ayrim hollarda prognoz jarayonida maqsad boshqacharoq, masalan, prognozga ta'sir etuvchi omillarni baholash maqsad qilib qo'yilishi mumkin. Shu jihatdan olganda soliqni prognoz

qilish jarayonida oraliq maqsad ham bo'lishi mumkin. Maqsadga qarab esa qo'llaniladigan metodlar ham farqlanadi. Demak, soliqni prognoz qilishning ham tashkiliy bosqichida, ham yakuniy bosqichida ham yakuniy maqsadga qaratilganlikdan kelib chiqish lozim bo'ladi. Bu esa prognoz jarayonining yo'nalishi maqsadning mazmunidan kelib chiqqan holda belgilanishini tavsiflovchi-**prognozning tashkil etilishi va amalga oshirilishi prognozning maqsadiga qaratilganligi tamoyili**ning mohiyatini ifodalaydi.

Dogmalikdan uzoqlashish va o'zgaruvchanlikka moyillik tamoyili. Mazkur tamoyil soliqni prognoz qilish jarayonida jarayon(ko'rsatkich, omil, holat, hodisa)larni o'zgaruvchanlikda olib qarashni tavsiflaydi. Ya'ni, dastlabki bosqichda olingan natijalarga dogmatik sifatda emas, balki, ular o'zgaruvchanlikka moyilligini e'tiborga olish lozim bo'ladi. Natijalarga o'zgarimas deb qarash prognoz jarayoninig yo'nalishlarida xatolikka olib kelishi mumkin. Shu jihatdan olganda prognozda dogmalikdan uzoqlashgan holda o'zgaruvchanlikka moyillik asosida ishlash prognozning oldiga qo'yilgan maqsadga erishishda asosiy omillar bo'lib xizmat qiladi.

Soliqlarni prognoz qilish jarayonida amal qiladigan yana bir tamoyil bu **sintez va tahlilning yagonaligi tamoyilidir**. Ma'lumki, sintez bu tahlildan farqli ravishda o'rganilayotgan obyektни ularni belgilariga qarab birlashtirish, ilgari mavjud bo'lmagan qismlarini to'ldirish va joylashtirishni ifodalaydi. Sintezlash jarayonida prognoz obyektiga tegishli ko'rsatkichlar tartiblanadi va ular bir-biri bilan to'ldiriladi. Sintez vositasida birlashtirilgan(tartiblangan) ko'rsatkichlar va obyektlar esa tahlil qilinadi, natijada esa prognoz jarayonini amalga oshirish soddalashib, olinadigan xulosalarga zamin yaratiladi. Demak, soliqni prognoz qilish jarayonida obyektlar va ko'rsatkichlar sintezlash asosida tahlil qilishga asoslangan mazkur tamoyil katta ahamiyatga ega. **Jarayonni tashkil qilishda mantiqiylik, amalga oshirishda tahlil, yakuniy ko'rsatkichni qabul qilishda baholashning ustunligi tamoyili** ham soliqni prognoz qilish jarayonini ma'lum tizimga solish

asosida uni to'g'ri amalga oshirishda munosib rol o'ynaydi. Prognoz jarayonini tashkiliy bosqichida albatta mantiqqa asoslanish, uni amalga oshirishda tahlillar munosib o'rin tutishi, jarayon so'ngida olingan natijalar esa albatta baholanishi, ya'ni bir necha variantlarni eng ishonchlisini tanlash prognoz jarayonida katta ahamiyatga egadir.

Soliqlarni prognoz qilish tamoyillari soliqqa tortishning umumiy tamoyillari bilan o'zaro bog'liqlikda bo'ladi. Soliqqa tortishning umumiy tamoyillaridan bo'lgan adolatlilik tamoyilida shu narsa nazarda tutiladiki, soliqlar shunday miqdorda undirilishi kerakki, ham davlat, ham soliq to'lovchi manfaatlariga mos kelish kerak. Bu esa soliqqa tortishning zamonaviy tamoyillaridan bo'lgan etarlilik tamoyiliga ham tegishlidir. Ushbu tamoyillarda nazarda tutilgan byudjetga zarur bo'ladigan moliyaviy mablag'larning holatini esa soliq prognozi tamoyillari aniqlab beradi.

3.5. Soliqlarni prognoz qilish jarayonining tarixiy shakllanishi va unga oid nazariy qarashlar¹⁶

Soliqlarni prognoz qilish tushunchasi va jarayoni ma'lum shakllanish va rivojlanish akspektlariga ega. Qadimgi dastlabki va keyingi davrlarda ham albatta, davlat xazinasining moliyaviy manbalarini chamalab borishda davlatning ma'lum bir shaxslari, mansabdorlar, keyinchalik alohida bo'linmalari shug'ullanishgan, bu jarayon davlatning shakli, uning tuzilishi, qolaversa iqtisodiy siyosatining mazmuniga qarab shakllanib takomillashib borgan. Bu masalaga tarixiy nuqtai nazardan qaralganda ayrim tarixiy dalillar buni isbotlaydi.

Masalan, qadimgi Rim davlatida imperator A.Oktavian tomonidan davlat xazinasiga kelib tushadigan daromadlarning hajmini aniqlash maqsadida joylarda davlatning moliyasi shug'ullanuvchi davlat

¹⁶ Ushbu paragrafdagi tarixiy jarayonlar quyidagi manbalarga tayanilgan: Uchebnik finansovogo prava. Ilovayskiy S.I. - Odessa, - 1904g. // Allpravo.Ru -2005; Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. "Sharq" nashriyoti, T.: 2001; Istoriya Uzbekistana va istochnikax; «Islom dini tarixi va falsafasi» fani bo'yicha ma'ruzalar matni. Toshkent 2010 y. Tuzuvchi: C.Oqilov. <http://library.ziyounet.uz>.

idoralarini tashkil qilindi, har bir erlarning kadastrlarini aniqlash, har bir mol-mulk va er egalariining deklaratsiyalar topshirish majburiyatlari joriy qilindi. Chunki, Rim imperiyasining boshqa bosib olgan hududlari hajmi keng bo'lib, ulardan majburiy to'lovlarni undirish murakkablashib, ularning hajmini aniqlash ham qiyinlashib borgan ediki, oqibatda esa davlat daromadlarining hajmini aniqlash va ularning kelgusida kelib tushish ehtimollarini aniqlash ishlarini tashkil qilishni taqozo etdi.

Qadimgi arab davlatlarida jumladan, Muhammad Payg'ambardan keyingi davrlarda davlat hukmdordi bo'lgan Umar ibn al-Xattob davrida olib borilgan soliqlar siyosatidagi islohotlar natijasida boshqaruv tizimini takomillashtirilib davlat xazinasiga kelib tushadigan tushumlarning hisobini olish va ularning kelgusi davrdagi hajmini aniqlab borish maqsadida Devonlar tashkil qilindi. Devon – fors tilida «ro'yxat», «qayd qilish» yoki «daftar» ma'nolarini anglatadi. Unda bir necha bo'limlar mavjud edi. Jumladan, Askarlar devoni (الجنـت ديوان) da askarlar nomi, qabilalar tarkibi va ularning har biriga beriladigan maoshlar belgilangan bo'lsa, Xaraj devoni(الخـراج ديوان)da esa «Bayt al-mol»ga topshiriladigan soliqlar qayd etib borilgan. Bu davrda devonning doimiy tarkibini o'z ichiga oluvchi ro'yxat tuzilgan bo'lib, unda kirim va chiqim, shuningdek, davlatdan maosh olish huquqiga ega bo'lgan kishilar ro'yxati qayd etib borilgan.

1200 yillarning boshlarida Xitoyning Mug'ullar tomonidan bosib olinishi va unga qarshi kurash olib borgan Chju Yuanchjana hukmdorligi vaqtida ham soliq tizimi takomillashtirilib borilib, davlat xazinasiga kelib tushadigan boshqa daromadlar bilan birgalikda solikli daromadlarning kelib tushishini aniqlash maqsadida 1370 yildan boshlab erlarning ro'yxati tuzildi va ularning kadastrlari ishlab chiqildi va bu «Sariq reestr» deb nomlandi. 1387 yilda esa butun Xitoyda yagona erlarning reestri yaratildi va xitoy tilida «ribicheysho'ycha-togo» deb nomlandi. Ushbu hujjatda har bir erga birlashtirilgan dehqonlardan undiriladigan soliqlar aniq qilib belgilab qo'yilish birgalikda soliq tushumlarining kelgusidagi hajmlari ham yozib borilgan.

Vatanimiz hududida amal qilgan qadimgi davlatchilik shakllarida ham solikli tushumlarni hisobga olib borish va ularning kelgusidagi hamjini aniqlash ishlari tashkil qilib borilgan. Ayniqsa bu jarayon davlatchilikning keyingi davrlarida miloddan keyingi 800-900 yillarda yuzaga kelgan, Farg'ona, Isfijob, Shosh, Samarqand, Buxoro, Xorazm, Chog'aniyon, Xuttalon, Kesh, Xuroson va Seyiston kabi o'lkalarni birlashtirgan yirik Somoniylar davlatida ancha rivoj topdi. Somoniylar davlat boshqaruvida 10 ga yaqin devonlar(vazirliklar) tashkil etilib, ularning orasida davlatning moliyaviy masalalari bilan shug'ullanadigan Moliya ishlar devonligi tuzilib, unda davlat g'aznasiga tushadigan barcha daromadlar, jumladan soliqlarning kelib tushishi va undan davlat manfaatlari yo'lida sarflanish masalalari bilan birgalikda soliq tushumlarining kelgusidagi hajmini aniqlash asosida xarajatlarni rejalashtirish ishlari amalga oshirib borilgan. Viloyat va tumanlar (shaharlar)dan soliq yig'uvchilar tomonidan undiriladigan soliqlarning hisob-kitob ishlari ushbu devonning zimmasiga yuklatilgan. Masalan, IX-XIII asrlarda qadimgi rus davlatlarida erlarga feodal egalik qilishning joriy etilishi, er egalarning o'z erlaridan foydalanganligi uchun turli xil to'lovlarni joriy etish bilan birga uning kelgusidagi hajmini aniqlash ishlarini ham tashkil qilgan.

A.Temur hukmronligi davrida davlatning boshqaruv tizimi ikki bo'g'inga, ya'ni Dargoh va Devonlarga bo'lingan. Davlatning moliyaviy va soliqlarni undirish bilan bog'liq ishlarni Mulkehilik va soliq ishlari vaziri hamda Moliya vaziri tomonidan tashkil etilgan. Mulkehilik va soliq ishlari vazirligi turli sabablarga ko'ra egasiz qolgan mol-mulkarni ro'yxatga olish, ularni taqsimlash, savdogarlardan zakot va boj to'lovlarni olish, joriy qilingan soliqlarning hisobini yurtish va uni undirish ishlarini tashkil etish, mamlakat chorvalari yaylovzor va mayzazor erlarni boshqarish, ulardan tushadigan daromadlarni hisobga olish, mulkehilik bo'yicha merosxo'rlik maqomlarini belgilash masalalari bilan shug'ullannishgan. Moliya ishlari vazirligi esa davlat g'aznasiga kelib tushgan daromadlarning sarflash hamda uni nazorat qilish, daromadlarni

ko'paytirish yo'llarini aniqlash ishlari bilan shug'ullanishgan. Bundan ko'rinadiki, A.Temur hukmronligi davrida ham davlat xazinasiga kelib tushadigan soliqli daromadlarning hajmini aniqlash ishlari tashkil qilingan va u maxsus vazirlik tomonidan amalga oshirib borilgan.

XIII asrda Rus davlatining Qizil O'rda xonligiga o'lponlar to'lashiga majburligi oqibatida bunday majburiyatni bajarishni ta'minlash maqsadida podshoh(Ivan III) amri bilan 1460 yillarda davlat xazinasiga soliqlarning kelib tushishini rejalashtirib borish ishlari tashkil qilinadi.¹⁷ 1655 yilda esa Rus davlatida davlat xazinasiga mablag'larning kelib tushishini ta'minlovchi va uning prognozini amalga oshirish bilan shug'ullanuvchi maxsus «Hisob palatasi» tuziladi, 1672-1725 yillarda Petr I tomonidan soliqlar va to'lovlarni undirishning yangi tartiblari joriy etiladi. 1693 yilda maxsus qonunga ko'ra har bir shahar va qishloqlardan soliqlarni undirish joriy qilinib, davlatning xazinasini boyitib borish va uning hajmini aniqlab borish ishlari bilan shug'ullanuvchi maxsus bo'linmalar tashkil qilinadi va unga yirik mutaxassislar jalb qilinadi.

XIX asrga kelib davlat arbobi M.M. Speranskiy tomonidan «moliya rejasi» ishlab chiqiladi va unda moliyaviy manbalarning hajmi va uning xazinaga kelib tushishini prognozlash masalalari ham o'rin oladi. Bu davrga kelib ya'ni, moliya, soliq masalalari bilan birinchilardan ilmiy tadqiqotlar olib borgan N.I. Turgenev 1818 yilda o'zining «Soliq nazariyasidan tajriba» nomli asarini chop etadi. Ushbu asarda soliqlarning iqtisodiy mohiyati, davlatning moliya xo'jalik faoliyati masalalari bilan bir qatorda davlat xazinasiga soliqlarni jalb etish va uning prognozi haqidagi ilmiy g'oyalar o'rin oladi. 1898 yilda Nikolay II tomonidan hunarmandchilik solig'ining joriy etilishi va uning stavkasining tabaqalashtirilishi soliqlarni kelib tushishi ishlarini tashkil qilinishini ham taqozo etdi. iqtisodchi mutaxassis S.Yu. Vitte 1899 yilda davlatga xorijiy investitsiyalarni jalb etish, ulardan soliq undirish hamda soliqlarning hajmini aniqlashga qaratilgan davlatning moliyaviy

¹⁷ Попова, Л.В. Прогнозирование и планирование в налогообложении: учеб.пособие для вузов/ Л.В. Попова, Н.Г. Варака, М.В. Васильева. – Орел: ОрелГТУ, 2007. – 264с.

siyosatini ishlab chiqadi va soliqlarni rejalashtirish ishlari davlat darajasida rivojlantiriladi.

Davlat darajasida rejalashtirish va prognozlashtirish ishlarining rivojlantirilishi 1920 – 1955 yillar oralig'ida rejali boshqarishning muhim bo'g'inlaridan biri sifatida sobiq SSSR davrida Xalq Xo'jaligi Oliy Kengashi tuzilib davlat darajasida rejalashtirish va prognozlashtirish ishlariga boshchilik qildi. 1960 yillarga qadar soliq ittifoq iqtisodiyotini rivojlantirishda asosan rejalashtirish ishlariga urg'u berildi, faqat 1960 yillardan so'ng esa rejalashtirish ishlari prognozlash ko'rsatkichlarildan kelib chiqib belgilana boshlandi, o'z navbatida mamlakat xo'jaligini prognozlashtirish bilan shug'ullanuvchi maxsus ilmiy tekshirish muassasalari va markaz tashkil qilindi.

O'tgan asrning 60 yillariga qadar prognoz jarayonida prognoz tushunchasi amaliyotda deyarli qo'llanilmagan. Hatto, 1971 yilda nashr qilingan «Matematika va kibernetika iqtisodiyotda» nomli lug'atda ham prognoz termini kiritilmagan. 1970 yillarning oxirlarida sobiq ittifoq davrida prognozlashtirish ishlari bo'yicha mamlakatning yirik olimlari boshchiligida yirik hajmdagi prognozlashtirish va rejalashtirish bo'yicha loyihalar amalga oshirildi. Bu davrlarda birinchi marta mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning 1976-1990 yillarga mo'ljallangan muqobil rejalari ishlab chiqildi va prognozning muqobillik xususiyati ham nazariy, ham amaliy jihatdan yuzaga chiqa boshladi.

Rejalashtirish va prognozlashtirish jarayonlari asosan «Futurologiya» termini bilan izohlangan. «Futurologiya» (lot. futurum —kelajak va ...logiya) — keng ma'noda insoniyat kelajagi, umumbashariy muammolar haqidagi umumiy kontseptsiya yoki tasavvurlar majmuasi; tor ma'noda — ijtimoiy jarayonlar hamda fantexnika taraqqiyotiga oid sohalardagi jarayonlarni izchillikda o'rganish va kelajagini bashorat qilish imkoniyatini beradigan fan sohasi, «bashorat qilish» so'zining sinonimi. 1943 y. nemis sotsiologi O. Fleytxeym «Futurologiya» terminini kelajak haqidagi fan sifatida ishlatishni taklif qilgan. Hozirgi vaqtda futurologiyada 2 asosiy yo'nalish kuzatiladi. 1 yo'nalish —

«ekologik pessimizm» tarafdorlari insoniyat rivojining salbiy oqibatlarini bashorat qilsalar, 2 yoʻnalish — ilmiy-texnikaviy optimizm namoyandalari texnologiya taraqqiyotining ijobiy imkoniyatlari asosida insoniyat tsivilizatsiyasini saklab qolish mumkin, deb hisoblaydilar.¹⁸

Prognoz jarayonining koʻlami, uning oldiga qoʻyilgan maqsad va vazifalar iqtisodiy tizimga ham bogʻliq boʻladi. Rejali iqtisodiyotdagi prognozning xususiyati bilan aralash bozor munosabatlariga asoslagan iqtisodiy tizimdagi prognozning koʻlami va uning oldiga qoʻyilgan maqsad va vazifalar tubdan farqlanadi. Prognozdan asosiy maqsad va uning vazifalar ham davlatning iqtisodiy siyosatidan kelib chiqqan holda belgilangan. Sobiq ittifoq davrida prognozlash jarayoniga burjuaziya belgilari sifatida qaralgan, ayniqsa moliyaviy jarayonlar, byudjet va soliqlarni prognozlash jarayoni deyarli toʻliq mafkuraning mazmunidan kelib chiqqan va amalga oshirilgan. Oʻtgan asrning oltmishinchi yillarida soliq ittifoq davlatini soliqlarsiz davlat byudjetini shakllantirishga erishadigan yagona davlatga aylantirish borasidagi mafkuraviy-iqtisodiy gʻoyalari yuzaga kelgan bir sharoitda soliqlarni prognoz qilish xususidagi ilmiy qarashlarga oʻrin qolmadi.

Vaholanki, oʻtgan asrning 20 yillaridagi oʻsha mashhur GOELRO rejasida boshqa masalalar qatori davlat byudjetining manbalarini (soliqlarni) rejalashtirish va uning koʻlamini aniqlash borasidagi deriktiv vazifalar belgilab olingan edi. Bu davrlarda soliqlarga eksplutatsiya quroli sifatida qaralishi nuqtai nazardan yondoshilganligi oʻz navbatida ularning byudjetga kelib tushish jarayonlarini prognoz ham ham amaliy ham nazariy jihatdan mazmunga ega boʻlmagan. Shunday boʻlsada oʻtgan asrning 50 yillaridan keyin butun xalq xoʻjaligini rivojlantirishga oid prognozlash jarayonini amalga oshirilishida iqtisodiy masalalar sotsial masalalar bilan birgalikda amalga oshirilgan. Bunda esa sotsial masalalar (aholini ish oʻrinlari bilan taʼminlash, uy-joy, taʼlim muassasalari, dam olish joylari, sogʻliqni saqlash muassasalarini qurish va shu kabilar)ni rivojlantirishning prognoz koʻrsatkichlarini aniqlash

¹⁸ Oʻzbekiston Milliy entsiklopediyasi. "F" harfi. Toshkent.

albatta ularning moliyaviy manbalarini prognozlashtirmasdan turib amalga oshirish qiyinligi e'tiborga olingan.

O'tgan asrning o'rtalariga kelib Sobiq ittifoq davrida soliqlarni prognoz qilishga oid ilmiy tadqiqotlar asta-sekin rivojlanib bordi. Akademik A.I. Anchishkin boshchiligida bir qator olimlar tomonidan xalq xo'jaligi resurslarini qayta ishlab chiqish jarayonlari, tarmoqlararo majmualarning rivojlanish tendentsiyalari, investitsiya jarayonlari, mehnat resurslari, daromad va iste'mol o'rtasidagi bog'liklar masalalari prognozlari bilan bog'liq ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirgan bo'lsa, Yu.V.Yaremenkoning ilmiy tadqiqot ishlari esa resurslarning ierarxiyali tarzda amalga qilish qonuniyatlari va ularning prognoz jarayonlariga bag'ishlandi, davlatning rejalashtirish prognozlashtirish jarayonlarini takomillashtirishga oid tadqiqotlar amalga oshirildi. Bular orasida xalq xo'jaligining moliya sohasini rejalashtirish va prognozlashtirishga ilmiy tadqiqot ishlari ham o'rin oldi. Bu borada L.V. Popova, M.V. Vasileva va N.G. Varaksalarning ilmiy tadqiqot ishlari natijalari katta ahamiyat kasb etdi¹⁹. Asosan L.V. Popovaning ilmiy tadqiqot ishlarida soliqlarning iqtisodiy mohiyati kabi masalalar bilan bir qatorda soliqlarni rejalashtirish va prognozlashtirishning sotsial-iqqisodiy roli, uni amalga oshirishning algoritmlari kabi masalalar keng o'rin oldi. Davlat byudjetining daromad manbalarini rejalashtirish va uni prognozlashtirish byudjet orqali davlatning iqtisodiyotni tartiblashuvida muhim moliyaviy instrument sifatida amal qilishini ko'rsatib berdi.

Jahon moliya xo'jaligida soliqlarni prognoz qilish va rejalashtirishga oid jarayonlar va uning zamonaviy muammolari iqtisodchi olimlar A.R. Gorbunov, V.A. Kashin, S.F. Sutirinlar tomonidan o'rganildi.²⁰ Ushbu olimlarning ilmiy qarashlarida soliqlarni prognoz qilishning jahon tajribasi va uning muammolarini hal etishda ikkita asosiy yo'nalishlar

¹⁹ Qarag: Попова, Л.В. Прогнозирование и планирование в налогообложении: учеб.пособие для вузов/ Л.В. Попова, Н.Г. Варакса, М.В. Васильева. – Орел: ОрелГТУ, 2007. – 264с.

²⁰ Горбунов А.Р. Налоговое планирование и снижение финансовых потерь. - М.: СО «Анкид»,1993.; Кашин, В.А. Полный словарь терминов и нормативных понятий, используемых в деятельности ФНС России АНС России и Росфинмониторинга / В.А. Кашин, А.Б. Паскачев, К.В. Седов. - М.: Магистр, 2007. – 541с.; Сутырин, С.Ф. Налоги и налоговое планирование в мировой экономике / С.Ф. Сутырин, А.И. Погорелский. – СПб.: Полнум, 2003. - 214с.

aniqlandi. Ushbularning fikricha avvalo soliqlarni rejalashtirishda har bir davlatning farqlanuvchi xususiyatlarini e'tiborga olgan holda davlatlararo aspektlarni hisobga olish, ya'ni davlatlararo hududiy yaqinlik va qulaylik moliya bozorlarida katta ahamiyatga ega bo'ladi, ushbu holatni esa prognoz va rejalashtirish jarayonlarida doim diqqat markazdan qochirmaslik, shuningdek, xalqaro soliqqa tortishda rezidentlarning o'z daromadlarini «Offshor hududlar»ga o'tkazishga va yuqori daromad keltiruvchi zonalarga yo'naltirishga intilish kuchayib borishiga e'tibor qaratish kerak bo'ladi.

3.6. Soliqlarni prognoz qilishni tashkil qilishning xorij tajribasi.

Jahon amaliyotida davlat darajasida makroiqtisodiy prognozlashtirish masalalari o'tgan asrning o'ttizinchi yillarida yuzaga kelib boshladi. Davlat darajasida tizimli ravishda rejalashtirishning ahamiyati va uning yo'nalishlarni xarakterlovchi dastlabki yirik ilmiy tadqiqot ishlari e'lon qilina boshlandi. Nemis iqtisodchisi K. Landauer tomonidan 1944 yilda «Milliy rejalashtirish nazariyasi» nomli asarida indikativ rejalashtirish va prognozlashtirishning iqtisodiyotni boshqarishdagi ta'siri ko'rsatib beriladi.

Soliqlarni prognoz qilishning soliqlarni undirish va jalb qilish borasidagi muammolarga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari o'tgan asrning 70 yillaridan ancha avj oldi. Bu vaqtga qadar esa moliyaviy rejalashtirish va prognozlashtirish muammolari sifatida tadqiq etib kelindi. Chunki, bu vaqtlarda dunyo mamlakatlarida soliqlar masalalari davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlari sifatida o'rin olib bo'lgan edi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng soliqlarni rejalashtirish va prognozlashtirish masalalari muhokamasi yanada rivoj oldi, davlat daromadlarini aniqlashda va taqsimlashda soliqlarni prognozi natijalariga keng tayanila boshlandi. Provardida esa jahon mamlaktlarida makroiqtisodiy darajada soliqlarni rejalashtirish va prognoz qilishning ikki muhim yo'nalishlari paydo bo'ldi.

Birinchi yoʻnalish asosan soliqlarni rejalashtirish va prognozlash-tirishni amalga oshiruvchi davlat organlarining faoliyatini bu boradagi vazifalarini kuchaytirilish bilan bogʻliq boʻlib, asosan Frantsiya, Kanada va Yaponiya davlatlarida amalga oshirildi. Ikkinchi yoʻnalish 1960 yillarda rivojlanib, bunda soliqlarni prognoz qilish bilan bogʻliq maxsus organlar tashkil qilina boshlandi. Frantsiyada «Rejalashtirish bosh komissariat», Kanadada «Iqtisodiy kengash», Yaponiyada «Iqtisodiyotni modernizatsiyalash boʻyicha iqtisodiy maslahat kengashi», «Iqtisodiy rejalashtirish boshqarmasi», «Fan va texnika boshqarmasi», Gollandiyada «Markaziy bosh rejalashtirish byurosi» tashkil etildi, ularning oldiga mamlakat iqtisodiyotni kompleks rivojlantirishning rejasini tuzish bilan bir qatorda soliqlar boʻyicha tushumlarning hajmlarini aniqlab borish, soliqlar boʻyicha qarzdorlikni kamaytirish yoʻllarini aniqlash vazifalari ham yuklatilgan edi.

Jahon amaliyotida soliqlarni prognoz qilish va rejalashtirish tushunchalarining mazmunini ham talqini oʻrtasidagi farqlar izohlandi. Soliqlarni prognoz qilish jarayonini byudjet jarayonining ajralmas qismi sifatida asoslangan va real hisob-kitoblarga tayanilgan holda byudjetning daromad va xarajatlari holatini aniqlash deb tavsiflangan boʻlsa, soliqlarni rejalashtirish jarayonini byudjetning turli darajalarida byudjet mablagʻlarini maqsadli sarflash, byudjet daromada manbalarini aniqlashga qaratilgan moliyaviy rejalashtirishning tarkibiy qismi sifatida izohlandi. Ikkala jarayon ham uch bosqichda: prognozlash- axborotlarni oʻrganish, variantni tanlash va natijalarni tahlil qilish bosqichidan, rejalashtirish esa rejani tuzish, uni koʻrib chiqib tasdiqlash va xarajatlarni taqsimlash bosqichlaridan iborat boʻlgan.

Makrodarajada soliqlarni prognozlash va rejalashtirish masalalari AQShda ham ancha rivojlandi. Amerika iqtisodchisi O. Morgenshtern iqtisodiy nazariyalar va prognozlash masalalarining oʻzaro bogʻliqligini ochib berdi.²¹AQShda Prognozlash jarayonlari uch bosqichda davlat

²¹ Morgенштерн О. Теория игр и экономическое поведение / О. Моргенштерн, Дж. Рон Нейман. – М.: Наука, 1970. – 708 с.

(federal, shtatlar, munitsipial), firmalar va savdoga oid prognozlar amalga oshiriladi. Iqtisodiy maslahat kengashi, Federal zahiralari tizimi kengashi, ma'muriy-byudjet boshqarmasi AQShda davlat miqyosidagi prognozlashtirish ishlarini amalga oshiruvchi bo'linmalar sanaladi. Iqtisodiy maslahat kengashi esa AQSh Prezidentiga iqtisodiy sohada tavsiyalar tayyorlash bilan bir qatorda soliqlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini ham ishlab chiqadi.²² AQShda soliqlarni makro va mikro darajada strategik prognozlash va rejalashtirish mamlakatni rivojlantirishning muhim iqtisodiy indikatorlari sifatida baholanadi.

AQShda makro va mikro darajadagi strategik soliqlarni prognozlash va rejalashtirish ancha rivojlangan bo'lib, uning natijalaridan nafaqat federal va munitsipial byudjetlarni rejalashtirishda, shuningdek, uni mamlakatni rivojlantirishning bosh rejalari biri sifatida ichki va tashqi bozorda investitsiyalarni joylashtirishda ham muhim manba sifatida keng foydalaniladi. Shu jihatdan olganda AQShda soliqlarning hajmiga ta'sir etuvchi omillarni butun iqtisodiyotga ta'sir etuvchi omillar sifatida qaraladi va salbiy ta'sir kuchiga ega bo'lgan omillarni yumshatishga harakat qilinadi. AQShda ham boshqa davlatlar singari soliqlarni prognoz qilishdan maqsad ham kam xarajat qilgan holda ko'proq maksimal darajada natijaga erishishga qaratilgan. Soliqlarni rejalashtirishdan maqsad esa byudjetga soliqlarni ko'proq jalb qilish emas, balki, soliqlarni undirishga oid xarajatlarni kamaytirish orqali yuqori moliyaviy natijalarga erishish sifatida qaraladi.

Soliqlarni prognoz qilish soliqlarni kamaytirmasdan turib moliyaviy muammolarni hal etishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi va shunday yo'l tutiladi. Soliqlarni prognoz qilish natijalariga qarab investitsiyalarni boshqarish taktikalari ishlab chiqiladi, soliqlar kam kelib tushayotgan hududlar(obyektlar)ga investitsiyalarni kamroq joylashtirish strategiyalari amalga oshiriladi, qaysi hududlarga kreditorlar va investorlarni joylashtirish masalalari hal etiladi. Jahon amaliyotida

²² Погодецкий А. Я. Принципы международного налогообложения и международного налогового планирования. СПб. 2008. 78 с.

solliqlarni prognoz qilish va rejalashtirish jarayoni ko'proq makro va mikro darajadagi soliq siyosatining qonuniy mexanizmlari hisoblanib, ularning asosiy yo'nalishlari boshqaruv jarayoni samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Solliqlarni prognoz qilish va rejalashtirishning jahon amaliyotida asosan ikki xil yondoshuv mavjud. Birinchisi, bu hududiy bog'liqlik bo'lsa, ikkinchisi rezidentlik maqomidir. Birinchi yondoshuvga ko'ra soliqqa tortish obyekti har qaysi davlat uchun daromad hisoblanadi, qaysiki tegishli davlatning hududida olingan barcha daromadlar soliqqa tortilishi lozimligi tamoyiliga asoslanadi va uni solliqlarning prognozida e'tiborga olinadi. Bir soliq obyekti ikki davlatda soliqqa tortilishi solliqlarning umumbelgilangan tamoyillariga zid kelib qoladi. Shuningdek, mazkur yondoshuvga ko'ra boshqa davlatlar chegarasida mazkur davlatning rezidentlari tomonidan olingan daromadlar e'tiborga olinmaydi yoki soliqqa tortilmaydi (ba'zi hollar bundan mustasno).

Ikkinchi yondoshuvda esa hududiy tamoyil emas, balki rezidentlik maqomiga qarab soliqqa tortiladi va solliqlar hajmi shunga qarab prognoz qilinadi. Albatta bu erda soliqqa tortish maqsadida rezidentlik maqomini berish va uni o'rnatish har bir davlatning ichki qonunlari bilan bir qatorda davlatlar o'rtasida kelishuvga muvofiq ham belgilanadi. Rezidentlik tamoyilida esa hududiy tamoyildan farqli ravishda olingan daromadlarning manbai va yuzaga kelish makonidan qat'iy nazar soliqqa tortilishi lozim. Ammo, ta'kidlash lozimki, ikkala yondoshuvda ham soliqqa tortish va uning hajmini aniqlash bilan bog'liq obyektiv va subyektiv muammolar kelib chiqadi. Hududiy tamoyilga ko'ra soliqqa tortish esa tashqi investorlarni soliqqa tortish jarayonida ikki marta soliqqa tortilishi muammosi kelib chiqadi va investitsiyalarning xalqaro miqyosidagi harakatiga salbiy ta'sir qiladi. Investitsiyalar har qaysi davlatning iqtisodiy siyosatida asosiy o'rinlardan biri egallashi esa o'sha davlatlarning soliq siyosatiga ta'sir qilmay qolmaydi.

Demak, hududiy tamoyillar asosida soliqqa tortish esa xalqaro kelishuvlarni taqozo etadi. Xuddi shuningdek, rezidentlik yondoshuvda

ham ba'zi bir muammolar kelib chiqishi tabiiy. Chunki, bu erda ham soliqqa tortish obyektlarini optimal soliqqa tortish va ular bo'yicha soliq tushumlarini prognoz qilishda noaniqliklarni keltirib chiqaradi. Birinchisi bo'yicha muammoni hal etish yo'llari sifatida ikkiyoqlama soliqqa tortish jarayonlarini o'zaro kelishuvlar asosida tartibga solinsa, ikkinchisi bo'yicha esa doimiy muassalar maqomini tashkil qilish bilan hal etiladi. Bu yerda yana bir muammo shundan iboratki, ayrim xalqaro biznesni amalga oshiruvchi yirik kompaniyalarning turli xil soliq qonunlik bazasiga ega turli davlatlarda o'zlarining olgan daromadlari bo'yicha soliq to'lashda nomuvofiqliklarning kelib chiqishi muammosidir.

Unga ko'ra bunday kompaniyalar tomonidan soliqlarni kam to'lash yoki ortiqcha to'lash holatlarining tez-tez sodir bo'lishi orqali ularning xalqaro arbitrajlariga qilinadigan xarajatlari oshib borishi, qolaversa ularning nomiga(brendiga) salbiy ta'sir etish holatlari yuzaga chiqib qolishidir. Shu bilan birgalikda ba'zi davlatlarda ikki yoqlama soliqqa tortish borasidagi kelishuv aktlari bilan milliy qonunchilik normalarining o'rtasidagi tafovutlar oqibatida ham soliqlarni undirish va ular bo'yicha soliqlarni hajmini prognoz qilish jarayoniga salbiy ta'sir etmoqda. Afsuski, bunday muammo hozirgi kunda jahon soliqqa tortish amaliyotining ajralmas qismi sifatida kuchayib borayotganligidir.

Soliqlarni prognoz qilish va rejalashtirishning jahon amaliyotidagi yana bir tendentsiyalaridan biri bu soliqlarni prognoz qilish natijalarining muhim moliyaviy dastak sifatida foydalanishidir. Soliqlarning hajmining kutilayotgan darajasiga qarab davlatlar o'zlarining investitsiya, sotsial, proteksionizm, kapitallarni boshqarish, davlat xarajatlarini boshqarish, tashqi siyosatda yon bosishlar va shu kabi yo'nalishdagi siyosatlarining mazmunini belgilamoqda. Hatto, keyingi yillarda moliyaviy inqiroz tufayli yangidan kelgan vaziyat moliyaviy institutlarni davlat tomonidan nazorat qilish va ularga ishonchli derivativlarni joylashtirish kabi o'ta muhim masalalarni ham hal etishda soliq tushumlarining kutilayotgan hajmidan kelib chiqqan holda amalga oshirish amaliyotga aylanib bormoqda.

Agar tahlillarga e'tibor bersak, keyingi besh yil davomida (2009-2014) aksariyat davlatlarda soliqlarning progressivlik xususiyatining oshib bormoqda. Albatta, bu bir tomondan davlatning qo'lidagi moliyaviy kapitallarning hajmining o'zgarishi bo'lsa, boshqa tomondan soliq tushumlari borasidagi nobarqarorlikning vujudga kelishidir. Bu narsa yana shundan ham dalolat beradiki, soliqlarni prognoz qilish va rejalashtirish jarayonida e'tiborga olinmay kelayotgan omillar va ularning ta'sirining e'tiborsiz baholanishi soliqlarning prognozi jarayonida yuza beradigan «aks ta'sir» jarayonini kuchaytirib yubordi.

Boshqacha qilib aytganda moliyaviy bozorlardagi qimmatli qog'ozlarning harakati va ularning asosi bilan bog'liq axborotlarning tahlili so'ngi yillarda e'tiborga olinmaganligi, qimmatli qog'ozlar bozoridagi tanglik jarayoni prognoz natijalariga aks ta'sir etdi, ya'ni soliq tushumlariga salbiy ta'sir etdi, albatta bu tovarlar va xizmatlar bozori hamda iste'mol bozorlari orqali ro'y berdi. Bugungi kunda jahon amaliyotida soliqlarni prognoz qilishning metodlarini yanada takomillashuvini taqozo etmoqda. Iqtisodiyotning ochiqlik darajasining soliq tushumlariga ta'siri masalalari deyarli prognoz jaryonida e'tiborga olinmas edi. Albatta uni baholash o'ta murakkab bo'lib, uning ta'sirini baholash juda ko'plab tenglamalarni o'z ichiga olgan makroiqtisodiy modellarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Vaholanki, aksariyat davlatlarning makroiqtisodiy modellarida byudjet bloki uchramaydi, bu esa muammoni yanada kuchaytirishi mumkin. Bu yerda yana bir muammoli jarayon mavjud bo'lib albatta bunday jarayonlar bizning Respublikamiz soliq tizimiga ham xos bo'lib, ushbularni hal etish ikkiyoqlama soliqqa tortishni davlatlar o'rtasidagi o'zaro diplomatik kelishuvlar asosida ham O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksiga muvofiq doimiy muaasasa maqomining iqtisodiy va huquqiy tushunchasining aniqlik kiritilganligi va ushbu normalar bo'yicha soliqqa tortilishning tartiblari asosida amalga oshiriladi.

Soliqlarni prognoz qilish jarayonidagi umumiy tendentsiyalaridan biri o'zaro integratsiyalarning kuchayishi bilan soliqlarni undirish

jarayonlarining ham o'zaro integratsiyalashuvidir. Integratsiyalashuvning kuchayishi esa soliqlarni prognoz qilish jarayonini bir tomondan engillashtirsa, boshqa tomondan qiyinlashtiradi. Osonligi shundaki, prognoz jarayoni uchun juda muhim bo'lgan axborot manbalarini olish va ularni qayta ishlash jarayonlarini soddalashtirsa, boshqa tomondan tovarlar va xizmatlar bozoridagi muqim tendentsiyalarni aniqlash imkoniyati qiyinlashadi va prognoz jarayoniga salbiy ta'sir etadi. Bu ko'pincha erkin bozorlarda ko'rinadi. O'tgan asrning 50 yillaridan boshlab «Umumiy bozor»ning shakllana boshlandi, uning keyingi vaqtlarda kuchayib borishi tendentsiyasi kuzatilmoqda. Ushbu bozor makonida tovarlar va xizmatlarning erkin almashinuvi va ularning iste'molini soddalashtiradi. 1951 yilda «Evropa ko'mir va po'lat uyushmasi» ning tashkil etilishi, 1957 yilda Rimda tashkil etilgan va evropaning olti davlati: Germaniya, Frantsiya, Italiya, Belgiya, Gollandiya, Lyuksemburgni birlashtirgan «Umumiy bozor» va keyinchalik «Evropa iqtisodiy hamkorligi» va hozirgi kunda «Evropa ittifoqi», «And hamkorligi», «Karib umumiy bozor birlashmasi», «Markaziy amerika umumiy bozori», «Yagona iqtisodiy makon» va shu kabilarning yuzaga kelishi soliqlarni undirish borasidagi hamkorlikni ham uyg'unlashtirishni talab etmoqda, shu bilan birgalikda bunday umumiy bozorlarda soliqlarni prognoz qilish jarayonini ham o'ziga xos xususiyatlarini yuzaga keltirmoqda.

Bu xususiyatlar prognoz jarayonida xususiy omillar bilan birga umumiy omillarga tayanilishning zarurligi, ayrim soliq turlari bo'yicha umumiy kelishuvlarni amalga oshirishning ehtiyojning tug'ilishi va shu kabilarda aks etadi. Masalan, 1958 yildagi kelishuvga muvofiq qo'shilgan qiymat solig'i, iste'mol solig'i va boshqa egri soliqlar bo'yicha umumiy kelishuvlar joriy etildi. 1977 yildan boshlab esa qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblashning yagona metodikasi joriy qilindi. Bunga asosiy sabab qo'shilgan qiymat solig'i xususiyatiga ko'ra tovarlarning realizatsiyaga qaratilgan bo'lib, yagona metodikaning kiritilishi, byudjetga asosiy mablag' jalb etuvchi qo'shilgan qiymat

solig'i bo'yicha soliq tushumlarining hajmini aniqlash (prognoz qilish) ishlarini soddalashtirishdan iborat edi. QQS boshqa soliqlardan farqli ravishda umumiy bozor sharoitida soliqlarni undirish mexanizmiga katta ta'sirga egaligi va uni fiskal xususiyatining yuqoriligi 1993 yil 1 noyabrdan boshlab ushbu soliq turi bo'yicha soliq stavkasining minimal chegarasi (15%dan kam bo'lmaslik sharti) va ayrim soliq turlari bo'yicha beriladigan soliq imtiyozlarining yuqori chegarasi (5%dan yuqori bo'lmasligi sharti) ham kelishib olindi.

Soliqlarni undirish tartiblari bir necha marta o'zgartirildi, albatta bu umumiy bozor konyukturasi murakkablashuvi, bozorga olib chiqilayotgan tovar (xizmat, ish)larning diversifikatsiyalashuvi, tovar aylanmasining tezlashuvi, umumiy bozorda tovarlarning iste'molining farqlanishuvi, hattoki siyosiy ustunlik holatlariga bog'liq edi. Soliqlar bo'yicha tushumlar hajmini aniqlashni yanada soddalashtirish maqsadida soliq to'lovchilarni yagona reestrda hisobga olish va alohida identifikatsiya raqamlarini berish joriy qilindi. Evropa ittifoqi davlatlarida soliqlarni undirish tartiblarini garmonizatsiyalashtirishdan asosiy yo'nalishlari soliqning befarqligi (barcha davlatlar iqtisodiyotiga bir xil ta'sir qilish)ni ta'minlash, alohida olingan soliq siyosatida diskriminatsiyalashuvga yo'l qo'ymaslik, bir necha davlatlarda faoliyat ko'rsatuvchi soliq to'lovchilar yuzasidan ikkiyoqlama soliqqa tortishning oldini olish, soliq nazoratini yumshatishni ta'minlash, har bir davlatga tegishli soliqlarni o'zaro hisob-kitoblari kafilligini ta'minlash va shu kabilarga qaratilgan edi. Soliqlarni undirish va ular bo'yicha tushumlarni o'zaro taqsimlash borasida integratsiyalashuvning kuchayishi va bu borada o'rttirilgan tajribalar pul-kredit sohasida ham yagona integratsiyalashuvni kuchaytirdi, provardida esa integratsiyalashuvning alohida olingan mezonlari asosida yagona pul birligini tashkil etilishiga erishildi.

Soliqlarni undirish borasidagi jahon integratsiyalashuvida «Evroosiyo iqtisodiy hamkorligi» doirasida ham bir qator tajribalar olindi. Bu hamkorlik tashkiloti doirasida ham soliqlarni undirishni unifikatsiyalash maqsadida birinchi bosqichda a'zo davlatlarning soliq

qonunchiligi chuqur tahlil qilinib, ayrim umumiy normalar joriy etildi, milliy soliq qonunchiligidagi o'xshashliklar taqqoslashtirildi. Soliqlarni undirishdagi hamkorlikni muvofiqlashtiruvchi maxsus organ- «Soliq xizmati organlari rahbarlari Kengashi» tuzildi. Bu kengashning asosiy vazifalari sifatida a'zo davlatlar o'rtasida soliq ma'murchiligini soddalashtirish, soliq tushumlariga oid ma'lumotlarni umumiy almashinuvni amalga oshirish, soliq qonunchiligini uyg'unlashtirish, kadrlar tayyorlash borasida hamkorlik qilish, kelgusida tashkilot doirasida amal qiluvchi yagona soliq kodeksini ishlab chiqish kabi vazifalar yuklatildi.

Soliqlarni prognoz qilish va rejalashtirish jarayonlarining tarixiy shakllanish tendentsiyalarini tahlil qilish natijalariga asoslanib xulosa qilish mumkinki, soliqlarni prognoz qilish va rejalashtirish har qaysi davlatning soliq siyosatida miqdoriy va sifat belgilariga ega bo'ladi va davlatning soliq siyosatini ishlab chiqish va uni amalga oshirishda miqdor va sifat ko'rsatkichlarning o'zaro aks ta'sirini e'tiborga olish lozimligini ko'rsatadi.

3.7. Soliqlarni prognozlashtirish va rejalashtirishning mazmuni va ularning o'zaro farqlari

Iqtisodiyotga oid ilmiy va o'quv adabiyotlar hamda boshqa manbalar o'rganilganda soliqlarni prognoz qilish va rejalashtirishning mazmunini ochib beruvchi yagona tushunchani uchratish qiyin. Bir tomondan prognoz va rejalashtirish jarayoni o'ta murakkabligi bo'lsa, boshqa tomondan bu jarayonlarni mutaxassislar tomonidan turlicha talqin qilinishidir. Talabalar soliqlarni prognoz qilishga oid ilmiy va o'quv adabiyotlari bilan tanishishda soliqlarni prognozlashtirish va rejalashtirishning mohiyatiga oid ko'plab turli xil yondoshuvlarga duch kelishi mumkin. Shularni e'tiborga olgan holda bu boradagi asosiy adabiyotlarda ularning mualliflari tomonidan keltirilgan ayrim yondoshuvlarni keltirib o'tish maqsadga muvofiq deb hisoblandi.

Soliqlarni rejalashtirish bo'yicha yirik ilmiy tadqiqotlar olib borgan Rossiyalik olimlar M.B. Romanovskiy va O.V. Vrublevskayaning fikrlaricha soliqlarni rejalashtirish byudjet jarayonini muvofiqlashtirishda qatnashuvchi davlat hokimliklarini va soliq munosabatlarida qatnashuvchilarning o'zaro faoliyati bo'lib, o'zida aniq hududlar doirasida byudjetga soliqlar va to'lovlarning hajmini aniqlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlaridan iborat bo'lib²³. Shunga o'xshash yondoshuv V.I. Barilenko tomonidan keltiriladi. Soliqlarni rejalashtirish - davlat ehtiyojlari uchun zarur bo'ladigan va davlat byudjetida jamlanadigan moliyaviy resurslarning yuzaga kelish jarayonidir²⁴.

L.A. Drobozinaning fikricha soliqlarni rejalashtirish bu byudjetni rejalashtirishning muhim tarkibiy qismi bo'lib, resurslarni jalb qilish va taqsimlashning tashkiliy mexanizm sanaladi.²⁵ Ushbulardan farqli ravishda I.V. Gorskiy va N.I. Malislar soliqlarni rejalashtirish bilan prognozlashtirish tushunchalarini aynan o'xshash sifatida izohlaydi. Ularning fikricha soliqlarni rejalashtirish soliqlarni prognoz qilish natijalari asosida soliq salohiyatiga baho berishdir. Soliqlarni rejalashtirish bu soliq salohiyatning soliq tushumlariga nisbatidir²⁶. O'z navbatida A.B. Paskachev, F.K. Sadigov i V.I. Mishinlar yuqoridagilar-dan farqli ravishda soliqlarni prognoz qilish va rejalashtirishni alohida kategoriyalar va tushunchalar deb hisoblaydilar. Soliqlarni prognozlashtirish deganda bu mamlakat va hududlarni sotsial-iqtisodiy rivojlantirishga asoslangan holda soliqlarni byudjetga jalb qilish jarayoni bo'lib, soliqlar bazasini aniqlash, soliqlar va to'lovlarni tahlil qilish, soliqlarning yig'iluvchanlik darajasi, soliq qarzdorlikni baholash hamda soliq qonunchiligidagi o'zgarishlarni monitoring qilish

²³ Финансы. Под ред. Романовского М.В., Врублевской А.В., Сабанти В.М. М.: 2004. - 504 с.

²⁴ Анализ финансовой отчетности : учебное пособие / В.И. Бариленко, С.Н. Кузнецов, Л.К. Плотникова, О.В. Кайро ; под общ.ред. В.И. Бариленко. — 2-е изд., перераб. — М. : КНОРУС, 2006. — 416 с.

²⁵ Финансы. Денежное обращение. Кредит: Учебник для вузов / Л.А. Дробозина, Л.П. Окунева, Л.Д. Андросова и др.; Под ред. проф. Л.А.Дробозинной. - М.: Финансы, ЮННИТ, 1997. -479 с.

²⁶ Теория и практика налогообложения: Учебник / Н.И. Малис, Н.В. Горский, С.А. Анисимов; Под ред. Н.И. Малис. - 2-е изд., перераб. и доп. - М.: Инфра-М, 2013. - 432 с.

munosabatlaridir.²⁷ A.B. Paskachevning ta'kidlashicha, soliqlarni prognoz qilish jarayoni soliq siyosatini amalga oshirishda katta rol o'ynaydi, ya'ni soliqlar bo'yicha tushumlar hajmi oshirib ko'rsatilsa, soliqlarning yig'iluvchanlik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'z navbatida soliq tushumlarining prognoz ko'rsatkichlari kamaytirib ko'rsatilsa byudjet daromadlarining xarajatlardan oshishiga olib keladi, byudjetda daromadlarning xarajatlardan oshishi ijobiy holat deb baholansada, ammo, prognoz ta'siridagi bunday holat salbiy deb hisoblaydi. Byudjetni rejalashtirishda xatoliklar yuzaga kelganligini ifodalaydi²⁸. Iqtisodchi mutaxassislardan R.A. Sakayan va G.Ananevalarning fikricha soliqlar prognoz qilish o'zida soliq salohiyatini aniqlash asosida jamlanma byudjetga soliq tushumlarining kelib tushishini prognoz qilish va shu bilan birgalikda mamlakatning sotsial-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarini aniqlashning muhim bazasidir.²⁹ S. V. Barulin, E. A. Ermakova, V. V. Stepanenkolar soliqlarni prognoz qilish bu-haqiqatni aniqlashga asoslangan oldindan ko'ra bilish jarayonidir. Prognozning asosiy maqsadi esa obyektning u yoki bu holati haqida aniq va ishonchli ma'lumot berishdan iborat bo'lishi lozim.³⁰

Ko'p yillardan buyon soliqlarning prognozlashtirish muammolari bilan shug'ullanadigan V. A. Krasnitskiy soliq prognozi tushunchasiga yondoshuvi R.A. Sakayan va G.Ananevalar bilan o'xshash bo'lib, uning mohiyati soliq salohiyatiga asoslangan holda turli darajadagi byudjetlarning soliq tushumlarining prognoz ko'rsatkichlarini aniqlashdan iborat deb hisoblaydi.³¹ «Soliqqa tortish tizimida prognozlash va rejalashtirish» o'quv qo'llanmasining mualliflari Raznik E.D va I.A.Samsonovalar esa soliqlarni prognoz qilishni soliq jarayonining

²⁷ Анализ и планирование налоговых поступлений: теория и практика / А.Б. Паскачев, Ф.К. Садыгов, В.И. Мишин, Р.А. Саакян, О.А. Бессечетная, В.Н. Засько, А.И. Новикова; под ред. Ф.К. Садыгова. М.: Издательство экономико-правовой литературы, 2004. 39 с.

²⁸ O'sha erda.

²⁹ Р.А. Саакян, Г.И. Ананьева. О некоторых аспектах налогового прогнозирования и планирования. <http://www.nalvest.com/nv-articles/detail.php?ID=24593>.

³⁰ Барулин С.В, Е.А.Ермакова, В. В. Степаненко. Налоговой менеджмент.М.: -Омега. 2007. 57 с.

³¹ Красницкий В. А. Эффективная реализация аспектов налогового прогнозирования и планирования в рамках развития налогового администрирования. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. (2011), 10-1 (октябрь), 59 с.

bosqichi deb ta'riflaydi va prognozlashtirish bosqichi soliq jarayonining ilmiy asoslangan va ishonchli hamda qo'yilgan vazifani bajarishning unsurlari(detallarini) ko'rsatib beruvchi muhim jarayoni sifatida tavsiflaydi.³²

E.N.Lavrenchukning fikricha soliqlarni prognoz qilish asosida tadbirkorlik subyektlarining soliq to'lash imkoniyati yotadi. O'z navbatida muallif soliq prognozini mikro darajada talqin qilib soliq prognozini amalga oshirishdan maqsad soliq to'lovchi korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy imkoniyatlarini baholash asosida ularning soliq to'lovlarini amalga oshirish shart-sharoitlarni baholash, korxonaning strategik boshqaruvi uchun asosli xulosalarni olish, amaldagi soliq qonunchiligiga tayangan holda qo'llaniladigan metodlarni aniqlash soliq to'lovlarini optimallashtirish asosida xarajatlarni samarali sarflashning yo'llarini aniqlab olishdan iborat deb hisoblaydi.³³ Soliqqa tortish nazariyasi bo'yicha yirik olimlardan biri I. M. Aleksandrov o'zining «Soliqlar va soliqqa tortish(Nalogi i nalogooblojenie)» darsligida esa soliqlarni prognoz qilish bu- byudjet-soliq siyosati tizimida qo'yilgan maqsad va vazifalarni bajarishda solikli daromadlarning salohiyat hajmlarini aniqlashga asoslangan jarayondir deb ta'riflaydi.³⁴


Har qaysi o'zaro yaqin iqtisodiy kategoriyalarning mohiyatini o'rganishda ularning o'zaro farqli va o'xshash xususiyatlarini solishtirish ahamiyatlidir. Ba'zi bir iqtisodiy adabiyotlarda³⁵ ushbu tushunchalarni bitta tushuncha sifatida qaralsada, ammo ular bir-biridan farq qiladi.

³² Разник Е.Д., Самсонова И.А. ПРОГНОЗИРОВАНИЕ И ПЛАНИРОВАНИЕ В НАЛОГООБЛОЖЕНИИ: Учебное пособие. – Владивосток: Изд-во ВГУЭС, 2006. 14с.

³³ Лавренчук Е.Н. Налоговое прогнозирование. Экономические науки 2011, 1(74).

³⁴ Александров И. М. Налоги и налогообложение Учебник Москва, 2009 Издательско-торговая корпорация «Дашков и К» Москва. 138 с.

³⁵ Qat'ang: Перов, А.В. Налоги и налогообложение: учеб. пособие / А.В.Перов, А.В.Толкушкин. – 2 изд., перераб. и доп. – М.: Юрайт-Издат, 2003. – 76с.; Чигракова Н.М. РИСК: Ресурсы, информация, снабжение, конкуренция. (2011), 3 (2 квартал), 274 с.



14-rasm. Soliqlarni prognozlashtirish va rejalashtirish (tushuncha) jarayonlarining o'zaro o'xshash va farqli jihatlari.

Keltirilgan rasmdan ko'rinadiki, soliqlarni prognoz qilish va rejalashtirish jarayonlarining o'xshash xususiyatlari quyidagilarda aks etadi: ya'ni, ular soliq siyosatining tarkibiy elementi hisoblanadi, ikkalasi ham moliyaviy instrumentlar sifatida yuzaga chiqadi, byudjetni rejalashtirishning asos bo'lib xizmat qilishi bilan birga ularda asosan bir xil turdagi modellar va metodlarning qo'llaniladi. Shu bilan birgalikda ular o'zaro farqli xususiyatlarga ham ega. Ularning bu farqli xususiyati ko'lami jihatidan farqlanishi (soliqlarni rejalashtirish mikrodarajada asosan mahallik hokimliklar tomonidan o'z vakolatlari doirasidagi soliq siyosatining mazmuni va korxonalarda soliq to'lovlarini to'lashni rejalashtirish shaklida kechadi), byudjet-soliq siyosatidagi ishtiroki turlichaligi (soliqni rejalashtirish soliq siyosatining yo'nalishlarini belgilashga qaratilgan bo'lsa, soliq prognozi byudjetning solikli daromadlarini

qamrab oladi), jarayonda foydalaniladigan ko'rsatkichlarning turlichaligi, turli xildagi axborot bazalaridan foydalanishi, turlicha umumiy belgiga egaligi va vazifalarining farqlanishi, jarayon natijalarini aks ettirishi jihatdan farqlanishi hamda amal qilish muddatlarining turlichaligi va shu kabi xususiyatlari bilan farqlanadi.


Soliqlarni rejalashtirishning farqli xususiyati shundaki, qabul qilingan variant ijro uchun majburiy hisoblanadi. Soliqlarni prognoz qilish va rejalashtirish soliq tizimi va soliq siyosatining samaradorligini ifodalaydi. Soliqlarni prognozlashtirish va rejalashtirishga oid yondoshuvlarni 4 guruhga bo'lish mumkin: Birinchi yondoshuvga ko'ra soliqlarni prognozlashtirish va rejalashtirish sinonim tushunchalar hisoblanadi. Ikkalasi ham davlat va mahalliy byudjetlarga soliqlar va unga tenglashtirilgan to'lovlarni maksimal darajada kam xarajatlar evaziga jalb qilishning vosita va elementlaridir. Ikkinchi yondoshuvga asosan soliqlarni prognozlash va rejalashtirish bir-birini to'ldiruvchi kategoriyalar sanaladi va soliq tizimi hamda soliq siyosatining elementidir. Bu yerda soliqlarni prognoz qilish soliq siyosatida belgilangan vazifalarni bajarishga qaratilgan soliq salohiyatini aniqlashga va tahlil qilish bilan bog'liq tizimli faoliyat bo'lsa soliqlarni rejalashtirish aniq davrda soliq tushumlarini aniqlashga qaratilgan tizimli faoliyatdir. Uchinchi yondoshuvga ko'ra soliqlarni rejalashtirish o'z ichiga soliqlarni prognozlashtirishni qamrab oladi va prognozning xarakterli xususiyatlarini belgilab beradi.

Ya'ni soliqlarni rejalashtirish mamlakatni sotsial-iqtisodiy rivojlantirishni ta'minlash borasida byudjetning turli darajalariga soliqlarning kelib tushish hajmini, tarkibini va dinamik holatini aniqlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar sanalsa, soliqlarni prognozlashtirish rejalashtirishning tarkibiy qismi sifatida soliqlarni undirish jaryonida ishtirok etuvchi organlarning byudjetga soliqlarni jalb qilishga qaratilgan muvofiqlashtiruvchi faoliyatdir. To'rtinchi yo'nalish uchun yo'nalishga teskari ravishda soliqlarni rejalashtirish soliqlarni prognozlashtirishning tarkibida bo'lib, soliqlarni prognoz qilish

jarayonini soliq tushumlarini aniqlash, soliq bazasi va salohiyatni aniqlash jarayoni, belgilangan prognoz ko'rsatkichlari va soliqlar bo'yicha qarzdorlikni tahlil qilishga qaratilgan faoliyat, soliqlarni rejalashtirish esa soliq siyosatida maqsad qilib qo'yilgan vazifalarni soliq elementlari orqali amalga oshirishga qaratilgan boshqaruv jarayonidir deb hisoblaydilar.

Avvalo soliqlarni prognoz qilish va rejalashtirish jarayonlari davlatning moliyaviy siyosatining eng muhim ajralmas qismi bo'lib, bu ikki tushuncha keng qamrovli munosabatlarni izohlaydi. Soliqlarni prognoz qilish ham rejalashtirish ham davlat byudjeti jarayoniga xizmat qilib ular bir-birini to'ldiruvchi iqtisodiy kategoriyalar sifatida byudjet-soliq siyosatining yadrosini tashkil etadi. Ammo, soliqlarni rejalashtirish iqtisodiy munosabatlardagi o'rni yuzasidan prognoz jarayoniga nisbatan birlamchi hisoblanadi. Shu jihatdan olganda **soliqlarni rejalashtirish** davlatning byudjet-soliq siyosatining asosiy tarkibiy qismi sifatida davlatning soliq va fiskal siyosatining o'zaro bog'liqligini ta'minlaydi hamda u tarkibiy jihatdan soliqlarni joriy etish, soliq stavkalarini belgilash, ularning darajalarini o'zgartirish, soliq imtiyozlarini berish(bekor qilish), soliqlarni undirish, soliq to'lovchilarning soliq majburiyatlari bilan huquqiy-me'yoriy normalarni ishlab chiqish hamda ushbu jarayonlarni tartibga solish)muvofiqlashtirish bilan bog'liq munosabatlar yig'indisidan iborat.

Soliqlarni prognoz qilish moliyaviy prognozning muhim tarkibiy qismi sifatida moliyaviy prognozning boshqa turlari bilan o'zaro ta'sirda bo'ladi. Bu esa moliyaviy prognoz va soliq prognozining ildizi bitta narsaga, ya'ni moliyaviy siyosatning o'zagini tashkil qilishligini bildiradi. O'z navbatida soliqlarni prognoz qilish jarayoni moliyaviy rejalashtirish, moliyaviy prognozlashtirish, byudjetni rejalashtirish, byudjetni prognozlashtirish hamda soliqlarni rejalashtirish jarayonlari bilan o'zaro bog'liq bo'ladi. Albatta bu tushunchalar bir biridan farq qiladi.



15-rasm. Soliqlarni prognoz qilishning moliya siyosatining boshqa tarkibiy qismlari bilan o'zaro ta'siri yo'nalishlari.

Moliyaviy rejalashtirish tarkibi jihatdan davlatning barcha markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul fondlarini rejalashtirish, barcha darajadagi moliyaviy resurslarni rejalashtirish jarayonlarini qamrab olib, moliyaviy prognozlashtirish esa uning tarkibiy qismi hisoblanadi va moliyaviy prognozlashtirish esa barcha turdagi (markazlashgan va markazlashmagan) pul fondlarining mablag'lari va ularni sarflashning prognoz ko'rsatkichlarini qamrab oladi. Byudjetni rejalashtirish esa byudjet jarayonining muhim tashkiliy bosqichlarini qamrab olsa, byudjetni prognozlashtirish esa byudjetning barcha daromad manbalari va xarajatlarining prognoz ko'rsatkichlarini aniqlab beradi. Byudjetni prognozlashtirish va soliqlarni prognoz qilish jarayoni o'zaro bog'liq bo'lib, soliqlarni prognoz qilish esa byudjetning daromad manbalarining solikli daromadlari qismini qamrab oladi, boshqa daromad manbalarining prognozi jarayoni esa soliqni prognoz qilish obyektiga kirmaydi. Soliqlarni prognoz qilish esa shu jihatdan byudjetni


rejalashtirish va prognozlashtirish jarayoniga muhim axborot manbalarini tadqim etishi bilan ahamiyatlidir.

O'z navbatida soliqlarni prognoz qilish va rejalashtirish jarayonlari makro va mikro darajada amal qilib, ular nafaqat bir-biriga shuningdek, qayd etilgan ko'rsatkich(jarayonlar)larga ta'sir qiladi. 15-rasmdan ko'rinadiki, soliqlarni prognoz qilish makro darajada jamlanma byudjetning daromadlar qismiga soliq tushumlarini prognoz qilishni qamrab olib, mamlakat iqtisodiyotini ijtimoiy-iqtisodiy prognoz qilish va byudjet hamda soliqlarni rejalashtirish jarayonining asosi bo'lib xizmat qiladi va ularning yo'nalishlarini belgilashga ta'sir qilsa mikro darajada esa tarmoqlar, hududlar, soliq to'lovchilarning soliq salohiyatini baholashni, soliq turlari bo'yicha soliq prognozini qamrab oladi, hududlarni sotsial-iqtisodiy rivojlantirishning prognoz ko'rsatkichlari hamda mahalliy byudjetlarning ko'rsatkichlarini aniqlashga xizmat qiladi va uning yo'nalishlarini belgilashga ta'sir qiladi.

Soliqlarni rejalashtirish jarayoni esa makrodarajada soliq siyosatining o'zagi sifatida soliqlarni joriy qilish, ularni undirish mexanizmlari, soliq stavkalari, imtiyozlarini belgilashga oid jarayonlarni qamrab oladi, mamlakat iqtisodiyotini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish rejalarining asosi bo'lib xizmat qiladi, byudjet jarayoni va o'z navbatida soliqlarning hamda soliqlarni prognoz qilish(soliq salohiyati) jarayoniga aks ta'sir qiladi. Shuningdek mikro darajada ham mavud bo'lib, mahalliy hokimliklarning o'z vakolatlari doirasidagi majburiy to'lovlarni joriy qilish, ularni undirish mexanizmlari, soliq stavkalari, imtiyozlarini belgilashga oid va korxonalarda soliqlarni rejalashtirish bilan bog'liq jarayonlarni qamrab oladi, hudud iqtisodiyotini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish rejalarining asosi bo'lib xizmat qiladi, hududning soliq salohiyatini aniqlashga ta'sir qiladi.

Soliqlarni prognoz qilish esa soliq to'lovchilarning yuzaga kelish jarayonlari va davlat byudjetining daromadlar qismi sifatida soliqlarning turli darajadagi byudjetlarga kelib tushish prognoz qilish (ehtimoligini hisoblash), soliqlarning byudjetga jalb etilish darajasi va soliq

to'lovchilarning soliq salohiyatini aniqlash, shuningdek, ushbu jarayonlarni va ularning o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni dinamik tahlil etishga qaratilgan munosabatlar hamda davlatning vakolatli organlarining kompleks faoliyati tushuniladi.



16-rasm. Soliqlarni prognoz qilish va rejalashtirishning makro va mikro daraja amal qilishi va ularning o'zaro ta'siri.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan yondoshuvlarda qayd etilganidek, bu tushuncha va munosabatlar bir-birini to'ldirish va ketma-ketlikka ega bo'ladi. Soliqlarni rejalashtirish soliq tushumlari, soliq bazasi, soliqlarning yig'iluvchanlik darajalari va makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning haqiqiy holatidan kelib chiqib amalga oshiriladi. Soliqlarni rejalashtirishdan maqsad davlat byudjetiga soliq tushumlarini maksimal darajada jalb qilishdan iborat. Soliqlarni rejalashtirish davlat darajasida sotsial-iqtisodiy jarayonlarni prognoz qilishning muhim ko'rinishi bo'lib yuzaga chiqadi va bir necha bosqichlardan iborat bo'ladi. Davlat byudjetiga soliqlarni jalb etish bilan bog'liq rejalashtirishning oldiga bir qator vazifalar qo'yiladi: turli darajadagi byudjetlarning daromad qismlariga tushumlarning kelib tushishini ta'minlash, soliq stavkalarini oshirmagan holda byudjetga soliq tushumlarini hajmini oshirishning qulay vositalaridan foydalanish va ta'minlash, moliya yili davomida soliqlarning byudjetga kelib tushishining uzluksizligi va barqarorligini ta'minlash, boshqaruv amaliyotida soliqlarni maksimal darajada jalb qilishning metodlaridan keng va samarali foydalanish va shu kabilar.

Soliqlarni prognozlashtirish va rejalashtirishning o'zaro bog'liqligi soliq-byudjet jarayonlarining chegarasini belgilaydi. Shu bilan birgalikda soliqlarni prognoz qilish o'zida direktiv xususiyatlarni aks ettirgan taxminlarga asoslansa, soliqlarni rejalashtirish esa o'zida bajarishga qabul qilingan miqdoriy ko'rsatkichlarni ifodalaydi. Soliqlarni prognoz qilish va rejalashtirish mexanizmlari faqat makroiqtisodiy darajada farqlanadi, ular bir-birini to'ldirsada soliqlarni prognoz qilish jarayoni rejalashtirish jarayonidan oldin sodir bo'ladi. Soliqlarni prognoz qilishni muvofiqlashtirish asosini byudjet jarayoni normalari hisoblanadi. Shu jihatdan olgan soliqlarni prognoz qilish masalasi davlatning moliya siyosatini amalga oshiruvchi vakolatli organlarning bosh vazifalaridan biri bo'lib yuzaga chiqadi. Soliqlarni prognoz qilish har bir soliq va unga tenglashtirilgan to'lovlar bo'yicha soliq bazasini aniqlashni qamrab oladi, bu jarayon o'ta murakkab bo'lib, bu masalaning to'g'ri hal qilinishi

boshqa keyingi jarayonlarga ya'ni soliq qarzdorligi, soliqlarning yig'iluvchanligi kabilarga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qiladi.

Soliqlarning byudjetga kelib tushishi boshqa omillar singari soliqlarni rejalashtirish va prognozlashtirish bosqichlariga bog'liq bo'ladi. Ayrim iqtisodchilarning fikricha³⁶ soliqlarni rejalashtirish bosqichlari uch bosqichdan: soliqlar sifatida byudjetga jalb qilish maqsadida iqtisodiy subyektlarning resurs imkoniyatlari aniqlash; davlatning sotsial-iqtisodiy hamda byudjet-soliq siyosatining yo'nalishlarini aniqlash; soliqlarning turli darajadagi byudjetlarga kelib tushishini va uning barqarorligini ta'minlashga qaratilgan aniq harakatlarni amalga oshirish kabi bosqichlardan iborat. S.V.Barulin boshchiligidagi «Soliq menejmenti» o'quv qo'llanmasi mualliflarining fikricha esa soliqlarni rejalashtirish joriy va kelgusi davrlar bo'yicha soliq majburiyatlarini takomillashtirishga va ularni kamaytirishga qaratilgan turli xil variantlarni tizimli tahlil qilishni o'zi ichiga olgan tadbirlardan iborat va u o'z ichiga soliq salohiyatini aniqlash, jamlanma byudjetga soliqlarning kelib tushish hajmini aniqlash, turli darajadagi byudjetlarning daromad qismi bo'yicha loyihalarni ishlab chiqish hamda prognozlashtirilayotgan hajmdagi moliyaviy mablag'larni turli darajadagi byudjetlar o'rtasida taqsimlashdan iborat bo'ladi. Soliqlarni rejalashtirishning asosiy vazifasi esa maksimal moliyaviy natijaga erishish va soliqlarni minimal darajada kamaytirishga qaratilgan soliqqa tortish tizimini tashkil etishdan iborat. Soliqlarni rejalashtirish bosqichlari esa tashkiliy-tayyorgarlik, tadqiqotchilik, rejani ishlab chiqish, rejani amalga oshirish kabilardan iborat.³⁷ Iqtisodiy adabiyotlarda soliqlarni rejalashtirish va prognozlashtirishni makrodarajada amalga oshirishda ularning yagona tizim sifatida shakllantirish hamda ularning o'ziga xos elementlarini aniqlash xususida fikrlar bildiriladi.

³⁶ Ефимов С.С. Формирование системы налогового прогнозирования и планирования на макроуровне. автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата экономических наук. - Орёл, 2014. 22 с.

³⁷ Панасенкова, Т.В. Модернизация системы налогового планирования и прогнозирования в современной экономике России: диссертация на соискание ученой степени к.э.н., Ростов-на-Дону, 2004.

Soliqlarni rejalashtirish va prognozlashtirishni makrodarajada amalga oshirish elementlari:

1.	Soliqlarni rejalashtirish elementlari	Soliqlarni prognozlashtirish elementlari
2.	Soliqlar bo'yicha tushumlarning byudjetga birlashtirilishini shakllantirish	Soliqlarni prognoz qilishning maqsadlarini shakllantirish
3.	Soliq xizmati organlari xodimlarining malakasi soliq tartib intizomini takomillashtirish	Soliqlarni prognoz qilishning maqsadlariga erishishning vositalarini aniqlash
4.	Byudjetga birlashtirilish ko'rsatkichlarini chuqur tahlil qilish asosida davlat daromadlarini ko'paytirishni ta'minlash	Soliqlarni prognoz qilishning darajasi mezonlari va ichki axborotlar tizimini shakllantirish
5.	Byudjet topshiriqlarini ijrosini ta'minlash va rejalashtirish uchun zarur bo'ladigan zaruriy ma'lumotlarni yig'ish	Soliq prognozi darajasiga tashqi omillar belgilarini aniqlash
6.	Byudjet mablag'larini oqilona taqsimlashning koeffitsient va ko'rsatkichlaridan foydalanish	Turli xil metodlardan foydalanilgan holda soliqlarni prognoz qilish jarayonini amalga oshirish
7.	Soliq siyosatini muvofiqlashtirish va moslashtirish yordamida davlatni rivojlantirish samaradorligini oshirish	Kelgusida moliyaviy resurslarni boshqarishni ta'minlovchi tashkiliy, metodik va texnologik vositalarni jamlash
8.	Soliq risklarni yuzaga kelishi va uning darajasini kamaytirish	Soliqqa oid rejani soliqlar bo'yicha tushumlarga balanslashtirish
9.	Ichki va tashqi omillarga soliqlarning moslashuvchanligini oshirish	Soliqqa oid qonunchilik va xalqaro shartnomalarni doimiy faollashtirish
10.	Byudjet jarayonini pul mablag'lari bilan ta'minlash	Davlatning moliya rejasidagi pul mablag'larini taqsimlash

Rossiya iqtisodchilari tomonidan qayd qilinayotgan soliqlarni prognozlash va rejalashtirish elementlarini qo'llash mexanizmlarida barcha elementlarning maqsadi soliqlarni byudjetga jalb qilish jarayoniga qaratilgan bo'lib, ularning o'zaro bog'liqligini ta'minlash byudjet

jarayonini to'g'ri shakllantirish va amalga oshirishning muhim sharti sifatida baholaydi.

Soliqlarni prognoz qilish va rejalashtirish elementlari yuqorida iqtisodchilar ta'kidlaganidek, ularning o'zaro bog'liqligi byudjet-soliq siyosatida maqsad qilib qo'yilgan natijalarga erishishning muhim vositasi bo'lib xizmat qilsada, ammo ularning elementlarini ularning ichki xususiyatlari va amalga oshirilish jarayonining mazmuni hamda ularga eng ko'p ta'sir etuvchi omillarning xususiyatlaridan kelib chiqib belgilash maqsadga muvofiqdir.

Soliqlarni prognoz qilish va rejalashtirish jarayonida elementlarni qo'llashga tizimli yondoshuv tadqiqotning natijalarining aniqligi va ishonchligini ta'minlaydi. Elementlarni qo'llashda tizimiy yondoshuv ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning qonuniyatlarini mantiqiy asosda aniqlashga imkon beradi. Har qanday iqtisodiy jarayon yoki obyektning o'zi o'ziga xos tizimga ega bo'lib, avvalo ushbu obyektning ichki tizimlari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish obyektning mohiyati va xususiyatini ochib bersa, boshqa tomondan uning amal qilishi jihatidan o'ziga yaqin bo'lgan kategoriyalar va munosabatlarga bog'liqlik darajasini ham ko'rsatib berishga xizmat qiladi. Ob'ektlarning o'zaro bog'liqligini aniqlashda ham tizimiy yondoshuvning tamoyillariga asoslanish zarur bo'ladi. Soliqlarni prognoz va rejalashtirishda ularning elementlarining o'zaro bog'liqligini tizimlashgan holda o'rganish va qo'llash bir tomondan ularning o'z ichki xususiyatlarini ochib bersa, boshqa tomondan ularning yuzaga chiqish va amal qilishini belgilab beruvchi omillarni ham ko'rsatib beradi. O'z navbatida mazkur omillarni ularning o'zlari bilan bog'liq holda o'rganish esa prognoz va rejalashtirish jarayonining qonuniyatlarini yanada ochilishiga yordamlashadi.

Soliqlarni prognoz qilish va rejalashtirishda ularning elementlarini o'zaro bog'liqligini aniqlashda tizimli yondoshuvda asosiy e'tibor elementlarning o'zaro yaqinligi, iqtisodiy munosabatlar makonida joylashgan o'rni, shuningdek, byudjet jarayonidagi ahamiyati va ta'siri nuqtai nazaridan yondoshish maqsadga muvofiq. Masalan soliqlar

stavkasining o'zgarishini soliq tushumiga ta'sirining o'rniga soliq nazorati samaradorligiga ta'sirini o'rganish prognoz nuqtai nazaridan to'g'ri bo'lmaydi, bu erda tizimiy yondoshuv bo'lsada, ammo maqsadga erishish nuqtai nazaridan noto'g'ri uslub hisoblanadi. Shuningdek, soliq imtiyozlarini soliq to'lovchining moliyaviy faoliyatiga va uning ishlab chiqarish faoliyatiga bog'liqligi o'rniga soliq qarzdorligiga ta'sirini o'rganish soliq tushumlari prognozini aniqlashga etarlicha yordam bermaydi, boshqacha qilib aytganda tizimiy uslub maqbul emas. Demak, tizimiy yondoshuvda ham albatta mantiq va tahlil usullariga tayanilish lozim bo'ladi. Albatta tizimli yondoshuv ham o'z navbatida ma'lum bir tamoyillarga asoslanadi. Iqtisodiy adabiyotlarda uning quyidagi tamoyillari keltiriladi: Yaxlitilik-barcha elementlar yaxlit butunlikni tashkil etadi.

Ierarxiyali-tizimi elementlari biri-biriga bo'ysinuvchan holatda bo'ladi, quyidan yuqoriga va aksincha holatda aks ta'sirda bo'ladi. Tarkiblilik-o'zaro bog'liq elementlar ma'lum bir tarkibda faoliyatda bo'ladi. To'plamlilik-turl xil matematik-modellarni yagona to'plam sifatida qo'llash mumkin bo'ladi. Tizimlilik-har qaysi obyektning tizimning barcha belgilarini aks ettiradi.³⁸

Soliqlarni rejalashtirishdan farqli o'laroq soliqlarni prognoz qilish murakkab hisob-kitoblarga, tahlillarga, qo'llaniladigan usullarning xil-xilligi, ularni kombinatsiyalashgan holda qo'llanilishi, axborotlar bazasining turli tumanligi va uni qayta ishlash darajasining yuqoriligi, nafaqat statistik, matematik, ekonometrik hisoblar, shuningdek, mantiqiy yondovlarga ham tayaniladi. Soliqlarni prognoz qilish va rejalashtirish tashkiliy bosqichda o'zaro o'xshash bo'ladi. Ya'ni ularni shakllantirishda qatnashuvchi subyektlarning ko'pligidir. Soliqlarni rejalashtirishda axborotlar bilan ta'minlovchi organlar bilan birgalikda soliq siyosatining mazmuniga xos takliflarni ilgari suruvchi organlar ham ishtirok etadi. Soliqlarni prognoz qilish jarayonida esa aksariyat qatnashuvchi organlar

³⁸ Васильева, М.В. Методы налогового прогнозирования на макроуровне / М.В.Васильева // Управленческий учет. – 2011. - №6 – С.69.

asosan axborotlar bilan ta'minlash, hisob-kitoblarni amalga oshirish bilan cheklanadi.

Albatta soliqlarni prognoz qilishning eng muhim belgilaridan biri ham uning omillar ta'sirida bo'lishligidir. Ya'ni omillar tizimi bu jarayonda asosiy rol o'ynovchi bo'lib yuzaga chiqadi va ularning ko'pligi va ta'sirchanligining nobarqarorligi soliqlarni prognoz qilish jarayonida prognoz natijalariga ta'sir etuvchi omillarni doim va turli xil metodlarni mos holda qo'llab borishni taqozo etadi. Soliqlarni prognoz qilish jarayonida omillar ta'sirini baholashda ko'pincha ular ma'lum guruhlarga bo'linadi. Bundaylar qatoriga obyektiv va natijali omillarni keltirish mumkin. Ob'ektiv omillar jumlasiga prognozni amalga oshiruvchi soliq xizmati va boshqa organlar faoliyatiga bog'liq bo'lmagan moliyaviy omillar(yalpi ichki mahsulot, inflyatsiya, investitsiya, jamg'arilish, iste'mol va narx indeksleri, import-eksport hajmi va sh.k.) kiritilsa, natijali(ichki) omillarga bevosita soliq xizmati va boshqa moliyaviy organlarning faoliyati natijalari kiritiladi. Natijali omillarning ta'sirini esa soliq xizmati organlari tomonidan o'tkazilgan turli xil tekshiruv natijalari, soliqlarni undirish borasidagi ishlar, soliq to'lovchilarni o'z vaqtida ro'yxatga olish, informatsion texnologiyalarning qo'llanilishi, soliq to'lovchilarning madaniyatini oshirish borasidagi amalga oshirilgan ishlar va shu kabilar bilan o'lchanadi.³⁹ Ammo qayd etilganlarni e'tirof etish bilan bir qatorda bizning fikrimizcha soliq prognoziga ta'sir etuvchi omillarni bunday tartibda guruhlash uslubiy jihatdan unchalik to'g'ri emas. Qayd etganimizdek, prognoz jarayoni o'ta qaltis va ma'suliyatli jarayon bo'lib, uning natijasi iqtisodiy siyosatning mazmuniga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi. Omillar to'plamini to'g'ri baholamaslik prognoz natijasiga salbiy ta'sir etishi, provardida esa iqtisodiy siyosat qolaversa, soliq siyosatining taktik yo'nalishlarini noto'g'ri

³⁹ Маслова, И.А. Планирование и прогнозирование налоговых рисков для целей эффективного налогового менеджмента // И.А. Маслова // Управленческий учет. — 2012. - №6. — С. 75-80.; Рогачев, А.Ю. Моделирование налоговых поступлений на примере Сибирского федерального округа / А.Ю. Рогачев // Налоговая политика и практика. - 2006. - №1. - с. 44-48.; Смирнов, А.Н. Модель оптимизации системы налогов. Диссертация кандидата технических наук. - М., 1999.

belgilanishiga olib keladi. Shu boisdan prognoz natijalariga ta'sir etuvchi omillarni avvalo uslubiy jihatdan to'g'ri guruhlab olish lozim bo'ladi.

Tayanch so'z va iboralar:

Prognoz, prognoz turlari, soliqlarni prognozlashtirish, soliqlarni rejalashtirish, gipoteza, bashorat, reja, futurologiya, moliyaviy rejalashtirish, moliyaviy prognozlashtirish, byudjetni rejalashtirish, byudjetni prognozlashtirish, soliqlarni prognoz qilish tamoyillari, soliqlarni prognoz qilishning maqsadi, soliqlarni prognoz qilishning vazifalari, soliqlarni prognozlashtirish va rejalashtirishning farqlari, ierarxialik, tizimlilik, tarkiblilik, soliqlarni prognoz qilishning zaruriy omillari, Yagona iqtisodiy makon, «Sariq reestr», devon, xaraj, soliqlarni prognoz qilishning belgilari.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Prognoz tushunchasining mohiyati va uning yuzaga kelishining shart-sharoitlarini izohlab bering.
2. Prognoz qanaqa turlarga bo'linadi?
3. Soliqlarni prognoz qilish deganda nima tushuniladi?
4. Soliqlarni prognoz qilish jarayoni qanaqa belgilarga ega?
5. Soliqlarni prognoz qilish jarayoni qanaqa tamoyillarga asoslanadi?
6. Soliqlarni prognoz qilish va soliqlarni rejalashtirishning qanaqa o'xshash va farqli tomonlari mavjud?
7. Soliqlarni prognoz qilishning maqsadi va vazifalarini aytib bering.
8. Soliqlarni prognoz qilishning moliyaviy rejalashtirish, prognozlashtirish hamda byudjetni rejalashtirish va prognozlashtirish jarayonlari bilan bog'liq jihatlarini izohlab bering.
9. Soliqlarni prognoz qilishning tarixiy rivojlanish jarayonlarini izohlang.

10. Soliqlarni prognoz qilish va rejalashtirishni shakllanishi va rivojlanishining xorijiy davlatlar tajribasini aytib bering.

11. Bashorat va prognoz tushunchalarining nima farqi mavjud?

12. Soliqlarni prognoz qilishning miqdoriylik tamoyilining mohiyati nimadan iborat?

13. Vatanimiz hududida amal qilgan qadimgi davlatchilik shakllarida hamda A. Temur hukmronlik qilgan davrda soliqli tushumlarni hisobga olib borish va ularning kelgusidagi hamjini aniqlash ishlarining tashkil etilishi haqida aytib bering.

14. Futurologiya deganda nima tushuniladi?

4-BOB. SOLIQNI PROGNOZ QILISH MODELLARI VA METODLARI

4.1. Soliqlarni prognoz qilishda modellar va modellashtirishning ahamiyati va ularning mohiyati

Soliqlarni prognoz qilish jarayonida eng muhim bosqichlardan bir bu uni amalga oshirishda qo'llaniladigan modellar va metodlarni aniqlash va ulardan unumli foydalanish hisoblanadi. Tadqiqotlar metodologiyasida model va metodlar ilmiy bilishning muhim quroli sifatida qayd etiladi. O'rganilayotgan obyektning yashiringan ichki va tashqi xususiyatlarini bilishda mantiqiy, tarixiy yondoshuvlar uning tashqi xususiyatlarini ochib beradi xolos. Ob'ektni chuqurroq o'rganish esa ma'lum bir yondoshuvlar tizimidan foydalanishni taqozo etadi, bu esa model va metodlarga ehtiyojni keltirib chiqaradi. Avvalo «model», «modellashtirish» «metod» kabi tushunchalarning mazmunini bilish maqsadga muvofiqdir. O'zbekiston Milliy entsiklopediyasida «Model» lotin tilidan oligan bo'lib «modulus» — «o'lchov, me'yor» me'yor degan ma'noni beradi. modlellashtirish esa jarayonlarni model yordamida tadqiq qilish degan ma'noni beradi» deb ta'riflangan, ammo ushbu tushunchalarning iqtisodiyot bilan bog'liq tushunchalari keltirilmagan.⁴⁰ Boshqa bir manbalarda Model frantsuzcha «modèle», latincha «modulus» — «o'lchov, o'xshash, namuna degan ma'noni berib bu boshqa tizim xususida ma'lumot olish tizimi va real holatni tasavvur va uning ko'rinishlarini anglash vositasidir» deb, ta'rif berilgan⁴¹.

Modellar haqiqatni aks darajasiga qarab evristik, natural va matematik turlariga bo'linadi. Evristik model inson ko'rinishi va xususiyatlarini namoyon etishda qo'llanilsa, natural modellarning mohiyati shundaki, ular mavjud holatni aniq ifodalaydi, faqat hajm va miqdor jihatdan farqlanadi. Matematik modellar ham keyingi vaqtlarda

⁴⁰ Qarang: O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi. "M" harfi. Toshkent. 671b.

⁴¹ Уёмов А. Н. Логические основы метода моделирования, М.: Мысль, 1971. — с.48

jamiyat ijtimoiy hayotining turli jabhalarini, jumladan sotsial-iqtisodiy jarayonlarni o'rganishda keng foylanilib kelinmoqda. Bunday modellarning asosini matematik-mantiqiy yondoshuv asosida obyektlarni miqdoriy jihatdan o'rganish hisoblanadi. Matematik modellarning eng ko'p tarqalgan turlari jumlasiga analitik, miqdoriy, formal-mantiqiy axborot modellarni kiritish mumkin. Mutaxassislarning fikriga ko'ra matematik modellar qo'llash va iqtisodiy jihatdan ancha qulay sanaladi. Natural modellar fizik, tremplet va maketli turlarga bo'linadi. Bular ichida fizik modellar eng ko'p qo'llaniladigan modellardan hisoblanib uning o'zi ham texnik, sotsial va iqtisodiy modellarga bo'linadi. bulardan tashqari oraliq modellar ham mavjud bo'lib, ular jumlasiga grafikli, analogli(o'xshash) va matematik-iqtisodiy modellar kiradi. Modellar tuzilishi va jarayonlarni qamrab olishi jihatdan bir-biridan farqlanadi, ya'ni ularning funktsional vazifalari darajalanadi. shu jihatdan olganda funktsional, printsipial, strukturali va parametrli modellarga ajratiladi.

Funktsional model (ba'zi hollarda abstraktli model hem deb ataladi) bu o'rganilayotgan obyektning ichki va tashqi elementlarining o'zaro bog'liqligini ochib berishga xizmat qiladi. Iqtisodiyotdagi har qanday jarayon o'z ichki va tashqi elementlari va omillarga bog'liq bo'lib, birining o'zgarishi boshqasining o'zgarishi ta'sir qiladi va uni o'ziga bog'liq(tobe) qilib qo'yadi, shu bilan birgalikda o'zi ham tobe bo'ladi. Bunday holat soliqlarni prognoz qilish jarayonida doim sodir bo'ladi, qolaversa, tashqi va ichki elementlarning o'zaro bog'liqligi jud kuchli bo'ladi. Masalan soliq stavkasining o'zgarishining soliq tushumlariga ta'sirida ichki va tashqi omillar va elementlarning o'zaro bog'ligligi juda kuchli bo'ladi, ular o'rtasidagi funktsional aloqalarni o'rganish esa soliq tushumlari hajmini aniqroq aniqlashda katta rol o'ynaydi. Bu yerda asosiy masalalardan biri ham o'zaro funktsional bog'liq elementlarni to'g'ri aniqlash kerak bo'ladi.

Printsipial(kontseptual model) model o'rganilayotgan obyektning real holati va uning aloqalariga asoslanadi. Deyarli barcha jarayonlarda printsipial aloqalar va hakaratlar mavjud bo'ladi, modellashtirishda

ularning ana shu jihatlariga e'tibor qaratiladi. Masalan, soliqlarni prognoz qilish jarayonida soliq tushumlarining oshishi va kamayishini tushumning printsiptial xususiyatlari(dinamik tarzda bo'lishi, omillarga bog'liqligi, soliq xizmati organlarining faoliyati va sh.k)ga tayanilish lozim bo'ladi. Strukturali modelning asosida har qanday obyekt ma'lum bir tarkibga ega bo'ladi, ularning rivojlanish jarayonlarini o'rganish esa tarkibiy ketma-ketlikning ierarxiyasining mavjudligi yotadi. Tarkibiy zvenoga ega bo'lib, ularning bog'liqligini kuchaytiradi va ular o'rtasida printsiptial va funktsional aloqalarni aniqlash imkoni tug'iladi, shu jihatdan olganda mazkur modellar yuqorida qayd etilgan printsiptial va funktsional modellarni to'ldiradi va ularga xizmat qiladi. Parametrlar modellar odatda matematik modellar ham deb ataladi. Ushbu modelning mohiyati shundan iboratki, modellashtirilayotgan tizimning funktsional va yordamchi(asosiy va asosiy bo'lmagan) parametrlari o'rtasida miqdoriy bog'liqliklarni ochib beradi.

Yuqorida qayd etilganlardan tashqari modellar tizimi xususiyatlari, darajalari va maqomiga qarab oddiy va murakkab, bir xil turdagi va xilma-xilli, ochiq va yopiq, statistik va dinamik, barqaror va ehtimolli modellarga ham guruhlanadi⁴². Modellar shakli va turiga qarab modellashtirish yuzaga chiqadi. Modellashtirish tegishli modelni qo'llagan holda jarayonni amalga oshirishning amaliy jarayonidir. Modellar ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni qanday tartibda o'rganishning samarali vositalarini ifodalab bersa, modellashtirish ana shu jarayonlarning mexanizmlarini ko'rsatadi. Modellashtirish ham modelning xususiyati, modellashtirilayotgan obyektning xarakteri va uning qo'llanish sohasiga qarab ma'lum bir guruhlarga bo'linadi. Hozirgi kunda adabiyotlarda modellashtirishning quyidagi: axborotli, kompyuterli, matematik, matematik-kartografik, molyakulyarli, raqamli, manti-

⁴²Юдин А. Д. Экстремальные модели в экономике. М., 1979, 79 с.

qiy, pedagogik, psixologik, statistik, tarkibli, fizik, imitatsion, evolyutsion, grafikli-geometrik, naturalni va iqtisodiy-matematik modellashtirish kabi turlari mavjud.⁴³

Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish uch element: subyekt(modelni tashkil etuvchi shaxslar), obyekt(model asosida o'rganilayotgan obyekt) va qo'llanilayotgan modeldan iborat bo'ladi. Modellashtirish obyekt yoki jarayonni oldindan o'rganish, uning muhim alomatlari yoki tavsifnomalarini ajratish asosida modelning loyihagini ishlab chiqishni nazarda tutadi. Iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni modellardan foydalangan holda prognoz qilish modelni ishlab chiqish, uni eksperimental tahlil qilish, model asosidagi prognoz hisob-kitoblari natijalarini obyekt yoki jarayonning amaldagi holati ma'lumotlari bilan taqqoslash, modelni aniqlashtirish va tuzatishlar kiritishni o'z ichiga oladi. Iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni boshqarish darajasiga qarab, makroiqtisodiy, tarmoqlararo, hududlararo, tarmoq, hududiy modellar va mikroarajadagi modellar (firmaning rivojlanish modellari) farqlanadi. Iqtisodiyotning rivojlanish jihatlari bo'yicha narx, mehnat resurslari, asosiy fondlarni takror ishlab chiqarish modellari ajratib ko'rsatiladi. Modellarini tasniflashning bir qator boshqa belgilari: vaqt, omil, transport, ishlab chiqarish alomatlari mavjud.

Avvalgi bandlarda ta'kidlab o'tganimizdek, o'tgan asrning 60-70 yillaridan boshlab iqtisodiyotning qonuniyatlari va uning muammolarini o'rganishda hamda uning echimlarini topishda bir qator modellar va ularga asoslangan holda modellashtirish usullari qo'llanila boshlandi. Ushbu modellar va modellashtirish usullari boshqa sohalar singari soliqlarni prognoz qilish jarayonida ham keng qo'llanilib kelinmoqda. Iqtisodiy adabiyotlarda⁴⁴ ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni, jumladan soliqlarni prognoz qilishning modellarini ularning mohiyati, qo'llanilish

⁴³ Глицкий Б.А. Моделирование как метод научного исследования. М., 1965. 56 с.

⁴⁴ Qarang: Рогачев, А.Ю. Моделирование налоговых поступлений на примере Сибирского федерального округа / А.Ю. Рогачев // Налоговая политика и практика. - 2006. - №1. - с. 44-48.; Попова, Л.В. Моделирование планирования налоговых поступлений в федеральный бюджет Орловской области / Л.В. Попова // Экономические и гуманитарные науки. - 2012. - № 3. - С.76-80.; Сидорова, Н.И. Налоги в государственном регулировании экономики. Финансы. - 1996. - № 11. - С. 26-27.

darajasi va ulardan olinadigan natijalarning darajasiga makroiqtisodiy modellarni makroiqtisodiy, mikroimatatsiyali va ekstropolatsiya modellarga bo'lishsa, ba'zilarida makroiqtisodiy modellarni ekonometrik (tarkibsiz) va gibridli (tarkibli) guruhlariga ajratishadi.⁴⁵

Qayd etilgan mualliflarning fikricha ekonometrik modellar davlatning iqtisodiy siyosatini qiyosiy tahlil qilishga mo'ljallanmagan. Gibridli modellar esa o'rta va uzoq muddatli iqtisodiy muvozanatni modellashtirishga xizmat qilib iqtisodiy islohotlarning oqibatlarini tahlil qilishda ahamiyatlidir. Ushbu ikkala modellarning o'xshashligi shundaki, iqtisodiy nazariyalarga asoslanadi davlatning iqtisodiy siyosatining stsenariyalarini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Gibridli makroiqtisodiy modellar makroiqtisodiy nazariyalarga asoslangan holda iqtisodiy jarayonlarning afzallik jihatlari alohida olingan statistik metodlar orqali aralastirilib, ular ma'lum bir o'lchamlarga keltiriladi, bunda esa eng muhim iqtisodiy indikatorlar(masalan, yalpi ichki mahsulot, investitsiya, iste'mol darajasi v sh.k.) asosiy mezon sifatida olinadi. Biroq, alohida olingan parametrlar makroiqtisodiy tahlillarga asoslangan holda ularning dinamik jarayonini o'rganish qiyin, shu sababli ekonometrik metodlardan foydalaniladi. Bu esa makroiqtisodiy modellarni ikki turga bo'linishiga olib keldi. Ushbu modlellarda asosan statistik qonuniyatlarga asoslanib, o'zaro bog'liqlikdagi parametrlarning qaysi biri ko'proq ta'sirchan xususiyatga ega bo'lishiga alohida urg'u beriladi. Mazkur ikkala yondoshuvlar ham amaliyotda keng qo'llaniladi.

Ekonometrik modellar esa ko'proq qisqa muddatli makroiqtisodiy prognozlashtirishda ko'proq samara beradi. Statistik metodlar va hisoblash texnikalarning takomilashib borishi ekonometrik modellarning afzalliklarini ko'rsatib bermoqda. Modellashtirishning makroiqtisodiy shakllari makroiqtisodiy darajadagi iqtisodiy hodisa va jarayonlarni rivojlantirish tendentsiyalari ularning keyingi davrlardagi holatini

⁴⁵ Diebold, Francis X., "The past, present, and future of macroeconomic forecasting", National Bureau of Economic Research, 1997, NBER working paper, number 6290, month November.; Алексеев Александр, "Межотраслевая и многоотраслевая вычислимая модель общего равновесия". ЦЭМН РАН, 2005, Препринт-36-47с.

aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Byudjet-soliq sohasidagi makroiqtisodiy prognozlashtirish modellari byudjetni samarali rejalashtirish va uni boshqarishga mo'ljallangan. Bunda soliqlarning byudjetga tushishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiluvchi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni o'rta va uzoq muddatli dinamikasini chuqur va sifatli prognoz qilishni talab qiladi. Soliq tushumlari esa davlatning iqtisodiy, jumladan byudjet-soliq siyosati, iqtisodiy islohotlarning mazmuni va yo'nalishlari hamda tashqi omillarga bog'liq bo'ladi. Bular makroiqtisodiy omillar hisoblanadi. Bunday omillarning o'zaro bog'liqligini kompleks o'rganish ma'lum bir makroiqtisodiy modellarni qo'llashni taqozo qiladi.

4.2. Soliqlarni prognoz qilishda qo'llaniladigan modellar

Soliq daromadlarini prognoz qilish muammosi iqtisodiy prognoz qilish umumiy muammolari bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularni tadqiq qilish uchun ma'lum bo'lgan iqtisodiy-matematik modellar va usullar foydalanilishi mumkin. Iqtisodiyotda dastlabki yirik makroiqtisodiy modellardan biri Keynschilar nazariyaga asoslagan IS-LM modelidir. Ma'lumki, ushbu modelning asosini iste'mol funksiyasi, investitsiya funksiyasi, talab funksiyasi vashu kabilar tashkil etadi. Keyns nazariyasida makroiqtisodiy muvozanat masalasi qayd etilgan funksiyalar bilan birgalikda soliqlar funksiyasini ham qamrab oladi, ya'ni ushbu nazariyada birinchi bor «soliq multiplikatori» tushunchasi kiritiladi va soliqlarning qayd etib o'tilgan jarayonlar bilan o'zaro bog'liqligi va ularning aks ta'siri kabi masalalari ko'rib chiqiladi.

Soliq multiplikatori (*Tax multiplier*) (m_t) – bu soliqlarning o'zgarishining investitsiya va milliy daromadning o'zgarishining bog'liqligini ifodalaydi. Qancha soliq stakalari kam bo'lsa, multiplikatorlik samarasi shuncha yuqori bo'ladi va aksincha. Soliqlarning kamayishi xususiy talab va ishlab chiqarish hajmini oshiradi, soliqlarning oshishi esa o'z navbatida talabga va shu orqali milliy daromad hajmining kamayishiga ta'sir qiladi. Xuddi shunday jarayon davlat byudjeti

xarajatlari doirasida ham sodir bo'lib, bu erda soliqlar makroiqtisodiy ko'rsatkichlar sifatida asosiy funktsiyalarni bajaradi. Keynschilar nazariyasiga ko'ra progressiv soliqqa tortish davlat byudjetidan yalpi talabni oshirishga qaratilgan investitsiya xarajatlari hisobiga yuzaga keladigan taqchillikni kamaytirishda rol o'ynaydi.

Makroiqtisodiy modelning ushbu turida soliqlarning byudjetga kelib tushishini ta'minlashda asosiy vosita soliq stavkalarining ta'siri asosiy diqqat markazda bo'ladi. Keyinroq, 70 yillarda makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlashning fiskal funktsiyalari o'rniga monetar funktsiyalarning afzalligi xususidagi yangi makroiqtisodiy modellar yuzaga keldiki, ularda asosiy masala pul agregatlari bo'ldi (monetariyastlar nazariyasi). O'tgan asrning 70 yillarida makroiqtisodiy ekonometrik modellarni qo'llash ancha rivoj topdi. Bunga asosiy sabablardan biri bu matematika sohasida o'zaro nisbatli avtoregressiyalarni prognoz jarayonida qo'llash imkoniyatini beruvchi yirik ishlanmalarning ishlab chiqilishi bilan bog'liq bo'lib, iqtisodiyotdagi tasodifiy o'zgarishlar va ularning vaqt qatorlari o'rtasida yuz beradigan bog'liqliklarni avtoregressiyali funktsiyalar bilan o'rganish imkoniyatini berdi.

Ekonometrik makroiqtisodiy modellarning yanada rivoj topishi mashhur iqtisodchi va matematik olimlar Boks va Jensonlarning ARIMA (autoregressive integrated moving average)-o'rta og'ishning avtoregressiyali modelining yaratilish va uning keng qo'llanilishi bilan bog'liq. XX asrning 60-70-yillarida integratsiyalangan sirpanuvchi o'rtacha ko'rsatkich avtoregressiyasi modeli (ARIMA), avtoregressiya modeli (AR) va o'tkazma funktsiya chiziqli modeli ommaviy bo'lgan. ARIMA modelida ko'zda tutiladiki, prognoz qilinayotgan ko'rsatkich umumlashtirilgan barqaror tasodifiy jarayon hisoblanadi, ya'ni uning o'zi, yoki uning ma'lum bir tartibdagi o'sishi barqaror sanaladi. Mazmunan bu shuni anglatadiki, iqtisodiy jarayonning rivojlanishi, masalan, uning o'zgarishi yoki sur'atining o'sishi barqaror bo'ladi, yuzaga keladigan chetlashishlar esa tasodifiy xarakterga ega bo'ladi va rivojlanish asosiy tendentsiyasini o'zgartirmaydi. Bu holatda model

strukturasidagi noma'lum ko'rsatkichlarni Boks-Djenkins usuli yordamida baholanadi.⁴⁶

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, avtoregressiya va og'uvchan o'rtacha ko'rsatkich modellarini bitta modelda birlashtirish yuqorida aytib o'tilgan cheklovchi shartlarni bajargan holda etarli darajada aniqlik bilan prognoz qilishga imkon beradi. Ko'plab holatlarda ARIMA modelining xususiy holati hisoblangan avtoregressiya oddiy modeli deyarli shunday natijalarga olib keladi. Unda baholanadigan ko'rsatkichlar soni kichikligida mavsumiy omilni hisobga olish mumkin. Mavsumiy omilni hisobga olishning «additiv usuli» va og'uvchan o'rtacha ko'rsatkichi elementining yo'qligi ushbu modelni ko'rsatkichlar bo'yicha chiziqli qilib qo'yadi va shu sababli ularni baholash uchun eng kichik kvadratlar oddiy «rekurrent usuli»dan foydalaniladi. Ko'rsatkichlarning o'zaro aloqalarini hisobga oladigan odatiy model ikki tarkibiy qismdan iborat bo'lgan o'tkazma funktsiya modeli sanalib, birinchi tarkibiy qism prognoz qilinayotgan jarayonning stoxastik qismini, ikkinchisi esa – jarayonlar o'rtasidagi bog'liqlikni tavsiflaydi.

Modellar va metodlarning uch guruhini ko'rib chiqamiz: balans, ekonometrik (statistik) va o'yin (minimaks).

Sobiq ittifoq davrida makroiqtisodiy modellar sifatida bir necha xil modellar, jumladan, balansli, ekonometrik (statistik), minimaks (o'yin) kabi modellar qo'llanildi. Balansli modelda turli iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar nazariy jihatdan hisobot balanslari asosida ishlab chiqiladigan dinamik iqtisodiy-matematik modellarda tavsiflanadi.⁴⁷ Rejali iqtisodiyotda tarmoqlararo balans modellari yalpi mahsulot hajmini prognoz qilish va xalq xo'jaligi tarmoqlariga reja topshiriqlari belgilash uchun foydalanilgan. Buning uchun ko'pincha boshlang'ich axborotga juda sezuvchan bo'lgan teskari matematik masalalarni (matematikada hatto maxsus atama mavjud – noto'g'ri masalalar) echishga to'g'ri kelgan. Bu holatda prognozlar shunchalik

⁴⁶ Qarang: Бокс Дж., Дженкинс Т. Анализ временных рядов. Прогноз и управление. Выпуск 1.2. М., "Мир", 1974.

⁴⁷ Анисимов С.А., Дракин В.И., Погорелко И.А. //Автоматика и телемеханика, 1978, N 1., 27-32с.

beqaror bo'lishi mumkinki, bu prognoz qilish vazifasini bajarish mumkinligining o'zini shubha ostiga qo'yadi. Milliy hisoblar tizimida tarmoqlar bo'yicha ishlab chiqarish tarmoqlararo modeli quyidagi tenglamalar tizimi yordamida ifodalangan:

$$X = P + D;$$

$$P = A * X,$$

Bu yerda

X - asosiy narxlarda tarmoq chiqarilish vektori;

P - oraliq iste'mol vektori;

A - to'g'ridan-to'g'ri xarajatlar matritsasi;

D - tarmoqlar bo'yicha qo'shilgan qiymat vektori.

Algebraik tenglamalar tizimini echishda beqaror prognozlar vujudga kelish mexanizmini quyidagi chiziqli tenglamalar tizimi orqali ifodalangan:

Bitta model tenglamalar uchburchakli tizimi quyidagicha bo'lsin:

$$\begin{cases} X_1 & = 1; \\ X_1 + X_2 & = 2; \\ X_1 + X_2 + \dots + X_n = n, \end{cases}$$

U quyidagi prognoz tenglamasini beradi:

$$X_1 = X_2 = \dots = X_n = 1.$$

Birinchi modelning birinchi qismini atigi 1% o'zgartirib, boshqa modelga ega bo'linadi:

$$\begin{cases} Y_1 & = 0.99; \\ Y_1 + Y_2 & = 1.01; \\ Y_1 + Y_2 + \dots + Y_n = n\lambda_n, \end{cases}$$

Bu yerda

$$\lambda_n = 0.99 \text{ toq } n;$$

$\lambda_n = 1.01$ toq n , u quyidagi prognoz echimini beradi

$$Y_n = \{1 + (0.02n - 0.01) \text{ sign}(\lambda_n - 1)\}.$$

Y_n va X_n prognozlar o'rtasi foizdagi farq quyidagiga teng:

$$\frac{|Y_n - X_n|}{X_n} \cdot 100\% = 2(n-1)\%$$

Ko'rinib turibdiki, ko'p sonli (n) boshqa ko'rsatkichlar bilan bog'liq prognoz qilinayotgan n -ko'rsatkich uchun uning boshlang'ich ma'lumotlardagi kichik (1%) farqlarda olingan Y_n va X_n prognozlari o'rtasidagi farq xuddi o'zaro aloqalar soni (n) kabi katta bo'lishi mumkin. Boshlang'ich ma'lumotlarda xatoliklar (hech bo'lmasa kichik) muqarrar ekanligi sababli bunday vazifalarni biron-bir amaliy maqsad bilan, masalan, rejalashtirish uchun hal qilish mumkinligi ko'rsatib berilgan.⁴⁸ Bu ko'rib o'tilgan jarayon soliq sohasiga ham taalluqli, chunki soliq daromadlari ko'plab birlamchi iqtisodiy ko'rsatkichlarga bog'liq bo'lgan hosila ko'rsatkichlar hisoblanadi. Noaniq va ishonchsiz prognozlarga yo'l qo'ymaslik maqsadida matematikada ma'lum bo'lgan noto'g'ri masalalarni tartiblash usullarini qo'llash dastlabki (taxminiy) echim ma'lum bo'lgan, ya'ni agar dastlabki prognoz ma'lum bo'lsa, prognoz qilish vazifasi to'g'ri deb hisoblanadi. Soliq tizimidagi kichik o'zgarishlar, ayniqsa, uni isloh qilishlar soliqlar va soliq bazasini belgilab beradigan omillar soni ortishida, ya'ni soliq tizimida ma'murchilikning murakkablashuvida oldindan aytish qiyin bo'lgan oqibatlar riskiga olib keladi.

Iqtisodiyotda prognoz qilish keng qo'llanadigan ekonometrik modellar va metodlar P.Samuelsonning fikricha «odatiy holatlarda» etarli darajada aniq prognoz olishga imkon beradi.⁴⁹ Bu shuni anglatadiki, retrospektivada (o'tmishga qarab) aniqlangan tendentsiyalarga yo'nalganlik agar yangi texnologiyalar paydo bo'lishi, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar o'tkazilishi va h.k. bilan bog'liq muhim o'zgarishlar ta'siri hisobga olinmasa, prognozda jiddiy xatolarga olib kelishi mumkin. Tajribalarning ko'rsatishicha, aniqlangan tendentsiyalar asosida qilingan ko'plab prognozlar (masalan, demografiya, aloqa, kompyuterlashtirish

⁴⁸ Анисимов С.А., Погорелко И.А. Проблемы прогнозирования налоговых доходов. // Аудит и финансовый анализ. 2003, №1, 26-34с.

⁴⁹ Самуэльсон П.А., Нордхаус В.Д. Экономика. - М.: Лаборатория Базовых Знаний, 2000, 164 с.

sohasi va h.k.da) o'zining to'liq ishonarli emasligini namoyish etdi, chunki, ularda yangi texnologiyalar joriy qilish, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni isloh qilish, iqtisodiyotning globallashuvi va h.k. bilan bog'liq inqilobiy o'zgarishlarni hisobga olish juda qiyin.

Bu davrlarda keng qo'llanilgan makroiqtisodiy modellardan biri bu «ZONT» modeli bo'lib, u asosan qishloq xo'jaligi sohasida mahsulot hosilining tabiiy sharoitlarga bog'liqlik darajasi prognoz qilingan va uning natijalari o'rtacha 85 foiz atrofida bo'lgan⁵⁰.

Statistik modellardan foydalanishda muhim o'zgaruvchilar va ko'rsatkichlarni baholash usullarini diqqat bilan tanlash zarur. Biroq iqtisodiy sharoitlarning o'zgaruvchanligi va xilma-xilligi ekonometrik modellar qo'llashda statistik gipotezalarni aniqlashni qiyinlashtiradi, bu esa noaniq va ishonchsiz prognozlarga olib kelishi mumkin. Natijada an'anaviy matematik vositalar aniq va ishonchli prognozlar olish uchun etarli bo'lmay qoladi. Prognoz qilish vazifasini qo'yish va hal qilishga yondoshuvning keskin o'zgarishi prognozning minimaks (o'yin)⁵¹ modellarini ishlab chiqishga undadi. Ushbu model iqtisodiy jarayonlarga unchalik bog'liq bo'lmaganligi sababli atroflicha to'xtalmaymiz.

Jahon amaliyotiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, iqtisodiy jarayonlarni tadqiq qilishda va uning holatini prognoz qilishda bir qator makroiqtisodiy modellar ishlab chiqildi va ular iqtisodiyotning turli jabhalarida qo'llanildi. Ushbulardan biri bu vektorli avtorregressiya modelidir. Ushbu modelda jarayonlarni prognoz qilishda asosan endogen(ichki) omillarning ta'siri baholanadi. Ushbu model asosida yalpi ichki mahsulot va pul massasining ichki bog'liqlari baholangan hamda yalpi ichki mahsulotning hajmiga pul massasining ta'siri, o'z navbatida yalpi ichki mahsulot hajmining o'zgarishiga qarab pul massasiga bo'lgan talab o'rtasidagi bog'liklar va uning prognozlari ishlab chiqilgan. Mazkur modeldagi xatoliklar korrektsiya xatoligining vektori modeli deb atalgan

⁵⁰ Qarang: Загайтов И.Б., Яновский Л.П., Раскин В.Г., Дементьев С.Н. Метод "Зонт" в прогнозе колебаний природных условий урожая. Воронеж: С.А.Г.Е., 1996.

⁵¹ Qarang: Анисимов С.А. Некоторые методы минимаксной идентификации. Автоматика и телемеханика, 1978, N 6.

modelni qo'llash orqali bartaraf etiladi, ya'ni, ushbu modelni qo'llash orqali nobarqaror vaqt qatorlari o'rtasidagi o'zgarishlarning uzilishi oqibatida e'tiborga olinmay qolgan elementlarning ta'sirini baholash imkoniyati paydo bo'ladi.

Pul massasining o'zgarishiga sabab bo'lgan omillar har doim ham barqaror pozitsiyada bo'lmaydi, ularning o'zgarish vaqtlarida ham stoxastik holatlar mavjud bo'ladi, chunki, pulga bo'lgan talab har vaqtda o'zgaradi. Shunday ekan bunday o'zgarishlarning ta'sirida yalpi ichki mahsulot darajasiga va aks ta'sirni prognoz qilishda korrektsiya xatoligining vektori modeli samara beradi. Shu bilan birgalikda ayrim makroiqtisodiy modellar alohida olingan mamlakatlar iqtisodiyotini qamrab olgan bo'lsa, ba'zilar mamlakatlararo iqtisodiyotga bag'ishlangan. Soliqlarni prognoz qilishning keyingi modellaridan biri bu **mikroimitatsiyali modellar** hisoblanadi. Mikroimitatsiyali modellar jahon amaliyotida qisqa muddatli prognozlarni amalga oshirishda, jumladan, jismoniy shaxslar tomonidan deklaratsiyalash asosida to'lanadigan soliqlar bo'yicha soliq tushumlarini prognoz qilishda keng qo'llanilib kelinmoqda. Buning mohiyati shundan iboratki, deklaratsiya topshiruvchi jismoniy shaxslar soni ko'p bo'lgan sharoitda, ma'lum davrlarga tegishli soliq tushumlarini aniqlashda mikroimitatsiyali model aniqroq natijalarni berishi isbotlangan. Bu yerda soliq to'lovchilar tomonidan kelib tushgan soliq hisobotlari asosiy axborot bazasi bo'lib xizmat qilsa, modellashtirishda statistik usullar qo'llangan holda umumiy tendentsiyalar aniqlanadi va ular ma'lum bir vaqtlar bo'yicha dinamik holati o'rganiladi.

Ushbu model ko'proq AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Germaniya va shu kabi davlatlarida keng qo'llaniladi. Shuningdek, ushbu modellardan Xitoy, Gvatemala, Yamayka va Rossiya davlatlarida ham asta-sekin qo'llanilib boshlandi. dastlabki vaqtlarda ushbu modeldan asosan jismoniy shaxslar to'laydigan(asosan daromad solig'i) soliqlar bo'yicha soliq tushumlari prognozi aniqlashda qo'llanilgan bo'lsa, keyingi davrlarda soliq tizimiga axborot texnologiya yangiliklarining tez

kirib borishi yuridik shaxslar tomonidan to'lanadigan soliqlar bo'yicha soliq tushumlarining keyingi davrlarga tegishli qonuniyatlarini o'rganishda foydalanilmoqda. Bu yerda asosiy e'tibor va mexanizm soliq to'lovchilar tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotlari va uning ma'lumotlariga tayaniladi. Shu jihatdan olganda soliq qonunchiligidagi o'zgarishlarning byudjet daromadlariga ta'sirini o'rganishning muhim vositalaridan biri sanaladi. Mikroimitatsiyali modellar byudjet daromadlaridagi miqdoriy o'zgarishlarni aniqlashda katta ahamiyat kasb etishi bilan birgalikda turli tarmoqlar va turli hududlar kesimida soliq to'lovchilar zimmasiga soliq yukining taqsimlanishida qanday tendentsiyalar yuzaga kelayotganligini ham ko'rsatib beradi.

Mazkur modelda soliq to'lovchilar kesimida soliqlarning yig'iluvchanlik darajasini aniqlash imkoniyati paydo bo'lishi bilan birga alohida olingan soliq to'lovchilarning soliqlarni to'lashga oid ma'lumotlarini tahlil etish orqali ular bo'yicha soliq tushumlarining keyingi dinamikasi aniqlanilishi mumkin, shuningdek, ularning faoliyati bo'yicha soliq nazoratini tashkil etishning yo'llarini rejalashtirish imkoni paydo bo'ladi. Soliq to'lovchilarning ular taqdim etgan hisobotlar ma'lumotlari asosida soliq tushumlarini prognoz qilishda salbiy ta'sir etuvchi omillar ham mavjudki, u ham bo'lsa, hisobot ma'lumotlarining ishonchligi darajasidir. Agar hisobot ma'lumotlarida miqdoriy ko'rsatkichlar haqiqatdan uzoq bo'lsa, soliq tegishli soliq turlari va tegishli soliq to'lovchilar kesimidagi soliq tushumlarining prognoz ko'rsatkichlari ham haqiqiylikdan uzoqlashadi, ushular esa mazkur modellarning kamchilliklarni izohlaydi. Hozirgi kunda mikroimitatsiyali modellarni soliqlarni prognoz qilish jarayonida qo'llashning yagona yondoshuvi mavjud emas.

Shu boisdan mazkur modellarni ikki guruhga: statistik va dinamik modellarga bo'linadi. Statistik modelning mohiyati shundaki soliq qonunchiligidagi o'zgarishlar qisqa muddatda soliq to'lovchilarning faoliyatiga ta'sirini, ya'ni ularning faoliyat turini yoki mahsulot turini o'zgartirishga undaganligini(ta'sir qilganligini) izohlasa, dinamik

modellarda esa uning aks bo'radi. Demak, statistik va dinamik mikroimitatsiyali modellar mahsulot turini Mikroimitatsiyali modellarni tashkil etish mexanizmi uchta komponentlardan tashkil topadi. Birinchisi bu ma'lumotlar bazasi hisoblansa, ikkinchisi soliq to'lovchilar ma'lumotlarini qayta ishlash jarayoni, ya'ni dasturiy mahsullarning samaradorligi va uchinchisi sifatida natijalarni umumlashtirish va ular yuzasidan prognoz ko'rsatkichlarini aniqlash sanaladi. Mikroimitatsiyali modellarni to'g'ri qo'llashda eng muhim jarayon bu soliq to'lovchilarni turli parametrlar bo'yicha guruhlash va ularning ma'lumotlarini o'zaro taqqoslash tahlilini to'g'ri tashkil etish hisoblanadi. Agar ushbu modellar soliq to'lovchilar guruhlari bo'yicha soliq tushumlarining holatini va uning o'zgarish sabablarini noto'g'ri aniqlasa, o'z navbatida prognoz ko'rsatkichlariga ham ta'sir qiladi, provardida alohida olingan soliq to'lovchilar zimmasidagi soliq yuki yoki faoliyat turlariga belgilangan soliq stavkalarini o'zgartirish(yoki o'zgartirmaslik) xususidagi soliq siyosatining taktikasining qanday belgilanishiga olib keladi. O'z navbatida mikroimitatsiyali modellarning ma'lumotlari makroiqtisodiy va ekstrapolatsiyali prognoz qilish modellari uchun axborot sifatida ham foydalanish mumkin, zanjirli reaksiya tarzida keyingi modellardan olingan natijalarga ham ta'sir qilishi mumkin.

Soliqlarni prognoz qilishning yana bir modellaridan biri **ekstrapolyatsiya modelidir**. ma'lumki, ekstrapolatsiya bu-hodisalar va jarayonlarning bir qismini kuzatish asosida olingan xulosalarning bir qismini uning boshqa qismiga olish yoki yoyish jarayoni bo'lib, soliqlarni prgnoz qilishning ushbu modelida ham uning umumiy belgilari aks etsada, biroq, prognozlashtirish jarayonida o'rganilayotgan obyektning o'timishidagi endogen va ekzogen hodisa(belgilar)ning uning kelgusidagi ko'rinishi(natijasi)ga ta'sirini ham e'tiborga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday xususiyatli jarayonlarni ekstrapolatsiya modellari amalga oshiradi. Iqtisodiyotda yuz berayotgan jarayonlar(hodisalar) va iqtisodiy obyekt(kategoriya)larning amal qilish va rivojlanish tendentsiyalarida

umumiy qonuniyatlar saqlanib qolgan bo'lib, ushbu ichki xususiyatlar ularning kelgusidagi holatini aniqlashda ma'lum bir ahamiyat kasb etadi.

Demak, ushbu jarayonni ma'lum bir modelga solgan holda tadqiq etish, ya'ni modellashtirishga zarurat tug'iladi. Ammo iqtisodiy munosabatlar, jarayon va hodisalar mavqey jihatdan farqlanadi, shunday ekan modellar ham shunga ko'ra farqlanadi. Uslubiy jihatdan har qanday prognozning asosiy vositasi ekstrapolyatsiya sxemasi hisoblanadi. Ekstrapolyatsiyaning mohiyati o'tmishda va hozirgi kunda yuzaga kelgan prognoz obykti rivojlanishining barqaror tendentsiyalarini o'rganish va ularni kelajakka o'tkazishdan iborat.

Rasmiy va prognozli ekstrapolyatsiya farqlanadi. Rasmiy ekstrapolyatsiya prognoz obyektining hozirdagi va o'tmishdagi rivojlanish tendentsiyalarini kelajakda saqlab qolish haqidagi taxminlarga asoslansa prognozli ekstrapolyatsiyada esa amaldagi rivojlanish istiqbolda turli omillar ta'sirining o'zgarishigi hisobga olgan holda tadqiq etilayotgan jarayon dinamikasi haqidagi farazlar bilan bog'lanadi. Ta'kidlash joizki, ekstrapolyatsiya usullarini ko'rsatkichlarning o'zgarish tendentsiyalarini aniqlash uchun prognozning boshlang'ich bosqichda qo'llash zarur. Ekstrapolyatsiya modelida ko'pincha trendlashgan asosiy o'ringa chiqadi. Trend bu inlizcha «trend» so'z bo'lib, lug'aviy ma'nosi — tendentsiya degan ma'noni beradi. Ya'ni vaqt qatorlari(dinamik qatorlar)ning o'zgarishining asosiy tendentsiyalarini ko'rsatadi. Trendlar turli xil shaklda: lineyali, logarifli va darajali shaklda bo'lishi mumkin.⁵² Soliqlarni prognoz qilishning ushbu modeli jumlasiga trend modeli, eksponentsial tekislanish modeli va avtoregressiyali o'rtacha og'ish modeli(ARMA) kabilarni kiritish mumkin. Soliqlarni prognoz qilishning ekstrapolyatsiya modellarining kamchiligi shundaki, ushbu model ko'proq avtonom hisoblanadi, ammo o'zi boshqa modellarda «oralik yordamchi» vazifasini o'tasada, undan ko'pi bilan 5 yildan ortiq bo'lgan prognozlarni amalga oshirishda o'zini oqlamaydi.

⁵² Qarang: Коротков А. В., Малков А. С., Халтурина Д. А. Законы истории. Математическое моделирование развития Мир-Системы. Демография, экономика, культура. 2-е изд. М.: УРСС, 2007. ISBN 978-5-484-00957-2

Ayrim mualliflar⁵³ soliqlarni prognoz qilishning ushbu modeliga obyektini uning o'tmishiga qarab o'rganishga asoslangan(yoki foydalanган) barcha iqtisodiy-matematik modellarni kiritadi.

4.3. Jahon amaliyotida qo'llanilgan makroiqtisodiy modellar va ularning soliqlarni prognoz qilishda qo'llanilishi

Makroiqtisodiy modellar juda ko'p miqdorda bo'lib, biz ularning ayrimlarini, xususan, byudjet blokiga ega bo'lgan, soliqlarni prognoz qilishni o'z ichiga olgan hamda ularning o'zaro bog'liqlik masalalarini aks ettirgan ayrimlari xususida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Umumiy muvozanatning dinamik makroiqtisodiy modeli. Mazkur model davlatning bir necha sohalarida masalan, soliq, baho, investitsiya, pul-kredit, bojxona kabi sohalaridagi iqtisodiy siyosatlarni o'zaro bog'liq holda o'rganish va ularning rivojlanish prognozlarini qamrab oladi. Modelning asosida prognoz jarayonida asosiy e'tibor beriladigan iqtisodiy agentlar(masalan, iste'molchining nafilik darajasini maksimallashtirish va ishlab chiqaruvchilarning foydani maksimallashtirishga intilishi kabi) o'rtasidagi o'zaro muvozanatni ta'minlashga qaratilgan bo'ladi. Ammo ushbu model qisqa muddatli prognozlarni amalga oshirishda etarlicha aniqlikni bermaydi va shu sababli o'rta va uzoq muddatli prognozlarni amalga oshirishga mo'l-jallangan.

Buyuk Britaniya Banki yadro modeli. Ushbu model yangi keynschilar ta'limoti asosida ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu modelda ishbilarmonlik faollik va pul-kredit siyosatining ishlab chiqarishga ta'sirini o'zida aks ettirgan bo'lib, uning kamchiligi shundaki, narx omilini ta'siri e'tiborga olinmaydi. Ushbu modelning xususiyatlari iqtisodchi olim Kalvoning ilmiy ishlarida aks ettirilgan.⁵⁴

⁵³ Qarang: Яковлева Н.А. О МОДЕЛЯХ ПРОГНОЗИРОВАНИЯ НАЛОГОВЫХ ПОСТУПЛЕНИЙ // Фундаментальные исследования. – 2008. – № 3 – С. 123-124.

⁵⁴ Qarang: Calvo, Guillermo A., "Staggered prices in a utility-maximizing framework", Journal of Monetary Economics, 1983, volume 12, number 3, pages 343-482, month September.

Yapon iqtisodiyoti modeli(JEM). Mazkur makroiqtisodiy modelda xarajatlarning o'zgarish holati asos qilib olingan bo'lib, iqtisodiy muvozanatni ta'minlash va uning rivojlanishida ikkinchi darajali xarajatlarning o'zgarish darajasini kvadrat lineyali usullarni qo'llagan holda aniqlashga mo'ljalangandir. Modelning natijalari davlat, aholi va biznes sohasida qilingan xarajatlarning o'zaro tengligini ta'minlashning prognoz kursatkichlarini aniqlash orqali, ularning o'zgarish tendentsiyalari prognozning vektorli avtoregressiya usuli orqali aniqlangan.

Kanada moliya Departamentining «Kanada iqtisodiyoti modeli(CEFM). 1996 yilad Kanada moliya Departamenti tomonidan ishlab chiqilgan eng katta modellardan biri bo'lib, u o'z tarkibiga 113 ta baholash tenglamalarini olib, uning 52 tasi fiskal xususiyatli qolganlari esa iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga bag'ishlangandir. Modelning asosida federal byudjetning daromad va xarajatlarini chuqur tahlil qilish asosida xarajatlar va daromadlar hajmining o'zgarish tendentsiyalarini aniqlash va ularning iqtisodiyotning boshqa elementlariga ta'sirini ekonometrik tahlillarni qo'llagan holda o'rganish tashkil qiladi. Model alohida byudjet blokiga ega bo'lib, unda Kanadaning uch bosqichli: federal, munitsipial va mahalliy byudjetlarning daromad manbalari va ular bo'yicha tushumlar, jumladan soliq tushumlarining byudjetlarga kelib tushish jarayonlari prognozi amalga oshirilgan, shuningdek, byudjet xarajatlarining holati ham prognoz ko'rsatkichlari matematik-statistik tenglamalar asosida aniqlangan. Model choraklik axborotlarga asoslangan holda 4 ta blok: davlat(uning byudjeti), uy xo'jaliklari, ishlab chiqaruvchilar va tashqi sektorni qamrab olgan.⁵⁵

Kanada moliya Departamentining «Kanada iqtisodiyoti modeli (NAOMI, 2001). Ushbu model avvalgi(1996 yilgi) modeldan farqli ravishda oddiy va soddaroq tarzda bo'lib, u bor-yo'g'u 6 ta matematik-

⁵⁵ Qarang: Robidoux, Benoit and Wong, Bing-Sun, "The Canadian Economic and Fiscal Model 1996 version. Part 1. Model structure", Department of finance of Canada, 1998, Working paper, number 5.; Cao, Jian-Guo and Robidoux, Benoit, "The Canadian Economic and Fiscal Model 1996 version. Part 3. Empirical specification and statistical assessment", Department of finance of Canada, 1998, Working paper, number 7.

statistik tenlamalardan iborat bo'lib, unda asosan iqtisodiy o'sish sur'ati, iste'mol narxi, yalpi ichki mahsulotning deflyatorining o'sish darajasi, valyuta kursining o'zgarishi, nominal kredit stavkasining o'zgarish holatlari va ularning prognozlariga bag'ishlangan.

AQSHning makroiqtisodiy modeli (FRB/US, 1997). Ushbu makroiqtisodiy model AQSH Federal zahirasi tomonidan 1997 yilda ishlab chiqilgan bo'lib, avvaligi IS-LM makroiqtisodiy modelining o'rniga 1963-1995 yillar oralig'idagi choraklik hisobotlar ma'lumotlariga asoslangan holda ekonometrik metodlarni keng qo'llagan holda ishlab chiqilgan. Model iste'molchi, ishlab chiqaruvchi, moliyaviy bozorlar va tashqi sektor bloklaridan iborat. Modelda asosiy masalalardan biri sifatida uy xo'jaliklari va firmalar real sektorda pul-kredit siyosatini o'zgartirishning muhim iqtisodiy agentlari sifatida qaralgan bo'lib modelda 300 dan ortiq turli darajadagi tenglamalar asosida davlatning federal byudjetiga soliq tushumlarini prognozlash tirishda uy xo'jaliklari va firmalarning pul siyosatiga ta'siri kabi omillarga bog'langan. Modelning byudjet blokida byudjetga soliq tushumlarini prognoz qilinish holati asosan korrektsiya xatoligini vektorli modelidan keng foydalangan holda amalga oshirilgan. Bu yerda endogen(ichki) va ekzogen(tashqi) omillarda o'zgarishlarning o'zaro bog'liqligi masalalari chuqur athlil qilingan, iqtisodiy agentlarning pul-kredit va soliq siyosatiga ta'siri ko'rib chiqilgan. Davlatning tashqi qarzi va uning foiz stavklariga ta'sirini uy xo'jaliklari va firmalarning iste'moli orqali byudjetga soliq tushumlarining tushishi kabi masalalarning ichki va tashqi sabablari aniqlab berilgan.

Amerika iqtisodiyotining yangi modeli(MUSE,2005). Ushbu makroiqtisodiy model Kanada banki tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, modelning mohiyati, avvalgi modellardan farqli ravishda Kanada va AQSh davlatlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar va ularning ushbu davlatlar, shuningdek, jahon bozoriga ta'siri kabi masalalar va ularning prognoz ko'rsatkichlari aniqlab berilgan. Modelning asosiy qismini yalpi ichki mahsulotning iste'mol etilishi nuqtai nazardan uy xo'jaliklarining

iste'moli va mol-mulkka qilgan investitsiyalari, firmalarning investitsiyalari, davlat xarajatlari, eksport va moddiy zahiralarning o'zgarishi kabilar o'zaro aloqadorlikda o'rganilgan. Modelda soliqlarni prognoz qilish masalasiga ham e'tibor berilgan bo'lib, unda asosan davlat va firmalarning xarajatlariga muvofiq ravishda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining byudjetni shakllantirishdagi ta'siri chuqur ko'rib chiqilgan. Shuningdek, mazkur modelda davlat xarajatlarining muvofiqligini(tengligini) ta'minlash orqali byudjetdan davlat qarzlarini kamaytirishda foydalanishning omillari ham ko'rsatib berilgan. Mazkur modelning asosiy jihatlari iqtisodchilar Lalon va Gasselinlarning ilmiy tadqiqot ishlarida aks ettirilgan.⁵⁶

Buyuk Britaniya iqtisodiy va sotsial tadqiqotlar Milliy instituti davlatlararo makroiqtisodiy modeli (NiGEM, 2001). Mazkur model Buyuk Britaniya iqtisodiy va sotsial tadqiqotlar Milliy instituti tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, hajmi va obyektlarni qamrab olinishi jihatdan juda yirik va murakkab modellardan bir sanaladi. Modelda 35 ta davlat va 13 ta hududlarning(davlatlararo) iqtisodiyotini qamrab olgan bo'lib, ushbu jarayonlar 3677 tenglamalarda, ularning 448 tasi murakab ekonometrik tenglamalarga asoslangan holda tahlillar qilingan va prognoz ko'rsatkichlari aniqlangan. Model alohida byudjet blokiga ega bo'lib, unda byudjetning daromadlari sifatida soliqlardan byudjetga tushumlarning prognozi masalalariga ham alohida e'tibor berilgan, shuningdek, davlatlarning soliq tizimi borasidagi siyosatining xususiyatlari tahlili berilgan. Soliqlarni prognoz qilish jarayoni egri va to'g'ri soliqlar bo'yicha alohida, jismoniy va yuridik shaxslar to'laydigan soliqlarni ham to'g'ri va egri soliqlar bo'yicha guruhlangan holda soliqlar bazasi va soliq stavkalariga bog'liq holda amalga oshirilgan hamda ularning davlat byudjeti xarajatlariga bog'liqligi jarayonlari tahlil qilingan. Modelning yana bir fiskal xususiyati shundaki, byudjet

⁵⁶ Qarang: Gosselin, M.-A. and Lalonde, R... "MUSE: The Bank of Canada's New Projection Model of the U.S. Economy" Bank of Canada Technical Report, 2005, No. 96.; Gosselin, M.-A., "MUSE: The Bank of Canada's New Projection Model of the U.S. Economy", Bank of Canada Review, 2006.

taqchilligini boshqarish jarayoni soliqlar bo'yicha soliq stavklarini o'zgartirishiga bog'liqligi asoslangan.⁵⁷

«Evropabanki»ning evrohudud davlatlari modeli (AWM, 2001). Model o'z nomiga ko'ra asosan evrohudud tarkibiga kiruvchi davlatlarning iqtisodiyotni qamrab oladi. Model evrohudud mamlakatlari iqtisodiyotini bir butun obyekt sifatida uning rivojlantirish tendentsiyalari va prognoz ko'rsatkichlarini aniqlab bergan. Modelda 84 ta tenglamalardan foydalanilgan bo'lib, asosiy e'tibor iqtisodiy agentlar o'rtasidagi muvozanatning o'zgarish omillari hisoblab chiqilgan. Model alohida fiskal blogiga ega bo'lib, unda asosiy masalalar sifatida boshqa modellardagi kabi davlat xarajatlari mazmuni, uning moliyaviy asosi sifatida soliqlar va ularning prognozi, davlat qarzlarini boshqarishda soliqlar va boshqa moliyaviy manbalardan foydalanish jihatlari iqtisodiyotning boshqa elementlari va agentlari bilan bog'liqlikda ko'rib chiqilgan.

Evropa Komissiyasi modeli (QUEST, 1997). Mazkur model Evropa hamkorligi Komissiyasi tomonidan ikki: QUEST va QUEST II bosqichda qisqa va uzoq muddatga ishlab chiqilgan bo'lib uning yadrosida monetar va soliq siyosatida olib borilgan islohotlarning samaradorligi masalalari yotadi. Model doirasida evropa hududida joylashgan davlat tomonidan olib borilgan monetar siyosat va soliq siyosatining o'zaro bog'liqligi, pul agregatlari, soliq stavklari, soliq imtiyozlari, soliq qonunchligining uyg'unlashuvi, iste'mol darajasi, davlat xarajatlari va davlat qarzlarini boshqarishga fiskal yondoshuvlar alohida turli xil makroiqtisodiy modellarning instrumentlaridan foydalangan holda ishlab chiqilgan va TROLL paketi asosida amalga oshirilgan.

Yangi Zelandiya iqtisodiyotning modeli (FPS, 1997). Mazkur model Yangi Zelandiyaning iqtisodiy siyosatining kompleks tarzda tahlil qilish va prognoz ko'rsatkichlarini aniqlashga mo'ljallangan. Modelning

⁵⁷ Qarang: Barrell, Ray and Dury, Karen and Holland, Dawn, "Macro-Models and the Medium Term: The NIESR experience with NiGEM", Presentation at 75th International Conference "Policy modeling for European and global issues", 2001, month July.

muhim xususiyatlaridan biri bu umumiylikdan xususiylikka tamoyiliga asoslanishidir. Modelda iqtisodiyotdagi o'zgarishlar vaqt qatorlari asosida tahliliq qilinish, model yo'ldoshlari sifatida endogen va ekzogen hodisa va omillar matematik-ekonometrik funktsiyalar asosida tahlil etilgan. Modelda byudjet modeli doirasida davlatning soliq siyosati, soliqlarni undirishning optimal variantlarini ishlab chiqish va soliqlarning byudjetga tushish jarayonlariga alohida urg'u berilgan. Fiskal siyosat asosida davlat tomonidan aholiga qilinadigan transfert xarajatlari va davlat qarzlarini kamaytirishga qilingan xarajatlarni soliqlarni undirish bilan bog'liq davlat siyosatining instrumentlari bilan bog'langan holda prognoz ko'rsatkichlari aniqlangan.

Xalqaro valyuta fondining makroiqtisodiy modeli. (MULTIMOD,1998). Ushbu model xalqaro valyuta fondi tomonidan uzoq muddatli prognoz sifatida dunyo davlatlarining pul-kredit va fiskal sohasidagi siyosatlarining oqibatlarini tahlil qilishda keng foydalaniladi. Model «kuchli ettilik», «sanoati rivojlangan davlatlar», «rivojlanayotgan davlatlar», «o'tish iqtisodiyoti davlatlar» hamda rivojlanayotgan davlatlar» kabi alohida bloklarda davlat miqyosida amalga oshirilayotgan monetar va fiskal siyosatning tendentsiyalari va ularning prognoz ko'rsatkichlari aniqlab berilgan. Modelning fiskal blokida korxonalarini soliqqa tortishda ularning ishlab chiqarish faoliyati va kapitalarini soliqqa tortish masalasi ko'rilgan. Soliqqa tortish masalalarida yondoshuv davlatning tashqi qarzining yalpi ichki mahsulotga nisbatan darajasiga qarab o'zgarishi asoslab(ko'rsatib) berilgan.

Xalqaro valyuta fondining global iqtisodiy modeli. (GEM, 2005). Xalqaro valyuta fondining GEM modeli fondning avvalgi MULTIMOD nomli modelidan ancha farqli ravishda jahon iqtisodiyotining rivojlanish jarayonlari va uning kelgusidagi holati bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarini aniqlashga xizmat qilib, uning farqli xususiyati shundaki, iqtisodiy agentlar mikroiqtisodiy darajada ham chuqur tahlil etilgan bo'lib, bunda jahon savdo bozoridagi o'zgarishlarning davlatlar iqtisodiyotiga ta'sirini ekzogen hodisalar

sifatida tahlil etilgan. Ammo mazkur modelning byudjet bloki blokning avvalgi modellariga nisbatan ancha sayoz ishlangan. Bu modelda davlat qarzlari bilan bog'liq jarayonlar deyarli e'tiborga olinmagan.

Rossiya iqtisodiy ekonometrik modeli.(1999). TESIS loyihasi doirasida evropa va Rossiya iqtisodchilari tomonidan hamkorlikda ishlab chiqilgan makroiqtisodiy model bo'lib, asosan qisqa muddatli prognozlarni amalga oshirishga mo'ljallangan. Modelning muhim xususiyati shundaki, unda alohida byudjet bloki mavjud bo'lib, ushbu blokda davlat byudjetining daromadlari va xarajatalarining prognozlariga keng e'tibor berilgan bo'lib, soliqlar va soliqsiz to'lovlar alohida prognoz qilingan. Soliqlarni prognoz qilish jarayonida asosan endogen(ichki) omillarga e'tibor qaratilgan bo'lib, ekzogen(tashqi) omillar ta'siriga qayta moslashtirilgan. Shuningdek, davlat qarzlari va davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirish jarayonlarining ham prognoz ko'rsatkichlari aniqlangan. Davlat byudjeti xarajatlari realistik va normativ usullarni qo'llagan holda prognozlashdirilgan bo'lib, xarajatlar investitsiya, davlat xizmati, transfert to'lovlari va davlat qarzlari yo'nalishida tahlil qilingan va prognozlashdirilgan. 2003 yilda ushbu model yanada takomillashtirilib, STASIS modeli sifatida yirik makroiqtisodiy model sifatida o'zida 200 dan ortiq ekonometrik tenglamalarni aks ettirgan va 14 ta blokdan tashkil topgan model ishlab chiqildi. Ushbu modelda ham narx va deflyator bloki, daromadlar va xarajatlar bloki, sanoat tarmog'i bloki, YaIMni hisoblash bloki, investitsiya bloki, chakana savdo va pullik xizmat bloki, import va eksport bloki, to'lov balansi bloki, monetar ko'rsatkichlar bloki, mehanta resurslari bloklari bilan birgalikda byudjetning solikli daromadlari bloki, byudjet bloki hamda daromadlarni shakllantirish bloklari doirasida ham prognoz ko'rsatkichlari aniqlangan.

Byudjetning solikli daromadlari blokida esa soliqlarni prognoz qilishda oddiy usul, ya'ni, barcha qonun bilan o'rnatilgan har soliq turi bo'yicha soliq bazasiga belgilangan soliq stavkalarini ko'paytirish va unga tushumlarning mavsumiy xarakterdaligini e'tiborga olgan holdagi

korretirovkalar qilish asosida aniqlangan. Ammo, ta'kidash o'rinliki, soliqlarni makroiqtisodiy darajada bunday tartibda aniqlash aniq ko'rsatkichlarni bermaydi, balki, mavhum umumiy tendentsiyalarni ifodalaydi xolos. Shu boisdan ham mazkur modelning natijalari davrida Rossiya iqtisodiyotida davlat byudjeti profitsit ko'rsatkichiga ega bo'lishligi prognoz qilingan bo'lsada, ammo, davlat byudjetida katta miqdorda(o'racha 6% atrofida) taqchillik yuz berdi. Bundan xulosa qilish mumkinki, hoh makroiqtisodiy, hoh mikroimatatsion model bo'lsin, soliqlarni prognoz qilishda ichki, tashqi omillar bilan bir qatorda boshqa omillarni ham e'tiborga(ularning ta'sirini aniq baholagan holda) prognoz ko'rsatkichlarini aniqlamaslik ko'zlangan natijalarni bermaydi.

Rossiya iqtisodiyotining kvartal modeli(2005). Mazkur model avvalgi modellardan farqli ravishda asosan fiskal xususiyatga ega bo'lib, unda ustuvor maqsad qilib davlat byudjeti va Barqarorlashtiruvchi fond⁵⁸ning daromad manbalarini rejalashtirish va prognozlashtirishga yo'naltirilgandir. Model YaIMni foydalanishi bo'yicha hisoblash bloki, YaIMni daromadlar bo'yicha hisoblash bloki, byudjet daromadlari bloki, to'lov balansi bloki, monetar siyosat bloki, fiskal Siyosat bloki hamda Barqarorlashtiruvchi fondni hisoblash bloklaridan iborat. Byudjet daromadlari blokida byudjetning daromadlari federal va jamlanma byudjet miqyosida ko'rib chiqilgan. Byudjet daromadlarining asosiy manbai sifatida qo'shilgan qiymat solig'i, foyda solig'i, foydali qazilmalar uchun soliq, daromad solig'i, aktsizlar, neft, neft mahsulotlari va gaz, eksporti uchun to'lov, import uchun to'lovlar v ashu kabilar bo'yicha soliqlarning byudjetga tushishi mumkin bo'lgan hajmini ekonometrik usullar orqali prognoz ko'rsatkichlari aniqlangan.

Ukrainaning kvartallik makroiqtisodiy modeli(1999). Ushbu model Polshaning CASE(Center for Social and Economic Research-Sotsial va iqtisodiy tadqiqotlar Markazi) tashkiloti tomonidan Ukraina hukumati uchun ishlab chiqilgan makroiqtisodiy model bo'lib, unda xufiyona iqtisodiyotning holatini tahlil etish bilan bir qatorda fiskal

⁵⁸ Eslatma: Ushbu fond 2008 yildan boshlab ikkita fondga: zahira fondi va milliy farovonlik fondiga bo'lingan.

masalalar, jumladan, davlat byudjetning daromadlar qismini shakllantirishning manbalarini prognoz ko'rsatkchilarini aniqlash masalalari ham o'rin olgan. Model Ekonometrik blok, milliy hisoblar tizimi bloki(daromadlar bo'yicha), jamlanma byudjet bloki, to'lov balansi bloki va pul-kredit bloklaridan tashkil topgan. Modelda 200 dan ortiq matematik-ekonometrik tenglamalar ko'llanilib, qayd etib o'tilgan bloklar bo'yicha jarayonlarni tahlil etish bilan birgalikda ularning o'rtasidagi o'zgarish aloqalarining rivojlanish tendentsiyalari aniqlab berilgan. Modelda jamlanma byudjetning daromadlari va xarajatlarining balans tenglamalari keltirilgan. Davlat byudjeti daromadlari sifatida aholidan olinadigan daromad solig'i, egri soliqlar, korxonada daromad solig'i va boshqa soliq turlari bo'yicha soliq tushumlarining prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan. Shuningdek, byudjetning taqchilligini moliyalashtirish sifatida byudjet xarajatlarida davlat sektorida ishlovchilarning ish haqlariga qilinadigan xarajatlarni kamaytirish mexanizmlari ishlab chiqilgan.

Qozog'iston iqtisodiyoti kvartallik makroiqtisodiy modeli(2004). Model Qozog'iston iqtisodiyot vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u iqtisodiyotning quyidagi bloklarini qamrab olgan: YaIMni hisoblash bloki, daromadlar bloki, to'lov balansi bloki, tashqi savdo bloki, monetar blok hamda byudjet blokidan iborat. Modelda ishlab chiqarish sektori yo'q bo'lib, ammo, YaIMni hisoblash blokida sanoatda qo'shilgan qiymatni aniqlash hisoblashlar amalga oshirilgan. Shuningdek, daromadlar blokida mehnatga haq to'lash fondining shakllanishi va hisoblanishiga e'tibor berilgan bo'lib, mehnatga to'lash jarayonlari korxonalarining to'laydigan soliqlari bilan bog'liqligi tahlil qilib berilgan. Mehnat haq to'lash fondining tahlili korxonalarining foyda va boshqa soliqlarining bazasini to'g'ri aniqlashga imkon beradi degan tamoyil qo'llanilgan. Modelning byudjet blokida asosiy e'tibor soliqlar bo'yicha soliq tushumlariga qaratilgan bo'lib, asosiy byudjetni shakllantiruvchi solikli daromadlar sifatida sotsial soliqlar, jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqlar, foyda solig'i, neft

eksporti uchun soliqlar va boshqa soliqlar hamda soliqsiz to'lovlar bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari aniqlangan. Har bir soliq turi bo'yicha tushumlar soliq bazasiga bog'liq holda, soliqlarning stavkalari va ular bo'yicha tushumlarning mavsumiyligi jihatidan kelib chiqib yondoshilgan. Bulardan tashqari davlat byudjetining taqchilligi va uni qoplashning yo'nalishlari xususida ham mexanizmlar ishlab chiqilgan.

Soliqqa tortish tadqiqotlarining Xaleeva-Uolley⁵⁹ modeli.

Ushbu model Rossiya iqtisodiyotining umumiy muvozanati makroiqtisodiy yirik modelining muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida boshqa modellardan farqli o'laroq soliqqa tortish masalalari alohida tadqiq qilingan holda xulosalar olingan va soliqlar bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari aniqlab berilgan. Modelda Rossiyada soliqqa tortish jarayoni va uning natijasida federal byudjetning daromadlarini shakllantirish mamlakatning turli xil hududlarida ishlab chiqariladigan 21 turdagi mahsulotlarning narxlarini o'rtasidagi tafovutlarning yuqoriligi mahalliy byudjetlarga birlashtirilgan solikli daromadlarning farqlanishiga, provardida esa byudjetlararo transfertlarning farqlanishining kuchayishiga olib kelinishi isbotlab berilgan. Shuningdek, mazkur modelda hududlarning soliq salohiyatini aniqlashda hududiy yondoshuv va uning byudjetlar o'rtasidagi tafovutlarni qisqartirish muammolari xususida tahlillar amalga oshirilgan. Soliq tushumlarining hajmiga bir tarmoqqa soliq stavkalarining oshirilishi ushbu tarmoqqa narx orqali bog'langan boshqa tarmoqlar mahsuloti narxiga ta'sir etish soliqlar bazasining o'zgarishi olib kelishligi isbotlab berilgan.

Tarmoqlararo model RIM (1999-2004 y.) Sobiq ittifoq davrida makroiqtisodiy modellarning negizida «Xarajat-chiqish» matritsasiga asoslangan bo'lib, unda turli xil tarmoqlar o'rtasida tovar va xizmatlarning taqsimlanish hisobi amalga oshirib kelingan. Mazkur modelni bozor munosabatlariga moslashtirish yangi trdagi tarmoqlararo

⁵⁹ Qarang: Алексеев Александр и Волчкова Наталья и Денисова Ирина и Левина Ирина и Турдыева Наталья и Халеева Юлия, "Микроэкономическая оценка последствий налоговой реформы", Московский общественный научный фонд, 2004, Научные доклады: независимый экономический анализ, номер 156.; Турдыева, Наталья и Шабалин, Андрей и Уоллей, Джон, "Региональная модель общего равновесия", ЦЭФНП, 2005.

modellarni ishlab chiqishni taqozo etdi. Shunday modellardan biri RIM⁶⁰ modelidir. Ushbu model avvalgilardan farqli ravishda yillik model hisoblanadi. Model ikki tomonlama xususiyatga ega bo'lib, ishlab chiqarish(real) va daromad(nominal) tamoyiliga asoslangan. Ya'ni, ishlab chiqarish va taqsimot jarayoni doimiy narxlarda hisobga olinsa, daromadlar esa joriy narxlarda hisobga olinadi. Ushbu model mualliflari tomonidan modelni takomillashtirgan holda yangi QUMMIR⁶¹ nomli modelni ishlab chiqishdi. QUMMIR mazmunan avvalgi modelga o'xshasada davriyligi jihatdan choraklik model hisoblanadi va fiskal masalalarni qamrab olishi jihatidan RIM modeli bilan aynan o'xshash bo'lib, u qisqa va o'rta muddatli prognozlarni o'tkazishga mo'ljallanganidir. Modelning byudjet blokida jamlanma byudjetining xarajatlari va daromadlari prognoz ko'rsatkichlari murakkab ekonometrik hisob kitoblarga asoslangan holda aniqlangan.

Tahlillarda 87 ta fiskal xususiyatli obyektlarning tahlili qilingan bo'lib, ularning 11 tasida prognoz ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi tashqi omillarning ta'siri baholangan. Modelda soliqlarning byudjetga kelib tushishi jarayonini prognoz ko'rsatkichlarini aniqlashda asosan ekonometrik tenglamalardan foydalanilgan. Faqat aktsiz va resurs to'lovlarini aniqlashda uy xo'jaliklarining iste'moliga soliq stavkalari koeffitsientlarini qo'llash hamda qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq tushumlarini aniqlashda qo'shilgan qiymatning YaIMdagi ulushini aniqlash va unga statistik xatoliklar koeffitsientlarini qo'llash orqali yondoshilgan. Bundan tashqari modelda davlat qarzlarining soliq stavklariga ta'sir etmasligini ta'minlashning yo'llari sifatida Barqarorlashtiruvchi fond mablag'lari orqali davlat qarzlarini boshqarish mexanizmlari ko'rsatib berilgan. QUMMIR va RIM modellarida yagona sotsial solig'i va majburiy sug'urta ajratmalari bo'yicha byudjetga tushumlar modellashtirilmagan.

⁶⁰ RIM- Russian Inter-Industry Model.

⁶¹ QUMMIR -Quarter Macroeconomic Model of Interactions for Russia.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki makroiqtisodiy modellar dunyoning ko‘plab davlatlari, jumladan, G‘arbiy Evropa davlatlari, AQSh, Kanada, Yangi Zelandiya, Rossiya va shu kabi bir qator davlatlarida makroiqtisodiy muammolar va ularning rivojlanish ko‘rsatkichlarini aniqlashda keng qo‘llanilib kelinmoqda. Modellarining ekonometrik va gibridli turlariga bo‘linishi esa asosan ularning iqtisodiy obyektlar va munosabatlarni davriylik jihatidan qamrab olishi bilan bir qatorda nazariy jihatdan yondoshishligiga bog‘liqdir. Ekonometrik modellarda statistik tahlillar asosiy yondoshuv bo‘lsa, gibridli modellar asosan asosan nazariyalarga tayangan holda muvozanatning umumiy dinamikasiga asoslanadi. Ekonometrik modellarning muhim xususiyati shundaki, ularda fiskallik ko‘proq ahamiyat kasb etadi, ya‘ni bu modellarning aksariyatida byudjet, monetar, soliq masalalar makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga bog‘liq holda alohida chuqur o‘rganiladi. .

Ammo, ekonometrik modellarda fiskal masalalar va muammolar chuqur tahlil etilsada biroq, ularni o‘rta va uzoq muddatli prognozlar bo‘yicha qo‘llash imkoniyati cheklangan. Gibridli modellar ekonometrik modellarning qayd etilgan kamchilliklarini hali etsada ammo, ekonometrik tahlillarsiz muhim jarayonlar, jumladan, fiskal masalalar yuzasidan ishonchli prognoz ko‘rsatkichlarini olishga imkoni cheklangan. Shu boisdan keyingi vaqtlarda generatsiyalashgan (uyg‘unlashgan) holda qo‘llashni ifoda etuvchi modellarga ehtiyoj tug‘ilmoqda. Agar Rossiya iqtisodiyoti amaliyotida qo‘llanilgan modellar orasida faqatgina QUMMIR modelida byudjet bloki alohida chuqur tahlil etilgan bo‘lsada, ushbu prognoz ko‘rsatkichlari uzoq muddatli davrlarga xos natijalarni bera olmaydi. Shu boisdan hozirgi kunda uzoq muddatga mo‘ljallangan sifatii prognozlarni amalga oshirish hozirgi kunning dolzarb global muammolaridan sanaladi.

4.4. Soliqlarni prognoz qilish metodlari

Qayd etilganidek, modelga asoslangan holda modellashtirish jarayonlari amalga oshiriladi. Modellashtirishning o'zi esa u yoki bu turdagi metodlardan foydalanishni zarurat qilib qo'yadi. O'zbekiston Milliy entsiklopediyasida keltirilishicha metod (yun. *metodos* — bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot) —voqelikni amaliy va nazariy egallash, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'l yo'riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli. Metodlar haqidagi ta'limot fanda metodologiya deb ataladi. Bilish metodlari voqelikni qamrab olishi jihatidan 3 turga bo'linadi: yalpi umumiy bilish metodlari — hamma fanlarda va bilishning barcha bosqichlarida ham ko'llaniladigan umumiy va universal metodlari — metodologiya; umumiy bilish metodlari — bir qancha yoki barcha fanlarda qo'llaniladigan va bilishning muayyan bosqichi (empirik, nazariy yoki empirik bosqichdan nazariy bosqichga o'tish chegarasi)da qo'llaniladigan bilish metodlari; xususiy yoki metodlari — ayrim fan doirasida qo'llaniladigan bilish metodlaridir. Metodologiya (metod va ...logiya so'zlaridan) — tadqiqotchining nazariy va amaliy faoliyatini tashkil etish, tiklash tamoyillari va usullari tizimi hamda bunday tizim haqidagi ta'limot. Metodologiya metodlar haqidagi ta'limot yoki yalpi-umumiy bilish metodi, deb ham ta'riflanadi⁶².

Soliqlarni prognoz qilish jarayonining o'zi keng miqyosdagi tadqiqot obyekti bo'lib, prognoz jarayonida juda ko'plab metodlardan foydalanishni talab qiladi. Bilish nazariyalariga ko'ra tadqiqot obyekti qanchalik ichki xususiyatlari murakkab bo'lishiga qarab emas, balki uning boshqa ekzogen va endogen omillar bilan bog'liqligi hamda obyektning o'zining boshqa kategoriyalar(munosabatlar)ga ta'sirining darajasi bilan murakkabligi belgilanadi. Soliq kategoriyasi nafaqat iqtisodiy hodisalarni izohlaydi, shu bilan birgalikda yirik munosabatlar doirasida boshqa munosabatlarga ta'siri darajasi jihatdan eng katta

⁶² Qarang: O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi "M" harfi. Toshkent, 460-461 betlar.

ahamiyatga egadir. Soliq kategoriyasining bunday xususiyati uni prognoz qilish jarayonining murakkabligini ham belgilab beradi. Soliqlar jamiyatning nafaqat iqtisodiy, balki, shu bilan birgalikda ijtimoiy jarayonlarini, hatto siyosiy munosabatlarni ham qamrab oladi, demak, aytilganlar shu bildiradiki, uni prognoz qilish jarayonida unga ta'sir etuvchi omillar ham jud ko'p bo'ladi. Soliqlarning jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlaridagi o'rnini uning prognozi jarayonida qo'llaniladigan metodlarning turli tuman bo'lishligini taqozo etadi. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, prognoz qilishning 150 dan ortiq turli metodlari mavjud bo'lib, amaliyotda esa ulardan atigi 15-20 tasi foydalanilmoqda. Informatika va hisoblash texnikasi vositalarining rivojlanishi foydalanilayotgan prognoz qilish va rejalashtirish metodlari doirasini kengaytirish va ularni takomillashtirish imkoniyatini yaratadi.⁶³

Ta'kidlash joizki, soliqlarni prognoz qilish metodlari xususida iqtisodchi olimlar o'rtasida turlicha yondoshuvlar mavjud bo'lib, ularda juda ko'plab metodlar haqida mulohazalar bildirilgan. Ushbularning ba'zilariga qiyosiy yondoshuvni keltirib o'tamiz. Prognoz sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borgan ayrim iqtisodchilarning fikricha prognozlash metodlari ularning formalizatsiyalashuvi darajasi (formalizm (lotincha. sormalis — forma, shaklga oid) — inson faoliyatining turli sohalarida shakl (forma)ni mazmunga nisbatan ustun qo'yilishi) va prognoz jarayonini qamrab olish darajasiga qarab intiutivli⁶⁴ va formalizatsiyali metodlarga bo'linadi. Bunday yondoshuv E.Tixonov, A.Burdo, I.Chuchueva, N.Gromovalarda uchraydi.⁶⁵ O'z navbatida E.Tixonov A.Burdolar intiutivli prognoz turlari sifatida individual va jamoa ekspertli baholash turlariga bo'ladi. Individual ekspertli baholash guruhiga «intervyu metodi», tahliliy ma'ruza (analiticheskie dokladnie zapiski), va

⁶³ Qarang: «Прогнозирование и планирование экономики», под ред. Борнсевича В.И., Мн.: 2001. 72-79с. Бокун И.А., Темичев А.М.; «Прогнозирование и планирование экономики», МН.: 2002,-26-31 с.

⁶⁴ Intuitsiya (lot. intuitio — sinchiklab qarayman) — haqiqatni dalil bilan isbotlamasdan, bevosita fahm-farosat bilan anglab olish qobiliyati. Ammo bu erda bu usulning mohiyati mazkur xususiyatlardan ancha kengroq qaraladi.

⁶⁵ Qarang: Тихонов Э.Е. Прогнозирование в условиях рынка. Невинномысск. 2006. 221 с.; Ирина Чучуева, Классификация моделей прогнозирования: анализ курса лекций о прогнозе. <http://www.Habrahabr.ru/post/177633/>; Громова Н.М., Громова Н.И. Основы экономического прогнозирования. уч.пос. Издательство "Академия Естественности". 2006 год ISBN 978-5-91327-005-4.

stsenariya metodlarini, jamoa ekspertli baholash guruhiga esa anketalash metodi, «komissiya» metodi, aqliy hujum metodi, dasturiy prognozlash-tirish metodi, evristik prognozlash metodi va g'oyalarni jamoaviy uyg'unlashtirish metodlarini kiritadi. Formalizatsiyalash mezonlariga ko'ra esa prognoz metodlarini ekstrapolyatsiyali, tizimli-tarkibiy, birlashtiruvchi, axborotlarga tayaniluvchi va matematik metodlarga ajratadi.

Mualliflar prognoz metodlarini chuqur tahlilni davom ettirib, formalizatsiyali metodlarni ularning xususiyatlariga qarab yanada kichik gurhlarga ajratadi: ekstrapolyatsiyali metodlarni kichik kvadartli, eksponentsional tekislanish, ehtimoliy modellashtirish hamda moslashuvchan tekislanish metodlarga tizimli-tarkibiy metodlarni funksional-ierarxiyal, morfologik tahlil, matritstsali, tarmoqli, tarkibiy o'xshash, prognozli stsenariyalarni metodlari, birlashtiruvchi metodlarni esa metod imitatsiyali modellashtirish, mantiqiy-tarixiy tahlil, obrazlarni nazariy aniqlash va neyrotarmoqli va aqliy tahlil metodlarga, matematik metodlarni korrelyatsion va regression tahlil, argumentlarni guruhiy hisobga olish, faktorli tahlil, variatsiyali, spektrli tahlil matematik mantiq, barqaror va nobarqaror jarayonlarni modellashtirish kabi metodlarga axborotlarga tayaniluvchi metodlarni esa ishlamlarni baholash va patentli axborotlarni tahlil qilish kabi metodlarga ajratiladi.⁶⁶

Professor N.Gromova soliqlarni prognoz qilish metodlarini uch guruhga: formalizatsiyalashuv darajasiga, jarayonning umumiy tamoyiliga ko'ra va prognoz axborotlarini olish darajasiga ko'ra guruhlaydi. Gromovaning fikricha metodlar deganda obyektning kelgusidagi rivojlanish xususiyatlarini aniqlash, obyektning ichki, tashqi hamda uning tarixiy rivojlanish xususiyatlarini aniqlashga asoslanuvchi qarorlar qabul qilish va mulohaza qilishning umumiy jarayoni tushuniladi. Muallif prognoz qilishning intuiitiv metodlariga individual, intervyu, stsenariyalarni tuzish, jamoa ekspertli baholash, «komissiya», jamoa umumlashuvi, «delfi», matritstsali va g'oyalarni psixointellektual

⁶⁶ Qarang: O'sha erda.

umumlashtirish metodlarini kiritadi. Formalazatsiyali metodlarga esa ekstrapolatsiya prognozi, modellashtirish, eksponentsial tekislanish, tarkibiy, o'rtacha og'ish(sirpanish), tarmoqli, moslashgan tekislanish, matritstsali, avtoregressiyali qayta tashkil etilish va imitatsiyali metodlarga bo'ladi⁶⁷.

Ayrim adabiyotlarda prognoz modellari va metodlarini bir narsa deb qaraydilar. Masalan iqtisodchi olim Jingfay Yangning ishlarida prognozning modellari va metodlari sinonim sifatida qaralgan bo'lib, ularni quyidagicha guruhlagan. Jingfay Yang prognozning modellarini boshqa aksariyat iqtisodchilar singari yirik ikki turga ya'ni, statistik va tarkibiy modellarga bo'ladi. Statistik modellar(metodlar)ga ko'plik lineyali regressiyalar metodi, tartibsiz vaqt qatorlari, umumiy eksponentsial tekislanish, holat makoni va tayanch vektorli regressiyalar metodlarini kiritadi. Tarkibiy modellarga esa ekspert tizimi, sun'iy neyron setlari va to'liqsiz mantiq metodlarini kiritgan.⁶⁸ Ammo, bu erda shuni ham ta'kidlash kerakki model bu matematik bog'liqni tashkil etsa, metod jarayonning uzluksizligidir. Shu jihatdan olganda oxirgi muallif avvalgilardan farqli ravishda metodlarning yangi turlarini ko'rsatib o'tgan bo'lsada, ammo ularning aniq xarakterlarini izohlab bermagan va shu bilan birgalikda model va metodlar o'zaro o'xshashlik xususiyatiga ega bo'lsada, prognoz jarayonida ularni sinonim sifatida qarash uslubiy jihatdan to'g'ri emas.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, prognoz jarayonini amalga oshirishda qo'llaniladigan metodlar jud ko'p bo'lib, soliqlarni prognoz qilishning tashkiliy jarayonidagi eng muhim masalalardan biri qo'llaniladigan metodlarni to'g'ri tanlash hisoblanadi. Soliqlarni prognoz qilish jarayoni bilan shug'ullanuvchi olimlar va iqtisodchi mutaxassis-larning soliqlarni prognoz qilish jarayonida qo'llaniladigan metodlar xususidagi yondoshuvlarni umumlashtirib, ularning ayrimlarining qiyosiy tahlilini keltirib o'tamiz.

⁶⁷ Qarang: O'sha erda.

⁶⁸ Jingfei Yang M. Sc. Power System Short-term Load Forecasting: Thesis for Ph.d degree. Germany, Darmstadt, Elektrotechnik und Informationstechnik der Technischen Universitat, 2006. 139 p.

Professor A.Minakovning fikriga ko'ra soliqlarni prognoz qilishda ikki guruhdagi metodlardan ya'ni, haqiqiy soliq tushumlari va ularning avvalgi davrdagi miqdori o'rtasidagi farqlar xususidagi axborotlar bazasiga qurilgan faktografik(formalizatsiyali) metodlar va mutaxassis-ekspertlarning fikrlarini umumlashtirish va jarayonni tizimlashtirish asosida yuzaga keladigan axborotlarga tayanilgan ekspertli (intuitiv) metodlarga bo'ladi. Faktografik(formalizatsiyali) metodlar jumlasiga ekstrapolyatsiyali, tizimli-tarkibiy va birlashgan metodlarni, ekspertli metodlarga esa individual va jamoa ekspertli baholash metodlarini kiritadi.⁶⁹ Professor E.Astafeva soliqlarni prognoz qilishning metodlarini ma'lum bir mezonlarga asoslangan holda guruhlashni, masalan, ma'lumotlarni olish va ularni qayta ishlash darajasiga qarab: statistik, o'xshash, tayanuvchi metodlarga; formalizatsiyalanish darajasiga qarab: formalizatsiyali va intuitivli metodlarga; jarayonning umumiy borishiga ko'ra: ekstrapolyatsiyali, tizimli-tarkibiy, birlashgan, axborotlarga asoslangan metodlarga ajratishni tavsiya qiladi.⁷⁰ Professor A.Jidikinning fikriga ko'ra soliqlarni prognoz qilish metodlarini uch guruhga bo'lishi mumkin. Birinchisi vaqt qatorlari bo'ycha prognozlashtirish (ekstropolatsiya metodi), ikkinchisi esa iqtisodiy-matematik metodlar hamda uchinchisi⁷¹ ekspertli baholash metodlariga bo'linadi.

Biroq, soliqlarni prognoz qilish jarayonida aksariyat hollarda asosan 10 taga yaqin umumiy metodlar qo'llanilib kelinadi. Ularning ayrimlarining xususiyatlari xususida to'xalib o'tamiz.

Intiutiv prognozlashtirish metodlari prognoz qilinayotgan obyekt sodda yoki uning rivojlanish jarayoniga tashqi ta'sirlar yo'q yoki juda kam bo'lgan holatlarda qo'llanilib, unda prognozni amalga oshiruvchi subyektlar-mutaxassislarning intiutiv yondoshishini bildiradi. Ya'ni bunday metodlarda prognoz jarayonini amalga oshirish natijasida olingan

⁶⁹ Минаков, А.В. Модели анализа и прогнозирования налоговой базы и налоговых поступлений / А.В.Минаков // *Экономический анализ: теория и практика*. – 2005. - №5. – С. 47-52

⁷⁰ Астафьева, Е. Среднесрочное прогнозирование налоговых поступлений с использованием структурных моделей / Е. Астафьева // *Проблемы теории и практики управления*. – 2007. - №3. – С.16-31

⁷¹ Жидикин А.А. Анализ категориального аппарата налогового планирования и прогнозирования. *Управленческий учет*, (2012), 10 (октябрь), 101-107с.

ko'rsatkichlar (xulosalar) mutaxassisning tajribasi intiutiv fikrlay (vaziyatni anglay olish) qobiliyatiga bog'liq bo'lib qoladi. Bunday metodlarda matematik-ekonometrik hisoblardan uzoqroq bo'lib, undan ko'proq tarixiy, ijtimoiy, mantiqiy va psixologik jarayonlar bazasiga asoslangan obyektlarni prognoz qilishda foydalanish samara berish mumkin. Albatta bunday jarayonlar soliqqa tortish va uning prognozida ham mavjud bo'ladi.

Masalan, soliq tushumlarining hajmiga soliq to'lovchilarning soliq madaniyati darajasining ta'siri, soliqlarni joriy qilishda ushbu soliq turining avvalgi vaqtlarda qo'llanganligi va shunga o'xshash soliqning bo'lganligi va uning soliqqa tortishdagi roli ham ijtimoiy ham iqtisodiy jihatdan roli qanday bo'lganligi va shu kabi omillarni e'tiborga olishda albatta intiutiv metodlar katta samara beradi. Ammo, iqtisodiyotning tarkibiy chuqurlashuvi, talab va taklifning muovzanatining kesishuvining murakkablashishi, tovarlar va xizmatlarning diversifiktsiyalashuvining kuchayib borishi, ishlab chiqarish va boshqaruv jarayoniga axborot texnologiyalarning «hukmronligi»ning ortib borishi, iste'mol va jamg'arishning tarkibiy o'zgarishining kuchayib borishi, bozor segmentlarining murakkablashuvi va shu kabi omillar soliqlarni prognoz qilish jarayonida qo'llaniladigan metodlarning yangi shakllarini, ularning uyg'unlashuvini taqozo etadi. Bu esa o'z navbatida formalizatsiyali metodlarning ahamiyatini oshiradi.

Intuitiv metodlardan farqli o'laroq **formalizatsiyali metodlar** modellashtirishni taqozo etadi. Bunday metodlar murakkab hisob-kitoblarni taqozo etadi, shuningdek, juda ko'plab o'zgaruvchan holatlarni ta'sirini baholashni talab qiladi. Soliqlarni prognoz qilish jarayonida ko'p qo'llaniladigan modellar sirasiga regressivli va noregressivli modellar kiradi. Ikki va undan ortiq o'zgaruvchilarning o'rtasidagi bog'liqlar va ularga tashqi ta'sirlarini baholash uchun regressiv tahlilni taqozo etadi. Hozirgi vaqtda regressiv tahlil boshqaruv va soliqlarni prognoz qilishda keng qo'llanilib kelinmoqda. Regressiv tahlildan maqsad dastlabki o'zgarishlarning tashqi omillar(regressirlar)ga bog'liqligi va ularning

ta'siri darajasini aniqlashdan iborat bo'ladi. Bunda regressiya koeffitsiyentlari kichik kvadratlilik yoki maksimal haqiqatlanish (pravdopobodiya)⁷² metodlari yordam beradi. Regressiyali modellardan biri lineyali regressiya modeli hisoblanadi. Mazkur model eng oddiy modellar sirasiga kirib prognoz jarayoniga ta'sir etuvchi birlamchi tashqi omillar bilan o'zaro aloqalarini baholaydi va u quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$Z(t) = \alpha_0 + \alpha_1 X(t) + \varepsilon_t$$

Bu yerda: α_0 i α_1 — regressiya koeffitsientlari; ε_t — model xatoligi. Prognoz ko'rsatiklariga ega bo'lish uchun $Z(t)$ vaqt holati t esa $X(t)$ ga ega bo'lishi kerak bo'ladi. Amaliyotda esa $Z(t)$ jarayoni bir qator birlamchi $X_1(t), \dots, X_S(t)$ - tashqi omillarga ega bo'ladi. U holda model quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi va u ko'p omilli lineyali regressiya modelini ifodalaydi:

$$Z(t) = \alpha_0 + \alpha_1 X_1(t) + \alpha_2 X_2(t) + \dots + \alpha_S X_S(t) + \varepsilon_t$$

Biroq, ushbu modelning kamchiligi shundaki, kelgusi davr uchun $Z(t)$ jaryoni hisoblash uchun $X_1(t), \dots, X_S(t)$ ning barcha omillarini bilish zarur bo'ladiki, amaliyotda buni aniqlash juda mushkul sanaladi. Shu sababli mazkur modelni qo'llashda hamma omillarning ta'sirini baholashni asosiy maqsad qilib qo'yimaslik kerak.

Vaqt qatorlarini izohlashda eng ko'p qo'llaniladigan modellar jumlasiga avtoregressiyali modellar kiradi. Avtoregressiyali modellarning eng ko'p tarqalgan turi bu — ARIMAX (inglizcha — autoregressive integrated moving average, ba'zan Boks — Djenkins modeli, Boks — Djenkins metodologiyasi) — integrallashgan o'rtacha og'uvchi avtoregressiyali model bo'lib, vaqt qatorlarini tahlil qilishning metod va metodologiyasi hisoblanadi. Avtoregressiyali modellarda $Z(t)$ lineyasi ushbu jarayonning avvalgi qatorlarning miqdori $Z(t-1), \dots, Z(t-p)$ ga bog'liq bo'ladi. O'rtacha og'uvchi (sirpanuvchi) avtoregressiyali model (autoregressive, AR) va o'rtacha og'uvchi model (moving

⁷² Maximum likelihood // The free encyclopedia «Wikipedia» [электронный ресурс]. URL: http://en.wikipedia.org/wiki/Maximum_likelihood.

average, MA)lar amaliyotda, shu jumladan soliqlarni prognoz qilish jarayonida ham eng ko'p qo'llaniladigan modellar sirasidandir.⁷³ Dj.Boks va G.M. Djenkinslarning fikricha avtoregressiya modellari amaliyotda uchraydigan bir qator vaqt qatorlarini izohlashda katta ahamiyatga ega bo'lib, quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi⁷⁴.

$$Z(t) = C + \phi_1 Z(t-1) + \phi_2 Z(t-2) + \dots + \phi_p Z(t-p) + \varepsilon_t$$

Mualliflar mazkur formula orqali avtoregressiya jarayonini p , tartibida (aksariyat adabiyotlarda $AR(p)$ shaklda beriladi) izohlaydi. Bu yerda C — aшыoviy konstanta, ϕ_1, \dots, ϕ_p — koeffitsientlar, ε_t — model xatoligi. ϕ_i ni aniqlash uchun i C eng kichik kvadratlar metodi yoki maksimal haqiqatlanish (pravdopobodiya) metodlaridan foydalanish lozimligini izohlaydi. Mazkur modellar sirasiga kiruvchi o'rtacha og'uvchi model esa ko'pincha avtoregressiya bilan qo'llanilib u o'rtacha og'ish tartibi ya'ni q tenglamasini oladi:

$$Z(t) = \frac{1}{q} (Z(t-1) + Z(t-2) + \dots + Z(t-q)) + \varepsilon_t$$

Qayd etish joizki, aksariyat adabiyotlarda jarayon $MA(q)$ shaklda izohlanadi. Bu yerda q — o'rtacha og'ish tartibi ε_t — prognoz xatoligi. Mazkur model mohiyati jihatdan vaqt qatorlarining past darajadagi ko'rinishlarini bartaraf etib turadi va vaqt qatorlarini ma'lum bir tizginga solinishiga turtki bo'ladi va amaliyotda qo'llanilish darajasiga qarab oddiy, tortilgan, kumulyativ, eksponentsial shakllarda ham mavjud bo'ladi. Dj.Boks va G.M. Djenkinslar mazkur modellarni takomillashtirish yuzasidan ularni birlashtirgan holda $ARMA(p,q)$ ni shakllantiradi va unga o'rtacha og'ish tartibi q ning reaksiyasini moslashtirib $ARIMA(p,d,q)$ (autoregression integrated moving average)

⁷³ Mazengia D.H. Forecasting Spot Electricity Market Prices Using Time Series Models: Thesis for the degree of Master of Science in Electric Power Engineering. Gothenburg, Chalmers University of Technology, 2008. 89 p.

⁷⁴ Бокс Дж., Дженкинс Г.М. Анализ временных рядов, прогноз и управление. М.: Мир, 1974. 406 с.

modelini yaratdi. Ammo uning yanada takomillashgan ko‘rinishi esa ARIMAX(p,d,q), shakldagi kombinatsiyalashgan yangi tenglama yuzaga keladi:⁷⁵

$$Z(t) = AR(p) + \alpha_1 X_1(t) + \dots + \alpha_s X_s(t)$$

Bu yerda:

$\alpha_1, \dots, \alpha_s$ — $X_1(t), \dots, X_s(t)$ tashqi omillarining koeffitsientlari,
 $Z(t)$ jarayoni MA(q) modelning natijasi (saralangan holdagisi).

Soliqlarni prognoz qilish jarayonida samarali qo‘llaniladigan modellardan yana birlari eksponentsial tekislanish modellari (exponential smoothing, ES)⁷⁶ hisoblanadi. Mazkur modellar o‘tgan asrning 70-80 yillarida ishlab chiqilgan bo‘lib, ular oddiyligi va yaxshi samaradorligi bilan ahamiyatlidir. Eksponentsial tekislanish modellari asosida haqiqiy jarayon (masalan, soliq tushumlarini)ni doimiy e‘tiborga (tahlil) olishni jarayoni yotadi. Yangi hodisalarning yuzaga kelishi prognoz avvalgilarining ahamiyatini pasaytiradi. Shu jihatdan prognoz jarayonida yangi jarayonlarning ta‘sirini baholanishiga e‘tibor beriladi. Model funktsiyasiga quyidagiga teng bo‘ladi:

$$Z(t) = S(t) + \varepsilon_t,$$

$$S(t) = \alpha \cdot Z(t-1) + (1-\alpha) \cdot S(t-1),$$

Bu yerda: α — tekislanish koeffitsienti,

tekislanish $0 < \alpha < 1$ oralig‘i dastlabki shartda $S(1) = Z(0)$ sifatida aniqlanadi. Bu yerda har qaysi keyingi tekislanuvchi jarayon $-S(t)$ esa avvalgi tortilgan vaqt qatori oralig‘idagi $Z(t)$ va $S(t-1)$ larni izohlaydi.

Eksponentsial tekislanish modellarining «Xolta modeli» deb nomlanuvchi ikkinchi darajasi eksponentsial tekislanish modeli esa trend qatorlari mavjud bo‘lgan tekislanishlarda qo‘llaniladi. Shu jihatdan model ikki qismdan: daraja va trendlardan iborat bo‘lib, ular alohida tekislanishga ega bo‘ladi:

⁷⁵ O‘sha asarga qarang.

⁷⁶ Prajakt S.K. Time series Forecasting using Holt-Winters Exponential Smoothing // Kanwal Rekhi School of Information Technology Journal [электронный ресурс]. 2004. 13 p.

$$Z(t) = S(t) + \varepsilon_t;$$

$$S(t) = \alpha \cdot Z(t-1) + (1-\alpha) \cdot (S(t-1) - B(t-1));$$

$$B(t) = \gamma \cdot (S(t-1) - S(t-2)) + (1+\gamma) \cdot B(t-1).$$

Bu yerda: α — tekislanish darajasi koeffitsienti,

γ — trend tekislanish koeffitsienti.

Ekspontensial tekislanish modellari uzoq muddatli prognozlarda qo'llash yaxshi samara beradi.

«Markov zanjiri bazasiga asoslangan modellar» (Markov chain model).⁷⁷ Mazkur modellarning xususiyati shundaki, o'rganilayotgan obyektning kelajakdagi holati o'tgan davrlardagi holatiga emas faqat joriy davrdagi holatidan kelib chiqib aniqlanishga asoslanadi. Shu jihatdan olganda mazkur modellarda jarayonning uch tomoni ehtimollik, joriy holat, kelgusi holati diqqat markazda bo'ladi, prognoz jarayonida ko'rsatkichlarni aniqlashda joriy davrda yuz berayotgan o'zgarishlarning qonuniyatlariga asoslanadi. Shu jihatdan mazkur model moliyaviy jarayonlar, jumladan, soliqlarni prognoz qilish jarayonida ham qo'llash mumkin, ya'ni, alohida olingan soliq turlari bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarini aniqlashda tahlil qilinayotgan⁷⁸ davrdagi soliq tushumlarining dinamikasi va uning sabablarini chuqur o'rganish asosida ikkinchi darajali detallardan uzoqlashgan holda yondoshiladi.

Bunda prognozni amalga oshirish soddalashadi, unchalik ahamiyatga ega bo'lmagan omillarga vaqt sarflamay prognozning tezkorligini oshirishga erishiladi. Ammo, bu modelning kamchiligi shundaki, agar, obyektning o'tgan davriga tegishli bo'lgan jarayonlar prognozdagi roli kamaymagan bo'lgan sharoitda prognoz natijalarining aniqligining kamayishiga olib kelishi mumkin bo'ladi.

Regression-klassifikatsiyali daraxt bazasiga asoslangan modellar (classification and regression trees, CART)⁷⁸ ham vaqt qatorlarini izohlashga xizmat qiluvchi va keng tarqalgan modellardan bo'lib, asosan

⁷⁷ Zhu J., Hong J., Hughes J.G. *Using Markov Chains for Link Prediction in Adaptive Web Sites* // 1st International Conference on Computing in an Imperfect World, UK, London, 2002. P. 60 – 73.

⁷⁸ Hannes Y.Y., Webb P. *Classification and regression trees: A User Manual for Identifying Indicators of Vulnerability to Famine and Chronic Food Insecurity* // International Food Policy Research Institute [электронный ресурс]. 1999. 59 p.

prognoz jarayoniga tashqi omillarning ta'siri uzluksiz bo'lgan sharoitda uning ta'sirini aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Shu jihatdan olgan mazkur modellar soliq tushumlariga import-eksport darajasiga jahon bozoridagi konyukturaning doimiy ta'siri, qo'shilgan qiymat solig'i tushumiga mahsulotlarga bo'lgan talabning doimiy o'zgarishi kabi tashqi omillarni baholashda qo'llanilishi mumkin. Agar tashqi omillar uzluksiz xarakterga ega bo'lsa, u holda regressiyali daraxt modeli qo'llaniladi, agar omillar doimiy tusda bo'lmasa u holda klassifikatsiyali regressiya modellaridan foydalaniladi. Agar prognoz jarayoniga omillarning uzluksizli va vaqtinchalik ta'sirlari bir vaqtda ta'sir qilsa, unda regression-klassifikatsiyali daraxt modeli qo'llaniladi.

Qayd etilganlardan tashqari soliqlarni prognoz qilish jarayonida bir qator unchalik muhim bo'lmagan modellarni ham qo'llash imkoniyati mavjud bo'ladiki, ushbu modellar oraliq jarayonlarda ishtirok etib ma'lum bir xulosalarni olishga imkon yaratishi mumkin. Bundaylar jumlasiga tayanch vektorlar modeli(support vector machine, SVM)⁷⁹ (bozorlarning harakatini, mahsulot tannarxiga ta'sir etuvchi omillarni va shu kabilarni tahlil qilishda foydalanilaladi), genetik algoritim (genetic algorithm, GA)(tashqi omillarning ta'siri baholashda qo'llaniladi), uzatuvchi funktsiyaga asoslan model (transfer function, TF) (vaqt qatorlarining dinamik o'zgarishini ifodalaydi hamda tashqi omillarni baholashda ham qo'llaniladi)lar shular jumlasidandir.

Qayd etib o'tilgan modellar va metodlar prognoz qilish jarayonida ma'lum bir afzalliklarga ega bo'lishi bilan bir qatorda ularning zaif tomonlarini ham ko'rsatib o'tish joizdir. Ularning afzalliklari va zaif tomonlarini farqlash esa ularni prognoz jarayonida tanlash imkoniyatini beradi.

Regressivli modellar(metodlar) oddiyligi, moslashuvchanligi ularni tahlil qilish loyihalashtirishda o'xshash xususiyatlarga ega bilan ahamiyatlidir. Lineyali regression modellarni qo'llash orqali qisqa vaqtda

⁷⁹ Huang W., Nakamoria Y., Wang S. Forecasting stock market movement direction support vector machine // Elsevier: computers and operation research. 2005, Vol. 32, P. 2513 – 2522.

natijalarni olish imkoni bo'ladi. Shuningdek, bu modellarning yana bir xususiyati ularning shaffofligi bo'lib, barcha oraliq jarayonlarda hisoblash chun ma'lumotlarni olish imkoniyati mavjud bo'ladi. Bular bir qatorda ushbu modellar ma'lum kamchiliklarga ham ega. Masalan nolineyal regression modellarda funktsion bog'liqlikni aniqlash imkoniyati qiyinroq kechadi, mehnatni ko'p talab qiladi, moslashuvchanligi kamroq va lineyal modellarga nisbatan imkoniyatlari kamroqdir.⁸⁰

Avtoregressiyali modellar (metodlar) ham boshqa modellar singari afzalliklar va kamchiliklarga ega. Ularning afzalliklari sifatida oddiyligi va shaffofligi, moslashuvchanligi loyihalarni tahlil qilishda o'xshashligi bo'lib, regressiyali modellarga juda o'xshaydi, shuningdek, prognoz jarayonida eng ko'p qo'llaniladigan modellar sirasiga kiradi. Mazkur modellarning kamchiligi esa ularda modelning parametrlarini va mehnat sarfini ko'p talab qilishligi, parametrlar ko'p bo'lgan sharoitda esa xatoliklar qilish ehtimolining ham mavjudligi bilan izohlanadi. Shuningdek, moslashuvchanlik darajasi boshqa modellarga nisbatan pastroqdir.⁸¹ Eksponentsional tekislanish modellari (metodlari) ning afzallik ahamiyati shundaki, mazkur modellar qo'llashning oddiyligi va uzoq muddatli prognozlarni ham amalga oshirida katta saara beradi. Ammo, ushbu modellarda moslashuvchanlik darajasi deyarli yo'q darajada bo'lib, ular boshqa modellar bilan uyg'unlasha olmaydi.

Neyrotarmoqli modellar (metodlar) ning muhim xususiyati ularning moslashuvchanlik darajasi va obyektlarni qamrab olish darajasining kengligi, tahlil jarayonida hisoblash ishlarining soddaligi bo'lib, bular ushbu modellarning afzalliklarini izohlaydi. Ammo ularda shaffoflik, prognoz arxitekturasini qurishning qiyinligi va mehnat sig'imini ko'p talab qilishi mazkur modellarning zaif tomonlarini ifodalaydi.⁸²

⁸⁰ Mazengia D.H. *Forecasting Spot Electricity Market Prices Using Time Series Models: Thesis for the degree of Master of Science in Electric Power Engineering*. Gothenburg, Chalmers University of Technology, 2008. 89 p.

⁸¹ Gheyas I.A., Smith L.S. *A Neural Network Approach to Time Series Forecasting // Proceedings of the World Congress on Engineering, London, 2009, Vol 2 [электронный ресурс]*. P. 1292 – 1296. URL: www.iaeng.org/publication/WCE2009/WCE2009_pp1292-1296.pdf.

⁸² Pradhan R.P., Kumar R. *Forecasting Exchange Rate in India: An Application of Artificial Neural Network Model // Journal of Mathematics Research*. 2010, Vol. 2, No. 4. P. 111 – 117.

«Markov zanjiri bazasiga asoslangan modellar»(Markov chain model) ham boshqa moellar kabi oddiyligi, tahlil jarayonlarini amalga oshirishning qulayligi bilan tavsiflansa, ular ham ma'lum kamchiliklarga ega, masalan, uzoq xotirali modellashtirish imkoniyatiga ega emasligidir.

Regression-klassifikatsiyali daraxt bazasiga asoslangan modellar (classification and regression trees, CART) yirik ko'lamga egaligi, prognoz jarayonini tezlashtirish imkoniyati mavjudligi, shuningdek, uzluksiz tashqi omillar ta'sirini baholashning yuqoriligi bilan ham ahamiyatlidir. Kamchiliklari sifatida esa prognoz arxitekturasini qurish imkoniyati qiyinligi, tahlil ishlarini amalga oshirish qiyinroq kechishi kabilarni keltirish mumkin.

Qayd etilganlardan xulosa qilish mumkinki, prognoz jarayonida qo'llaniladigan modellar va metodlarning bironasiga «prognoz jarayonining aniqligi» degan tavsif berilmagan. Chunki, bunday tavsif modeldan juda ko'p narsalarni talab qiladi. Ammo, alohida olingan modelni qo'llab yuqori darajadagi aniqlikka ega prognoz natijalarini olish imkoniyati yo'q, bu ilmiy-uslubiy tomondan ham mantiqsiz hisoblandi. Biroq, prognozning muhim printsiplaridan biri ham aniqlilik bo'lib, unni ta'minlamaslik prognozning mazmunini yo'qotadi. Bular esa kombinatsiyalashgan modellarga ehtiyojni talab qiladi. Bunday modellarni ishlab chiqilishi yuqorida qayd etib o'tilgan modellarning imkoniyatlari cheklanganligi va ularning kamchiliklari bartaraf etib boriladi.

Kombinatsiyalashgan modellar alohida olingan model emas, ularning mohiyati esa eng ilg'or modellarning ijobiy imkoniyatlarini aks ettira oladigan va ularni qo'llash orqali prognozning aniqligini ta'minlay oladigan modellar birikmasini hamkorlikda qo'llash imkoniyatlaridir. Boshqacha qilib aytganda har bir modelning eng kerakli imkoniyatlarini prognoz jarayonida to'g'ri qo'llash jarayonidir. Mazkur modellarni qo'llashning asoschilaridan biri X.Foglerning fikricha, kombinatsiyalashgan modellarni qo'llash uchun ikki bosqichda modellardan foydalanishni tashkil etish lozim. Birinchi bosqichda obyektlarni

aniqlash imkoniyatini beruvchi(pattern recognition) kelib chiqishi (yaratilishi) bir xil bo'lgan(gomogenniy) vaqt qatorlari guruhlarini (patterns) shakllantirish va ikkinchi bosqichda esa har bir guruh uchun alohida alohida model loyihasi tuzish kerak bo'ladi va bunday tartibda prognozni amalga oshirish uning aniqligini oshiradi.⁸³ Qayd etilganlardan xulosa qilish mumkinki, har qaysi sohada, jumladan soliqlarni prognoz qilish jarayonida eng muhim masalalardan biri prognoz jarayonida qo'llaniladigan model va metodlarni to'g'ri tanlashdir. Bu masalaning to'g'ri hal etilishi esa prognozning kam xarajatli(moddiy va mehnat sarflar) asosda yuqori aniqlikdagi natijalarni olish imkoniyatini tug'diradi.

Soliqlarni prognoz qilishning «Aqliy hujum» metodining mohiyatini obyektini o'rganilayotgan vaqtda va uning rivojlanish jarayonining prognozini aniqlashda prognozni amalga oshiruvchilar o'rtasida to'g'ri va teskari aloqalarning mavjudligi va muammoni hal etishda mutaxassislarining salohiyatini faollashtirish hamda fikrlarni uyg'unlashtirish jaryoni tashkil etadi. Bu yerda teskari jarayonda eng muhim narsa taklif etilayotgan optimal variantlariga to'xtalish hisoblanadi. Mazkur metod bo'yicha prognoz jarayonini amalga oshirish bir qator bosqichlarda amalga oshiraladi:

1-bosqich. «Aqliy hujum» guruhini shakllantiriladi. Unda bir-birini(salohiyatini) biluvchi yoki bir-birini tanimaydigan mutaxassislarni jalb qilinadi. Mutaxassislar qo'yilayotgan muammoning mohiyatini anglab etuvchilar hamda bir necha nafari esa muammoni hal etishning umumiy yo'nalishlarini chuqur anglab etuvchilardan iborat bo'ladi.

2-bosqich. Guruh ishtirokchilari uchun muammoning mohiyati va aqliy hujumning metodining mazmunini yorituvchi yozma variant tayyorlanadi. Unda ishni(prognozni) amalga oshirish tamoyillari, metodning nimaga asoslanganligi, shartlar, aqliy hujumni o'tkazish (amalga oshirish) asosiy qoidalari, muammoning mohiyati, uning kelib

⁸³ Qarang: Fogler H.R. A pattern recognition model for forecasting // Management science. 1974, No.8. P. 1178 - 1189.

chiqish sabablari, uning tahlillari va yuzaga kelish mumkin bo'lgan oqibatlar, muammoni hal etishning (agar mavjud bo'lsa) xalqaro tajribalari, muammoni hal etishning yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan variantlari aks ettiriladi.

3-bosqich. Bu bosqichda g'oyalar umumlashtiriladi. Bu jarayon guruh boshlig'i tomonidan muammoning mazmunini bayon etishdan boshlanadi. Guruh ishtirokchilariga aqliy hujumni o'tkazish tartibi tushuntiriladi. Unga ko'ra chiquvchilar(fikr bildiruvchilar) o'z fikrini aniq va ravon qilib aytishi, avvalgi chiquvchining fikrini takrorlamaslik va fikrlarga tanqidiy yondoshmaslik, so'zga chiquvchilar o'z fikrlarini bir necha marta aytish imkoniyatiga ega bo'lishi mumkin. Guruh boshlig'i ishtirokchilarning fikrlarini muammoning echimiga qaratgan holda muammoli savollarni yo'naltirib turadi.

4-bosqich. Aqliy hujum doirasida aniqlangan g'oyalar va fikrlarni umumlashtiriladi. Bir-birini qaytaruvchi fikrlar guruhlanadi, bir-birini to'ldiruvchi g'oyalar esa alohida umumlashtiriladi.

5-bosqich. Umumlashtirilgan g'oyalar to'plami shu sohaning boshqa etuk mutaxassisleri(taxminan 20-25 nafar) ishtirokida muhokama qilinadi. Bildirilgan tanqidiy fikrlar umumlashtiriladi.

6-bosqich. Aqliy hujumning oxirgi bosqichida bildirilgan tanqidiy fikrlar ro'yxati tuziladi, barcha bosqichlarda aniqlashtirilgan g'oyalar va mulohazalar yig'ma jadvalda aks ettiriladi. Jadval ma'lumotlari tahlil qilinadi va muammoning echimini berishga layoqatli eng asosiy g'oyalar aniqlanadi va xulosa qilinadi. Mazkur metodning muhim xususiyati shundaki, o'rganilayotgan obyekt va qo'yilgan vazifalarni yagona fikr doirasida aniqlash imkoni bo'lmagan yoki unga shubha bilan qaralganda muammoning jamoaviy hal etilishini ta'minlaydi.

«Delfi» metodi. Mazkur metod prognoz qilishni amalga oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi. U o'tgan asrning oxirlarida AQShning REND korporatsiyasi tomonidan yaratilgan bo'lib, prognoz jarayonida ishtirok etgan ekspert-mutaxassislarning fikrlarini statistik qayta ishlash imkoniyatini beradi. «Delfi» metodining asosiy tamoyilini ekspertlarning

fikrlari va ularning subyektiv mulohazalarini qo'yilgan muammoning echimiga moslashtirish va ularning aniqlik darajasini belgilab olish tashkil qiladi. Ushbu metodning mohiyati va boshqa ekspertli metodlardan farqi shundaki, unda ekspertlarning anonim hisoblanadi, ya'ni ekspertlar bir-birlarini bilishmaydi, avvalgi tur so'rovlaridan foydalaniladi va guruh javoblari ya'ni prognoz ko'rsatkichlari statistik shaklda taqdim qilinadi.

Umumiy qilib aytganda ekspertli baholash metodlari quyidagi bosqichlarni qamrab oladi: Guruhni shakllantirish (ekspertlar guruhi tuziladi va ularning prognoz jarayonidagi salohiyati (tajribasi, muammo doirasida nazariy va amaliy bilimlari xususidagi salohiyati) aniqlanadi. Global maqsad aniqlanadi va guruhlarning prognozni amalga oshirish borasidagi ishlari tizimlashtiriladi. Ekspertlardan olingan so'rovnomalarni ma'lumotlari qayta ishlanadi. Oxirgi bosqichda esa ekspertlarning baholari (xulosa, fikrlari, mulohazalari) hisob-kitob qilinadi va umumiy xulosaga kelinadi.

Ekstropolatsiya metodlari vaqt qatorlari metodi ham deb ataladi. Vaqt qatorlari bo'yicha prognoz qilish metodi o'zida tom ma'nodagi statistik metodni aks ettiradi. Vaqt qatorlari esa muddatlari aniqlangan va vaqt oraliqlariga bog'langan ko'rsatkichlarning tizimlashtirilgan shaklidir. Vaqt qatorlari orqali prognoz qilishda obyektning murakkablik darajasiga qarab ularning turlari qo'llaniladi. Masalan, oddiy regression tahlillar uzoq muddatli davrlarda va barqaror tendentsiyalar mavjud bo'lgan sharoitda qo'llanilsa, tsikli o'zgarishlar mavjud bo'lgan sharoitda masalan, qishloq xo'jaligi, qurilish sohalaridagi jarayonlarni prognoz qilishda esa murakkab vaqt qatorlari metodlari qo'llaniladi. Ekstropolatsiya metodlarining eng ko'p va soliqlarni prognoz qilishda ham foydalaniladigan turlariga eng kichik kvadrat metodi, eksponentsial tekislanish, o'rtacha og'uvchi (sirpanuvchi) metodlarni kiritish mumkin.

Bularning ichida eng ko'p tarqalgani va qulayi esa kichik kvadratli metod bo'lib, oddiy funktsiyalarni tanlash (lineyali qatorlarni) orqali prognoz qilinyotgan parametrlarni vaqt qatorlari bo'yicha bog'liqligini

izohlaydi. Ushbu modelning xususiyati shundaki, unda o'rganilayotgan obyektning o'tgan davriga tegishli ko'rsatkichlarni kamida 10-15 tasini qamrab olishni taqozo etadi va prognoz ko'rsatkichlarining aniqligini oshiradi. Mazkur metodning afzalliklari shundaki, uni qo'llash oson, natijalarning ajratishning qulayligi, ushbu metodni elektron hisoblash mashinalari orqali, jumladan, Microsoft Excel elektron jadvallari yordamida foydalanish mumkin. Ammo, ushbu metodni qo'llashni sohasi cheklangan bo'lib, uni qo'llashda faqat miqdoriy ko'rsatkichlarni prognoz qilish mumkin, sifat ko'rsatkichlari bo'yicha tahlillarni amalga oshirish cheklangan. Masalan, foyda solig'i tushumlarini prognozini amalga oshirishda soliq to'lovchilarning foydasining hajmiga ta'sir etuvchi barcha omillarni vaqt qatorlari orqali tahlil etish imkoni yo'q. Mazkur metodlardan esa faqat qisqa muddatli prognozlarni amalga oshirishda foydalanish mumkin Uslubiy jihatdan har qanday prognozning asosiy vositasi ekstrapolyatsiya sxemasi hisoblanadi. Ekstrapolyatsiyaning mohiyati o'tmishda va hozirgi kunda yuzaga kelgan prognoz obyektini rivojlanishining barqaror tendentsiyalarini o'rganish va ularni kelajakka o'tkazishdan iborat.

Rasmiy va prognozli ekstrapolyatsiya farqlanadi. Rasmiy ekstrapolyatsiya prognoz obyektining hozirdagi va o'tmishdagi rivojlanish tendentsiyalarini kelajakda saqlab qolish haqidagi taxminlarga asoslansa prognozli ekstrapolyatsiyada esa amaldagi rivojlanish istiqbolda turli omillar ta'sirining o'zgarishini hisobga olgan holda tadqiq etilayotgan jarayon dinamikasi haqidagi farazlar bilan bog'lanadi. Ta'kidlash joizki, ekstrapolyatsiya usullarini ko'rsatkichlarning o'zgarish tendentsiyalarini aniqlash uchun prognozning boshlang'ich bosqichida qo'llash zarur.

Iqtisodiy-matematik metodlar (modellar). Ushbu metodlar prognoz qilishning murakkab metodlari hisoblanib, ularning asosida kompleks tahlillar yotadi. Ushbu metodlar ekstropolatsiya metodlaridan farqli ravishda o'rganilayotgan obyektini prognoz ko'rsatkichlarini aniqlashda miqdor ko'rsatkichlarini sifat ko'rsatkichlariga bog'liq holda o'rganadi. Masalan, vaqt qatorlarida tadbirkorlik subyektlarining soliq

to'lovlari bo'yicha tushumlarini ularning avvalgi faoliyatlari nuqtai nazardan yondoshilsa, ularning tovar aylanmasi hajmining ortishi boshqa soliqlarning hajmiga ta'sirini tahlil qilib bera olmaydi. Ammo, iqtisodiy-matematik modellarni qo'llash orqali esa korxonalarining yalpi tushum hajmi va xarajatlar hajmini aniqlash orqali, ushbu miqdoriy ko'rsatkichlarning korxonaga to'laydigan boshqa soliqlarni (masalan, foyda solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i) ning hajmiga ta'sirini baholash imkoniyati bo'ladi, ya'ni midoriy ko'rsatkichlar sifat ko'rsatkichlariga bog'lanadi. Bu esa iqtisodiy-matematik modellarning eng muhim xususiyatini va afzalliklarini ko'rsatadi.

Normativ metodi. Ushbu metod boshqa metodlardan farqli ravishda rejalashtirishda ko'proq qo'llaniladi. Ammo, mazkur metoddan soliqlarni prognoz qilish jarayonida ham samarali foydalanish mumkin. Metodning xususiyati nomiga mos ravishda normativlarga asoslanadi va normativlarning turli variantlarini qo'llash orqali ishlab chiqarish (obyektni) jarayonini boshqarishni tashkil etish mumkin. Chunki, normativlar ishlab chiqarish jarayonini uning natijalari bilan bog'lash imkoniyatini beradi. Shu jihatdan olganda mazkur metod orqali ham sifat ko'rsatkichlarini ham miqdor ko'rsatkichlarni o'zaro tahlil qilishni amalga oshirish mumkin. Ushbu metodlarning soliqlarni prognoz qilishdagi ahamiyati shundaki, er solig'i bo'yicha soliq tushumlarini aniqlashni er maydonlariga o'rnatilgan soliq stavkalari orqali, ya'ni normativ obyektlarni tahlil qilish orqali amalga oshirish mumkin. Shuningdek, qo'shilgan qiymat solig'i bazasini hisoblashda korxonaga sotib olingan materiallarga tegishli qo'shilgan qiymat solig'ining ushbu materiallarni normativ asosda ishlab chiqarishga sarflanish jarayoni bilan birgalikda qo'shilgan qiymatning hajmini yoki mahsulotga tegishli qo'shilgan qiymat solig'ini aniqlash imkoni paydo bo'ladi, provardida esa qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq tushumlarining hajmini aniqlash mumkin bo'ladi.

Balans metodi. Ushbu metod ham normativ metod singari nomidan kelib chiqqan holda o'rganilayotgan obyektning holati va bo'yicha

prognoz ko'rsatkichlarini aniqlashda obyektning ikki tomoniga asoslanadi, ya'ni vaziyatning sabablarini va uning keltirib chiqargan oqibatlarini balanslashtirgan holda taqqoslaydi, ijobiy va salbiy jarayonlarni umumiy tartibda ko'rsatib beradi. Iqtisodiy balanslar moddiy, mehnat va moliyaviy turlariga bo'linadi. Mazkur modellarning xususiyati va afzalliklari ham shundaki, balansning har bir turi ko'rsatkichlari keyingi balans ko'rsatkichlarini aniqlashda yoki undagi kamchiliklarni bartaraf etishda o'zaro muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Balansli metod moliyaviy sohalarda asosan ehtiyoj uchun zarur bo'lgan (byudjetni rejalashtirishda) yoki faoliyat davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy resurslarning holatini aniqlashda keng foydalaniladi. moliyaviy resurslarning yuzaga kelish imkoniyatlari (maksimal darajada) uning manbalari bilan balanslashtiriladi, ammo, korxonalar yoki davlat byudjeti manfaatlarini uchun moliyaviy resurslar (mablag'lar) hajmi uning manbalaridan ortiq bo'lishiga erishish asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. Balans metodi esa jarayonni modellashtirsa, boshqa tomondan tahlil qilish imkoniyatini beradi. Balans oqibatida keyingi davrlarda moliyaviy mablag'larning yuzaga kelish jarayonlari haqida umumiy ma'lumotlarni olish imkoniyati paydo bo'ladi.

Mazkur metoddan soliqlarni prognoz qilish jarayonida qo'llashning ahamiyati shundaki, makro darajada byudjetga talab qilinadigan moliyaviy mablag'lar bilan shu davrlarga tegishli soliq salohiyati o'rtasidagi nisbatlar balanslashtiriladi va paydo bo'lgan farq (manfiy, musbat)lar darajasidan kelib chiqqan holda umumiy yo'nalishlarni va prognozning to'liq aniqlikdagi bo'lmasada ma'lum darajasini aniqlash imkoniyati paydo bo'ladi. Ammo, balans metoddan mikro darajada soliqlarni prognoz qilishda keng foydalanish mumkin. Korxonalarda soliq to'lovlarini rejalashtirish esa aslida soliq majburiyatlari bilan korxonaning shu majburiyatlar doirasidagi to'lov qobiliyati balanslashtiriladi va uning holatidan kelib chiqib esa korxonaning keyingi bosqichdagi moliyaviy mablag'larni sarflash masalasi hal etiladi. Moliyaviy organlar (moliya va soliq xizmati)da esa balansli metod orqali

mahalliy byudjetlarga soliq tushumlarining kelib tushishi va rejalashtirilgan xarajatlar o'rtasidagi jarayon balanslashtirish orqali soliqlarning kelib tushishining prognoz ko'rsatkichlari hamda yuqori byudjetlardan qo'shimcha mablag' jalb qilish ko'rsatkichlarini aniqlash imkoniyati paydo bo'ladi.

Vaqt qatorlari bu ayrim kattaliklarning mazmunining izchilligi bo'lib, ular ikkita majburiy elementlardan, ya'ni vaqtni belgilash qator u yoki bu shaklda vositalar bilan olingan vaqt belgilarining ko'rsatkichlari mazmunidan tashkil topadi. Har bir vaqt qatorlari tanlab olingan natija sifatida qaraladi. Vaqt qatorlari mazmunni aniqlash, vaqt oraliqlari va barqarorligi bo'yicha intervalli va holatli vaqt qatorlariga bo'linadi. Intervalli vaqt qatorlarida o'rganilayotgan jarayonning prognozlari bo'yicha olinadigan natijalarning izchilligini ifodalaydi, ma'lum bir interval oralig'ida vaziyatning(jarayonning) qayta sodir bo'lib turishi va uning xususiyatlariga asoslanadi. Masalan, mahsulot ishlab chiqarishning har haftalik, oylik va yillik hajmi, soliq to'lovlarining har oyning 20 sanasi, kelasi oyning 5 sanasigacha, chorak oxirigacha to'lanishi(kelib tushishi) kabi takrorlanib turadigan vaqt qatorlari va shu kabilarning qonuniyatli xarakterlariga asoslangan holda ularning rivojlanish tendentsiyalarini aniqlashga xizmat qiladi.

Vaqt qatorlarining mazmuni ma'lum bir aniq holatlarda takrorlanib turadigan bo'lsa, bunday vaqt qatorlari holatli tus oladi. Masalan, moliyaviy indekslar, bozor naxlari, fizik ko'rsatkichlar va shu kabilar aniq bir vaziyatlarda sodir bo'ladi, bunday jarayonlarga xos vaziyatlarning rivojlanish jarayonlarini o'rganish holatli vaqt qatorlarini taqozo qiladi. Vaqt qatorlari oraliqlarda joylashishi nuqtai nazardan teng vaziyatlarda joylashgan va notekis joylashgan turlarga ham bo'linadi. Tovarlar va xizmatlar bo'yicha narx indeksleri ma'lum bir teng oraliq vaqtlarda o'zgarib borsa, ammo, birja indeksleri qatorlarining joylashishi, birja ish kunlari bilan bog'langan bo'ladi, ya'ni birjadagi narx indeksleri ma'lum notekislik asosida joylashadi, shuningdek, soliqni to'lash muddatining oxirgi kunlariga qadar to'lanmagan majburiyatlar yuridik

shaxslar bo'yicha bank muassasalarining ish kunlari bilan bog'liq bo'lib, bunda soliq tushumlarining vatq qatorlari notekis holatda bo'ladi. Bulardan tashqari soliqlarni prognoz qilish jarayonida qisqa va uzoq xotiraga ega bo'lgan vaqt qatorlaridan ham foydalaniladi.

Bunday vaqt qatorlari soliq bazalarining shakllanish jarayonlari uzoq vaqtli vaqt qatorlarini egallaydi, ammo, soliqlar bo'yicha hisobotlar va ularni byudjetga to'lash jarayonlarida ko'pincha qisqa xotirali vaqt qatorlari sodir bo'ladi, sababi soliq to'lovlari va hisobotlarini topshirish belgilangan oxirgi kunlarida ko'p sodir bo'ladi. Soliqlarni prognoz qilish jarayonida barqaror va nobarqaror bo'lmagan vaqt qatorlaridan ham foydalanish prognozga ta'sir eutvchi omillar bilan bir qatorda jarayonlarning vaqtli barqarorligining ta'sirini ham aniqlash imkoniyati paydo bo'ladi. Soliq to'lovlari bo'yicha soliq bazalarini aniqlashda barqaror vaqt qatorlari sifatida mol-mulk solig'i, er solig'i bazalari bo'yicha barqaror vaqt qatorlari yuzaga kelsa foyda solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchn soliq, yagona soliq, obodonlashtirish ijtimoiy infratzilmani rivojlantirish va shu kabi soliqlarning soliq bazalari boshqa omillar ta'siriga tez tushishi sababli ham ularda nobarqaror vaqt qatorlari mavjud bo'ladi. Vaqt qatorlarining muhim xususiyati shundaki, ularning dinamik yoki statistik holati ichki va tashqi omillar ta'siriga tez uchraydi, shu sababli ham vaqt qatorlarining funktsional bog'liqligini ta'minlash orqali ularning xususiyatlarini doim kuzatib turish talab etiladi.

Axborot olish va qayta ishlash metodlari bo'yicha quyidagi prognoz qilish metodlari ajratib ko'rsatiladi: statistik metodlar, o'xshatishlar metodi, ilg'or metodlar.

Statistik metodlar – prognoz qilinadigan ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar strukturasi, dinamikasi va o'zaro aloqalarida namoyon bo'ladigan miqdoriy qonuniyatalr olishga qaratilgan axborotni qayta ishlash metodlari tizimi.

O'xshatishlar metodi – prognoz qilinadigan jarayonlar haqida bilim bir jarayonlar rivojlanishi qonuniyatlarining boshqa jarayonlar

rivojlanish qonuniyatlariga o'xshashligi asosida yuzaga keladigan mantiqiy xulosaga asoslangan prognozlar olishga asosan tuziladi.

Prognoz qilishning ilg'or metodlari prognozda prognoz qilish obyektining rivojlanish qonuniyatlari yangi tendentsiyalarini aks ettirish xususiyatini amalga oshiradigan ilmiy-texnik axborotni maxsus qayta ishlash tamoyillariga asoslanadi. Prognoz qilishning rasmiy metodlari prognozlar aniqligi va ishonchliligini oshirish, ularni bajarish muddatini sezilarli qisqartirish, axborotni qayta ishlash va natijalarni baholash imkonini beradigan matematik nazariya vositalari tuzishga asoslanadi. Prognoz qilishning rasmiy metodlari tarkibiga quyidagilar kiradi: interpolyatsiya va ekstrapolyatsiya metodlari, matematik modellashtirish metodi, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika metodlari.

Interpolyatsiya metodining mohiyati $y_i=f(x_j)$, obyekt funtsiyalari prognoz qiymatini aniqlashdan iborat bo'lib, bu erda $j=0, \dots, n$,

Ekstrapolyatsiya metodi bu – ilmiy tadqiqot metodi bo'lib, o'tmishda belgilangan tendentsiyalarni kegusi davrda tarqatishdan iboratdir. Matematik ekstrapolyatsiya metodlari agar uning $x_1=x(t_1), \dots, x(t_{n-1}) > x(t_n)$ o'tmish davrdagi qiymati ma'lum bo'lsa, u yoki bu $X=x(t_1)$ o'zgaruvchan ko'rsatkich qanday qiymatga ega bo'lishini aniqlashga borib taqaladi.

Prognozga qaysi tamoyillar va qaysi boshlang'ich ma'lumotlar asos qilib olinganiga qarab, quyidagi ekstrapolyatsiya metodlari mavjud: o'rtacha mutlaq o'sish, o'rtacha o'sish sur'ati va biron-bir tahliliy formula bo'yicha qatorlarni tenglashtirish asosida ekstrapolyatsiya.

O'rtacha mutlaq o'sish bo'yicha prognoz qilish umumiy tendentsiyani chiziqli deb hisoblashga ishonch bo'lgan, ya'ni metod bir xilda o'zgarish haqida taxminga asoslangan holatda bajarilishi mumkin. O'rtacha o'sish sur'ati bo'yicha prognoz qilish umumiy tendentsiya eksponentsial egri chiziq bilan tavsiflanadigan holatda amalga oshirilishi mumkin. Agar dinamika qatoriga boshqacha qonuniyat xos bo'lsa, o'rtacha o'sish sur'ati asosidagi ekstrapolyatsiyada olingan ma'lumotlar boshqa ekstrapolyatsiya metodi bilan olingan ma'lumotlardan farq qiladi.

Prognoz qilishning eng tarqalgan metodi trendni tahliliy ifodalash hisoblanadi.

Ekstrapolyatsiya qilinadigan hodisa trendi bu – **iqtisodiy ko'rsatkichlar o'zgarishi uzoq muddatli tendentsiyasi**, ya'ni rivojlanish umumiy yo'nalishini, vaqt qatorlari asosiy tendentsiyasini belgilab beradigan o'zgarish. Trend ma'lum ma'noda tasodifiy ta'sirdan xoli bo'lgan vaqt bo'yicha harakat asosiy qonuniyatlarini tavsiflaydi. Eng kichik kvadratlar metodining mohiyati shundan iboratki, prognoz qilinadigan hodisani tavsiflaydigan funktsiya oddiyroq funktsiya yoki ularning kombinatsiyasi bilan uyg'unlashadi. Bunda uyg'unlik shunday tanlanadiki, amaldagi funktsiya darajasining o'rtacha kvadratik og'ishi kuzatilayotgan nuqtalarda eng kichik bo'ladi.

Sirpanuvchan o'rtacha metodi shundan iboratki, tartib bo'yicha birinchi qatordagi darajalardan o'rtacha daraja hisoblab chiqiladi, so'ngra ikkinchidan boshlab, undan keyin uchinchidan va h.k. o'rtacha darajalar aniqlanadi. Shunday qilib, o'rtacha darajani hisob-kitob qilishda dinamika qatori bo'yicha uning boshidan oxiriga qarab «sirpaniladi», har safar boshida bitta daraja olib tashlanadi va keyingi daraja qo'shiladi.

Matematik modellashtirish metodi bilim olish obykti haqidagi bilimlar va obyektning o'zi o'rtasida ma'lum bir muvofiqlik o'rnatish imkoniyatiga asoslanadi. Matematik metodlarni qo'llash prognozlar asoslanganligi, amaliyligi va o'z vaqtidaligi darajasi yuqori bo'lishini ta'minlaydi.

Umumiy xulosa qilib aytganda soliqlarni prognoz qilish jarayoni ta'kidlanganidek, boshqa jarayonlardan farqli ravishda o'ta murakkab jarayon hisoblanadi. Soliqlar aralash iqtisodiyot sharoitida davlatning iqtisodiyotga aralashuvining eng muhim vositasi hisoblanishi, uning murakkabligini yanada oshiradi. Chunki, soliqlar bo'yicha davlat byudjetga tushumlar hajmini ma'lum bir davrlarga prognoz qilishni amalga oshirish soliq tushumlari hajmiga ta'sir etuvchi omillarni baholashni taqozo etadi, vaholanki, bunday omillar juda ko'p va ularning ta'sir darajalari ham turlichadir. Qayd etilganlar esa soliqlarni prognoz

qilish jarayonini soddalashtirish, uning natijalarining aniqligini oshirish va maqsadga erishish uchun ma'lum modellar va metodlarni to'g'ri tanlash va ulardan samarali foydalanishni taqozo etadi. Modellar va metodlarni guruhlash va ularning xususiyatlarini anglash va shu asosda prognozning maqsadi va uning qamrab olinishi darajasini aniqlab ularning mantiqiy uyg'unligini ta'minlash maqsadga erishishning muhim qadamlarni ifodalaydi. Bu borada esa prognozda qo'llaniladigan metodlarni to'g'ri tanlash katta ahamiyat kasb etadi.

Tayanch so'z va iboralar:

Model, modellashtirish, metod, prognozlash modellari, prognoz jarayonini modellashtirish, makroiqtisodiy modellar, mikroimitatsiyali modellar, ekstrapolyatsiyali modellar, kombinatsiyalashgan modellar, regression-klassifikatsiyali daraxt bazasiga asoslangan modellar, avtoregressiyali modellar, regressivli modellar, integarlashgan o'rtacha og'uvchi avtoregressiyali modeli, soliqlarni prognoz qilish metodlari, formalizatsiyali metodlar, intiutiv metodlar, statistik metodlar, Interpolyatsiya metodi, Ekstrapolyatsiya metodi, vaqt qatorlari, normativ metodi, «Delfi» metodi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Model va modellashtirish deganda nima tushuniladi?
2. Soliqlarni prognoz qilish jarayonida modellashtirishning ahamiyatini nimalardan iborat?
3. Soliqlarni prognoz qilish jarayonidagi makroiqtisodiy modellarning xususiyatlarini izohlang.
4. Mikroimitatsiyali modellar orqali soliqlarni prognoz qilishning mohiyatini so'zlab bering.
5. Soliqlarni prognoz qilishning ilg'or metodlari deganda qaysi metodlar tushuniladi?

6. Ekstrapolyatsiya metodining soliqlarni prognoz qilishdagi qo'llanish xususiyatlarini tushuntirib bering.

7. Soliqlarni prognoz qilishning statistik metodlariga qaysi metodlar kiradi?

8. Regressivli va noregrissivli modellarni soliqlarni prognoz jarayonidagi ahamiyatini izohlab bering.

9. ARIMAX bu nima?

10. Makroiqtisodiy modellarning jahon amaliyotida qo'llaniladigan ayrim turlarining mazmunini aytib bering.

11. Soliqlarni prognoz qilish jarayonida «Delfi» metodining qo'llanilish xususiyatlarini nimada?

12. Ekstropolatsiyali modellarga qaysi modellar kiradi?

13. Kombinatsiyalashgan modellarning soliqlarni prognoz qilish jarayonidagi ahamiyati izohlab bering.

14. Intiutiv metodlarning mohiyatini aytib bering.

5-BOB. SOLIQ TURLARI BO'YICHA TUSHUMLARNI PROGNOZ QILISHNI TASHKIL ETISH VA SOLIQ TUSHUMLARI TAHLILI

5.1. Soliqlarni prognoz qilishning maqsadi va uning huquqiy asoslari

Har qanday maqsadli jarayonlarni amalga oshirishning muhim sharti bu uning algoritmik qurilishini to'g'ri tashkil etish hisoblanadi. Bu narsa ilmiy tadqiqotlar metodologiyasida ham muhim o'rin tutadi. Boshqa munosabatlar singari soliqlarni prognoz qilish jarayonida qo'yilgan maqsadga erishishning asosiy omillaridan bir ham uning tashkiliy-uslubiy mexanizmlarini to'g'ri tashkil hisoblanadi. Avvalgi paragraflarda qayd etilganidek, soliqlarni prognoz qilish jarayoni soliq kategoriyasining mahsuli sifatida iqtisodiy munosabatlarning deyarli barcha jihatlarini qamrab oladi va bog'liq bo'ladi. Shu bilan birgalikda uning muhim belgilari sifatida uning ehtimollikka asoslanishi va omillar ta'sirida bo'lishi bu jarayonni yanada murakkablashtiradi. Shunday ekan soliqlarni prognoz qilish jarayoni ham ma'lum bir ketma-ketlikka asoslangan jarayonlar tizimidan iborat bo'ladi. Soliqlarni prognoz qilish jarayonidagi dastlabki bosqichlardan biri prognozning maqsadini aniqlab olish hisoblanadi. Soliqlarni prognoz qilishning bosh maqsadi bu milliy iqtisodiyotni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ko'rsatkichlari prognozi hamda turli darajadagi byudjetlarning daromad manbalarining hajmini aniqlashga qaratilgan bo'ladi.

Shu jihatdan olganda soliqlarni prognoz qilish jarayoni mamlakatning bosh strategik rejalaridan kelib chiqib aniqlansa, o'z navbatida soliq prognozi natijasida olingan ko'rsatkichlar davlatning umumiy rejalarini ishlab chiqishga muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Soliqlarni prognoz qilish maqsadining o'zi ham uning xususiyatlaridan kelib chiqib tarkiblanadi. Bosh maqsad byudjetga kelib tushishi mumkin bo'lgan solikli daromadlarning hajmini aniqlash bilan bir qatorda

prognoz qilishning ko'lamini va uning amal qilish holatiga qarab ham uning maqsadi tarkiblanadi. Ya'ni soliq prognozini amalga oshirishda tarmoqlar bo'yicha soliq tushumlarini prognoz qilish, hududlar, soliq to'lovchilar hamda amaldagi soliq turlari bo'yicha tushumlarni prognoz qilish maqsadlari yuzaga keladi. Bundan tashqari soliqlarni prognoz qilishda uning muhim tarkibiy qismi bo'lgan soliq salohiyatini milliy iqtisodiyot, tarmoqlar, mahalliy hududlar, alohida olingan korxonalar, aholi qatlamlari hamda soliq turlari bo'yicha ham salohiyatni aniqlash maqsad qilib belgilanishi mumkin. Prognoz jarayonida maqsadning belgilanishiga qarab uning metodologik yo'nalishlari aniqlanadi. Masalan davlat byudjetiga umumiy soliq tushumlarini prognoz qilish asosiy maqsad qilib belgilangan bo'lsa, unda makroiqtisodiy modellar va metodlar qo'llaniladi, axborot bazasi sifatida foydalanadigan iqtisodiy ko'rsatkichlarni yig'ish va ularni qayta ishlash ham asosan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga tayaniladi.

Agar maqsad alohida olingan hududlarning soliq salohiyatini aniqlash belgilangan bo'lsa u holda prognozning metodlari va uning ko'rsatkichlari ham o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, soliqlarni prognoz qilishning maqsadi strategik(asosan 5-10 yilga mo'ljallangan) va joriy shakllarda bo'ladi.

Soliqlarni prognoz qilishning muhim instrumentlaridan biri bu uning huquqiy bazasi hisoblanadi. Respublikamizda soliqlarni prognoz qilishning asosini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi, Soliq kodeksi, Davlat soliq xizmati to'g'risidagi, Davlat statistikasi to'g'risidagi, Buxgalteriya to'g'risidagi Qonunlari hamda vakolatli organlarning tegishli me'yoriy hujjatlari, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi haqida Nizom, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi to'g'risida Nizom, Davlat byudjetining pul mablag'larini rejalashtirish va boshqarish tartibi to'g'risidagi Nizom, O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga tushumlar to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish va ayirboshlash tartibi haqida NIZOM, Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish,

hisobga qo'yish va ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi to'g'risida Nizom, O'zbekiston Respublikasi byudjet tasnifini qo'llash bo'yicha Yo'riqnoma, O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining kassa ijrosi to'g'risidagi Yo'riqnoma, Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatiga olishning xabardor qilish tartibida ro'yxatga oluvchi organlar va davlat soliq xizmati hamda davlat statistika organlari o'rtasida o'zaro axborot almashinuvi to'g'risida Yo'riqnoma, Davlat byudjetining g'azna ijrosi Qoidalari va shu kabi qonunosti me'yoriy-hujjatlar shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksining 7-moddasida byudjet tizimi printsiplari sifatida byudjet tizimi byudjetlari daromadlarini prognoz qilish va xarajatlarini rejalashtirishning amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan bo'lib, bu byudjet jarayonida prognoz qilish masalasi asosiy bo'g'inlardan ekanligini ifodalaydi. Shuningdek, ushbu kodeksning 9-moddasiga ko'ra byudjet tizimi O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishiga muvofiq bo'lishi, 11-moddaga ko'ra esa byudjet tizimi byudjetlarini tuzishda byudjet tasnifiga muvofiq, daromadlar ularning aniq manbalari bo'yicha prognoz qilinadi, xarajatlar esa yo'nalishlar bo'yicha rejalashtiriladi. Respublikamizda byudjet tizimining daromadlarining tasniflanishiga muvofiq ularning prognoz ko'rsatkichlarini aniqlash pog'analari ham aniqlanadi. Masalan Byudjet kodeksining 21-moddasiga muvofiq byudjet tizimi byudjetlari daromadlarining tasnifi tuzilmasi quyidagilardan: byudjet tizimi byudjetlari mablag'larining manbalari va darajalari tasnifi; daromadlarning turlari; tashkiliy tasnif; hududiy tasniflardan iborat bo'lishligi belgilangan bo'lib, ular kelib tushayotgan daromadlarning tegishli mablag'lar manbalariga va ushbu byudjetlar darajalariga mansubligini aniqlash uchun qo'llanilsa, o'z navbatida prognoz jarayonini amalga oshirishda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni, shuningdek soliq bo'lmagan to'lovlarni ularni undirish bazasi bo'yicha kodlashga xizmat qiladi.

Byudjet daromadlarining bunday tasniflanishi kelib tushayotgan daromadlarning ana shu daromadlarni ma'muriy jihatdan idora qiluvchi tegishli organga mansubligini aniqlashga hamda ushbu daromadlar shakllantirilayotgan yoxud o'tkazib berilayotgan tegishli ma'muriy-hududiy birlikka mansubligini identifikatsiyalash maqsadida qo'llanilib, kelgusida hududlarning moliyaviy salohiyatlarining ko'rsatkichlarini aniqlashda muhim axborot bazasi bo'lib xizmat qiladi.

Davlat byudjetining daromad manbalari prognoz qilinayotganda ular byudjetning daromad manbalarining guruhlanishi hamda byudjet tasnifida daromadlar turlariga muvofiq amalga oshiriladi. Shu jihatdan olganda O'zbekiston Respublikasi Byudjet tasnifi Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlaridan mablag' oluvchi tashkilotlarga qo'llanilib, Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro qilish, shuningdek, Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tayyorlash maqsadida foydalaniladi.

Byudjet tasnifi O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg'armalari tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar daromadlari va xarajatlarini, shuningdek uning taqchilligini moliyalashtirish manbalari guruhlanishi bo'lib, Davlat byudjetini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish hamda ijro etish maqsadida byudjet ma'lumotlarini tizimga solish uchun foydalaniladi va u byudjet ma'lumotlari xalqaro tasnif tizimlarining aynan shunday ma'lumotlari bilan qiyoslanishini ta'minlaydi.

Davlat byudjeti daromadlarining tasnifida barcha darajadagi byudjetlar daromadlari, davlat maqsadli jamg'armalari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari daromadlari guruhlanishlashtirilgan bo'lib, unda daromadlar, jumladan solikli daromadlar quyidagicha gurhlangan:

Bo'lim daromadlarni ularning olish manbalari bo'yicha guruhlanishini bildiradi:

3 100 000 «Soliqlar»;

3 200 000 «Ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar/badallar»;

3 300 000 «Grantlar»;

3 400 000 «Boshqa daromadlar»;

3 500 000 «Aktiv va majburiyatlarga tranzaksiyalar bo'yicha tushumlar».

11. Paragraf soliq yoki boshqa turdagi daromadlarni soliqqa tortish bazasi bo'yicha daromadlarning guruhlanishini bildiradi.

12. «Soliqlar» (3 100 000) quyidagi paragraflarni o'z ichiga oladi:

3 110 000 «Daromad, foyda va kapital o'sishiga soliq»;

3 130 000 «Mol-mulkka solinadigan soliq»;

3 140 000 «Tovarlar va xizmatlarga soliq»;

3 150 000 «Xalqaro savdo va operatsiyalarga soliq»;

3 160 000 «Boshqa soliqlar».⁸⁴

Soliqlarni prognoz qilishda davlat byudjeti tizimida byudjetlar darajalarining soliqli daromadlariga moslashtiriladi. Byudjet kodeksining 50-moddasida byudjetning daromadlari sifatida soliqli va boshqa majburiy to'lovlar asosiy daromad manbai sifatida keltirilgan bo'lib, unga ko'ra⁸⁵ O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti daromadlari:

1) belgilangan normativlarga muvofiq:

foйда solig'i;

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;

aksiz solig'i;

yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq (bundan qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq mustasno).

2) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

3) mol-mulk solig'i;

4) yer solig'i;

5) qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;

6) aylanmadan olinadigan soliq;

7) yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet davlatlardan tushgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;

⁸⁴ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2010 yil 20 avgustdagi 65-son buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi byudjet tasnifini qo'llash bo'yicha Yo'riqnama

⁸⁵ O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, 50-modda.

8) avtotransport vositalarini sotib olganlik va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im;

9) boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi⁸⁶.

Boshqa daromadlarga davlat daromadiga o'tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga berishdan va sotishdan belgilangan normativlar bo'yicha olingan daromadlar, qonun hujjatlariga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga yo'naltiriladigan davlat bojlari, yig'imlar, tovon pullari va jarima sanksiyalari, egasiz mol-mulkni, meros huquqi bo'yicha davlat ixtiyoriga o'tgan mol-mulkni, huquq bo'yicha davlat daromadiga o'tkazilishi lozim bo'lgan xazinalarni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa daromadlar kiradi.

Respublika va mahalliy byudjetlarning keltirib o'tilgan daromad manbalaridan bojxona boji, ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish huquqi va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish uchun yig'im, bozorlardan tushadigan daromadlar va boshqa daromadlar bo'yicha byudjetga solikli va soliqsiz tushumlarni prognoz qilish jarayoni boshqa solikli daromadlarga qaraganda biroz qiyinroq va mavhumroq kechadi. Chunki, bu kabi daromad manbalarining yuzaga kelish barqarorligi past, ularning yuzaga kelishi esa uning to'lovchilarining faoliyatiga bog'liq bo'ladi.

Prognoz jarayonini tashkiliy jihatlaridan biri bu davlatning vakolatli organlarining bu boradagi ishtirokini aniqlash hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, O'zbekiston qonunchiligida byudjet daromadlarini, jumladan solikli daromadlarni prognoz qilishda Moliya vazirligining roli yuqori hisoblanadi. Moliya vazirligi o'z Nizomiga ko'ra moliya-byudjetni va soliqni rejalashtirish, narx belgilash, xalq xo'jaligi va ijtimoiy-madaniy sohani mablag' bilan ta'minlash sohasida uslubiy rahbarlikni amalga oshiradi. Shuningdek, moliya, byudjet, valyuta va soliqni rejalashtirish va mablag' bilan ta'minlash usullarini takomillashtirish, respublika yig'ma moliya balansining moliyaviy resurslarini shakllantirishning uzoq

⁸⁶ O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi 52-modda.

muddatli va qisqa muddatli istiqbolni belgilashlarini tuzish ishida, shuningdek, umumrespublika maqsadli byudjetdan tashqari pul jamg'armalarini shakllantirishda qatnashadi, ularni tashkil etish, foydalanish va miqdorlari tartibini ishlab chiqadi, respublika va mahalliy byudjetlarni shakllantirishning yangi usullari asosida hududiy moliya-byudjetni, soliqni rejalashtirishni takomillashtiradi⁸⁷. Bundan ko'rinadiki Moliya vazirligining muhim vazifalari va funktsiyalari qatorida soliqlarni rejalashtirish, moliyaviy resurslarni shakllantirishning istiqbolli davrlarga rejalari, ya'ni soliqlar va boshqa tushumlarning prognoz ko'rsatkichlarini aniqlash kabilar belgilab qo'yilgan.

Davlat byudjetining daromadlari, jumladan, soliqlar va soliqsiz to'lovlarni prognoz qilishda O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi ham qatnashadi. Davlat soliq qo'mitasi O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi to'g'risidagi Nizomga ko'ra o'z vakolatlari doirasida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga, davlat maqsadli jamg'armalariga va byudjetdan tashqari jamg'armalarga tushishi prognozini ishlab chiqishda, soliqqa oid qonun hujjatlarini, shu jumladan tabiiy resurslardan ehtiyotlab va samarali foydalanishni rag'batlantirishga yo'naltirilgan qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish, soliqlarni va boshqa majburiy to'lovlarni unifikatsiya qilish, soliq yukini qisqartirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va erkinlashtirish, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini rag'batlantirish, ularga zarur imtiyozlar va preferentsiyalar berish bo'yicha takliflar tayyorlashda qatnashadi, soliq to'lovchilar, soliq solish obyektlari hamda soliq solish bilan bog'liq bo'lgan obyektlarning to'liq va o'z vaqtida hisobga olinishini ta'minlash, ularni to'liq qamrash va hisobga olish mexanizmlarini takomillashtiradi, soliq organlari axborot resurs ma'lumotlarining yagona integratsiyalashtirilgan bazasida soliq to'lovchilar bo'yicha soliqlar va boshqa

⁸⁷ Qarang: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 23 noyabrdagi 553-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi haqida NIZOM.

majburiy to'lovlarning hisoblab chiqilishi va amaldagi tushumlari hisobini yuritadi hamda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar hisobini yuritadi va soliq solish bazasini kengaytirish hamda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlarini ro'yobga chiqarish⁸⁸ kabi vazifalarni bajarishligi belgilanganki, bu vazifalar asosan davlat byudjetiga soliq tushumlarini prognoz qilish jarayonini amalga oshirishga qaratilgandir.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida soliqlarni prognoz qilish jarayonida o'z vakolatlari va majburiyatlari doirasida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Davlat statistika Qo'mitasi milliy iqtisodiyotning rivojlanishining umumiy tendentsiyalariga va xo'jalik yurituvchi subyektlarning holati va moliyaviy ko'rsatkichlariga oid, O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi va Bojxona Qo'mitasi import-eksport operatsiyalari bo'yicha ma'lumotlariga oid, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi er resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi er, suv resurslarining holati va ularning tarkibiy tuzilishi(yer solig'i yuzasidan) bo'yicha ma'lumotlarni, O'zbekiston Respublikasi geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitasi er osti boyliklariga oid ma'lumotlarni(yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq prognozi uchun) va shu kabi vazirlik, qo'mita, kontsern va agentliklar tegishli ma'lumotlar va axborotlarni taqdim qiladi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi esa byudjet daromadlarini prognoz qilish jarayoniga uslubiy rahbarlik qilishda o'z vakolatlari doirasida vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, byudjetlar loyihalarini tuzish yuzasidan hamda soliqlarning byudjetga kelib tushishini prognoz qilish bo'yicha zaruriy axborot va ma'lumotlarni olish huquqiga ega.

⁸⁸ Qarang: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 21 maydagi 98- sonli qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi to'g'risida NIZOM.

5.2. Soliqlarni prognoz qilishning axborot manbai va ularni qayta ishlash

Soliqlarni prognoz qilish jarayonining yana bir eng muhim instrumentlaridan biri bu axborotlar va ma'lumotlar bazasidir. Qayd etilganidek, bu boradagi zaruriy axborot va ma'lumotlar tegishli vakolatli organlardagi mavjud ma'lumotlarga tayaniladi. Soliqlarni prognoz qilishning axborot bazasini shakllantirishning o'zi ham bir necha bosqichlardan iborat bo'ladi. Buning uchun dastlab prognozning maqsadidan kelib chiqqan holda zaruriy axborotlar, ya'ni ko'rsatkichlar aniqlanadi va bunday ko'rsatkich hamda ma'lumotlarni eng qulay va ishonuvchanligi nuqtai nazaridan ushbu ma'lumotlarga egalik qiluvchi va uni tarqatuvchilar ro'yxati aniqlanadi hamda tegishli tartibda ushbu ma'lumotlar olinadi. Ma'lumotlar bazasi aniqlanayotganda avvalo ularning muhimligi va ishonchligi hamda ushbu ma'lumotlarning prognoz jarayonidagi ahamiyatiga e'tibor qaratiladi. Keyingi bosqichda esa olingan axborotlar guruhlanadi. Bunda axborot va ko'rsatkichlarning soliqni prognoz qilishga qaysi qismiga yoki jarayoniga tegishli ekanligiga ajratilib, ularni sintezlash amalga oshiriladi. Ya'ni, sintezlash orqali tugallanmagan, to'liq aks etmagan va chala xususiyatga ega bo'lgan ma'lumotlar to'ldirilib, ularni bir-butun holga keltiriladi va ularni tahlil va hisob-kitob ishlariga tayyorlab qo'yiladi.


Shuningdek, bu bosqichdagi eng e'tibor beriladigan narsalardan yana biri ma'lumotlarni o'zaro taqqoslash va bir-biriga moslashtirgan holda ularning samaradorligi masalasidir. Masalan, jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq tushumi bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarini aniqlashda iqtisodiyotda band bo'lgan aholi tarkibining sohalar va tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishi, tarmoqlarda o'rtacha ish haqi darajasi, tarmoqlar o'rtasida xodimlarning ko'chishi kabi ko'rsatkichlar muhim bo'lsada, ammo, ushbu jarayonda tarmoqlar, hududlar kesimida xodimlarning demografik yosh tarkibi, ularda pensiya yoshidagilar va pensiya yoshiga yaqinlashayotgan, yuqori malaka talab

qiladigan va yuqori ish haqi belgilangan kasblarning vakansiya darajasi, xodimlarning gender tarkibidagi o'zgarishlar va shu kabilar ko'rsatkichlarni o'zaro bog'liq holda o'rganishga moslashtirish lozim bo'ladi. Bunday yondoshuv har bir soliq turi va prognozning boshqa jarayonlarida ham e'tiborga olinish talab qilinadi. Buning uchun olingan ma'lumotlarni to'g'ri guruhlash va ularning o'zaro eng yaqin bog'liqlik darajasini ta'minlash lozim bo'ladi.

Soliqlarni prognoz qilish jarayonida zarur bo'ladigan axborot va ko'rsatkichlardan samarali foydalanish maqsadida ularni ma'lum belgilariga qarab guruhlash mumkin. (17-rasm).

Soliqlarni prognoz qilish jarayonida axborot manbalari umumiy (barcha bosqichdagi prognoz jarayoni uchun zarur bo'ladigan va qo'llaniladigan ko'rsatkichlar), oraliq (prognozning oraliq bosqichlarida zarur bo'ladigan va qo'llaniladigan ko'rsatkichlar), moliyaviy(hududlar, soliq to'lovchilarning soliq salohiyati hamda soliq turlari bo'yicha prognoz jarayonida qo'llaniladigan ko'rsatkichlar), nomoliyaviy (prognoz jarayonining mazmuniga qarab zarur bo'ladigan va qo'llaniladigan ko'rsatkichlar) guruhlarga bo'linadi.

Shu bilan birgalikda axborotlarni makroiqtisodiy (yalpi ichki mahsulot, milliy daromad, iqtisodiyotga jami kiritilgan investitsiyalar, tashqi savdo aylanmasi, chakana savdo aylanmasi, pullik xizmatlar, aholining real pul daromadlari darajasi, byudjet taqchilligi, davlat byudjeti parametri va ijrosi ko'rsatkichi, aholining tabiiy o'sishi, sohalar va tarmoqlar bo'yicha ish haqi darajasining tabaqalashuvi, narxlar indeksi va shu kabilar) mikroqtisodiy(korxonalarining moliyaviy resurslari hajmi, daromadlarning renivestitsiyalashuv darajasi, mahsulot tannarxining o'sish darajasi, moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari, korxonaning o'z mablag'i va jalb qilingan mablag'lari hajmi, soliq boqimanda hajmi va shu kabilar), soliqlarni prognoz qiluvchilarning o'zlaridagi mavjud ma'lumotlar va chetdan jalb qilinadigan ma'lumotlar kabi guruhlarga ham bo'linadi.



17-rasm. Soliqlarni prognoz qilishga xizmat qiluvchi axborot manbalarning guruhlanishi.


Soliqlarni prognoz qilish jarayonida chetdan(boshqa axborot tarqatuvchilar va egalik qiluvchilar) jalb qilingan axborotlarning xususiyati shundaki, ularning ishonchligini qayta tekshirish talab qilinadi, ya'ni ularning qaysi manbalardan jalb qilinganligiga qarab haqiqiylikiga baho beriladi. Soliq prognozini amalga oshiruvchilarning o'zlaridagi mavjud ma'lumotlarning esa ishonchligi yuqoriroq bo'ladi, sababi ular sintezlashgan bo'ladi. Shu boisdan ham qayd etilgan axborot manbalarni o'zaro sintezlashgan holda qo'llash prognoz jarayonida katta ahamiyatga ega. Bular orasida moliyaviy va nomoliyaviy ko'rsatkichlarni o'zaro bog'liq holda qo'llash iqtisodiy tahlilning ilg'or metodlaridan foydalanish talab qilinadi. Moliyaviy ko'rsatkichlar jumladan, soliq turi bo'yicha soliq qarzdorligi, hisoblangan soliq so'mmasi va shu kabi ko'rsatkichlar soliq to'lovchilarning faoliyatining mavsumiylik xarakteri, soliq to'lovchi sifatida ro'yxatga olinishi, korxonalarda hisob ishlarining tashkil etilish darajasi, soliq to'lovchilarning tarkibiy o'zgarishi(ya'ni, umumbelgilangan tartibda soliq to'lovchilarning soddalashtirilgan tartibda soliq to'lashga o'tishi), salohiyat soliq to'lovchilarning real soliq to'lovchilarga aylanishi, bir soliq to'lovchining soliq turlari bo'yicha majburiyatlarining oshishi yoki kamayishi(masalan, kichik korxonaga qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi sifatida yuzaga kelishi yoki umumiy soliq to'lovga qo'shib to'lashi, ilgari aksiz solig'i to'lovchichisi bo'lmagan soliq to'lovchining aksizosti mahsulot ishlab chiqarishi tufayli aksiz solig'i to'lovchisiga aylanishi) kabi ko'rsatkichlar o'zaro ta'sirda bo'ladi va soliqlar bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarining natijalariga ta'sir qiladi. Demak, soliqlarni prognoz qilish jarayonida axborotlarni guruhlash va ularni qayta ishlagan holda qo'llashdagi murakkab jarayonlardan biri ham ularni o'zaro bog'liq va o'z o'rnida foydalanish masalasidir. Buning uchun prognoz jarayonini amalga oshiruvchi mutaxasssilardan ma'lum bir malaka ko'nikmalari bo'lishi lozim. Bunday malaka talablariga nazariy va tahliliy mushohada qilish ko'nikmasi, iqtisodiy tahlil, ekonometrik, statistik, matematik metodlardan yaxshi xabardor bo'lishi, mantiqiy fikrlay olish qobiliyatiga

ega bo'lish kabilar kiradi. Shu boisdan ham soliq xizmati va moliya organlarida aynan daromadlar prognozi hamda korxonalarda soliqlarni rejalashtirish bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarning iqtisodiy tahlil, ekonometrik, miqdoriy usullar, statistika kabi fanlarni o'zlashtirib borilishini ta'minlash prognoz jarayonining obyektivligini oshirishga xizmat qiladi.

Umumiy tartibda soliqlarni prognoz qilishning tashkiliy-amaliy jarayonining o'zini to'rt bosqichga bo'lish mumkin. Ya'ni, tashkiliy bosqich, tahliliy bosqich, amalga oshirish bosqichi va yakuniy bosqich. Qayd etilgan bosqichlar umumiy tartibda soliqlarni prognoz qilishning tashkiliy-metodologik modelini ifoda etadi. Har bir bosqichlarning o'zi ham ma'lum bir ketma-ketlik bosqichdan iborat bo'ladi. Tashkiliy bosqich esa prognoz jarayonining dastlabki qadami bo'lib uning darajasi esa soliqlarni prognoz qilishning keyingi bosqichlarining natijalariga bevosita ta'sir qiladi (18-rasmga qarang). Soliqlarni prognoz qilish tashkiliy bosqichi bu prognoz maqsadining aniqlashdan boshlanib, keyingi tartibda jarayonda qatnashuvchi vakolatli organlar va ularning vazifalari aniqlanib olinadi. Vakolatli organlar ham o'z navbatida bevosita prognoz jarayonini amalga oshiruvchi va unga yordam beruvchilarga bo'linadi.

Moliya, soliq xizmati va bojxona xizmati organlari bevosita prognoz jarayonini amalga oshirsa, boshqa tegishli vazirlik, qo'mita, kontsern va agentliklar esa prognoz jarayoniga axborotlar taqdim qilish, prognoz jarayoniga tegishli ma'lumotlarni qayta ishlashda, so'rovnomalarni o'tkazish jarayonida yordam berishda qatnashishi mumkin. Tashkiliy bosqichda unda qatnashuvchi mutaxassislarning malaka talablarini aniqlash va unga asoslangan holda ularga vazifalarni taqsimlash va zarur bo'ladigan ma'lumotlar manbalarini aniqlash, ularni shakllantirish va qayta ishlash ham asosiy jarayonlar sanaladi. Chunki, axborotlar bazasi etarlicha va aniq qilib shakllantirilgan taqdirda ham uni amalga oshiruvchi subyektlar-mutaxassislarning malaka darajasi va ularning ish samaradorligi eng muhim ahamiyat kasb etadi va prognoz

jarayonining natijalarining aniqligi ham ularga bog'liq bo'ladi, shu jihatdan olganda soliqlarni prognoz qilish jarayonida bu masalaga katta e'tibor berish zarur bo'ladi. Soliqlarni prognoz qilishning tashkiliy-uslubiy jarayonida asosiy jarayonlar qatorida tahliliy bosqich ham katta ahamiyatga egadir. Tahliliy bosqichda asosan soliqlarni prognoz jarayoniga xizmat qiluvchi axborotlarga tayanilgan holda amaliy holat uning rivojlanish tendentsiyalari avvalgi yillar bilan qiyosiy tahlil qilingan holda zaruriy xulosalar olinadi. Bunda turli darajadagi byudjetlarga soliq tushumlarining kelib tushish tendentsiyalari, soliq turlari bo'yicha avvalgi yillarda aniqlangan prognoz ko'rsatkichlarining bajarilishi holati, milliy iqtisodiyot, tarmoqlar, hududlar, soliq to'lovchilar hamda soliq turlari bo'yicha soliq salohiyatining dinamik va statistik holati, ushbu jarayonlarga ta'sir etuvchi omillarning ta'siri darajalari tahlil qilinadi.



18-rasm. Soliqlarni prognoz qilish jarayonining tashkiliy bosqichlari.

Qayd qilinganidek, tahliliy bosqichda ko'rsatkichlar iqtisodiy, statistik, matematik hamda ekonometrik tahlilning metodlaridan foydalaniladi. Tahliliy bosqichda ham ishlar ma'lum bir ketma-ketlikda

oshirish talab etiladi. Bunda ham tahlilning oldiga qo'yilgan maqsaddan kelib chiqiladi. Tahlildan maqsad etib soliq tushumlarining yillar bo'yicha dinamik yoki statistik holatiga baho berish, unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, asosiy va asosiy bo'lmagan, moliyaviy va nomoliyaviy ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqlik darajalarini aniqlash va shu kabilar belgilanishi mumkin, maqsaddan kelib chiqqan holda ma'lumotlar bazasi moslashtiriladi, sintez qilinib tahlilning tegishli metodlari tanlanib tahlil jarayoni amalga oshiriladi. Tahliliy bosqichda axborotlar va ko'rsatkichlarni ma'lum bir guruhlariga bo'lish orqali tahlilni amalga oshirish samara berishi mumkin. Bunda ko'rsatkichlarning davriyligi, ularning mazmunan yaqinligi, bog'lanish darajasi hamda shartli koeffitsientlarga aylantirish imkoniyatiga alohida e'tibor beriladi.

Ko'rsatkichlarning davriyligi nuqtai nazardan yondoshganda uzoq vaqt tegishli ma'lumotlarni joriy yil va yaqin yillar bilan taqqoslashda taqqosiy ko'rsatkichlardan foydalanish, turli xil obyektlarni baholashda shartli koeffitsientlarga aylantirish, bir biriga yaqin bo'lmagan ko'rsatkichlarni bog'lashda oraliq ko'rsatkichlarni qo'llashga ham ahamiyat berish talab etiladi. Soliqlarni prognoz qilish jarayonida tahliliy bosqichda moliyaviy va nomoliyaviy ko'rsatkichlar, miqdoriy va sifatiy ko'rsatkichlar alohida-alohida hamda ular birgalikda tahlil qilish ham zarur bo'ladi. Miqdoriy ko'rsatkichlar soliqlarni prognoz qilishning umumiy tendentsiyalarini izohlasa, sifatiy ko'rsatkichlar esa prognozning omillarini baholab berishga xizmat qiladi.

Miqdoriy ko'rsatkichlar prognoz jarayonida tez ta'sir etsa, sifatiy ko'rsatkichlarning prognoz jarayoniga ta'siri bevosita tarzda kechadi. Masalan, soliq to'lovchilar soni, moliyaviy natija-foyda yoki zararga ega bo'lganlar soni va shu kabilar soliq tushumlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi. Sifat ko'rsatkichlari esa miqdoriy ko'rsatkichlarga nisbatan tez o'zgaruvchan bo'lib, ularni baholash murakkab hisoblanadi. Miqdoriy va sifat ko'rsatkichlar o'zaro bog'liq holda prognoz natijalariga ta'siri ham turlicha bo'ladi. Ya'ni, soliq to'lovchilarning soni o'zgarmagan holda foyda oluvchilar soni o'zgarishi yoki foydaga ega bo'lgan soliq

to'lovchilarning olgan foyda hajmi o'zgarishi hisobiga soliq tushumlari oshishi mumkin, bu erda ko'rinadiki, miqdoriy ko'rsatkichlarga nisbatan sifat ko'rsatkichlarining ta'siri ko'proq bo'ladi. Demak, miqdoriy ko'rsatkichlar soliq tushumlariga ta'siri to'g'ridan-to'g'ri bo'lsada, uning hajmi esa sifat ko'rsatkichlarining o'zgarishiga bog'liq bo'ladi. Sifat ko'rsatkichlarining prognoz jarayonidagi ta'siri miqdoriy ko'rsatkichlarga bog'liq bo'lsada, shu bilan birgalikda ichki sifat ko'rsatkichlari ham katta ahamiyatga egadir. Masalan, yangi tashkil etilgan soliq to'lovchilar imtiyozga ega bo'lib, imtiyoz muddati tugagunga qadar faoliyatini tugatishi mumkin. Bundan ko'rinadiki, miqdoriy ko'rsatkichlar hamma vaqt ham soliq tushumlariga ta'sir qilmasligi mumkin.

5.3. Soliq tushumlarini tahlil qilish tartibi va metodlari

Respublikamiz soliq tizimida soliqlarni prognoz qilish jarayoni ham tahlil jarayoni bilan birga olib boriladi. Bu jarayonlarni tashkil etish maqsadida soliq xizmati organlarida maxsus bo'linmalar tashkil qilingan. Davlat soliq qo'mitasida «Byudjet va byudjetdan tashqari jang'armalarga to'lovlarni tahlil qilish va prognozlash boshqarmasi», viloyat Davlat soliq boshqarmalari va tuman(shahar) Davlat soliq inspeksiyalarida esa «Soliq va majburiy to'lov tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma'lumotlar bazasiga xizmat ko'rsatish bo'limi» mutaxassislari tomonidan soliq va majburiy to'lovlar tushumi bo'yicha tahlil ishlari bilan birga soliqlarni prognoz qilish jarayoni ham amalga oshiriladi. Bundan tashqari Davlat soliq qo'mitasida «Soliq solish metodologiyasi boshqarmasi» ham tashkil qilinganki, bu boshqarma tomonidan soliq tushumlarini tahlil qilish va uning prognozini amalga oshirishning metodologik yo'nalishlari ishlab chiqilib boriladi.

Soliq xizmati organlarida byudjet va byudjetdan tashqari davlat maqsadli fondlarga soliq tushumlarini tahlil qilish va prognoz qilish ierarxiyali tarzda, ya'ni tuman(shahar) Davlat soliq inspeksiyalari, viloyat Davlat soliq boshqarmalari hamda Davlat soliq qo'mitasi

kesimlarida ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Bunda tahlil va prognozlash ishlari bir xil tartibda va bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi. Dastlab tahlil va prognoz ishlari iqtisodiy statistika metodlarga asoslangan tahlili amalga oshiriladi. Keyingi bosqichda esa amalga oshirilgan tahlillar hamda mavjud iqtisodiy ko'rsatkichlardan kelib chiqib, turli xil metodlarni qo'llash natijasida byudjetlarga kelib tushishi kutilayotgan soliq tushumlarining hajmi hisob-kitob qilinadi. Soliq xizmati tizimida keyingi vaqtlarda soliq ishlarini tashkil etish va ularning tahlili hamda monitoringini amalga oshirish maqsadida 30 ga yaqin dasturiy mahsullar ishlab chiqilgan bo'lib, soliq tushumlarini tahlil qilish va prognoz ishlarini amalga oshirishda dasturiy mahsullar qo'llanilib kelinmoqda.

Ammo, soliq tushumlarini tahlil qilish va prognozlash ishlari murakkab jarayonlari bo'lganligi ham ularni amalga oshirishda mutaxassislar tomonidan tahlilning turli xil shakllaridan foydalanishni talab qiladi. Soliqlarni tahlil va prognoz qilish ishlari quyi bosqichda ya'ni, Davlat soliq inspeksiyalari kesimida dastlab tuman(shahar) bo'yicha kelib tushadigan soliq tushumlarini ikki guruhga bo'lib tahlil etiladi. Birinchi guruhga bevosita turli darajadagi byudjetlarda daromadlarni shakllantiruvchi, qolaversa, soliq bazasini aniqlash imkoni mavjud bo'lgan yuridik shaxslardan olinadigan foyda, daromad solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, aktsiz solig'i, mol-mulk solig'i va shu kabi soliqlar kiritilib ular bo'yicha soliq tushumlari va prognoz ko'rsatkichlarini aniqlash alohida amalga oshiriladi. Ikkinchi guruhda esa byudjet daromadlarini shakllanishida yuqori ulushni egallamaydigan soliqsiz to'lovlar va boshqa daromad manbalari kiritilib tahlil qilinadi.

Ta'kidlash kerakki, ba'zi hollarda tuman(shahar) miqyosida asosiy bo'lmagan daromad manbalarining yuzaga kelish va ularning dinamik o'zgarishi vaziyatdan kelib chiqib katta ahamiyat kasb etishi mumkin. Shu boisdan ham bunday daromad turlarining byudjetdagi ulushiga qarab emas, balki, ularning dinamik vaziyatda bo'lishiga ham e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Keyingi bosqichda esa yuqorida keltirib o'tilgan

moliyaviy, nomoliyaviy, miqdoriy, sifat hamda makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalangan holda tuman(shahar) miqyosida bevosita soliq inspeksiyasidagi mavjud ma'lumotlar hamda soliq to'lovchilarning soliq(moliyaviy) hisobotlarining ko'rsatkichlaridan foydalanib kompleks tahlil ishlari amalga oshirilib, umumiy va xususiy xulosalar olinadi. Tahlil jarayonida iqtisodiy va statistik tahlil jarayonida ko'p qo'llaniladigan mutloq o'zgarish darajasi, o'rtacha mutloq o'zgarish darajasi, o'zgarish sur'ati, qo'shimcha o'zgarish sur'ati, o'rtacha o'zgarish sur'ati kabi tahlil metodlaridan keng foydalaniladi.

Tahlil jarayonida mutloq o'zgarish darajasi $\Delta y_t = y_t - y_{t-1}$ (1) formulasini qo'llash orqali aniqlanadiki, bunda y_t vaqt qatorining $t(t=1,2,3,\dots,n)$ holatidagi qiymatlarini ifodalab, bazis davriga nisbatan obyektning(tushunning) mutloq hajmda o'zgarishi aniqlanadi va uning

$\Delta y_t = \frac{y_t - y_{t-1}}{n-1}$ (2) formulasi orqali uning o'rtacha mutloq o'zgarish darajasi aniqlanadi. Birinchisi miqdoriy ko'rsatkichni ifodalasa, keyingisi esa sifat ko'rsatkichni tavsiflaydi. Tushumlar va hisoblangan soliqlarning o'zgarish sur'atlarini esa

$T_t^p = \frac{y_t}{y_{t-1}} \cdot 100\%$ (3) formulasi yordamida aniqlaymiz. Byudjetga solikli va soliqsiz to'lovlar bo'yicha tushumlar va hisoblangan soliqlarning qo'shimcha o'zgarish darajasi

$T_t^{np} = \frac{y_t - y_{t-1}}{y_{t-1}} \cdot 100\% = T_t^p - 100\%$ (4) orqali aniqlansa, tushumlar va hisoblangan soliqlarning o'rtacha o'zgarish sur'ati

$\bar{T} = \sqrt[n]{T_2^p \cdot T_3^p \cdot \dots \cdot T_n^p} \cdot 100\% = \sqrt[n]{\frac{y_n}{y_1}} \cdot 100\%$

(5) formulasi orqali aniqladiki, bu erda $T_2^p \cdot T_3^p \cdot \dots \cdot T_n^p$ - alohida vaqt oralig'idagi o'zgarish sur'atlarini ifodalab, har bir vaqt qatorlari o'zidan oldingi qatordagi o'zgarishlarga bog'liq bo'ladi.

Tahlil jarayoni Davlat soliq boshqarmalari va Davlat soliq qo'mitasi darajasida ham qayd qilib o'tilgan formulalar va metodlarni qo'llagan holda amalga oshiriladi. Soliq tushumlarini tahlil qilishda tadqiq etilayotgan jarayonlarni turli xil o'lchov birliklarida baholashga to'g'ri keladi. Bunda esa albatta natural, pul va shartli o'lchov birliklari asosiy

rol o'ynaydi. Bu o'lchov ko'rsatkichlar mutloq(absolyut) o'zgarishlarni ifodalab, mutloq miqdorlar hisoblanadi, shu boisdan ular o'rganilayotgan hodisa yoki jarayonlarning rivojlanish tezliklarini ifodalab berolmaydi. O'z navbatida mutloq miqdorlar yakka tartibda(bitta qatordan iborat bo'lgan) va umumiy shaklda mavjud bo'ladi. Umumiy miqdorlar esa yakka miqdorlarning umumiy yig'indsidan iborat bo'ladi. Bu yerda shu narsaga e'tibor berish kerakki, natura va pul o'chov birliklarini tahlil osonroq kechadi, ammo, turli xil o'lchov birliklarini(qiymatsiz) yagona birlikka aylantirish uchun esa statistikada qo'llaniladigan shartli koeffitsientlarga aylantirish metodlari yoki aniqlangan koeffitsientlardan foydalanish lozim bo'ladi.

Ta'kidlanganidek, mutloq miqdorlar soliq tushumlarini to'laqonli tahlil qilish imkoniyatiga ega emas. Shu boisdan ham amaliyotda nisbiy ko'rsatkichlardan ham foydalaniladi. Nisbiy miqdorlar tahlil etilayotgan obyektning sifat belgilari asosida o'tgan davrlarga nisbatan nisbiy holatlarini izohlashga va aniqlashga yordam beradi. Soliq tushumlarini kompleks tarzda tahlil qilish uchun tuzilmaviy nisbiy miqdor, taqqoslama nisbiy miqdor, koordinatsiya nisbiy miqdor, reja topshirig'i nisbiy miqdori, reja bajarilishi nisbiy miqdori, dinamika nisbiy miqdori, intensiv nisbiy miqdori kabi turlaridan foydalaniladi.

Tuzilmaviy nisbiy miqdorlar tadqiqot obyekti tizimidagi element darajasining jamiga nisbatan salmog'ini tavsiflaydi. Bu ko'rsatkich quyidagicha aniqlanadi:

$$d_l = \frac{Y_l}{\sum_{i=1}^n Y_i} \quad \text{yoki} \quad d_l = \frac{Y_l}{\sum_{i=1}^n Y_i} \cdot 100\% \quad (6).$$

bu erda Y_l – to'plam birligi darajasi;

n – to'plamdagi birliklar soni.

Masalan, davlat byudjetiga yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, aktsiz solig'i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha 2020 va 2021 yillardagi har bir soliq turining tushumlarining hissasini aniqlash uchun ushbu tuzilmaviy nisbiy miqdorlardan foydalanish mumkin.

Davlat byudjetida soliqlar tushumlarining hajmi⁸⁹

No	Ko'rsatkichlar	2020 yil	2021 yil
1.	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i (mlrd.so'm).	28 670	38 363
2.	Qo'shilgan qiymat solig'i (mlrd.so'm).	20 485	25 572
3.	Aktsiz solig'i (mlrd.so'm).	10 839	12 779
4.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (mlrd.so'm).	15 141	18 918
5.	Byudjetga tushumlar, jami	102 566	127 867

Ushbu ma'lumotlardan foydalanib, yuqoridagi formulalar asosida soliq tushumlarining o'zgarish dinamikasini aniqlaymiz: Ya'ni,

$$2020 \text{ yil } d_1 = \frac{28\,670}{102\,566} \cdot 100 = 27,95\%, \quad d_2 = \frac{20\,485}{102\,566} \cdot 100 = 19,97\%, \dots\dots$$

$$2021 \text{ yil } d_1 = \frac{38\,363}{127\,867} \cdot 100 = 30\%, \quad d_2 = \frac{25\,572}{127\,867} \cdot 100 = 19,99\%, \text{ va shu tartibda davom ettiriladi.}$$

Taqqoslama nisbiy miqdorlar tahlil jarayonida turli to'plam yoki uning birliklari darajasi o'zaro taqqoslashda yordam beradi va u quyidagicha aniqlanadi:

$$T_{HM} = \frac{Y_a}{Y_b} \text{ yoki } T_{HM} = \frac{Y_a}{Y_b} \cdot 100 \quad (7).$$

Bu yerda Y_a - «a» birlik darajasi, Y_b - to'plamdan baza sifatida qabul qilingan birlik darajasi. Taqqoslama nisbiy miqdorlar alohida olingan hududlar, shuningdek davriy oraliqlar bo'yicha eng kichik bazisga nisbatan taqqoslanayotgan ko'rsatkichning darajasini marta yoki foizda aniqlab berishga xizmat qiladi. Masalan, 2020 yilda Toshkent

⁸⁹ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari.

shahri bo'yicha byudjetga soliq tushumlari 11 668 098 ming so'm, 2021 yilida esa 15 354 387 ming. so'mni tashkil etgan, shuningdek, shu davrlarda Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha mos holda 1 825 314,9 ming so'm va 1 789 834,7 ming so'mni tashkil etgan. Bu yerda ko'rinadiki, Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha tushum ko'rsatkichi eng kichik bazis hisoblanadi va Toshkent shahri ma'lumotlari Qoraqalpog'iston Respublikasi ko'rsatkichiga nisbatan taqqoslanadi. Yillar kesimida Toshkent shahri bo'yicha soliq tushumlari Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha tushumga qaraganda mos holda 2020 yilda $11\,668\,098 / 1\,825\,314,9 = 6,4$ marta va 2021 yilda $15\,354\,387 / 1\,789\,834,7 = 8,5$ martaga ko'p bo'lgan yoki ular foizda ham ifodalanish mumkin.

Soliq tushumlarini tahlil qilishning yana bir metodlaridan biri intensivlik nisbiy miqdori bo'lib, ushbu metod orqali turli, ammo, mazmunan bir-biriga yaqin bo'lgan hodisa va jarayonlarni o'zaro taqqoslanadi va o'rganilayotgan hodisa darajasini shu hodisani yuzaga kelishiga sabab bo'lgan hodisa darajasiga nisbati orqali aniqlanadi:

$$I_{NM} = \frac{Y^1}{Y} \text{ yoki } I_{NM} = \frac{Y^1}{Y} \cdot 100 \text{ yoki } I_{NM} = \frac{Y^1}{Y} \cdot 1000 \quad (8).$$

Bu yerda Y - berilgan hodisa darajasi, Y^1 - berilgan hodisa natijasida vujudga keladigan hodisa darajasi.

Shuningdek, soliq tushumlarini tahlil qilish jarayonida reja topshirig'i nisbiy miqdori ((P_T) - joriy davrda rejalashtirilayotgan daraja ((D_{PT}))ni o'tgan davr haqiqiy darajasi ((D_0))ga nisbati orqali aniqlanadi), reja bajarilishi nisbiy miqdori (joriy davrda erishilgan natijaning mutlaq darjasi ((D_1))ni reja topshirig' mutloq darajasi ((D_{PT}))ga nisbati orqali aniqlanadi), dinamika nisbiy miqdori (turli davrga (vaqtga) tegishli mutlaq miqdorlarning bir-biriga nisbati orqali aniqlanadi) kabi metodlardan ham foydalaniladi. Bu yerda reja topshirig'i nisbiy miqdori reja topshirig'ining avvalgi davrdagi holatga nisbatan qanday bajarilganligini ifodalasa, reja bajarilishi nisbiy miqdori esa reja topshirig'i qanday bajarilganligini izohlaydi, o'z navbatida dinamik nisbiy miqdori hodisalarnin vaqt bo'yicha rivojlanishini tavsiflaydi.

Keltirib o'atilgan tahlil metodlari asosan ko'proq miqdoriy tavsiflash xususiyatiga ega bo'lib, ular foydalanish qulay bo'lsada, ammo, sifat ko'rsatkichlarni izohlay olmaydi, ya'ni tahlilning vaqt qatorlaridan o'rin olgan o'zgarishlarning o'zaro bog'liqligi va ularning aks ta'sirini to'liq ifodala olmaydi. Shu boisdan tahlil jarayonida hodisa va jarayonlarni dinamik qatorlarining bog'liqligi yondoshuviga asoslangan tahlil metodlardan ham foydalaniladi. Bunda xronologik ko'rsatkich(sanalar, yillar, oylar) va miqdoriy ko'rsatkichlar(soliq to'lovchilar soni, tadqiqot obyekti soni, tushumlar hajmi va shu kabilar)dan foydalaniladi. Bular ayniqsa davlat byudjeti va hududlarning byudjet daromadlarini tahlil qilishda absolyut o'sish sur'ati, o'sish tezligi kabi jarayonlarini tahlil qilishda keng foydalaniladi. Dinamik qator ko'rsatkichlarini aniqlashdan maqsad uning darajalarini o'zaro taqqoslash hisoblanib, bunda mutloq hamda zanjirli bazislar asosida amalga oshirish osonroq kechadi. Bunda mutloq bazis yordamida tahlil qilinganda barcha ko'rsatkichlar tanlab olingan bazis ko'rsatkich bilan taqqoslanadi. Dinamik qatordan joy olgan har bir ko'rsatkich esa o'zidan oldingi qatordagi ko'rsatkich bilan solishtirilib boriladi va uning o'zgaruvchanligi aniqlanadi.

Soliqlarni tahlil qilish jarayonida dinamik qatorning ikki darajasini eng birinchi o'lchov birliklarida solishtirish orqali uning mutloq o'sishini bazisli va zanjirli tartibda yuz berayotganligini aniqlash ham katta ahamiyatga egadir. Bazisli absolyut o'sish Δ_{6i} – taqqoslanayotgan y_i daraja va doimiy bazis sifatida tanlangan y_{0i} darajalarining farqi sifatida aniqlansa, zanjirli absolyut o'sish esa Δ_{qi} – taqqoslanayotgan y_i daraja bilan undan oldingi y_{i-1} daraja o'rtasidagi farqqa teng bo'ladi. Agar, absolyut o'sish manfiy qiymatga ega bo'lsa, bu o'rganilayotgan darajaning bazis darajaga nisbatan qanchalik kamayganligini ko'rsatadi.

Quyida O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga soliq tushumlarining oxirgi o'n yillik ko'rsatkichlariga asoslangan holda soliq tushumlarining mutloq o'sishining bazisli va zanjirli holati va uning tezlanish darajalarining tahlili keltirilgan (7-jadval).

**O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining soliqli
tushumlarining bazisli va zanjirli o‘shish sur‘atlarining tahlili⁹⁰**

Yillar	Byudjet daromadlari (mlrd. So‘m)	Bazisli mutloq o‘shish (mln. so‘m)	Zanjirli mutloq o‘shish (mlrd. So‘m)	Mutloq Tezlanish (mlrd. So‘m)	Nisbiy tezlanish. (koeffitsient)	Zanjirli o‘shish sur‘ati (%)	Zanjirli o‘shish tezlanishi, (%)	% o‘shishni mutloq qiyinlari (mlrd. So‘m)	Tezlanish sur‘ati
	1	2	3	4	5	6	7	8	9
005	3433,5	-	-	-	-	-	-	-	-
006	4148,4	714,9	714,9	-	-	120,8	20,8	34,3	0,20821
007	6145,0	2711,5	1996,6	1281,7	2,79283	148,1	48,1	41,4	0,58150
008	8760,8	5327,3	2615,8	619,2	1,31012	142,6	42,6	61,4	0,76184
009	10840,2	7406,7	2079,4	-536,4	0,79493	123,7	23,7	87,6	0,60562
010	13596,7	10163,2	2756,5	677,1	1,32562	125,7	25,7	135,9	0,80282
011	17061,3	13627,8	3464,6	708,1	1,25688	125,4	25,4	170,6	1,00905
012	21295,6	17862,1	4234,3	769,7	1,22216	124,8	24,8	212,9	1,23323
2013	26223,0	22789,5	4927,5	693,2	1,16371	123,1	23,1	262,2	1,43512
2014	31729,6	28296,1	5506,6	579,1	1,11752	121,0	21,0	317,2	1,60378
2015	36493,3	33059,8	4763,7	-742,9	0,86508	115,0	15,0	364,9	1,38741
2016	41043,4	37609,9	4550,1	-213,6	0,95516	112,4	12,4	410,4	1,32520

Bizning misolimizda bazisli absolyut o‘shish bu 2005-2016 yillardagi byudjetga soliq tushumlarining har yilgi ko‘rsatkichlarini bazis yili, ya‘ni 2005 yilgi ko‘rsatkichlarining farqi aniqlanadi. Ya‘ni 2006 yilgi bazisli mutloq o‘shish (4148,4-3433,5)714,9 ga teng va shu tartibda keyingi yillarga tegishli ko‘rsatkichlar aniqlab chiqiladi. Bu yerda esa 2005 yilning ko‘rsatkichi (3433,5) bazis ko‘rsatkichi bo‘lib hisoblanadi.

Zanjirli absolyut o‘shish esa, bazisli mutloq o‘shish ko‘rsatkichlarining ketma-ketlikdagi yillarga tegishli ko‘rsatkichlarining farqi sifatida aniqlanadi. Buni javdaldagi ma‘lumotlar asosida aniqlaydigan bo‘lsak, 2006 yilga tegishli bazisli o‘shish ko‘rsatkichi (2711,5-714,9) 1996,6 ga, ya‘ni 2007 va 2006 yillardagi mutloq o‘shish ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi farqqa teng. Mutloq tezlanish ko‘rsatkichi esa zanjirli mutloq o‘shishning farqiga teng bo‘ladi. 2007 yilga tegishli mutloq tezlanish ko‘rsatkichi esa 2007 va 2006 yilgi zanjirli mutloq o‘shish ko‘rsatkichlarining farqi (1996,6-714,9=1281,7)dan iborat bo‘ladi. Shuningdek,

⁹⁰ O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma‘lumotlari muallif tomonidan hisoblab chiqilgan.

tahlil jarayonida nisbiy tezlanish darajasini ham aniqlash lozim bo'ladi. O'z navbatida nisbiy tezlanish esa, mutloq tezlanish ko'rsatkichidan farqli ravishda zanjirli mutloq o'sish ko'rsatkichlarining nisbati sifatida aniqlanadi. Misolimizda esa bu ko'rsatkich 2007 yilda 2,79283 koeffitsientiga teng bo'lib, u 2007 yilga tegishli zanjirli mutloq o'sish ko'rsatkichini 2006 yilgi ko'rsatkichga bo'lish orqali aniqlangan. Zanjirli o'sish sur'ati esa, har birga tegishli byudjet daromadlarining ko'rsatkichini o'zidan oldingi yilgi (qator) ko'rsatkichiga bo'lish orqali aniqlanadi.

Zanjirli bog'lanishda uning tezlanish darajasini ham aniqlash lozim. Zanjirli o'sish tezlanishi esa zanjirli o'sish sur'atining 100 dan oshgan qismini ifodalaydi. Bu ko'rsatkich 2006 yilda 20,8 foiz, 2007 yil 48,1 foiz va shu tartibda 2016 yil esa 12,4 foizni tashkil etgan. Bunday tahlildagi oxirgi bosqichlardan bir bu tezlanish sur'ati bo'lib, zanjirli mutloq o'sish ko'rsatkichlarining bazis yilidagi byudjet daromadlari ko'rsatkichi nisbatiga teng bo'ladi. Jadval misolida bazis ko'rsatkichi bu byudjet daromadlarining 2005 yilga tegishli ko'rsatkichi bo'lib, keyingi, ya'ni 2006 yildan boshlab ketma-ketlikda yillarga tegishli zanjirli mutloq o'sish ko'rsatkichlari ana shu bazis ko'rsatkichiga bo'lib boriladi. Bu ko'rsatkichlar soliqlarni tahlil qilish jarayonidagi ahamiyati shundaki, ularning darajalari dinamik qatorlar bo'yicha o'zgarishlarning holati va o'zgarish sabablarini aniqlashga imkon beradi, qolaversa, vaqt qatorlari bo'yicha bog'liqliklarning o'zaro ta'sirini ham ifodalashga yordam beradi.

Zanjirli absolyut o'sish esa bazisli mutloq o'sish ko'rsatkichlarining ketma-ketlikdagi yillarga tegishli ko'rsatkichlarining farqi sifatida aniqlanadi. Buni javdaldagi ma'lumotlar asosida aniqlaydigan bo'lsak, 2006 yilga tegishli bazisli o'sish ko'rsatkichi (2711,5-714,9) 1996,6 ga, ya'ni 2007 va 2006 yillardagi mutloq o'sish ko'rsatkichlari o'rtasidagi farqqa teng. Mutloq tezlanish ko'rsatkichi esa zanjirli mutloq o'sishning farqiga teng bo'ladi. 2007 yilga tegishli mutloq tezlanish ko'rsatkichi esa 2007 va 2006 yilgi zanjirli mutloq o'sish ko'rsatkichlarining

farqi(1996,6-714,9=1281,7)dan iborat bo'ladi. Shuningdek, tahlil jarayonida nisbiy tezlanish darajasini ham aniqlash lozim bo'ladi. O'z navbatida nisbiy tezlanish esa mutloq tezlanish ko'rsatkichidan farqli ravishda zanjirli mutloq o'sish ko'rsatkichlarining nisbati sifatida aniqlanadi. Misolimizda esa bu ko'rsatkich 2007 yilda 2,79283 ko'effitsientiga teng bo'lib, u 2007 yilga tegishli zanjirli mutloq o'sish ko'rsatkichini 2006 yilgi ko'rsatkichga bo'lish orqali aniqlangan. Zanjirli o'sish sur'ati esa har birga tegishli byudjet daromadlarining ko'rsatkichini o'zidan oldingi yilgi(qator) ko'rsatkichiga bo'lish orqali aniqlanadi. 2006 yilda bu ko'rsatkich $(4148,4/3433,5 * 100)$ 120,8 foiz ko'rsatkichiga teng bo'lgan.

Zanjirli bog'lanishda uning tezlanish darajasini ham aniqlash lozim. zanjirli o'sish tezlanishi esa zanjirli o'sish sur'atining 100 dan oshgan qismini ifodalaydi. Bu ko'rsatkich 2006 yilda 20,8 foiz, 2007 yil 48,1 foiz va shu tartibda 2014 yil esa 21,0 foizni tashkil etgan. Bunday tahlildagi oxirgi bosqichlardan bir bu tezlanish sur'ati bo'lib, zanjirli mutloq o'sish ko'rsatkichlarining bazis yilidagi byudjet daromadlari ko'rsatkichi nisbatiga teng bo'ladi. Jadval misolida bazis ko'rsatkichi bu byudjet daromadlarining 2005 yilga tegishli ko'rsatkichi bo'lib, keyingi, ya'ni 2006 yildan boshlab ketma-ketlikda yillarga tegishli zanjirli mutloq o'sish ko'rsatkichlari ana shu bazis ko'rsatkichiga bo'lib boriladi. Bu ko'rsatkichlar soliqlarni tahlil qilish jarayonidagi ahamiyati shundaki, ularning darajalari dinamik qatorlar bo'yicha o'zgarishlarning holati va o'zgarish sabablarini aniqlashga imkon beradi, qolaversa, vaqt qatorlari bo'yicha bog'liqliklarning o'zaro ta'sirini ham ifodalashga yordam beradi.

7-jadvaldagi ma'lumotlar bazis yili va undan keyingi yillarda Davlat byudjetining bazisli mutloq ko'rsatkichlari(daromadlari) doim o'sib borganligini ko'rsatadi. Tahlil qilingan yillar oralig'ida mutloq o'sishning o'rtacha darajasi $(\sum_{m.o'sish} / \text{yillar soni} = 108899,1/9)$ 12099,9 mlrd.so'mni tashkil etgan bo'lsa, o'rtacha mtloq o'sish miqdori esa $(\sum_{zanjirli.m.o'sish} / \text{yillar soni} = 28296,2/9)$ 3144,0 mlrd.so'mga teng

bo'lgan. O'z navbatida o'rtacha o'sish (1115/9) 128,3 foizni tashkil etib, uning o'sish tezlanishi esa 28,3 foizga teng bo'lgan. Bu ko'rsatkichlar Davlat byudjetiga soliq tushumlari bo'yicha o'rtacha daromadlarning tushishi 12099,9 mlrd.so'mni tashkil etayotib, uning miqdori har yili o'rtacha 31444,0 mlrd.so'mga oshib borayotganligi va o'sish sur'ati esa 28,3 foizni tashkil etayotganligini izohlaydi. Shuningdek, jadval ma'lumotlari zanjirli mutloq o'sish ko'rsatkichlari esa dinamik holatla buzilish bo'lganligini ko'rsatadi, agar jadvalga qaraydigan bo'lsak, 2009 yilda past darajaga ega bo'lgan va mutloq tezlanish ko'rsatkichi manfiy ko'rsatkichni tashkil qilganligini ko'rsatadi.

5.4. Soliqlarni prognoz qilishning bosqichlari va amalga oshirilish tartibi

Soliqlarni prognoz qilish jarayonini amalga oshirish ma'lum bir ierarxiyali tartibda ma'lum bir bosqichlarda amalga oshirilishni taqozo qiladi. Bunda yuqorida aytib o'tilganidek, prognoz jarayonini axborot bilan ta'minlovchi tegishli vakolatli organlar bilan birgalikda moliya-kredit organlari(moliya, soliq, g'aznachilik, bojxona) tomonidan bevosita jarayonni amalga oshirishga kirishiladi. O'zbekiston byudjet-soliq tizimi tuzilishi va uning qurilishiga qaraydigan bo'lsak, davlat byudjetining solikli daromadlari(jumladan boshqa majburiy to'lovlar) quyidagi tartib va bosqichlarda amalga oshiriladiki, biz bu bosqichlarni shartli ravishda etti bosqichga bo'ldik.

Birinchi bosqich. Bunda Moliya vazirligi va uning organlari tomonidan respublika, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlari hamda tuman (shahar) mahalliy byudjetlari bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari aniqlanadi. Respublika byudjeti bo'yicha kutilayotgan daromadlar hajmi byudjet tasnifida belgilangan daromad turlarining tegishli kodlari bo'yicha tuman(shahar) G'aznachiligi bo'linmalari(davlat soliq xizmati organlaridan olgan ma'lumotlarga asosan) hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona

qo'mitasi tomonidan olinadigan ma'lumotlar bazasida aniqlanadi. Ya'ni, tegishli tuman(shahar) davlat soliq inspeksiyasi tomonidan aniqlangan tushumlar bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari «__ yil _____ oyi uchun respublika byudjetiga kutilayotgan daromadlar tushumi to'g'risidagi TEZKOR ma'lumot»da aks ettirilib tegishli pog'onadagi G'aznachilik bo'linmalariga har oyning 3 sanasiga qadar taqdim qilinadi. Davlat bojxona qo'mitasi ham xuddi shu tartib va shaklda ma'lumotlarni taqdim qilinadi (8-jadval)

8-jadval.

20__ yil _____ oyi uchun tuman (shahar) bo'yicha Davlat byudjetiga
kutilayotgan daromadlar tushumi to'g'risidagi

TEZKOR MA'LUMOT

(Mln. so'mda)

№	Bo'lim	ob	Daromadlar nomi**	Summasi
1.				
2.				
3.				
....				
			JAMI DAROMADLAR	

Davlat soliq xizmati organi rahbari

_____ (imzo)

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlari bo'yicha daromadlar prognozi esa Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar moliya boshqarmalari tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bo'yicha G'aznachilik boshqarmalari bilan birgalikda ularning o'zlaridagi mavjud ma'lumotlar hamda tuman(shahar) davlat soliq inspeksiyalari tomonidan G'aznachilik bo'linmalariga taqdim

qilingan byudjet tasnifida belgilangan daromadlar turlari kesimida «20__ yil _____ oyi uchun tuman (shahar) bo'yicha Davlat byudjetiga kutilayotgan daromadlar tushumi to'g'risidagi tezkor ma'lumot» asosida har ikki oyda bir marta aniqlanadi (jadval).

9-jadval.

20__ yil _____ oyi uchun respublika byudjetiga kutilayotgan
daromadlar tushumi to'g'risidagi
TEZKOR MA'LUMOT

Mln. so'mda

Nº	Bo'lim	Paragraf	Daromad turi	Daromadlar nomi	Summasi
1.					
2.					
3.					
.....					
				Jami daromadlar	

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi

M.O'.

(imzo)

Tuman (shahar) mahalliy byudjetlari miqyosida ham prognoz ko'rsatkichlari yuqoridagi tartib asosida, ya'ni hududiy moliya organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligining tuman (shahar) bo'linmalari bilan birgalikda ularning hamkorlikdagi tayyorlaydigan «____viloyati (tuman (shahar) byudjetiga 20__ yil __ oyi uchun daromadlar tushumi prognozi» ma'lumotlari asosida hamda joylardagi tegishli davlat soliq xizmat organlari tomonidan olinadigan «20__ yil __ oyi uchun tuman (shahar) bo'yicha Davlat byudjetiga kutilayotgan daromadlar tushumi to'g'risidagi tezkor ma'lumot»ga asosan aniqlanadi.

_____ viloyati (tuman (shahar)) byudjetiga
 20__ yil _____ oyi uchun daromadlar tushumi
PROGNOZI

Mln.so'mda

№	Bo'lim	Paragraf	Daromad turi	Daromadlar nomi	Summasi
1.					
2.					
....					
				Jami daromadlar	

Moliya organi rahbari

(imzo)

G'aznachiligi bo'linmasi rahbari

(imzo)

Albatta bu jarayonda byudjetga kutilayotgan tushumlarning prognoz oyi uchun umumiy summalarining hisob-kitobida tuman (shahar) soliq inspeksiyasi va tegishli G'aznachilik bo'linmalari prognoz davrida tushmay qolishi mumkin bo'lgan bir martalik (doimiy bo'lmagan) tushumlarni e'tiborga olishi zarur bo'ladi. Bunday tushumlar jumlasiga fermer xo'jaliklariga Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo'jalik mahsulotlarining hisob-kitob Jamg'armasi tizimi bo'yicha yo'naltiriladigan maqsadli transh mablag'lar; O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining tashqi savdo kompaniyalaridan «O'zpxatasanoat» uyushmasi korxonalariga tushadigan mablag'lar; «O'zbekneftgaz» milliy xolding kompaniyasi korxonalari valyuta tushumining qisman sotuvidan tushadigan mablag'lar; byudjet tashkilotlarining tovar (ish, xizmat)lar etkazib beruvchilar oldidagi kreditor qarzdorlikni to'lash uchun tushadigan markazlashgan mablag'lar; bir martalik tusga ega boshqa turdagi tushumlar kiradiki, bu turdagi daromadlar aniqlansa, u holda tuman (shahar) soliq inspeksiyasi kutilayotgan tushumlarda inobatga olinmagan, bir martalik tusga ega tushumlar tushganda, tuman (shahar)

G'aznachilik bo'linmalariga ilgari taqdim qilingan, kutilayotgan tushumlar to'g'risidagi ma'lumotlarga o'zgartirish kiritishi mumkin.

Ikkinchi bosqich: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi yili 15 aprelga qadar O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi va boshqa vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda idoralardan Davlat byudjeti loyihasining daromad qismi bo'yicha takliflar so'raydi.

Uchinchi bosqich: O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi va boshqa vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda idoralar Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari daromadlarining prognozi bo'yicha takliflarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga va davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlarga — joriy yilning 15 iyunigacha taqdim etadi.

To'rtinchi bosqich: Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar byudjet so'rovi bilan bir vaqtda tegishli byudjetlar va davlat maqsadli jamg'armalari daromadlarining kelgusi davr uchun prognozlarini taqdim etadi.

Beshinchi bosqich: O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi va boshqa vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda idoralarning Davlat byudjeti loyihasining daromad qismi bo'yicha takliflarini ko'rib chiqish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.


Oltinchi bosqich: Tumanlar va shaharlar byudjetlarining loyihalari tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo'limlari tomonidan: daromadlar bo'yicha — Davlat byudjetiga kiritiladigan daromadlar prognoziga doir takliflar hamda davlat soliq inspeksiyalari, hokimliklarning bo'limlari va davlat boshqaruvi organlarining boshqa tuman hamda shahar bo'linmalari tomonidan ma'muriy-hududiy birlik iqtisodiyotini rivojlantirishning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognoziga muvofiq taqdim etiladigan axborot asosida, Qoraqalpog'iston

Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining loyihalari Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari tomonidan: daromadlar bo'yicha — Davlat byudjetiga kiritiladigan daromadlar prognoziga doir takliflar hamda davlat soliq boshqarmalari va hokimliklarning boshqarmalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat boshqaruvi organlarining bo'linmalari tomonidan ma'muriy-hududiy birlik iqtisodiyotini rivojlantirishning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognoziga muvofiq taqdim etiladigan axborot asosida amalga oshiriladi.

Ettinchi bosqich: Agar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar hokimliklari va davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar tegishli byudjetlar va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari daromadlari hamda xarajatlarining prognozlari asossiz ravishda pasaytirilgan yoki oshirilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga byudjet so'rovlari olinganidan keyin o'n ish kuni ichida yozma bildirish taqdim qiladi.

Shuningdek, Moliya vazirligi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va Davlat bojxona qo'mitasiga, Hududiy moliya organlari esa tegishli ma'muriy-hududiy birliklarga Davlat byudjeti daromadlari prognozini har chorakda etkazadi. Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining loyihasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari va moliya yili uchun mo'ljallangan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi asosida tuziladi.

Davlat byudjetiga soliq tushumlarini prognoz qilishning oxirgi bosqichida Moliya vazirligi tomonidan tahliliy ishlar amalga oshirilib, byudjet tashkiloti, byudjet mablag'lari oluvchi va byudjet mablag'larini taqsimlovchilardan taqdim qilingan o'tgan yilda erishilgan natijalar va joriy yilda kutilayotgan natijalar to'g'risidagi tahliliy hisobot ma'lumotlaridagi holatni e'tiborga olingan holda milliy iqtisodiyotning rivojlantirishning prognoz ko'rsatkichlari bilan taqqoslanadi va byudjetnomaga kiritish uchun eng so'ngi variant tayyorlanadi.



19-rasm. O'zbekiston byudjet-soliq tizimida soliq (byudjet daromadini) prognozining ishlab chiqilish va amalga oshirilish jarayoni.

Byudjetnoma esa O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksiga muvofiq(96modda) erishilgan natijalar hisobga olingan holda mamlakatni kelgusi davr uchun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini nazarda tutadigan hujjat bo'lib, ushbu yo'nalishlar asosida Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining loyihalari shakllantiriladi. Byudjetnomada mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning o'tgan yilgi asosiy yakunlari va mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning joriy yilgi yakunlarining prognoz bahosi, Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi, Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari joriy yildagi ijrosining prognoz bahosi, soliq va byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlari loyihasi, Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining loyihasi, davlat qarzining holati to'g'risidagi ma'lumotlar va soliq va byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlari, O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining loyihasiga doir tushuntirish xati aks ettiriladi. Byudjetnoma tegishli tartibda qonunchilik palatalari tomonidan ko'rib chiqilib tasdiqlangandan so'ng joriy yilga mo'ljallangan soliqlarni prognoz qilish jarayoni yakunlangan hisoblanadi.

Tayanch so'z va iboralar:

Soliqlarni prognoz qilishning maqsadi, vakolatli organlar, axborot manbalari, axborotlarni qayta ishlash, soliqlarni prognoz qilishga tayyorgarlik bosqichlari, sifatiy ko'rsatkichlar, miqdoriy ko'rsatkichlar, oraliq ko'rsatkichlar, moliyaviy ko'rsatkichlar, nomoliyaviy ko'rsatkichlar, axborotlarni guruhlash, iqtisodiy tahlil, ekonometrik tahlil, miqdoriy tahlil, mutloq o'zgarish darajasi, soliqlarning o'rtacha o'zgarish sur'ati, mutloq miqdorlar, tuzilmaviy nisbiy miqdor, taqqoslama nisbiy miqdor, koordinatsiya nisbiy miqdor,

reja topshirig'i nisbiy miqdori, reja bajarilishi nisbiy miqdori, dinamika nisbiy miqdori, intensiv nisbiy miqdori, eng kichik bazis, dinamik qatorlar, bazisli va zanjirli o'sish, bazisli absolyut o'sish.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Soliqlarni prognoz qilishning maqsadi qanday aniqlanadi?
2. Soliqlarni prognoz qilish jarayonining huquqiy asoslari nimalardan iborat?
3. Soliqlarni prognoz qilishning axborot manbalari qanday gurhlanadi?
4. Soliqlarni prognoz qilishning axborot manbalari qayta ishlash qanday amalga oshiriladi?
5. Soliq tushumlarini tahlil qilishning qanday metodlarini bilasiz?
6. Soliq tushumlarining miqdoriy tahlili deganda nima tushuniladi?
7. Soliq tushumlarini tahlil qilishda sifat ko'rsatkichlarga nimalar kiradi?
8. Soliqlarni prognoz qilish uchun zarur bo'ladigan oraliq ko'rsatkichlarga nimalar kiradi?
9. Soliqlarni prognoz qilish jarayonida moliyaviy ko'rsatkichlarining ahamiyatini aytib bering.
10. Nomoliyaviy ko'rsatkichlarga qaysi ko'rsatkichlar kiradi?
11. Bazisli absolyut o'sish qanday aniqlanadi?
12. Soliq tushumlari tahlilida nisbiy tezlanish qanday aniqlanadi?
13. Zanjirli mutloq o'sish sur'ati tahlil jarayonida nimani ifodalaydi?
14. Mutloq tezlanish ko'rsatkichining mohiyatini tushuntirib bering.
15. Davlat byudjetining solikli daromadlarini prognoz qilishning bosqichlarni izohlab bering.
16. Soliqlarni prognoz qilish jarayonida Davlat soliq xizmati organlarining ishtirokini izohlang.

6-BOB. SOLIQ SALOHIYATI VA UNI BAHOLASH

6.1. Soliq salohiyatining mohiyati va ahamiyati

Avvalgi boblarda ta'kidlagimizdek, soliqlarni prognoz qilishning asosida soliq salohiyatni aniqlash yotadi. Soliq salohiyatini to'g'ri aniqlash esa byudjetga soliq tushumlarining kelib tushishini aniqlashda eng muhim baza bo'lib hisoblanadi. Soliq salohiyati ham soliqni prognoz qilish kabi murakkab iqtisodiy jarayon hisoblanadi. Soliq salohiyati iqtisodiy munosabatlar makonida mavjud bo'lib, u o'zida daromadlarning begonalashuvini darajasining hajmini ko'rsatib berishga xizmat qiladi va moliyaviy resurslarning hajmini, ularning shakllanishi va taqsimlanishi tartiblarini o'zida aks ettiradi. Soliq salohiyatni aniqlash prognoz ko'rsatkichlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etishi bilan birgalikda u hududlar bo'yicha byujdejtlararo munosabatlarni tartiblashda ham muhim vosita bo'lib xizmat qiladi, hududning salohiyatiga qarab subventsiya, ssudalarni taqsimlash mexanizmlarini shakllantirish mumkin. U orqali hududning rivojlanish ko'rsatkichlari va u orqali hududiy yalpi ichki mahsulotni davlat va uni yaratuvchilar o'rtasida taqsimlashning me'yorlarini ifodalaydi(aniqlab beradi).

Soliq salohiyatining oldiga qo'yiladigan vazifalarni aniqlash uning yo'nalishlari va mohiyatini ochishda o'z o'rniga ega. *Soliq salohiyati quyidagi vazifalarni bajaradi:*

- takror ishlab chiqarish jarayonidagi nisbat munosabatlarni muvofiqlashtiradi(qayta bir-biriga moslaydi);
- iqtisodiyotda soliq yukining darajasini optimallashtiradi;
- soliqlarni rejalashtirish va prognozlashtirishning holatini baholashga xizmat qiladi;
- soliqqa tortish va uning tarkibini aniqlashga yordam beradi;
- soliq siyosatining yo'nalishlarini ishlab chiqishga yo'nalish beradi;

➤ hududlarni rivojlantirish va moliyaviy resurslarni boshqarishning kompleks tadbirlarni ishlab chiqishga undaydi va yordam beradi;

➤ alohida olingan obyekt doirasida davlat byudjeti bo'yicha soliq majburiyatlarini bajarishning mexanizmlarini ishga soladi;

➤ moliyaviy resurslarning hududlar kesimidagi oqimi va ulardan samarali foydalanish yo'llarini ko'rsatib beradi;

➤ korxonalarining moliyaviy va hisob siyosatini ishlab chiqishning muhim parametrlarini ko'rsatib beradi;

➤ alohida olingan subyektlar doirasida resurslardan samarali foydalanganlik darajasi va ularni optimal joylashtirishni ko'rsatib beradi;

➤ byudjet tizimi doirasida byudjetlararo tartibga solishda muhim instrument sifatida uning samarali yo'llarini ko'rsatib beradi va shu kabilar.

Soliqlarni prognoz qilish va rejalashtirish metodologiyasida soliq salohiyati muhim rol o'ynaydi. Soliq salohiyatini obyektiv baholash turli darajadagi byudjetlarni tuzishda ham asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Albatta uni ham oddiy yo'llar bilan aniqlash qiyin. Bu yerda gap matematik hisoblash haqida emas, uning umumiy chegarasini aniqlash haqida gap ketayapti, ya'ni soliqqa tortish jarayonida soliq bazasini aniqlash soliqlarni to'g'ri hisoblashning eng muhim sharti va bosqichi hisoblansa, soliq salohiyati ham soliqlarni prognoz qilish jarayonidagi o'rni xuddi soliq bazasi singaridir. Soliq salohiyatining shakllanishi va uning dinamik o'zgarishiga ham turli omillar ta'sir qiladi, bunday omillarning ta'sirini baholash zarurati ham soliq salohiyatini aniqlash jarayoni murakkab tahlil va hisob-kitoblarni talab qilishni anglatadi.

Agar o'zbek tilining izohli lug'atiga qaraydigan bo'lsak, salohiyat tushunchasiga «Salohiyat-imkoniyatlar, kuch-qudrat darajasi, foydalanish mumkin bo'lgan vositalar, resurslar majmui; namoyon bo'lishi, foydalanishi mumkin bo'lgan bo'lgan, ammo ryobga chiqmagan salohiyat imkoniyatlar, salohiyat energiya»⁹¹ degan mazmunda talqin

⁹¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. Moskva. "Rus tili" nashriyoti, 1981 yil, 600 bet.

etilgan bo'lsa, O'zbekiston milliy entsiklopediyasida esa «Salohiyat (lot. potentia — salohiyat) — biror vazifani hal etish va ko'zlangan maqsadga erishishda foydalaniladigan manba, imkoniyat, mablag', zaxiralar; ayrim shaxs, jamiyat, davlatning muayyan sohadagi salohiyatlari (masalan, iqtisodiy salohiyat)» deb ta'rif berilgan.⁹² Agar rus tilining izohli lug'atiga⁹³ ham e'tibor beradigan bo'lsak, unda ham salohiyat tushunchasini vositalar yig'indisi, kuch-qudrat darajasi, imkoniyatlar kabi ma'nolarni anglatishi qayd etilgan. Salohiyat tushunchasining xalqaro lug'aviy ma'nosi esa ««potentia - kuch» degan ma'noni beradi. Bulardan ko'rinadiki, salohiyat avvalo imkoniyat, foydalanish mumkin bo'lgan vosita va jarayonlardir, bu uch xususiyat tabiat va jamiyatdagi barcha jarayon va hodisa hamda munosabatlarga tegishli bo'lib, ularning bu xususiyatlarini aniqlash esa ulardan samarali foydalanish va oqilona boshqarish imkoniyatini yaratadi. Demak, salohiyatni iqtisodiy nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, iqtisodiy salohiyat tizim sifatida o'zida moliyaviy, resurs, ishlab chiqarish, iste'mol, investitsiya va shu kabi salohiyatlarni o'z ichiga oladi.

Professor N.Gromova iqtisodiy salohiyatni tarkibiga ilmiy-texnikaviy, sanoat-ishlab chiqarish, agrosanoat majmuasi va sotsial rivojlanish salohiyatlarga bo'lsa,⁹⁴ professor T.F.Yutkina esa iqtisodiy salohiyatni davlat, korporativ xususiy xo'jaliklarning moliyaviy faoliyati davomida yuzaga keladigan mulkning baholash qiymati, kapitalning o'sishi, aholi jamg'armasi, tabiiy-xom ashyo resurslarning integrallashgan qiymati sifatida baholaydi.⁹⁵

Iqtisodiyotda uning tarkibiy elementlari bir tizimi sifatida amal qilishi, ularning har birining salohiyat darajasiga boshqalariga bog'liq bo'ladi, bu tabiiy qonuniyat, shu bilan birgalikda ularning salohiyat ko'rsatkichlari avvalo ularning ichki xususiyatlaridan kelib chiqadi.

⁹² Biz bu erda potentsial tushunchasiga iqtisodiy ma'nosi nuqtai nazardan yondoshdik. Ammo, uning fizik ma'nosi ham mavjud.

⁹³ Qarang: Потенциал // Словарь русского языка: 70000 слов / Под ред. Н.Ю. Шведовой. 22-е изд. стер. М.: Рус.яз., 1990.

⁹⁴ Громова Н.М. Основы экономического прогнозирования. Издательство "Академия естественных наук". 2006 год, 87-88с.

⁹⁵ Юткина Т.Ф. Налоги и налогообложение: Учебник, 2-е изд., перераб. и доп. М.: ИНФРА-М, 2002, 124 с.

Omillar ta'sirida uning darajasi dinamik holatda davom etadi. Shu bilan birgalikda ular orasida o'zaro yaqinlikdagi salohiyatlar ham mavjud bo'ladi, ular biri-birini to'ldirib turadi. Moliyaviy va soliq salohiyatlari shular jumlasidandir. Mazmunan ham tarkiban moliyaviy salohiyat soliq salohiyatidan kengroq tushuncha va munosabatlardir. Soliq salohiyati tushunchasi mazmunan soliqlarni to'lash(undirish) darajasi bo'lsada, uning mohiyatini ochib beruvchi juda ko'plab yondoshuvlar mavjud. 1993 yil Jahon banki tomonidan chiqarilgan ko'rsatma xarakteridagi qo'llanma-hisobotda birinchi bor «soliq salohiyati tushunchasi- (tax capacity-soliq to'lash imkoniyat) — qaysidir ma'muriy hudud birligiga soliq tushumlari sifatida kelib tushadigan daromad bo'lib, u soliq bazalarining yig'indisidir» deb, ta'rif berilgan.⁹⁶

1980-1999 yillar oralig'ida AQSH va Kanada davlatlari iqtisodchilari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bo'yicha hisobotlarda soliq salohiyati tushunchasini barcha soliqlarga yagona soliq stavkalarini qo'llashda yuzaga keladigan soliqli daromadlar yig'indisini sifatida baholaydi.⁹⁷ Ayrim iqtisodchilar, masalan, Bogacheva O.V, Gorskiy I.V, Kadochnikov P.A, Lugovoy O.V, Kolomiets A.L., A. Novikovalar⁹⁸ning fikricha soliq salohiyati avvalo bu soliqa tortiladigan resurslarni realizatsiya qilish natijasida yuzaga keladigan soliq to'lovlari bo'lib, byudjetga soliqli daromadlarni olib keluvchi manba bo'lsa, soliqa tortiladigan resurslar esa soliq qonunchiligi bo'yicha soliqa tortiladigan obyektlardir va ular soliq turlari bo'yicha soliq bazani yuzaga keltiradi.

Soliq salohiyatini tadqiq qiluvchi ba'zi mutaxassislar soliq salohiyatini eng avvalo soliqa tortiladigan resurslardan foydalangan holda bu soliq imkoniyatlari bo'lib, ular byudjetga daromad olib keluvchi iqtisodiy jarayondir deb hisoblab, soliqa tortiladigan resurslarni esa

⁹⁶ Россия и проблемы бюджетно-налогового федерализма. М.: Всемирный Банк, 1993, 85 с.

⁹⁷ Robert Tannenwald The Representative Tax System — Tax Capacity and Tax Effort in the Ocean State (<http://www.ripec.com/rts2k.html>).

⁹⁸ Богачева О.В. Налоговый потенциал и региональные счёта // Финансы. 2000. № 2 — 3с, Горский И.В. Налоговый потенциал в механизме межбюджетных отношений // Финансы. 1999. № 6. 21с, Кадочников П.А., Луговой О.В. Моделирование динамики налоговых поступлений, оценка налогового потенциала территорий (<http://www.jet.ru>), Коломиец А.Л., Новикова А.Н. О соотношении финансового и налогового потенциалов в региональном разрезе // Налоговый вестник. 2000. № 3. 93с.

soliq salohiyatining soliq qonunchiligi asosida soliq obyektiga aylanuvchi va soliq bazasining asosiy qismi sifatida byudjetga jalb qilinuvchi deb ta'kidlaydilar.⁹⁹ Professor L.N. Arxiptsevaning fikriga ko'ra soliq salohiyati – bu soliq qonunchiligi bo'yicha byudjetga olinadigan, hududning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari asosida hisoblab chiqiladigan va soliqlarning yig'iluvchanlik darajasini aks ettiradigan soliqqa tortiladigan resursning umumiy hajmidir.¹⁰⁰ V.V.Kuzmenko esa soliq salohiyatini soliq yuki sifatida baholaydi.¹⁰¹ Ushbulardan farqli o'laroq, M.Richard soliq salohiyatining mazmunini hokimiyat organlari tomonidan davlatning barcha hududlarida yagona soliqqa tortish sharoitlarini qo'llash orqali olinadigan va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan potentsialli byudjet daromadlarining hajmini bilan izohlaydi.¹⁰² Professor N.D. Matrusov esa soliq salohiyati tor va keng ma'noda tushunish lozim deb hisoblab, soliq salohiyati tor ma'noda davlatda amal qiluvchi soliqqa tortish tizimiga muvofiq soliq to'lovlari orqali davlat byudjetiga jalb qilinishi mo'ljallangan moliyaviy resurslar bo'lsa, keng ma'noda»aholi-xo'jalik-hudud» ketma-ketligi asosida soliqqa tortish orqali jalb etilishi mumkin bo'lgan moliyaviy resurslarning jami tushunish lozimligini ta'kidlaydi.¹⁰³

Byudjetlararo munosabatlar muammolari bilan shug'ullanuvchi N.I. Klimova esa soliq salohiyatini standart soliqqa tortish va bosimi sharoitida soliqlarni hisoblash va o'rnatilgan soliq stavkalarini hisobga olgan holda soliq bazasi asosida hisoblanib byudjetga kelishi mumkin bo'lgan imkoniyatlar deb baholaydi.¹⁰⁴ Professor I.V.Gorskiy soliq

⁹⁹ Qarang: Паскачев А.Б., Садыгов Ф.К., Миншин В.И., Саакян Р.С. и др. Анализ и планирование налоговых поступлений: теория и практика / Под ред. Ф.К. Садыгова. - М.: Издательство экономико-правовой литературы, 2004. 232 с.; Улыбина Л.В. Формирование налогового потенциала региона и закономерности его развития: Автореф. дис. ...к. э. н. - Чебоксары, 2006; Саранова С.Н. Развитие налогового потенциала в системе государственной региональной политики: Автореф. дис. ...к. э. н. - Волгоград, 2007.

¹⁰⁰ Архипцева Л.М. Налоговый потенциал: теоретические и практические аспекты использования в планировании налоговых поступлений// «Налоги и налогообложение», 2008, №7, 5-12 с.

¹⁰¹ Кузьменко В.В., Ефимен Е.А. Институциональный подход к исследованию налогового потенциала и налогового бремени// Сборник научных трудов СевКавГТУ. Серия «Экономика», 2005, №1

¹⁰² Ricard M. Bird Tax Policy & Economic Development. The Johns Hopkins University Press : Baltimor and London, 1992.

¹⁰³ Матрусов Н.Д. Региональное прогнозирование и региональное развитие России. М. : Наука, 1995, 158 с.

¹⁰⁴ Климова Н.И. Экономический инструментариум регулирования федеративных отношений: Доклад на семинаре Экономические факторы федерализации России. (<http://federalnecart.ksu.ru/conference/seminar4/>).

salohiyatiga tarkibiy yondoshuvni ilgari surib, soliq salohiyati alohida olingan hudud doirasida amal qiladigan barcha soliqlarning summasini tushunish kerak deb hisoblaydi va umumiy soliq salohiyati soliqlar bo'yicha hisoblangan hajmdan, mamlakatning soliq salohiyati esa uning hududlarining soliq salohiyatidan, hududlarning soliq salohiyati esa munitsipial (hudud tarkibidagi bo'linmalar) soliq salohiyatidan iborat bo'ladi deydi (bu erdagi yondoshuv buxgalteriya hisobida hisobvaraqlarning so'mmalarining gorizontal mos kelishi printsipiga asoslangan). Bundan tashqari muallif soliq salohiyatiga to'g'ri soliqlar, egri soliqlar, mulk va boshqa soliqlar nuqtai nazaridan ham yondoshadi.

Ammo muallifning ushbu fikri biroz bahslidir. Chunki, masalaga bunday yondoshish turli hududlarda soliq obyektlari bilan soliqqa tortiladigan bazalarning mos kelish darajasi farqlanishi tabiiy va ular bo'yicha soliq tushumlari ham turlicha bo'ladi. Bundan tashqari soliqlar bo'yicha imtiyozlarga ega bo'lish darajasi ham bir xil bo'lmaydi. Soliq salohiyati mazmunini ochib berishda T.Yu.Yutkinaning qarashlari ahamiyatlidir. Muallif soliq salohiyatining mohiyatini to'laroq anglash uchun strategik va funktsional soliq salohiyatini turlaydi. Strategik soliq salohiyatini soliqqa tortish tizimining umummilliy ehtiyojlarning o'sishini, biznesning to'lov qobiliyatini, ularning investitsion ehtiyojlarining o'sishini ta'minlashga qaratilgan imkoniyatlari deb baholaydi, ya'ni soliq tizimi rag'batlantiruvchilik xususiyati uning kelgusidagi salohiyatiga zamin yaratadi, shu jihatdan soliq tizimining bazasida strategik soliq salohiyatini o'stirish yotish kerak deb hisoblaydi.

Funktsional soliq salohiyati esa «har yilgi moliya yilida byudjetni ishlab chiqish jarayonida soliqqa tortishning barcha elementlarini aniqlash hamda strategik soliq salohiyatining holatidan kelib chiqqan holda miqdoriy va sifat jihatdan hisob-kitoblarga asoslangan kutilayotgan soliq tushumlarini tasavvur qilish deb izohlaydi.¹⁰⁵ Bu yerda muallif soliq salohiyatini soliqlarni prognoz qilishning atributi sifatida qarab, uning asosini tashkil etishiga urg'u beradi. D. Slobodchikovning fikriga ko'ra

¹⁰⁵ Юткина Т.Ф. Налоги и налогообложение: Учебник. 2-е изд., перераб. и доп. М.: ИНФРА-М, 2002, 126 с.

soliq salohiyati bu davlatning soliq siyosatiga ko'ra va amaldagi qonunchilikka ko'ra byudjetga jalb qilish mumkin bo'lgan moliyaviy resurslar hajmidan iborat. Shuningdek, muallifning ta'kidlashicha soliq salohiyatini mazmunini aniqlashga yondoshuvlar nafaqat iqtisodchilar o'rtasida, shuningdek, me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ham turlicha talqin qilinadi. Masalan, Rossiya federatsiyasining Ingushetiya, Tiva, Kabardino-Balqar, Karachevo-Cherkass, Komi Respubliklari va Oltoy o'lkasidan boshqa barcha subyektlarda soliq salohiyatini aniqlashning usullari va uning terminologik mazmuni qonun hujjatlari bilan aniqlashtirilib qo'yilgan.

Shuningdek, hududning soliq salohiyati Yakutiya, Chuvashiya Respublikalari, Nenets avtonom okrugi, Kaluga, Novosibirsk viloyatlarida «daromad salohiyati», Belgrad va Tomsk oblastlarida «shartli soliq salohiyati», Krasnodar o'lkasi va Mordoviya Respublikalarida esa «soliq resursi» kabi tushunchalar qonun hujjatlari bilan aniqlashtirilgan.¹⁰⁶ Shu bilan birgalikda soliq salohiyati tushunchasini moliyaviy salohiyat tushunchasining sinonimi sifatida qaraydigan yondoshuvlarni ham uchratish mumkin. Masalan, I.A. Moiseenko, M.S. Mishenina, I.V. Sugorovalarning tadqiqotlarida soliq salohiyatining milliy va hududiy iqtisodiyot va byudjetlardagi roli kabi hamda uni hisoblashni takomillashtirish kabi masalalar o'rin bo'lgan bo'lib, ularda soliq salohiyatini moliyaviy salohiyatiga sinonim sifatida qarashlar ham uchraydi.¹⁰⁷

Ammo, yuqoridagi mualliflarning soliq salohiyati xususidagi fikrlarini umumlashtirish mazmuni sifatida shuni ta'kidlash lozimki, soliq salohiyati iqtisodiy munosabatlardagi o'rni uning milliy, hudud, korxonalar va jismoniy shaxslar bo'yicha ularning olgan daromadlari va iqtisodiy hatti harakatlari doirasida ega bo'lgan daromad, mol-mulk va

¹⁰⁶ Слободчиков Д.Н. Оценка налогового потенциала: опыт субъектов Российской Федерации [Текст] / Д.Н.Слободчиков, А.Е.Суглобов // Проблемы теории и практики управления. - 2009. - № 8. - С. 13-34.

¹⁰⁷ Qarang: Моисеенко И.А. К вопросу о методике оценки налогового потенциала Вестник Северо-Кавказского федерального университета, (2010). 4, 245-249 с.; Мищенко М.С. К ВОПРОСУ О СОДЕРЖАНИИ ПОНЯТИЯ НАЛОГОВОГО ПОТЕНЦИАЛА РЕГИОНА Академический вестник, (2009), 4, 167-170 с.; Сугарова И.В. К вопросу о существенных характеристиках налогового потенциала региона Налоги и налогообложение, (2013), 10, 723-729 с.

boshqa moddiy qiymatliklarni jamiyat manfaatlari yo'lida qayta taqsimlash jarayonida aniqlashtiruvchi rolni o'ynaydi. Soliq salohiyatining darajasi va unga asoslangan holda prognoz ko'rsatkichlariga qarab davlat yalpi ichki (hududiy) mahsulot va daromadlarni qayta taqsimlash siyosatini amalga oshiradi.

Shu jihatdan olganda «soliq salohiyati deganda milliy xo'jalik, hududlar va yuridik va jismoniy shaxs sifatida soliq majburiyati yuklatilgan shaxslarning davlatning byudjet-soliq siyosati doirasida hamda amaldagi soliq qonunchiligi bo'yicha o'zlariga yuklatilgan soliq majburiyatlarini to'lash imkoniyati, shuningdek, davlat tomonidan soliqlarning adolatlilik tamoyili buzilmagan holda byudjetga maksimal darajada soliqlarni jalb qilish mumkin bo'lgan imkoniyatidir».

Aslini olganda har qaysi moliyaviy resursga ega bo'lgan iqtisodiy subyektlarning soliq salohiyati darajasining chegarasini belgilash davlatning taqsimot va soliq siyosatiga bog'liq bo'ladi. Davlat jamiyatdagi asosiy siyosiy va tartiblovchi kuch sifatida yaratilgan milliy mahsulot (daromad)ning qancha qismini markazlashtirilgan pul fondlariga olish masalasini hal etishiga qarab soliq salohiyati darajasi ham aniqlanadi, ammo, bu erda shuni ta'kidlash kerakki, iqtisodiy subyektlarning soliq salohiyati ularning moliyaviy resurslarga egaligi bilan o'lchanadi, davlat esa soliq siyosatini ishga solish orqali ushbu moliyaviy resurslar(salohiyati)ning qancha qismini byudjetga va boshqa maqsadlarda olishni oydinlashtiradi, ya'ni moliyaviy resurslar (salohiyati)ning qancha qismi soliq salohiyatiga aylanishining chegarasini o'rnatadi. Moliyaviy salohiyat iqtisodiy resurslarning tarkibi sifatida soliq salohiyatini o'z tarkibiga oladi, shu jihatdan moliyaviy resurslar sifatida shakllangan daromad(foyda), aylanma, mol-mulk, nomoddiy mulk obyektlarining ma'lum qismi yuqorida ta'kidlanganidek, soliq salohiyatiga aylantiriladi.


Moliyaviy salohiyat o'z tarkibiga shuningdek, barcha moliyaviy resurslarni qamrab oladi, moliyaviy resurslarning darajasi moliyaviy salohiyatining qismi sifatida soliq salohiyatining hajmini aniqlab beradi.

Shu erda shuni ham ta'kidlash kerakki moliyaviy resurslarni hajmini oshirish va uni to'g'ri boshqarish(taqsimlash) soliq salohiyatining darajasiga ta'sir etuvchi eng muhim omillardan biri sifatida qarash lozim. Moliyaviy va soliq salohiyatlari bir-birini to'ldiruvchi kategoriyalar sifatida byudjetni shakllantirishdagi roli farqlanadi.

Soliq salohiyati moliyaviy salohiyatning bir qismi sifatida turli darajadagi byudjetlarning daromad qismini asosiy shakllantiruvchi manba bo'lsada, ammo, moliyaviy resurslar nafaqat soliq salohiyati ko'rinishida, shuningdek, boshqa manbalar sifatida masalan, ichki va tashqi qarzlarni(O'zbekiston qonunchiligida byudjetning daromad manbalari sifatida ichki va tashqi qarzlarni belgilab qo'yilgan bo'lsada amalda undan foydalanish amaliyoti mavjud emas), homiylik shakldagi manbalar, soliqsiz daromadlar shaklda tushadi. Moliyaviy salohiyat yana shuning bilan ham soliq salohiyatidan farqlanadiki, ichki va tashqi xorijiy investitsiyalar mamlakat va hududlarning muhim moliyaviy salohiyatini ham tashkil qiladi, soliqlar esa professor T.Yutkina(avvaligi betlarga qarang) aytganidek, strategik soliq salohiyati sifatida ularning hajmini oshirishga xizmat qiladi.

Qayd etilganlardan shu narsani anglash mumkinki, moliyaviy salohiyat va resurslar soliq salohiyatining yuzaga kelishi va uning darajasining dinamik yoki statistik holatda bo'lishiga ta'sir qiladi. Moliyaviy salohiyatning soliq salohiyatiga to'g'ridan to'g'ri va aks ta'siri byudjet tizimi orqali ham amalga oshiriladi. Soliq salohiyati bir tomondan davlat byudjetiga soliq tushumlarini kelib tushishining prognoz ko'rsatkichlarini aniqlashda muhim vosita bo'lsa, o'z navbatida davlat byudjeti ham hududlarning soliq salohiyatini oshirishda muhim rol o'ynab barometr vazifasini o'taydi. Byudjetlar orqali bir hududdan olingan mablag'larni investitsiya qilish orqali hududlarning soliq salohiyati bo'yicha o'zaro tabaqalashuvining chuqurlashishining oldi olinadi. Bundan tashqari davlat byudjeti soliq salohiyatining umumiy va real hajmini ham o'lchab beradi. O'z navbatida esa soliq salohiyatini byudjet orqali tartibga solinishi esa byudjetlararo munosabatlarni ham

tartiblashning metodi sifatida yuzaga chiqadi. Hududlarning soliq salohiyatining ma'lum darajada muvofiqlashtirilishi¹⁰⁸ yuqori byudjetdan quyi byudjetlarga ajratiladigan ssuda va qaytarib olinmaslik shakllidagi mablag'larni taqsimlash jarayonini ham soddalashtiradi. Soliq salohiyati va byudjet o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va ularning o'zaro ta'siri jarayonlarini quyidagi rasmda keltirilgan.



20-rasm. Soliq salohiyati va byudjet tizimining o'zaro aloqadorligi

Quyida keltirilgan rasmdan ko'rinadiki, soliq salohiyati va byujeti tizimi o'rtasidagi o'zaro nisbat va aks ta'sir munosabatlarning samaradorligini soliqlarning adolatlilik tamoyilining muvozanat sifatida o'rnatilishi va namoyon bo'lishidir. Mazkur kontseptsiya esa soliq salohiyatining umumiy hajmi va uning real hajmini aniqlab berishga ham xizmat qiladi.

Davlat aniqlangan soliq salohiyatining ma'lum bir qismini soliq siyosatini yuritish orqali turli darajadagi byudjetlarga jalb qilish bilan

¹⁰⁸ Muvofiqlashtirish bizning fikrimizcha hududlarning moliyaviy va soliq salohiyatini oshirishga qaratilgan ishtiyoqlarini susaytirishga xizmat qilmasligi kerak. Gap bu erda hududlarning moliyaviy va soliq potensial jihatdan haddan ziyod chuqurlashib ketmasligi haqida bormoqda.

birgalikda soliq salohiyatining «egalari»-soliq to'lovchilarning o'zlariga turli tartibda uning bir qismini ularga kiritilgan markazlashtirilgan investitsiyalar, subsidiyalar, byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqlari va transfert to'lovlari sifatida qaytarib beradi. Bu mexanizmdan shuni anglash mumkinki, bizning fikrimizcha soliq salohiyatining umumiy va real shaklini anglash kerak lozim bo'ladi, bu bir tomondan soliq salohiyatining davlat va ularning egalari o'rtasida taqsimlanish jarayonlarini ham miqdor jihatdan ham sifat jihatdan ko'rsatib bersa, boshqa tomondan soliq prognozi va soliq salohiyatiga bevosita bog'liqlikda bo'lgan soliq yuki darajasi va unga oid davlat siyosatining yo'nalishlarini ishlab chiqishda ham katta ahamiyatga egadir.

Ushbulardan kelib chiqib, real soliq salohiyatini umumiy soliq salohiyatidan byudjetga kelib tushgan soliq tushumlari va real sektorga qilingan investitsiyalar, subsidiyalar, soliq imtiyozlar hamda soliqlar bo'yicha qarzdorliklar so'mmalari o'rtasidagi farq sifatida qarash lozim. Har qanday iqtisodiy kategoriya yoki munosabatlarning mohiyatini o'rganishda yondoshuvlarning muhimlaridan biri ularni ma'lum bir belgilariga qarab guruhlashdir. L.M.Arxiptsevaning fikriga ko'ra soliq salohiyatini quyidagi mezonlar bo'yicha farqlash mumkin: soliq va byudjet tizimi darajasiga ko'ra mamalakat, hudud va munitsipial(hudud tarkibidagi bo'linma) soliq salohiyati; iqtisodiyot tarmoqlariga ko'ra faoliyat turlari soliq salohiyati(sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, moliyaviy sektor va sh.k.); soliq gurhlari bo'yicha mamlakat, hudud va mahalliy soliq salohiyatlari; soliq turlar bo'yicha har bir soliq turining soliq salohiyati; xo'jalik yuritish shakliga ko'ra yirik ishlab chiqaruvchilar va kichik biznes subyektlari soliq salohiyati; vaqt gorizonti bo'yicha joriy va istiqbolli soliq salohiyatlarga bo'linadi¹⁰⁹. I.V. Vachugov esa soliq salohiyati ikki guruhga bo'ladi va soliq salohiyatining haqiqiy va (eng qulay)optimallashtirilgan turlarini farqlash lozim deb hisoblaydi. Haqiqiy soliq salohiyatining mazmunini esa

¹⁰⁹ Архипцева Л.М. Налоговый потенциал: теоретические и практические аспекты использования в планировании налоговых поступлений // "Налоги и налогообложение", 2008, № 7, 23-28 с.


iqtisodiyotning holati va soliq qonunchiligi hamda soliq madaniyati darajasidan kelib chiqqan holda muayan(moliya yilida) soliq tushumlarining kelib tushish imkoniyatlari hajmi bilan izohlasa, eng qulay soliq salohiyati iqtisodiy taraqqiyot va sotsial dasturlarning bajarilishining nisbati sifatida qaraladigan samarali soliq bosimi imkoniyatlaridir deb tushuntiradi¹¹⁰.

Soliq salohiyatining amal qilishi, uning yuzaga kelishi va ichki va tashqi xususiyatlarini nazariy jihatdan tadqiq etish esa ularni ma'lum bir mezonlar asosida klassifikatsiyalashga asos bo'ladi(21-rasmga qarang).

Quyida keltirilgan 21-rasmdan ko'rinadiki, soliq salohiyati ko'lami jihatdan milliy xo'jalik(mamlakat miqyosida) hududlar, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, tarmoqlar hamda xalqaro doirada mavjud bo'ladi, xalqaro darajadagi soliq salohiyati esa milliy tovar ishlab chiqaruvchilarning xorijiy davlatlarga kiritilgan investitsiyalari va faoliyati orqali yuzaga keladi va ular yalpi milliy mahsulot tarkibida aks etadi. Xalqaro darajadagi soliq salohiyatining milliy byudjetda aks etishi va uning jalb qilinishi esa xalqaro soliqqa tortish tartiblari va davlatlar o'rtasidagi ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etishga oid o'zaro kelishuvlarining mazmuniga bog'liq bo'ladi. Aniqlangan soliq salohiyati byudjetga jalb qilinishiga ko'ra ham farqlanib, ular asosan qonunchilik asosida soliq majburiyatlari yuklatilgan yuridik va jismoniy shaxslardagi soliq salohiyatlariga bo'linadi. Shuningdek, soliq agentlari, ya'ni soliqlarni hisoblab va uni byudjetga o'tkazish(masalan jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq summasini) yuklatilgan korxonalar, tashkilot va muassasalarida ham(garchi ularning ayrimlari soliq to'lovchi bo'lmasada) soliq salohiyati mavjud bo'ladi. Soliq salohiyatining mazmunini ochib berishda ularning paydo bo'lishiga ko'ra guruhlash ham katta ahamiyatga ega. Soliq salohiyatlarining eng muhim asosiy manbai bu ishlab chiqarish muomala jarayoni hisoblanadi, chunki, foyda va qo'shilgan qiymat aynan ishlab chiqarish jarayonida sodir

¹¹⁰ Вачугов И.В. Теоретические основы и пути повышения налогового потенциала региона: Автореф. дис. ...к. э. н. - Нижний Новгород, 2003.

bo'lib, mahsulotning realizatsiya jarayonida aksariyat davlatlar, jumladan, O'zbekistonda ham asosiy byudjetni shakllantiruvchi soliqlar-qo'shilgan qiymat va aksiz solig'i bo'yicha soliq salohiyati yuzaga keladi.



21-rasm. Soliq salohiyatining klassifikatsiyasi.

Bu yerda shuni ham e'tiborga olish kerakki, qo'shilgan qiymat ishlab chiqarish jarayonida ish haqi, energiya, asosiy vositalarning

eskirishi va boshqa mahsulot tannarxiga borib qo'shiladigan xarajatlar sifatida yuzaga keladiki, uning darajasi mahsulotning sotish (shartnomaviy) narxi va material xarajatlar o'rtasidagi farq sifatida korxonaning moliyaviy natijasiga ham katta ta'sir qiladi, bu jarayon esa soliq salohiyatining eng muhim manbai sifatida yuzaga chiqadi. Korxonalar tomonidan foydaning reinvestitsiya qilinishi esa qo'shimcha soliq salohiyatlarini paydo qilsa, markazlashtirilgan investitsiyalar ham bir tomondan, yangi ish o'rinlari sifatida(daromad solig'i soliq salohiyatini) yangi salohiyatlarni vujudga keltiradi, mol-mulk shaklida esa boshqa turdagi(mol-mulk solig'i salohiyatini) hamda qo'shimcha ishlab chiqarishni tashkil qilish oqibatida qayd etilgan qo'shilgan qiymat va foydani yuzaga keltiradi.

Shu jihatdan soliq tizimida ham investitsiyalarni soliq vositasida jalb qilishning muhim omillari sifatida soliq imtiyozlariga katta e'tibor qaratiladi. Shu bilan birgalikda iste'mol jarayonida ham yangi shakldagi soliq salohiyati vujudga kelsa, taqsimot munosabatlarida, ya'ni korxonalar tomonidan moliyaviy natijalarni taqsimlash jarayoni ham soliq salohiyatining paydo bo'lishi(masalan, foydaning reinvestitsiya qilinishi, dividend egalarning uni korxonalar ustav fondiga qayta qo'shishi, foyda hisobidan yangi turdagi mahsulotlarni yaratishga qilinadigan mablag'lar va shu kabilar)ga asos bo'lishi mumkin. Qayd etilganlar bilan birgalikda soliq salohiyatlari amal qilishiga ko'ra doimiy, vaqtinchalik va o'zgaruvchan xususiyatlarga ega bo'ladi. Soliq salohiyatining bunday tartibda amal qilishi ishlab chiqarish jarayonlarining tashkil qilinishi, ularga omillarning ta'sir etish darajasiga bog'liq bo'ladi. Shu jihatdan olganda soliq salohiyatlarining paydo bo'lishi, ularning o'zgarishi, o'zaro almashinuvi va hajmi ma'lum omillarga bog'liq bo'ladi. Bunday omillarni anglash va ularning ta'sir doiralarini baholash esa soliq salohiyatining hajmini to'g'ri aniqlash, ularni byudjetga jalb qilish masalalarini to'g'ri hal qilishda hamda ularni to'g'ri boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

6.2. Soliq salohiyatiga ta'sir etuvchi omillarni baholash mexanizmi

Ta'kidlash lozimki, soliq salohiyatiga ta'sir etuvchi omillarning mohiyatini tavsiflovchi holatlar iqtisodiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. Ushbularni e'tiborga olib talabalar ularni farqlay olish uchun ularning ayrimlarini keltirib o'tamiz. Soliq salohiyatining omillarini xarakterlovchi yondoshuvlar bir qator iqtisodchilar tomonidan bildirilgan. Xususan, D.R.Popenkov soliq salohiyatining omillarini uch ¹¹¹guruhga, ya'ni, hududning iqtisodiyotiga ta'sir etuvchi omillar, hududda bevosita soliq salohiyatiga ta'sir etuvchi omillar, soliqlarning bazasiga ta'sir etuvchi omillarga guruhlaydi. A.L Kolomiets va A.I. Novikovalar soliq salohiyatining omillarini obyektiv va subyektiv omillarga bo'lib, obyektiv omillar jumlasiga amal qilayotgan soliq qonunchiligi, hududning rivojlanish darajasi, tarmoqlarning xususiyatlari, narx darajasi, import va eksportning hajmi va tuzilishi kabilarni kiritisa, subyektiv omillarga esa soliq siyosatining holati, soliq to'lovchilarga berilgan soliq imtiyozlari soni va soliqlarni kechiktirish bo'yicha taqdim qilingan muddatlarni kiritadi.¹¹²

Ayrim iqtisodchilar esa qayd etilganlardan farqli o'laroq, soliq salohiyatining darajasi va uning asosiy omili sifatida jug'rofiy omillarni asosiy omil sifatida baholab, hudud yoki korxonalarining jug'rofiy jihatdan qulay joylashuvi ularga ishlab chiqarish omillaridan samarali foydalanish imkoniyatini beradi, mahsulotni realizatsiyasi osonlashadi, ularda qo'shimcha resurslarni tejash imkoniyati bo'ladi¹¹³.

L.M.Arxiptseva soliq salohiyatining omillarini izohlab ularni iqtisodiy omillar, soliq ma'murchiligi omillari va sotsial omillarga ajratadi. Soliq iqtisodiy va sotsial omillari boshqa mualliflarning yondoshuvlariga o'xshasada, soliq ma'murchiligi omillari sifatida soliq nazoratining samaradorligi, soliq xizmati organlarining kasbiy

¹¹¹ Попенков.Д.Р. Методы оценки налогового потенциала территории // Власть и управление на Востоке России. 2003. № 2 23с.

¹¹² Коломиец А.Л., Новикова А.И. О соотношении финансового и налогового потенциалов в региональном разрезе // Налоговый вестник. 2000.№ 3, 29 с.

¹¹³ Гранберг А.Г. Основы региональной экономики. (<http://edulib.ru/>).

tayyorgarligi, soliq ma'murchiligini tashkil etishning uslubiy ta'minlanganligi, soliq qonunchiligidagi o'zgarishlarning soliq to'lovchilar tomonidan o'zlashtirilish darajasi kabi omillarni izohlaydi.¹¹⁴

Soliq ma'murchiligining omillari sifatida keltirib o'tilgan soliq qonunchiligidagi o'zgarishlarning soliq to'lovchilar tomonidan o'zlashtirilish darajasi kabi omildan tashqari omillarning soliq salohiyatiga ta'siri juda past, sabab bu omillar soliq salohiyatini emas, balki soliq tushumlarining byudjetga kelib tushish jarayoniga va soliq qarzdorligini kamaytirishga ta'sir etuvchi omillar sifatida baholash lozim. Ammo muallifning korxonalar va tashkilotlarning soliq salohiyatiga bevosita ta'sir etuvchi-ishlab chiqarish-resurs omillari, mehnat resursi omillari, moliyaviy omillar va innovatsion omillar xususidagi fikrlari o'rinlidir. Muallif ushbu omillarni tahlil qilib korxonaning soliq salohiyati shuningdek, korxonaning narx siyosati, asosiy fondlarning ishlatilish davomiyligi va ularning eskirganlik darajasi, ishlab chiqarish xodimlarining malaka darajasi, mahsulot sifati, jami mablag'lari tarkibida o'z mablag'larining ulushi kabi omillarning ta'sirini ham e'tiborga olish lozim deb hisoblaydi. Ushbu omillarning korxonalar soliq salohiyatini oshirishdagi rolini inkor etmagan holda, eng muhim omillar sifatida korxonalar doirasida moliyaviy resurslarni samarali boshqarish, aniqroq qilib aytganda mavjud resurslar va moliyaviy natijalarni iqtisodiy manfaatdorlik nuqtai nazardan taqsimlash jarayonlarini ham e'tibordan qoldirmaslik lozim.

Yuqorida qayd etilgan mulohazalarda soliq salohiyatining omillari sifatida keltirib o'tilganlarni inkor etmasdan, shu bilan birgalikda bu masalaga kengroq qarash lozimligini va uning asosiy barcha omillarni e'tibordan qochirmaslik kerak deb hisoblab, soliq salohiyatining omillarini quyidagicha guruhlash maqsadga muvofiqdir. Quyida keltirilgan 22-rasmdan ko'rinadiki, soliq salohiyatining omillarini iqtisodiy, moliyaviy, sotsial-demografik, tabiiy-jug'rofiy, milliy


¹¹⁴ Архипцева Л.М. Налоговый потенциал: теоретические и практические аспекты использования в планировании налоговых поступлений // "Налоги и налогообложение", 2008, № 7. 23-28 с.

mintalitet, tarixiy va siyosiy omillarga bo'linadi. Iqtisodiy omillar: YalMning darajasi va uning taqsimlanish mexanizmi; ya'ni uning jamg'arilishga yoki iste'molga qaysi biriga ko'proq sarflanishi, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarining modernizatsiya qilinib borilishi va ular o'rtasidagi kooperatsion aloqalarning holati (har qaysi davlatning iqtisodiy taraqqiyotini belgilovchi beruvchi asosiy tarmoqlar muhim kasb etadi va tarmoqlar o'rtasida o'zaro kooperatsion aloqalar qancha kuchaysa, milliy iqtisodiyotning raqobatbordoshligi shuncha oshadi).

Inflyatsiya darajasi; aholi xarid qobiliyatni aniqlashga xizmat qiladi va u iste'molga ta'sir qiladi. Investitsion muhit va uning samaradorligi; ya'ni ichki va xorijiy investitsiyalar milliy iqtisodiyotda yangidan qiymat qo'shilishiga olib keladi va ishsizlikni kamaytirishga xizmat qiladi. Import va eksport darajasi (import hajmi ham eksport hajmi ham soliq salohiyatini oshiradi, ammo eksportning oshishi valyutaning mustahkamlanishi orqali ko'proq ijobiy ta'sirga ega bo'ladi).

Tashqi iqtisodiy faoliyatning integratsiyalashuv darajasi; milliy tovar ishlab chiqaruvchilar xalqaro integratsiyaga qanchalik keng kirishsa, milliy iqtisodiyotga va u orqali moliyaviy resurslarning oshishiga olib keladi. Iste'molning darajasi; milliy iqtisodiyotda iste'molning oshishi yalpi talabni kuchaytiradi va ishlab chiqarishni rag'batlantiradi, iste'molning tarkiban o'zgarib borishi va uning kengayishi yangi mahsulot turlarini yaratishga undaydi, provardida ishlab chiqarishning diversifikatsiyalashuvini tezlashtiradi, shuningdek iste'molning tarkibiy transformatsiyalanishuvi kabi omillar muhim ahamiyat kasb etadi.

Soliq salohiyatiga ta'sir etuvchi omillar orasida moliyaviy omillarning muhim xususiyati shundaki, ular soliq salohiyatining hajmiga tez ta'sir qiladi. Bularning orasida byudjet-soliq siyosatining mazmuni va uning yo'nalishlari (xarajatlarning taqsimlanishi, soliq stavkalari, imtiyozlarining belgilanishi va sh.k) katta rol o'ynaydi (byudjet tizimining ahamiyati yuqorida qisqacha bayon qilingan).



22-rasm. Soliq salohiyatiga ta'sir etuvchi omillar tasnifi.

Bunda soliq siyosatining mazmuni eng muhim omil bo'lib, uning mazmuni, strategik va taktik yo'nalishlari o'z navbatida soliq salohiyatining hajmining yaqin va kelgusidagi dinamik yoki statistik holatini belgilab beradi hamda soliq salohiyati bilan o'zaro aks ta'sirda bo'ladi, soliq siyosati orqali soliq salohiyatining hajmining o'zgarishi soliqlarning prognoziga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qiladi va soliq siyosatining mazmuni va uning yo'nalishlarining o'zgartirilishiga olib keladi. Biroq, bizningcha bu erda soliq siyosati soliq salohiyatini strategik o'sishini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Moliyaviy omillar jumlasidan pul-kredit siyosati ham tez ta'sirchan omillar jumlasidan bo'lib, pul agregatlarining hajmi, foiz stavkasi(qayta moliyalash stavkasi)ning darajasi, kredit tashkilotlari tomonidan ishlab chiqarish sohasiga moliyaviy resurslarni taklif qilish(kreditlash) mexanizmlari iqtisodiyotda pul shaklidagi moliyaviy resurslarning darajasi va holatini belgilab beradi, provardida esa ishlab chiqarishni rag'batlantirib yangidan soliq salohiyatlarining vujudga kelishiga ta'sir qiladi. Ammo, ta'kidlash lozimki bu erda monetar instrumentlar ikkiyoqlama ta'sir kuchiga ega bo'ladi. Agar davlat foiz stavkasini oshiradigan bo'lsa, pulga bo'lgan talab kamayib, ishlab chiqarish sektoridagi jamg'arma shaklida(shuningdek valyuta shaklidagi)gi pul mablag'larining reinvestitsiyalashuvi tezlashib, o'lik holatdagi moliyaviy resurslarning foydalanish koeffitsienti oshadi, aksincha foiz stavkalarining haddan ziyod pasayishi esa iqtisodiyotga bir(yoki bir necha) martalik foydali moliyaviy resurslarning ko'payishiga olib keladi, ammo qisqa vaqt davomida salbiy ta'sirni keltirib chiqaradi.¹¹⁵

Davlat o'z moliyaviy siyosati orqali korxonalar moliyaviy siyosatiga turli xil usullar bilan ta'sir qiladi, masalan, korxonalarining ustav fondiga minimal talablar va zahira fondlarini shakllantirishning majburiyligi, emitent siyosatini olib borish orqali korxonalar(banklar, sug'urta tashkilotlari, qo'shma korxonalar, aktsionerlik jamiyatlari

¹¹⁵ Buning mohiyatini anflab etish maqsadida AQSH federal zahirasi tomonidan foiz stavkalarining haddan ziyod pasaytirilishi moliyaviy inqirozning sabablaridan biriga aylanganligini ta'kidlash o'rinni.

sh.k.)ning moliyaviy mablag'larining sarflanishiga ta'sir qiladi, bu esa o'z navbatida soliq salohiyatiga ta'sir qiladi. Korxonalarining soliq salohiyati darajasiga ichki omillar sifatida ularning moliyaviy va hisob siyosatlarining mazmuni katta ta'sir qiladi. Moliyaviy natijalarning ishlab chiqarishga reinvestitsiya qilinishi yoki korxonada xodimlarini moddiy qo'llab qo'vvatlashga boshqa sotsial masalalarga sarflanishi o'z navbatida korxonaning strategik soliq salohiyatiga ta'sir qiladi. Bundan tashqari korxonalarining hisob siyosatida foydani maksimallashtirish yoki oddiy takror ishlab chiqarish sharoitida korxonaning iqtisodiy faoliyatini ta'minlab turish kabi maqsadlarning belgilanishi ham korxonaning soliq salohiyatining muhim omillari bo'lib xizmat qiladi.

Aholining jamg'armalarni sarflashga yondoshuv ham soliq salohiyatining darajasiga turlicha ta'sir qiladi. Aholida biznes ko'nikmalari rivojlangan, ularga moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi infratuzilmalar tomonidan xizmatlarning sifati ta'minglangan va biznesni tashkil etishning tashkiliy mexanizmlari soddalashgan sharoitda esa jamg'armalar ishlab chiqarishni rag'batlantiradi yoki aholining jamg'armani iste'molga sarflashi esa korxonalarining mahsulotlariga talabni oshiradi va shu orqali korxonalarining moliyaviy resurslarini ko'paytirishga xizmat qiladi. Bu yerda birinchi pozitsiya aholi uchun ham iqtisodiyot uchun ancha qulay bo'lib, u doimiy soliq salohiyatini yuzaga keltiradi.

Milliy, hududiy hamda korxonalarining soliq salohiyatining hajmiga sug'urta va qimmatli qog'ozlar bozorining ta'siri ham ahamiyatlidir. Sug'urta ularning faoliyatining garovi sifatida ta'sir ko'rsatsa, qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishi kapitallarning faollashuvini ta'minlaydi, real va xizmatlar ko'rsatish va boshqa sektorlarga qo'shimcha mablag'larni jalb qiladi, jamg'armalarning reinvestitsiyalanishini tezlashtiradi va shu orqali ikki tomonlama soliq salohiyatini, ya'ni emitentga qo'shimcha mablag'ni, qimmatli qog'oz egasiga esa qo'shimcha daromadni kafolatlaydi. Soliq salohiyatining omillari sifatida mehnat resurslarining bilan ta'minlanganlik va ularning malaka darajasi (ishlab chiqarish jarayonida mehnat resurslari va ularning malaka darajasi yangi

qiymatni yaratishda muhim rol o'ynaydi), mehnatga layoqatli va pensiya yoshidagi aholi qatlamlari o'rtasidagi paritet darajasi (demografik tarkibda mehnatga layoqatli aholining band bo'lish darajasi oshishi qo'shimcha soliq salohiyatlarini yuzaga keltiradi, aksincha mehnatga layoqatli aholining bandligining kamayishi va pensiya yoshidagi aholi sonining o'sib borishi bir tomondan soliq salohiyatining kamayishiga olib kelsa, boshqa tomondan pensiya fondi mablag'larining investitsiyaga yo'naltirilishiga to'siq bo'lishi bilan birga qo'shimcha mablag'larni talab qiladi, bu esa iqtisodiyot subyektlarining moliyaviy resurslari yoki boshqa manbalar (masalan byudjet mablag'lari) ni jalb qilishni taqozo etadi, provardida esa soliq salohiyatining pasayishiga olib keladi.

Tabiiy-iqlim shart-sharoitlar, qazilma boyliklarning joylashuvi, eko-turizm darajasi, ya'ni qulay tabiiy iqlim ishlab chiqarishni tashkil etish bilan birgalikda masalan, qishloq xo'jalik sohasida moliyaviy resurslarning paydo bo'lishida eng asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Qulay iqlim sharoiti ishlab chiqarishda muomala xarajatlarini kamaytirsa, yuqori hosil olish garovi hisoblanadi, shuningdek, kerakli va malakali mehnat resurslarini jalb qilishga imkon yaratadi (og'ir sharoitlarda birinchidan, mehnat resurslarni jalb qilish qiyin kechsa, boshqa tomondan ularga qo'shimcha mablag'larni sarf qilishni taqozo etadi). Tabiiy iqlim sharoiti qishloq xo'jaligida ta'siri ikki tomonlama bo'ladi. Agar iqlim sharoiti yomon kelsa, daromadning kamaytirib zararni ko'paytirsa, boshqa tomondan qishloq xo'jalik korxonasida soliq to'lovlari bo'yicha nafaqat soliq salohiyati kamayadi, shuningdek, soliq boqimandaligini keltirib chiqaradi¹¹⁶, provardida esa hududning real soliq salohiyatining pasayishiga olib keladi.

Qazilma boyliklarning joylashuvi ham soliq salohiyatiga ta'sir qiladi. Ularning hududlar bo'yicha joylashuvi shu hududda infratuzilmani rivojlantirishga, qo'shimcha investiyalarni jalb qilishga

¹¹⁶ Qishloq xo'jalik korxonalari er solig'ini kadastr usulida to'lashi, soliq so'mmasining ularning moliyaviy natijasiga bog'liq bo'lmasiligini izohlaydi.

undasa, boshqa tomondan ularning progressiv soliq tortilishi¹¹⁷ hududning soliq salohiyatini oshiradi. Bu yerda qazilma boyliklarini qayta ishlash xarajatlari ham katta ahamiyatga ega ekanligini e'tiborga olish lozim bo'ladi. Ta'kidlash o'rinliki, hududlarning soliq salohiyatining muhim omillari sifatida eko-turizmning darajasi muhim ro' o'ynaydi. Keyingi yillarda barcha davlatlarda eng muhim resurs jalb qiluvchi obyektlar sifatida rivojlantirishga urg'u berilmoqda. Ekoturizmni rivojlantirish birinchidan yuqori rentabelli soha bo'lsa, boshqa tomondan infratuzilmaning rivojlanishiga, moliyaviy resurslarni jalb qilishga, investorlar tomonidan investitsiyalarni yo'naltirishga katta turtki beradi va hududning soliq salohiyatining oshishiga olib keladi. Soliq salohiyatining yana boshqa omillari qatoriga mamlakat doirasida tashqi siyosat(jumladan iqtisodiy siyosat)ning yo'nalishlari, proteksionizm siyosati, aholining ishlab chiqarish mentaliteti(aholining ma'lum qismi an'naviy iqtisodiyotga sodiq qolib garchi bunday tovarlar va xizmatlar bozor tomonidan unchalik tan olinmasada milliy xususiyatni e'tiborga olib bunday faoliyat bilan shug'ullanishni davom ettirishi), ishlab chiqarishning tarixiy rivoj topganligi va turizmni rivojlantirishning muhim omili sifatida tarixiy obidalarning roli kabi omillar hududlarning soliq salohiyatiga katta ta'sir kuchiga egadirlar.

6.3. Soliq salohiyatini hisoblash metodlari

Soliq salohiyatini aniqlashda eng muhim jarayon uni aniqlashning metodlarini to'g'ri tanlash va ular asosida soliq salohiyatini hisoblab chiqish tartib va mexanizmlari hisoblanadi. Soliq salohiyatni to'g'ri hisoblash esa soliqlarning yig'iluvchanligini ta'minlaydi. Soliqlarning yig'iluvchanligi bir tomondan soliq to'lovchilarning soliq madaniyatiga bog'liq bo'lsa, boshqa tomondan soliq xizmati organlarining faoliyatiga hamda soliq salohiyatining aniqlilik darajasiga bog'liq bo'ladi. Agar,

¹¹⁷ Aksariyat davlatlarda jumladan O'zbekistonda ham foydali qazilmalar progressiv soliqqa tortish tartibida soliqqa tortiladi.

soliqlarni prognoz ko'rsatkichlari oshirish ko'rsatilgan yoki soliq salohiyati noto'g'ri aniqlangan bo'lsa amaldagi soliq stavkalari, soliq to'lovchilar va faoliyat turlari aniq bo'lgan va soliq xizmati organlari o'z faoliyatini etarli darajada tashkil qilgan bir sharoitda ham byudjetga belgilangan soliq tushumlari kelib tushmasligi ham mumkin.

Shunday ekan soliq salohiyatining mazmuni, uning turlari va unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash masalaning bir tomoni bo'lib, uni hisoblash jarayoni esa alohida masaladir. Ta'kidlash kerakki, soliq salohiyatini aniqlashning turli metodlari mavjud bo'lib, ularning xususiyatlari, qo'llanish tartibi hamda ularning kamchiliklari xususida ko'pgina olimlar va amaliyotchilar tomonidan metodlar taklif qilingan va ular haqida fikrlar bildirilgan. Iqtisodiy adabiyotlardagi soliq salohiyatini aniqlashga oid yondoshuvlarni tahlil qilish natijasida quyidagi to'rt guruhdagi yondoshuvlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) iqtisodiy daromadlarga asoslangan holda baholash;
- 2) o'rtacha mu'tadil soliq siyosati tuzilishiga asoslangan holda aniqlash;
- 3) soliq hisobotlari va soliq tushumlarini ko'riktirovka qilish asosida baholash;
- 4) iqtisodiy indekslarni qo'llash asosida aniqlash.

Ushbu qayd etilgan har bir guruhga oid yondoshuvlar albatta aniqlanayotgan soliq salohiyatining tarkibi, uning ko'lamiyligi va obyektga ta'sir etuvchi omillarning soni hamda darajalariga qarab munosib metodni qo'llash soliq salohiyatini aniqlash jarayonidagi eng muhim bosqichlardan hisoblanadi. Eng ko'p tarqalgan va eng oddiy metodlar sirasiga yalpi ichki mahsulotga nisbatan aniqlash hisoblanadi, ya'ni:

$$Np = G * Ng,$$

Bu yerda: G - YaIM hajmi;

Ng - soliq salohiyatining YaIMdagi ulushi.

Soliq salohiyatining YaIMdagi ulushi(Ng) esa $Ng = r1 - r2$ tartibda, ya'ni YaIMdagi yalpi qo'shilgan qiymat($r1$) va yalpi foyda

normasining YaIMdagi ulushi(r_2)ning farqi sifatida aniqlanadi va soliq salohiyatini aniqlashning YaIM asosidagi metod esa $Np = (r_1 - r_2) \times G$. ko'rishiga ega bo'ladi. Yalpi qo'shilgan qiymatning, jumladan soliqli to'lovlarning YaIMdagi ulushi esa quyidagi tartibda aniqlanadi:

$$r_1 = WDS/G,$$

Bu yerda: WDS – soliq to'lovlari; G – YaIM hajmi.

YaIMga nisbatan yalpi foydaning ulushi esa yalpi foydaning(soliq to'lovlar chegirib tashlangan holda) YaIMga nisbati sifatida aniqlanadi:

$$r_2 = WP/G,$$

Bu yerda: WP – yalpi foydaning(soliq to'lovlar chegirib tashlangan holda);

G – YaIM hajmi.

Ushbu metodlar dunyoning aksariyat davlatlarida uslubiy jihatdan oddiy va umumiy soliq salohiyatini aniqlash, shuningdek, miliy iqtisodiyot va hududlar doirasida uning umumiy xususiyatlarini tahlil qilish maqsadida qo'llanilib, mazmunan miqdoriy ko'rsatkichlarga asoslanadi. Ammo, soliq salohiyatining ichki xususiyatlarini ochib berolmaydi.

Soliq salohiyatini aniqlashning eng oddiy metodlaridan yana biri sifatida professor I.V.Gorskiy tomonidan quyidagi metod ishlab chiqilgan:¹¹⁸

$$NPR = F + Z + L,$$

Bu yerda: NPR — hududning soliq salohiyati, (pul qiymatida);

F — Haqiqiy soliq tushumlari, (pul qiymatida);

Z — Hisobot davrida soliq qarzdorligining ortishi(pul qiymatida);

L — Hududga to'g'ri keluvchi soliq imtiyozlari(pul qiymatida).

Mazkur metod iqtisodchilar o'rtasida «haqiqiy metod» deb nom olgan bo'lib, unda hududning soliq salohiyati byudjetga kelib tushgan haqiqiy soliq tushumlariga nisbatan hisoblanadi. Albatta bunday metod umumiy xarakterga ega. Ya'ni byudjetga kelib tushgan soliq tushumlari bo'yicha soliq salohiyatini aniqlash miqdoriy xususiyatga ega bo'lib,

¹¹⁸ Горский И.В. Налоговый потенциал в механизме межбюджетных отношений // Финансы. 1999. № 6. 11с.

sifat ko'rsatkichlarini e'tiborga olmaydi. Jarayonni chuqur o'rganishning eng samarali metodlari sifatida miqdor va sifat ko'rsatkichlar o'zaro bog'liq holda o'rganish sharti ilmiy metodologiyada aksiomaga aylanganadir. Shu jihatdan olgan mazkur metod soliq salohiyatini aniqlashda aniq holatni ifoda etmaydi. Shu bilan birgalikda ushbu muallif(I.Gorskiy) soliq salohiyatini aniqlashning boshqa metodini ham ilgari suradi:¹¹⁹

$$NPR = \sum NB_i * t_i / 100,$$

Bu yerda: *NPR* — hududning soliq salohiyati, (pul qiymatida);

NB — soliq bazasi, (pul qiymatida);

t — *i* turdagi soliqning eng yuqori stavkasi %;

n — soliq turlari soni;

i — soliq turi.

Keltirilgan ikkala metod ham moliya yiliga nisbatan hisoblangan bo'lib, unda Moliya vazirligining ma'lumotlariga asoslanadi. Ammo ta'kidlash lozimki, I.Gorskiy tomonidan keltirilgan ikkinchi metod avvalgisiga qaraganda biroz aniqlikni izohlasada ammo, bunda ham haqiqiy soliq tushumlariga asoslangan bo'lib, sifat ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligi ta'siri e'tiborga olinmagan. Shu bilan birgalikda soliq turlari bo'yicha soliq bazalari qiymati soliq xizmati organlari tomonidan hisoblab chiqiladi. Bunda soliq bazalarini hisoblab chiqish ancha murakkabdir. Chunki, soliq bazalari nafaqat qiymat shaklida, shuningdek, fizik ko'rsatkichlarni(masalan transport vositalarining ot kuchi shu kabilar) ham hisobga olishni taqozo etadi, bu esa moliya va soliq organlarining ma'lumotlari o'rtasida noaniqliklar kelib chiqishi mumkin va soliq salohiyatining ko'rsatkichini obyektivligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

I.Gorskiydan farqli ravishda O.V.Bogacheva soliq salohiyatini aniqlashda soliq bazasining o'rniga aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha daromad, hududiy yalpi mahsulot hamda umumiy soliq resursidan foydalanishni tavsiya qiladi. Muallifning fikricha bu turdagi ma'lumotlar yagona organ statistika organlari tomonidan barcha

¹¹⁹ O'sha manba.

hududlar kesimida aniqlanib, ulardan foydalanish ma'lumotlarning buzib ko'rsatilishining oldi olinadi va soliq salohiyatini obyektivli bo'lishini ta'minlaydi.¹²⁰ Biroq, muallif ta'kidlagan ko'rsatkichlar haqiqatan ham soliq salohiyatini aniqlashga etarli darajada ahamiyatga ega bo'lsada, unda aholi daromadlarining barcha manbalarini aks ettirish imkoni yo'q, shuningdek, xizmatlar sohasidagi daromad manbalarini ham bu ko'rsatkichlarda to'liq aks ettirilmaydi(masalan, turizmdan olingan daromadlar), bundan tashqari norezidentlarning hududdan olgan daromadlari ham bu ko'rsatkichlarda aks ettirish qiyin, shu tufayli bunday ko'rsatikchlar ham birdan bir ko'rsatkich sifatida qabul qilib bo'lmaydi. Shu bilan birgalikda aksariyat davlatlarda (jumladan, O'zbekistonda ham) korxonalar ro'yxatdan o'tgan hudud bo'yicha soliq majburiyatlarini bajaradilar, bu esa hududlarning yalpi hududiy mahsuloti tarkibiga asoslanib soliq salohiyatini aniqlaydigan bo'lsak, u holda hududiy yalpi mahsulot soliq to'lovlari o'rtasida farq mavjud bo'lib qoladi.

Jami soliq resursllari ko'rsatkichini qo'llaydigan bo'lsak, u holda yuqori byudjetdan quyi byudjetlarga berilgan transfert shaklidagi to'lovlarni chiqarib tashlab lozim bo'ladi, o'z navbatida yuqori byudjetdan berilgan(yuridik va jismoniy shaxslarga) ushbu summalar hududning ham yalpi mahsulotida aks etgan bo'ladi, demak, bu erda ham qayta hisob-kitoblar qilish zarur bo'ladi. Bu yerda yana bir muammo borki, u ham bo'lsa yuqorida qisqa ta'kidlaganimizdek, soliq to'lovchilarning yalpi daromadining korxonalar faoliyat ko'rsatayotgan hududning yalpi mahsulotida aks ettirilishi, uning soliq majburiyatlari esa korxonalar ro'yxatdan o'tgan hududga to'lanishi bo'lib, bunda bir hududning yalpi hududiy mahsulotidagi soliq salohiyati ulushining kamayishtirishni taqozo qilsa, boshqa hududning yalpi mahsulotida esa aks etmaydi qolishidir, bu erda soliq salohiyatini aniqlashda esa qayta hisob-kitoblar qilishni taqozo etadiki, bu fizik jihatdan ancha murakkab jarayondir. Soliq salohiyatini tarmoqlar bo'yicha aniqlash ancha

¹²⁰ Богачева О.В. Налоговый потенциал и региональные счёта // Финансы. 2000. № 2 — 3. 21-23 с.

murakkab ish hisoblanadi. Chunki, har bir tarmoqning o'z ishlab chiqarish texnologiyalari bilan farqlansa, ularda moliyaviy ko'rsatkichlarining shakllanishi va aniqlanishi ham bir-biridan farq qilishi mumkin.

Tarmoqlar bo'yicha soliq salohiyatanini aniqlash borasida Rossiyada ma'lum bir tajribalar amalga oshirilgan. Rossiya Moliya vazirligi va Statistika davlat qo'mitasi bilan hamkorlikda tomonidan ishlab chiqilgan «soliq resurslarining o'rtacha qiymati» va «soliq salohiyati indeksi» ko'rsatkichlariga asoslanib har bir tarmoqning o'rtacha soliq salohiyati hisoblanadi. Soliq salohiyati indeksi esa bu hududda aholi jon boshiga ishlab chiqilgan qo'shilgan qiymatning hajmini ifodalaydi, shu jihatdan mazkur ko'rsatkich har bir hududning mamlakat miqyosidagi o'rtacha soliqli daromadlaridan qancha farqlanishini ko'rsatib beradi.¹²¹ Tarmoqlar bo'yicha soliq indeksining o'rtacha koeffitsienti iqtisodiyotning umumiy darajasi va tarmoq rivojlanishining holatidan kelib chiqib o'zgarib turadi. Qaysi tarmoqda qo'shilgan qiymat qo'proq bo'lsa koeffitsient darajasi ham yuqori bo'ladi. Masalan, Rossiyalik iqtisodchilarining hisob-kitoblaricha 2007-20012 yillar oralig'ida tarmoqlar bo'yicha koeffitsient o'rtacha quyidagini tashkil qilgan: sanoatda-0,265-0,269; qurilishda: 0,163-0,184; qishloq xo'jaligida-0,066-0,0587; xizmatlar sohasida-0,113-0,117 va hakozi. Ushbularga asoslangan holda yalpi soliq resursi hajmi quyidagi formulani yuzaga keltiradi.¹²²

$$YaSR=0,265*YaHM_{sanoat}+0,163*YaHM_{qurilish}+0,066*YaHM_{qish.xo}+0,113*YaHM_{xizmatlar}.$$

Bu yerda:

YaSR-yalpi soliq resursi(qiymat shaklda),

YaHM-yalpi hududiy mahsulot(tarmoq bo'yicha, qiymat shaklda).

Mazkur aniqlangan qiymat esa ma'lum davr oralig'idagi yoki hisobot davrining avvalgi yil(lar)ga davrdagi soliq siyosatidagi o'zgarishlar(soliq stavkalarining kamaytirilishi yoki oshirilishi, soliq

¹²¹ Qarang: Бирюков А.Г. К оценке бюджетной обеспеченности регионов. // Финансы. 2001. № 4. 19 с.

¹²² Qarang: Методика распределения средств Фонда финансовой поддержки субъектов Российской Федерации на 2000 г. (<http://budgetrf.ru>).

imtiyozlarining ko'paytirishli(kamaytirilishi) shu kabi omillarni hisobga olgan holda kuzatuvchi koeffitsient(hisoblanayotgan davrdagi byudjet daromadlarining bazis yilidagi soliq resurslari hajmiga nisbati)ni ko'paytirish orqali qayta korriktirovka qilinadi. Aniqlangan natija esa soliq qonunchiligidagi o'zgarishlarni hisobga olgan holdagi yalpi soliq resurslarini ifodalaydi. Ushbu metod tarmoqlar bo'yicha yalpi soliq resursini aniqlashga xizmat qilishi tabiiy. Ammo, uning ayrim kamchiliklari ham mavjudki, ular jumlasiga unda qo'llaniladigan hisob-kitoblarning murakkabligi, shuningdek, ayrim tarmoqlardagi yirik korxonalarining faoliyati aynan shu tarmoqqa mos kelmasligi, ya'ni u boshqa tarmoq nomenklaturasidagi mahsulotlarni ham ko'proq ishlab chiqarish mumkin, bunda esa qo'shilgan qiymat hajmi bir necha tarmoqqa tegishli bo'lib qoladiki, buni hisobga olish juda mushkul vazifa bo'lib, provardida tarmoqlar o'rtasidagi qo'shilgan qiymatni aniq qilib hisoblash imkoni yo'qoladi.

Bundan tashqari ushbu metodda hududiy kesimda byudjetlararo munosabatlarni tartibga solishda soliq salohiyatining rolini aks ettirib bo'lmaydi, vaholanki, soliq salohiyati darajasi byudjet transfetrlarini taqsimlashda eng muhim omillardan biri sanaladi. Ayrim iqtisodchilar soliq salohiyatini aniqlashda milliy xo'jalik va hududlar kesimidagi jarayonni bog'liqlik holda yondoshish lozim deb hisoblaydilar. Ushbu yondoshuv tarafdorlari bo'lgan Klimova N.I., Mixeeva N.N., S.A. Suspitsinlar soliq salohiyatini aniqlashning quyidagi metodini taklif qilishadi:¹²³

$$NP_{v,t,r,b} = \frac{ППР(r=x)}{ЧНr} = \frac{НП(r=x) \cdot \frac{\Phi\Pi}{НП}}{ЧНr}$$

Bu yerda:

gde $NP_{v,t,r,b}$ — hududning soliq salohiyati(pul qiymatida);

$PNR_{(r=x)}$ — hududda yuzaga kelgan soliq resurslari, (pul qiymatida);

$ChNr$ —hududdagi aholi soni(kishi);

¹²³ Климова Н.И., Михеева Н.Н., Суспицын С.А. и др. Проект СИРЕНА: влияние государственной политики на региональное развитие Новосибирск : Изд-во ИЭОПП, 2002.

$NRr=x$ — hududdagi soliq resursi (pul qiymatida);

FP — mamlakat bo'yicha soliq tushumlari (pul qiymatida);

NR — mamlakat bo'yicha soliq resurslari (pul qiymatida).

Ushbu formuladan ko'rish mumkinki, hududda yuzaga kelgan soliq resurslari hajmini hududning soliq salohiyatiga mamlakat bo'yicha soliq tushumlari va mamlakat bo'yicha soliq resurslarining nisbatining ko'paytmasi sifatida qaralgan, ya'ni boshqacha qilib aytganda soliq resurslari soliq salohiyatidan kengroq hajmda bo'ladi. Biroq, mazkur metod mamlakat va hudud miqyosidagi soliq resurslari va soliq salohiyati hamda soliq tushumlari o'rtasidagi bog'liqlikni ma'lum darajada o'zida aks ettirsada, nisbat ko'rsatkichi qilib aholi sonining olinishi holatni to'laligicha aniq aks ettira olmaydi. Birinchidan aholi daromad topish manbasi va darajasi tabaqlashgan bo'ladi, ikkinchidan esa ularning daromad manbalarining hammasi ham hududning yalpi mahsuloti tarkibida aks etmagan bo'ladi (boshqa davlat va hududlardan olingan daromadlar).

Ayrim iqtisodchilar tomonidan milliy va hududiy darajada soliq salohiyatini aniqlashni baholashda tizimlashgan tartibda yondoshish zarurligi e'tirof etiladi. Chunonchi, I. Moiseenko fikricha soliq salohiyati bu – iqtisodiyot va (yoki) soliq bazasining strukturasi va rivojlanish bazasidan kelib chiqib, byudjetga olish mumkin bo'lgan soliq daromadlari hajmidir deb hisoblab, uni aniqlashda quyidagi tartibda amalga oshirish lozim deb hisoblaydi: yalpi mintaqaviy mahsulot asosida mintaqalarning soliq salohiyatini baholash; regression modellardan foydalangan holda baholash; soliq tizimining maxsus metodlaridan foydalangan iqtisodiyot subyektlarining soliq salohiyatini baholash.¹²⁴

Mintaqalar soliq salohiyatini tavsiflashga kontseptual va metodologik yondashuvlar tahlili ularning eng oqilona elementlarini sintez qilish, tanlangan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va soliq bazasining holati o'rtasida funktsional bog'liqliklarni aniqlash va shu asosda

¹²⁴ Моисеенко И.А. К вопросу о методике оценки налогового потенциала. Вестник Северо-Кавказского федерального университета, (2010), 4, 245-249 с.

mamlakat mintaqalari va iqtisodiyot tarmoqlarida soliqlarning obyektiv salohiyatini baholash uchun mos keluvchi algoritmlar ishlab chiqish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Shunday qilib, byudjet-soliqlarni rejalashtirish va prognoz qilish tizimi samaradorligi ortadi.

Soliq tushumlarining o'sishi va soliq to'lovlari to'planishini oshirishni ta'minlash bo'yicha davlatning muhim vazifasi hal etilishi mintaqada soliq salohiyatini miqdoriy baholashni taqozo etadi. Mintaqaning byudjet daromadlarini shakllantirish salohiyatni aks ettiradigan ko'rsatkichni tanlash ko'pincha ishonchli statistika bazasining yo'qligi tufayli murakkablashadi: ma'lumotlar ko'pincha noaniq bo'ladi yoki umuman bo'lmaydi. Bunda soliq salohiyatini amaliyotda mintaqada amalda to'plangan soliqlar va mintaqaning byudjet daromadlari shakllantirish salohiyati o'rtasidagi farqning yuzaga kelishi sabablarini ham e'tiborga olish zarur. Masalan, bir xil soliq salohiyatiga ega bo'lgan mintaqalar soliq stavkalarining har xilligi tufayli yoki soliq organlari faoliyati samaradorligining har xilligi oqibatida turli miqdorda soliq to'lovlari to'plashi mumkin.

Soliq salohiyati mintaqaning iqtisodiy strukturasi va uning soliq bazalari bilan belgilanadigan soliqqa tortiladigan resurslar bilan ta'minlangani bilan tavsiflanadi. Masalan, korxonalar foyda solig'i bazasi bu – hududda ro'yxatga olingan barcha korxonalar tomonidan olinadigan soliqqa tortiladigan foyda miqdoridir. Soliq bazalariga boshqa misollar – jismoniy shaxslarning daromadlari (JShDS soliq bazasini tashkil qiladi), ishlab chiqarish jarayonida qo'shilgan qiymat (qo'shilgan qiymat solig'i), soliqqa tortiladigan mulk qiymati (mulk solig'i) va h.k. Ko'rinib turibdiki, soliq salohiyati mintaqaning umumiy soliq bazasiga proportsionaldir. Masalan, mintaqa byudjeti daromadlarining eng aniq manbasi – bu mintaqada istiqomat qiladigan soliq to'lovchilarning daromadlari – mintaqa soliq salohiyati nisbiy darajasining ko'rsatkichlaridan biri – mintaqa aholisining o'rtacha kishi boshiga to'g'ri keladigan daromadlari bilan bog'liq.

Mintaqalar soliq salohiyatini belgilangan vaqt davomida mintaqa iqtisodiy resurslaridan (er, mehnat va kapital) foydalangan holda ishlab chiqarilgan tovarlar, ishlar va xizmatlar umumiy qiymati sifatida aniqlanadigan va korxonalarining ro'yxatdan o'tgan joyi yoki xodimlarining yashash joyidan qat'i nazar, mintaqa ichkarisida shakllantiriladigan barcha daromadlarni o'z ichiga oladigan yalpi mintaqaviy mahsulot (YaMM) to'laroq aks ettiradi. Amaliyotda YaMM ko'rsatkichida sezilarli ulushni jismoniy shaxslar – mos keluvchi mintaqa aholisining daromadlari egallaydi, chunki mintaqa aholisining katta qismi asosan istiqomat qilayotgan mintaqada ishlaydi. YaMM ushbu mintaqada soliqqa tortilishi lozim bo'lgan norezidentlarning daromaddarini ham o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, o'rtacha kishi boshiga to'g'ri keladigan ko'rsatkichdan farqli ravishda, YaMM shuningdek, sayyohlarning mehmonxona xizmatlariga va mintaqa hududida amalga oshirilgan xaridlarga sarflangan mablag'larini ham aks ettiradi.

Soliq salohiyati o'lchovi sifatida YaMM kamchiliklari Respublikamiz soliqlar strukturasi o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq. Masalan, hozirgi paytda korxonalar foyda solig'i korxonalar xo'jalik faoliyatini amalga oshiradigan hudud bo'yicha emas, balki korxonalar ro'yxatdan o'tgan joyda to'lanadi. Shu boisdan soliq salohiyati va YaMM o'rtasida tafovutlar vujudga keladi. Boshqa mamlakatlarda¹²⁵ korxonalar daromadlari ular o'zining xo'jalik faoliyatini amalga oshiradigan barcha mintaqalar bo'yicha ishlab chiqarish quvvatlarining joylashuvi, mehnat resurslari va sotuv hududiy strukturasi hisobga oladigan formulalar vositasida yoyiladi. Real soliqqa tortiladigan resurslar va YaMM o'rtasidagi nomuvofiqlikni bartaraf etishga harakatlari mintaqalar umumiy soliqqa tortiladigan resurslari ko'rsatkichining yaratilishiga olib keldi.

Ayrim iqtisodchilar yalpi mintaqaviy mahsulot (YaMM) bilan bog'liq bo'lgan umumiy soliqqa tortiladigan resurslar (STR) ko'rsatkichini YaMMga muqobil variant sifatida taklif etadi, buning

¹²⁵ Masalan, Norvegiya, Finlandiya, Lyuksemburg, Gretsiya va shu kabilar.

sababini esa ayrim umumdavlat soliqlar va davlat byudjet transfertlarining mintaqalar soliq salohiyatiga ta'sirini hisobga olmaslik holati bilan izohlaydi.¹²⁶ Misol uchun, AQSH Federal hukumati 1987 yil fiskal salohiyat chorasi sifatida STRdan foydalana boshladi. STRni aniqlash uchun bir qator o'zgarishlarni amalga oshirish zarur bo'ladi. Birinchidan, YaMMdan ayrim umumdavlat soliqlarni chiqarib tashlash kerak, chunki bu mablag'lar mintaqaviy va mahalliy byudjetlar uchun daromad manbasi hisolanmaydi. So'ngra YaMM ko'rsatkichi davlat byudjetdan korxonalar va jismoniy shaxslarga to'g'ridan-to'g'ri transfertlar, jumladan, pensiya fondi to'lovlari va ishsizlik bo'yicha nafakat to'lovlari miqdoriga oshirilishi lozim.

O'zgarishlarning ikkinchi guruhi korxonalar foyda solig'i strukturasi xususiyatlarini hisobga olish bilan bog'liq. Respublikamizda korxonalar xo'jalik faoliyatini amalga oshiradigan joy bo'yicha emas, balki uning ro'yxatga olingan joyi bo'yicha undiriladi. Shu boisdan mintaqaning soliqqa tortiladigan resurslari va YaMM o'rtasida tafovut yuzaga keladi, chunki YaMM korxonaning ro'yxatga olinish joyidan qat'i nazar, mintaqada olingan barcha foyda miqdorini hisobga oladi. Shunday qilib, yuqorida olingan oraliq natijadan mintaqalar hududida joylashgan, lekin boshqa mintaqalarda ro'yxatga olingan korxonalar foydasini chiqarib tashlash va mintaqadan tashqarida joylashgan, lekin mintaqada ro'yxatga olingan korxonalar foydasini qo'shish lozim bo'ladi.

Iqtisodchi olim A. Shogenovning fikriga ko'ra soliq salohiyatini aniqlashda albatta soliq to'lovchilar tomonidan byudjetga hisoblangan ammo hali undirilmagan soliq summalari (soliq to'lovchilar va soliq xizmati organlari o'rtasidagi bahslar tufayli sudlarda ko'rilayotgan ishlar hajmida) va soliqlarning yig'iliuvchanlik ko'rsatkichlarini ham e'tiborga olish lozim bo'ladi va ushbu jarayonni aks ettiruvchi quyidagi formulani taklif etadi:¹²⁷

¹²⁶ Мишенна М.С. К ВОПРОСУ О СОДЕРЖАНИИ ПОНЯТИЯ НАЛОГОВОГО ПОТЕНЦИАЛА РЕГИОНА//Академический вестник, (2009), 4, 167-170 с.

¹²⁷ Шогенов А.А. Методические аспекты расчета налогового потенциала региона // Региональная экономика и управление: электронный научный журнал, 2013. - № 4 (28). - № пер. статьи 0097. - Режим доступа к журн.: <http://region.mcnip.ru> 55.

NP = NN + PD – PS,

Bu yerda: NN – hisoblangan soliq summalari;

PD – soliq tekshiruvlari vaqtida qo‘shimcha hisoblangan soliq summalari; PS – hisoblangan soliq summalarining byudjetga undiril-magan qismi.

Soliqlarning yig‘iluvchanlik darajasini hisobga olish uchun esa:

KS = PN : NP, formulasiidan foydalanishni taklif qiladi.

Bu yerda: PN —Byudjetga jalb qilingan soliq va majburiy to‘lovlar hajmi, NP – hududning soliq salohiyati. Muallifning fikriga ko‘ra bunday yondoshuv soliq salohiyatini aniqroq aniqlash bilan bir qatorda soliq xizmati organlarining faoliyatining samaradorligini ham o‘lchaydi. Aksariyat iqtisodchilar tomonidan tan olingan yana bir muhim metod borki u odatda «reprezentativ metod» ham deb yuritiladi. Mazkur metod soliq daromadlarini o‘zida aniq aks ettiradi, soliq daromadlari esa soliq salohiyatining asosini tashkil qiladi va u quyidagicha ko‘rinishga ega bo‘ladi¹²⁸:

$$\text{НПР} = \frac{\sum_{k=1}^k \text{НБК} * \text{НСк}}{100\%};$$

Bu yerda: НПР-hududning soliq salohiyati;

НБК - mamlakat i- hududning k -turdagi soliqli daromadining soliq bazasi;

НСк – mamlakat i- hududning k -turdagi daromadiga representativ (o‘rtacha) soliq stavkasi.

Mazkur metodning yana bir xususiyati shundaki, unda hudud doirasida o‘rtacha(mu‘tadil) bosimdagi soliq muhiti(bosimi) sharoitida ushbu hududda yig‘ish mumkin bo‘lgan va amalda hisoblangan soliq summalari asos qilib olinadi. Ushbu metod ahamiyati jihatdan hududning soliq salohiyatini aniqroq baholashga xizmat qilsada, ammo u ko‘p mehnat talab qiladi, shu bilan birgalikda hududning k -turdagi soliqli daromadining soliq bazasini aniq hisoblash ancha murakkab va yuqori

¹²⁸ Трунин И.В. Оценка налогового потенциала субъектов федерации и разработка методики распределения Фонда финансовой поддержки регионов на 2008г. -М.:НППП, 2011 г. – 369 с., с. 231.

malakani talab qiladiki, uni qo'llashda mutaxassislarning kasbiy malakasizligi bilan qilingan xatoliklar prognoz natijalariga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

Soliq salohiyati yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, uning amal qilishi, paydo bo'lishi va ko'lemi jihatdan ancha farqlanadi. Shu boisdan iqtisodiy adabiyotlarda soliq salohiyatini aniqlashda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga asoslangan holda hisoblashni aks ettiruvchi metodlar ham uchraydi. Soliq salohiyatini aniqlashda yana eng ko'p qo'llaniladigan metodlar biri sifatida quyidagi «additiv metod»ni ham mutaxassislar ko'p e'tirof etishadi¹²⁹:

$$NP = \sum (NB_i * NC_i) * S_1 * S_2 * S_3 * \dots * S_i$$

Bu yerda: NP – soliq salohiyati;

NB_i– i soliq turining soliq bazasi;

NS_i– i soliq turining soliq stavkasi;

S₁ * S₂ * S₃ * S_i –berilgan shartlarning aniqlashtiruvchi koeffitsientlari.

Mazkur metodni qo'llashda shu narsani e'tiborga olish lozim bo'ladiki, soliq turlari bo'yicha soliq bazalari va stavkalarining aniqligi ta'minlangan bir sharoitda soliq bazasining shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillarning ta'sirini qayta e'tiborga olishning tuzatuvchi koeffitsientlarini aniqlashda esa ularning funktsional bog'liqligini topish talab qilinadi, bu esa metodni qo'llashda matematik-ekonometrik qonuniyatlarni chetda qoldirmaslikni taqozo etadi.

RST yondashuvi doirasida regressiya tahlilidan foydalanishni nazarda tutadigan metod alohida e'tiborga loyiq. Uning afzalligi – soliq salohiyatini o'lchash uchun ma'lumotlarga ehtiyojning qisqarishi; faqat mintaq bo'yicha umumiy daromadlar haqida axborot va mintaqalar soliq bazalarining bilvosita o'lchovlari sifatida foydalaniladigan o'zgarishlar kichik to'plamigina talab etiladi va u quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

¹²⁹ Qarang: Вачугов И.В. Налоги и налоговый потенциал региона. – Н. Новгород: Изд-во Гладкова О.В., 2003.

Regressiya tahlili yordamida mintaqalar soliq salohiyatini baholash uchun b_1, b_2, \dots, b_m tasodifiy omillar optimal baholari vositasida quyidagi ko'rinishdagi tenglama foydalaniladi¹³⁰:

$$y_j = X_{1j} * B_1 + X_{2j} * B_2 + X_{mj} * B_m + E_j, j = 1, 2, \dots, n,$$

bu erda

y_j – mintaqada amalda to'plangan byudjetga to'lovlar;

X_j – ushbu mintaqaga uchun umumiy soliq bazasi hajmini yoki uning alohida tarkibiy qismlarini bevosita yoki bilvosita aks ettiradigan soliq bazasi ko'rsatkichlari;

m – ko'rib chiqilayotgan mintaqalar soni;

E_j – o'lchovlar tasodifiy xatosi.

Regressiya tahlilidan foydalanishda soliq tarkibiy qismlari bo'yicha daromad moddalarini guruhlash va soliq tizimining har bir tarkibiy qismi uchun o'zining soliq bazasini yaratish zarurati yo'qoladi. Ko'p sonli o'zgaruvchilarni kiritish ma'lumotlarni samaraliroq tahlil qilish hisobiga RST regressiya varianti aniqligini oshiradi.

Shunday qilib, mintaqaning ehtimoliy daromadlarini mintaqaning soliq salohiyati sifatida talqin qilish mumkin bo'lgan uning soliq bazasi ma'lum ko'rsatkichlar bo'yicha hisoblab chiqish mumkin. Byudjet tushumlari amaldagi qiymatining model yordamida hisoblab chiqilgan tushumlardan ehtimoliy farq qilishi soliq organlari faoliyati unumdorligining har xil ekanligi bilan izohlanadi. Bu yerda avvalgi boblarda tavsiflab o'tilgan regressiya metodini qo'llash katta ahamiyatga ega. Salohiyat soliq daromadlariga maksimal darajada ta'sir etadigan iqtisodiy ko'rsatkichlar yig'indisini tanlashga imkon beradigan regressiya metodining ustunligi uning RST hisob-kitob metodi bilan taqqoslaganda sarmashaqqat va obyektivroq ekanligi hisoblanadi, chunki regressiya tenglamasining o'zi statistik baholash jarayoni davomida soliq bazalari va amaldagi tushumlar o'rtasidagi bog'liqliklar haqida axborot beradi.

¹³⁰ Коломнец А.Л. Анализ концептуальных подходов и методов оценки налогового потенциала регионов // Налоговый Вестник. 2000. №1. 28 с.

Mazkur metod o'rtta muddatli va uzoq muddatli prognoz qilish maqsadlari uchun ayniqsa samaralidir, chunki u salohiyatni hisob-kitob qilishda e'tiborga olinadigan soliqlarning har biri bo'yicha soliq bazalari va soliq resurslari yig'indisini eng to'liq baholash mumkin bo'lgan paytdagi holatlar uchun ilgari ko'rib chiqilgan metodlarning ma'lum bir modifikatsiyasini ifodalaydi. Amaliy hisob-kitob uchun byudjet daromadlari hajmiga sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi hajmi, aholiga tovarlar va xizmatlar sotish, aholining pul daromadlari, asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymati ta'sirini belgilab beradigan o'zaro bog'liq iqtisodiy tavsifnomalar kichik to'plamidan foydalanish maqsadga muvofiq. Regressiya metodining kamchiligi uning murakkabligi hisoblanadi. Buning ustiga, mintaqalar soliq salohiyatining olingan ko'rsatkichlari foydalaniladigan iqtisodiy ko'rsatkichlar to'plamiga qarab sezilarli farq qilishi mumkin. Shu sababli soliq salohiyatining u yoki bu ko'rsatkichlarini oqilona tanlash qo'shimcha tahlil o'tkazishni talab qiladi. Bundan tashqari, regressiya tenglamasida foydalaniladigan kuzatuv nuqtalari soni mintaqalar soniga teng, regression baholash natijalari esa kuzatuv nuqtalari soni qanchalik ko'p bo'lsa, shunchalik aniqroq bo'ladi. Biroq Respublikamiz sharoitlarida bu muammo unchalik dolzarb emas, (metodning xususiyatiga ko'ra kuzatuv nuqtalar soni 10 va undan yuqori bo'lishi maqsadga muvofiqdir) chunki mintaqalar soni 10 tadan ko'p.

Ta'kidlash lozimki, soliq salohiyati bevosita moliyaviy resurs sifatidagi daromadlarning yuzaga kelish holatini ifodalaydiki, daromadlarning yuzaga kelishi esa ma'lum bir sharoitda va vaziyatlardagina stixiyali(favqulotda) va tabiiy jarayonlarga bog'liq bo'lsa, asosan ular bozor talablari va qonunlariga muvofiq shakllanadi. Bozor qonunlari va uning mexanizmlari esa juda ko'p omillarga tayanadi. Demak, bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, soliq salohiyatini o'zida to'liq namoyon eta oladigan metodni yaratish ham juda mushkuldir, aniqrog'ini bunday metod yaratilgan taqdirda ham uni qo'llash juda ko'p xatoliklarga uchraydi. Shu boisdan avvalo iqtisodchilar va moliyaviy

institutlar tomonidan ishlab chiqilgan va taklif etilayotgan metodlarning mohiyatini chuqur anglagan holda uni qo'llash etarli samara berish mumkin.

6.4. Soliq salohiyatini aniqlashning xorij tajribasi

Jahon soliqqa tortish tizimining muhim unsurlaridan biri soliqlar bo'yicha tushumlar va uning asosiy bo'g'ini bo'lgan soliq salohiyati (fiscal capacity)ni aniqlash va baholash hisoblanadi. Shu jihatdan olganda soliq salohiyatini aniqlashning turli xil metodlari jahonning rivojlangan davlatlaridan ham mavjud bo'lib, ular o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Bu borada ayrim davlat AQSH, Kanada, Shvetsiya, Frantsiya, Angliya hamda MDH davlatlari tajribasi sifatida Rossiya davlatida qo'llaniladigan metodlarning ayrim xususiyatlari haqida to'xtalib o'tamiz.

AQSHda soliq tizimida soliq salohiyatini aniqlashning umumiy metodi sifatida 1987 yilda Byudjetlararo munosabatlar bo'yicha komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan «representativ soliq tizimi» (RST)ga asoslangan mexanizm kompleksli xarakterga ega. Mazkur metodning muhim xususiyati soliqqa tortiladigan resurs (STR) ko'rsatkichi asosida mintaqaning amaldagi soliq resurslari hajmini YaMM dan ko'ra aniqroq aks ettiradi, biroq bu ko'rsatkichni hisob-kitob qilish uchun, xuddi YaMM kabi etarli darajada katta baza zarur. Mintaqalar soliq salohiyati o'lehoivi sifatida RST mohiyati soliq barcha mintaqalarda soliqqa tortish stavkalari va soliqlar tarkibi bir xil bo'lib, soliq harakatlari o'rtacha darajasi shartida mintaqada to'planishi mumkin bo'lgan byudjet to'lovlari miqdorini hisob-kitob qilishdan iborat (AQSHda shtatlar hukumati mahalliy soliqlar tarkibi va strukturasi, shuningdek, ular undiriladigan stavkalarni o'zlari belgilashi mumkin). Ushbu metodni qo'llash uchun barcha mintaqalar bo'yicha ma'lumotlarga ega bo'lish zarur. Amalda to'plangan soliqlar va yig'implar bo'yicha va ularning soliq bazalari bo'yicha ma'lumotlarga ega bo'lib,

mintaqa bo'yicha tushumlar hajmini hisoblab chiqish mumkin. Aynan shu ko'rsatkich mintaqaning soliq salohiyati o'lchovi sifatida qabul qilingan.

AQSHda mazkur metoddan to'laqonli foydalanish uchun 5 bosqichdan iborat mexanizmdan foydalaniladi.

Birinchi bosqich: Har bir shtatning barcha byudjet daromadlari moddalarini aniqlanadi. Ya'ni, har bir mintaqaga uchun RSTni baholash mahalliy byudjet daromadlarining barcha moddalarini aniqlash, turli mintaqalar daromad moddalarini yagona tasnifini tuzish, standart (normativ) soliq bazasi tarkibi va soliqqa tortishning reprezentativ (o'rtacha) stavkasini aniqlash, shuningdek, mintaqaning soliq salohiyatini hisoblab chiqishni o'z ichiga oladi. RST metodi orqali soliq salohiyatini aniqroq baholash uchun har bir shtatdagi mavjud barcha mahalliy soliqlar va soliqsiz to'lovlar (litsenziya olish uchun to'lov, ro'yxatdan o'tish yig'imi, turli xil ruxsatnomalarni olish yig'imi, kommunal xizmatlardan foydalanganlik uchun to'lov sh.k.), jarimalar aniqlab chiqiladi. Ammo ushbu soliqlar va majburiy to'lovlar shtatlar kesimida turlicha bo'lishi mumkin.

Ikkinchi bosqich: Turli xil shtatlarning daromad moddalarini yagona klassifikatsiyaga birlashtiriladi. Ta'kidlanganidek, mahalliy soliqlar va yig'imlar har xil tartib qoidalarga asoslangan holda undiriladi. shu boisdan ularni yagona tartibda baholash uchun yagona sxema asosida klassifikatsiya qilinadi. Bunda daromadlarni manbalari bo'yicha umumlashtirish mexanizmlar qo'llaniladi. Masalan, bir guruhga barcha hududiy aksiz solig'ini kuchli alkogol ichimliklar guruhiga birlashtiriladi. Bunday birlashtirish daromad manbalarining kichik turlarigacha guruhlashtirish imkonini beradi. AQSHda RSTga 27 ta soliq turi kiritilgan bo'lib, ular asosida hududlarning soliq salohiyati aniqlanadi.

Uchinchi bosqich: Har bir daromad guruhlari uchun yagona (normativ) soliq bazasi aniqlanadi. Bunda agar turli xil shtatlarda bir xil turdagi va ularni undirish mexanizmlari o'zaro o'xshash soliq mavjud

bo'lsa, ular bo'yicha alohida standart soliq bazalari o'rnatilsa, qolganlari bo'icha shartli soliq bazalari ishlab chiqilgan holda aniqlanadi. Ammo, oxirgi jarayon murakkab bo'lib, u bo'yicha aniqlik darajasi etarli bo'lmaydi. Masalan, «iste'mol hajmi», «yalpi sotish va realizatsiyadan tushgan yalpi tushum», «alkogol mahsulotlarning realizatsiyasi» shu kabi ko'rsatkilar bir necha soliqlar uchun soliq bazasi sifatida mezon qilib olinishi mumkin. Ushbu yondoshuvning o'ziga xosligi shundaki, mazkur ko'rsatkichlar uchun ma'lumotlar davlatga qarashli bo'lmagan mustaqil manbalardan olinish talab qilinadi.

To'rtinchi bosqich: Har bir soliq bazasi uchun reprezentativ (o'rtacha) soliqqa tortish stavkasi aniqlanadi. Ya'ni bu bosqichda avvalgi bosqichda aniqlangan soliq bazalariga mos holda o'rtacha soliq stavkalarini aniqlashda byudjetlarga kelib tushgan solqi turlari bo'yicha haqiqiy soliq tushumlaridan foydalaniladi va o'rtacha tortilgan soliq stavkalari aniqlanadi. Buning uchun har bir soliq komponentlari bo'yicha barcha shtatlarning daromadlari aniqlanib, ushbu soliq komponentlari bo'yicha soliq tushumlari hajmiga bo'linadi va shu tartibda tegishli daromadlar va soliq obyektlari bo'yicha o'rtacha soliq stavkalari aniqlab chiqiladi. Ushbu o'rtacha tortilgan soliq stavkalari mamlakat bo'yicha reprezentativ soliq tizimining xususiyatini ham ko'rsatib beradi.

Beshinchi bosqich: Har bir shtat bo'yicha soliq salohiyati hisob-kitob ishlari amalga oshiriladi. Ushbu oxirgi bosqichda har bir shtat kesimida ularning soliq salohiyatini aniqlash ishlari amalga oshiriladi. Buning uchun har bir soliq komponentlari bo'yicha o'rtacha soliq stavkasi ularga mos holda standart(normativ) soliq bazalariga ko'paytiriladi va tegishli shtatlar kesimida aniqlab chiqiladi. Hisoblash ishlari ketma-ket shaklda har bir soliq turi komponentlari bo'yicha amalga oshiriladi.

AQSH soliqqa tortish tizimi tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, soliq salohiyatini aniqlashning mazkur metodi amaliyotda o'zini ancha oqlagan bo'lib, uning kamchligi sifatida u anchayin murakkab bo'lib,

juda ko'plab axborotlar hajmi va manbaini, murakkab hisob-kitoblarni talab qiladi.

Kanada davlatining soliq tizimining tuzilishi va unda soliq salohiyatini aniqlash mexanizmlari AQSH singari mehnat sig'imli va murakkab jarayondan iborat. Kanada davlati ham byudjet tizimi tuzilishi federal xarakterda bo'lib, u federal, hududiy va mahalliy bo'g'inlardan iborat. Kanadada soliq salohiyati va byudjet transfertlari qonunchilik asosida 5 yilga mo'ljallanib aniqlanadi, standart salohiyat ko'rsatkichlari esa yillik asosda ishlab chiqiladi. Bu yerda ham hisob-kitoblar bir necha bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichda esa har bir hududning soliq salohiyati ularning daromadlari asosida jon boshiga nisbatan aniqlanadi. Keyingi bosqichda esa «standart» jon boshiga to'g'ri keladigan soliq salohiyati o'rtacha daromadli hududlar kesimida ya'ni, (Kvebek (Québec), Ontario (Ontario), Manitoba (Manitoba), Saskatchewan (Saskatchewan), Britaniya Kolumbiya (British Columbia)) hududlar bo'yicha aniqlanadi. Byudjet salohiyati ham ushbu 5 ta hudud bo'yicha o'rtacha standart bo'yicha aniqlanadi. Hududlar ushbu standart mezonlar bo'yicha jon boshiga to'g'ri keladigan daromaddan past bo'lsa, byudjetdan transfert oladi, aksincha holatda esa olmaydi. Kanadada ham soliq salohiyatini aniqlash reprezentativ soliq tizimi asosida baholanadi va unga 33 ta soliq va soliqsiz to'lovlar bo'yicha ma'lumotlar tizimlashtiriladi. Soliq salohiyatini aniqlashdagi asosiy muammolardan biri bu har bir daromad manbai bo'yicha qaysi soliq bazasidan foydalanish masalasidir. Bu boradagi eng ko'p muammo jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i bo'yicha yuzaga keladi. Bu yerda jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i mol-mulkning balans(umumiy) qiymati bo'yicha undiriladi.

Hududlarda jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'ining bazasi sifatida balans qiymat olinsada, ammo, hududning soliq salohiyatini aniqlayotganda aholining daromadi darajasi va shahar aholisining soniga qarab aniqlash mexanizmlaridan ham foydalaniladi. Bu yerda muammo shundan iboratki, mol-mulkning qiymatini aniqlashda mulkning qiymati

emas, balki, bunday obyektlarni aholi tomonidan sotib olinishi imkoniyatlari jihatidan baholanadi. Agar hududda bunday soliq siyosatini yuritadigan bo'lsa, aholi bunday hududlardan mulk sotib olishga intilishmaydi va mulkning qiymati tshib ketadi, boshqa tomondan esa federal byudjetdan bunday sharoitda kompensatsiya to'lovlari ajratilmaydi. Shuningdek, soliq salohiyatini aniqlashdagi yana muammolardan biri shundan iboratki, reprezentativ soliq tizimida soliq salohiyatini aniqlash metodi barcha daromadlarni qamrab olishi lozim. Agar Kanadada 1957 yildan boshlab soliq salohiyatini aniqlash maqsadida uch soliq turi-jismoniy shaxslarning daromad solig'i, foyda solig'i va mol-mulk solig'idan foydalangan bo'lsa, hozirgi knda 33 ta soliq va soliqsiz to'lovlar bo'yicha daromad manabalarini aniqlash kerak bo'ladiki, bir qator hududlarda bunday soliqlarda buni aniqlash mushkul, sababi bunday turdagi daromad manbalariga ega emas, o'z navbatida esa hududlar o'rtasida solqi salohiyatini mutanosib aniqlashni qiyinlashtirib yuboradi.

Kanadada reprezentativ soliq tizimida soliq salohiyatini aniqlash metodi barcha hududlarda qo'llanilmaydi, asosan 2/3 qismi hududlarda qo'llanilib, bir qator hududlarning jug'rofiy joylashuvi va tarixiy aspektlar bu hududlarda etarlicha daromad manbalariga ega emaslar. Kanadada hududlar va ularga tegishli mahalliy byudjetlar o'rtasidagi byudjetlararo munosabatlarni tartibga solishad ularga qonun asosida juda erkinlik berilgan, shu boisdan soliq salohiyatini aniqlashning qayd etilgan metodlaridan mahalliy byudjetlarning soliq salohiyatini aniqlashda ham keng foydalaniladi.

Frantsiya davlat tuzilishi bo'yicha unitar davlat bo'lib, byudjet tizimi markaziy(davlat) byudjeti hamda uch pog'onali o'zaro mustaqil mahalliy(hududlar byudjeti, departamentlar va kommunalar byudjeti) byudjetdan iborat. Frantsiyada soliq salohiyatini aniqlash qonun bilan o'rnatilgan metodika kommuna va departamentlar darajasida maqsadsiz moliyaviy yordam qismi bo'lgan dotatsiyani (La Dotation Globale de Fonctionnement (DGF)) taqsimlash maqsadida aniqlanadi. Frantsiyada

garchi 40 dan ortiq mahalliy soliqlar va yig'imglar mavjud bo'lsada, biroq, soliq salohiyati asosan mahalliy byudjetlar daromadlarining 80%dan ortiqroq qismini ta'minlaydigan uchta soliq turi: imorat qurilganlik uchun soliq(foncier bâti), imorat qurilmaganlik uchun soliq (foncier non bâti) hamda uy-joy soliq(taxe d'habitation)lar bo'yicha aniqlanadi. Soliq salohiyatini hisoblash uchun har bir soliq turi soliq bazasiga ushbu soliqlar bo'yicha mamlakat bo'yicha o'rtacha soliq stavkasiga ko'paytirish orqali aniqlanadi. Shu jihatdan olganda Frantsiyada soliq salohiyatini aniqlash mexanizmlari va jarayoni boshqa davlatlarga qaraganda ancha sodda tartibga ega.

Buyuk Britaniya tuzilishi jihatdan unitar davlat bo'lib, uning byudjet tizimi tuzilishi ikki pog'anadan markaziy(davlat) va mahalliy(mahalliy byudjetlar ham bir yoki ikki pog'onali bo'lishi mumkin) byudjetlardan iborat. Buyuk Britaniyada soliq salohiyati daromadlarni saqlash(ushlab turish) maqsadsiz grantini (Revenue Support Grant) taqsimlash jarayonida munitsipial bo'g'inlarning daromadlarini baholash maqsadida aniqlanadi. Buyuk Britaniyada (Shimoliy Irlandiyadan tashqari) mahalliy hokimiyat asosan ikki xil mahalliy soliq- noturar joylar uchun soliq(business rate) va uy-joylar uchun soliq (council tax)larni undirishi mumkin. Shu bilan birgalikda korxonalaridan olinadigan yagona soliq mahalliy hokimlik tomonidan joriy qilinsada, ammo soliq tushumi mahalliy byudjetlarga qoldirilmaydi va ushbu soliq bo'yicha tushumlar «umumiy fond»ga tushadi. «Umumiy fond» mablag'lari esa hukumat tomonidan aholi soni darajasiga qarab uni mahalliy hokimlar o'rtasida taqsimlaydi. Munitsipial darajadagi soliq salohiyati ikkita ko'rsatkich: noturar joylar uchun soliq bo'yicha soliq tushumlari hajmi va uy-joylar uchun soliq bo'yicha barcha bo'g'indagi munitsipial hududlar uchun standart soliq stavkalaridan kelib chiqib aniqlanadi.

Soliq salohiyatini aniqlashda haqiqiy soliq stavkasi, haqiqiy soliq yig'iluvchanligi ko'rsatkichlari e'tiborga olinmaydi. Uy-joylar uchun soliq turi bo'yicha haqiqiy soliq tushumlari o'rtacha darajadan yuqori

yoki kam bo'lishi mumkin va bu ko'rsatkich yuqoridan qo'shimcha mablag' olishga ta'sir qilmaydi. Biroq, noturar joylar uchun soliq bo'yicha haqiqiy tushumlar prognoz ko'rsatkichlaridan yuqori yoki kam bo'lsa, u holda (grant) yuqoridan beriladigan mablag'lar ana shu farqlarga (ortgan yoki kam qismiga) qaytadan hisob-kitob qilinadi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, Buyuk Britaniyada soliq salohiyati amalda uy-joylar uchun soliq turiga asoslanib aniqlanadi. Soliq salohiyati yagona soliq bazasi va yagona soliq stavkasi va yig'iluvchanlik ko'rsatkichlarini e'tiborga olgan holda aniqlanadi va shu jihatdan mazkur davlatning soliq salohiyatini aniqlash metod va mexanizmlari unchalik murakkab sanalmaydi.

Shvetsiya davlati ham Frantsiya, Buyuk Britaniya davlatlari kabi unitar davlat bo'lganligi tufayli uning byudjet tuzilishi va soliq tizimi ham davlat tuzilishiga bog'liqdir. Uning byudjet tizimi markaziy (davlat) va ikki pog'onadan iborat mustaqil mahalliy byudjetlardan iborat. Mahalliy byudjetning o'zi esa landsting erlari byudjeti va kommuna byudjetlaridan iborat bo'ladi. Shu jihatdan ham Shvetsiya byudjetining asosiy daromad manbasi bu landsting va kommunalar, ya'ni bu erdagi jismoniy shaxslarning daromad solig'i hisoblanadi. Soliq salohiyati ham shu boisdan aynan ushbu soliq turi bo'yicha landsting va kommunalar uchun alohida-alohida shaklda yagona qonuniy metod asosida aniqlanadi va ushbu metod asosida byudjet transfertlari ham taqsimlanadi va biribiriga tenglashtiriladi. Soliq salohiyatini aniqlashda jismoniy shaxslarning daromad solig'ining o'rtacha soliq stavkasi va soliq yig'iluvchanligi darajasidan kelib chiqib aniqlanadi. Haqiqiy soliq salohiyati esa soliqqa tortish bazasiga mutanosib bo'ladi. Landsiting va kommunalarning soliq salohiyati aholi jon boshiga o'rtacha darajadan past bo'lsa, yuqori byudjetdan mablag' oladi agar, ortiqcha bo'lsa, u holda ulardan ortiqcha so'mmaga teng ravishda yuqori byudjetga olinadi. Mutaxassislarining fikricha Shvetsiyada soliq salohiyatini aniqlash metodi va mexanizmlari boshqa davlatlarga qaraganda ancha sodda va qulay hisoblanadi. Shuni ham ta'kidlash kerakki mazkur davlatda

qo'llanilgan metod qulay va sodda bo'lganligi sababli Daniyada ham soliq salohiyatini aniqlash jismoniy shaxslarning daromad solig'i bazasi(mezoni) asosida amalga oshiriladi va uning mexanizmi ham Shvetsiya davlatiga tajribasiga juda o'xshaydi.

Rossiyada soliq salohiyati, soliqlarni rejalashtirish va soliqlarni prognoz qilish borasidagi jarayonlarni muvofiqlashtirish maqsadida 1999-2000 yillarda Rossiya Federal soliq xizmati tomonidan ishlab chiqilgan va 2001 yildan boshlab foydalanib kelinayotgan Rossiya Federatsiyasi subyektining «Soliq pasporti» amaliyotga joriy etilgan. Uning ishlab chiqilishi bilan soliqlar va yig'implarni federal byudjetga jalb qilish bo'yicha indikativ (nazorat) ko'rsatkichlarini tavsiflashga asos bo'ladi.

Soliq pasporti bu – soliq salohiyatining kompleksli tavsifnomasi keltirilgan hujjatdir. Unda mintaqaning mavjud soliq bazasiga baho beriladi, soliqlar tarkibiy qismi umuman va soliq turlari bo'yicha dinamikasi aniqlanadi, bu esa amaldagi soliq qonunchiligi sharoitlarida ham, uning ehtimoliy o'zgarishlarini hisobga olgan holda ham istiqbolda soliqlar va yig'implar tushumini prognoz qilishga imkon beradi.

Soliq pasporti mintaqaning umumiy tavsifnomasidan iborat bo'lgan soliq bazasini hisob-kitob qilishning eng muhim pozitsiyalari bo'yicha zarur ko'rsatkichlar, va soliq bazasini hisob-kitob qilish uchun ko'rsatkichlar, iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha soliqlar va yig'implar strukturasi va hajmi ko'rsatkichlari, ular bo'yicha qarzlar, olinmay qolinadigan daromad, shuningdek, moliya-kredit muassasalari tarmoqlari tavsifnomasi bilan ko'rsatkichlar va ularning byudjet tizimiga soliqlar va yig'implarni o'tkazish bo'yicha agentlik funktsiyalarini bajarish ko'rsatkichlari to'liq to'plamini aks ettiradigan 7 bo'limdan iborat.

Soliq pasportining har bir bo'limi foydalaniladigan ko'rsatkichlar tizimi ularning dinamikasini hisobga olgan holda tuzilgan bo'lib, bu mintaqaning soliq tavsifnomasi, har bir ko'rsatkichni aniqlash metodlari va manbalariga ta'sir etuvchi alohida omillar ahamiyati va tendentsiyalarini aniqlash imkonini beradi (to'g'ridan-to'g'ri statistik

yoki soliq hisoboti ma'lumotlari yoki hisob-kitob). Taqdim etilgan soliq imtiyozlari ko'lamini eng to'liq hisobga olish uchun Pasportda mintaqada soliqlar va yig'implarni hisoblab chiqish va to'lashda o'ziga xos tartib qo'llanadigan maxsus soliq rejimiga ega hududlar mavjudligi haqida axborot alohida taqdim etiladi.

Soliq to'lovlari muddatini kechiktirish va boshqa shaklda o'zgartirishlarni taqdim etishning sonining ko'pligi, federal byudjetga tushuvchi QQS miqdorini qoplash va bu bilan bog'liq byudjet yo'qotishlarini rejalashtirish jarayonida hisobga olish uchun Pasportda «Olinmay qoladigan daromadlar» maxsus bo'limi ko'zda tutilgan. Olinmay qoladigan daromatlarni hisobga olish maqsadida banklar va boshqa kredit muassasalari tomonidan soliq to'lovchilarning to'lanishi lozim bo'lgan soliqlarni to'lash bo'yicha topshiriqlarini bajarishdagi ko'p sonli ushlanib qolishlarni e'tiborga olib «Soliq pasporti»ning maxsus bo'limida bunday turdagi muassasalar sonini tavsiflaydigan ko'rsatkichlar ajratib ko'rsatilgan. Olinmay qoladigan daromadlarni tahlil qilish va optimallashtirish soliq tushumlarini rejalashtirish va prognozlashtirishning sifatini oshirishga, soliqlarning byudjetga jalbq qilinish darajasini oshirish va byudjet tizimining daromadlar qismini to'ldirishga imkon beradi. Mintaqaning soliq salohiyatini, ishlab chiqaruvchilarga to'g'ri keladigan soliq yukini baholash va soliq tushumlarini rejalashtirishda ularni hisobga olish uchun «Soliq pasporti»da hisoblab chiqilgan va amalda kelib tushgan soliqlar va yig'implar hajmi, ular bo'yicha mustaqil bo'limlarga ajratilgan qarzar hajmi ko'rsatkichlari alohida e'tiborga olinagan.

Bunday axborot yalpi mintaqaviy mahsulotga nisbatan (hisoblab chiqish bo'yicha ham, amaldagi kelib tushish bo'yicha ham) soliq yuki va soliq tushumlari darajasini aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi, mintaqalar umumiy daromadini, ularning iqtisodiy, moliyaviy va soliq salohiyatini va Rossiya Federatsiyasi bo'yicha mos keluvchi ko'rsatkichlarni hisob-kitob qilish uchun asos yaratadi, mintaqalarning iqtisodiy o'sish imkoniyatlarini va soliq tushumlarining mos keluvchi

o'sishini aks ettiradi hamda byudjetlarni o'z vaqtida va asosli tuzishda, shuningdek, byudjetlarning ta'minlanganligini tenglashtirish maqsadida turli darajadagi byudjetlar o'rtasida mablag'larni qayta taqsimlash yo'llarini aniqlash uchun muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, mintaqa «Soliq pasporti»dan foydalanish byudjetlararo munosabatlar tizimiga ma'lum bir aniqlik kiritadi. U qatnashchilar uchun ochiq va «shaffof»ga aylanadi. Byudjetlararo munosabatlar tamoyillarini amalga oshirish uchun huquqiy baza va normativlar yanada asoslangan tizimini shakllantirish uchun dinamik rivojlanayotgan axborot-tahliliy baza yaratiladi.

Rossiya sharoitlarida, mintaqaviy byudjetlar daromadlarining asosiy manbasi bo'lib federal soliqlardan ajratmalar xizmat qiladi, qolgan soliqlarning sezilarli qismi bazasi asosan federal qonunlar bilan belgilanadigan bir paytda RST metodini qo'llash ancha engillashadi. Bunda mintaqalarning salohiyat soliqqa tortiladigan resurslar hisob-kitobga kiritiladigan soliq bazalarini tanlash (soliq tushumlari turlari soni) masalasigina hal etilishi zarur. Rossiya Federatsiyasi byudjet tizimi uchun soliqlarning ahamiyati turlicha ekanligini hisobga olib, ayrim iqtisodchilarning fikriga ko'ra, foyda solig'i, qo'shilgan qiymat, aktsiz solig'i, jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliq va foydali qazilmalar uchun soliq va korxonalar mulk solig'i bilan cheklanish maqsadga muvofiq.¹³¹

Kelgusida, byudjetlararo munosabatlarining takomillashuvi, ishlab chiqarishning ko'tarilishi va soliq bazalarining kengayishi bilan iqtisodiyotning turli sektorlaridan soliq tushumlari ularning soliq salohiyatiga mos kelishi muammosi tobora muhim ahamiyat kasb etib boradi. Rerezentativ soliq tizimi metodi «tor ma'noda» - ularning real imkoniyatlari va soliq bazalarini shakllantirish mavjud amaliyotini hisobga olgan holda mintaqalar soliq resurslarini hisob-kitob qilish uchun soliq salohiyatini aniqlash uchun qo'llanishi mumkin.

¹³¹ Коростелькина И.А. Комплексная оценка налогового потенциала региона. Управленческий учет. (2013). 3 (март), 47-56 с.

6.5. O'zbekiston byudjet-soliq tizimida soliq salohiyatini aniqlash mexanizmiga kontseptual yondoshuv

Soliq salohiyati byudjetni rejalashtirish jarayonida katta ahamiyatga ega. Chunki, soliq salohiyatini to'g'ri baholash soliq tushumlarini aniqroq tarzda prognoz qilishga imkon yaratadi. Yuqorida ko'rib o'tilganidek, Respublikamiz byudjet-soliq tizimida soliq salohiyatini aniqlashning yagona metodi bo'yicha me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilmagan, vaholanki, byudjetning soliqli daromadlarini rejalashtirishda ham bu jarayon unchalik e'tiborga olinmaydi. Ammo, soliq xizmati organlarida soliq tushumlarini prognoz qilish jarayoni aniq rasmiy qabul qilingan metodlar asosida amalga oshiraladiki, ushbu metodlarda ham soliq salohiyatini baholash mexanizmlari unchalik e'tiborga olinmagan. «Soliqlar va soliqqa tortish» yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar kelgusida soliq xizmati organlarida faoliyat ko'rsatishlarida soliq tushumlarini prognoz qilish jarayonida albatta hududlarning soliq salohiyatini aniqlashga duch keladi va uni aniqlash(baholash) tartiblarini bilishi ularning kasbiy saviyasini yanada oshiradi. Ushbularni e'tiborga olib quyida Respublikamiz iqtisodiyotida soliq salohiyatini aniqlashning ayrim kontseptual yondoshuvlarni keltirib o'tish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Ushbu kontseptual yondoshuvlar ko'proq ilmiy yondoshuv bo'lib, uni tanqidiy qabul qilish va yanada takomillashtirish mumkin.

Soliq salohiyatini avvalo milliy iqtisodiyot darajasida aniqlash muhim bo'ladi. Soliq salohiyatni milliy iqtisodiyot doirasidagi hajmini aniqlash uchun esa quyidagi formulani taklif etiladi:

$$\text{Umumiy } SP = ((\text{ЯИМ}) - (\text{ЯИМстм})) * (\text{ЯИМ } \dot{\text{y}}\text{к}) * (\dot{\text{Y}}\text{СС}) \quad (1),$$

Bu yerda: YaIM-yalpi ichki mahsulot;

YaIMstm-YaIMning soliqqa tortilmaydigan qismi;

YaIMo'k-YaIMning o'rtacha o'sish koeffitsienti;

O'SS- o'rtacha soliq stavkasi.

O'z navbatida $\text{YaIMstm} = \text{YaIM} - \text{SI} - \text{SQ} - \text{DST} \quad (2),$

Bu yerda: SI-soliq qonunchiligi bo'yicha berilgan soliq imtiyozlari summasi;

SQ-soliq to'lovchilar tomonidan byudjetga soliq to'lovlari bo'yicha jami qarzorlik summasi;

DST-turli xil sabablarga ko'ra bahsli tarzdagi undirilmagan soliq so'mmalari hajmi.

Mazkur yondoshuvning mohiyati shundan iboratki, boshqa mualliflarning soliq salohiyatining asosiy manbai YaIM ekanligini qo'llab-quvvatlagan holda milliy iqtisodiyot doirasidagi soliq salohiyatini YaIMning asosiy qismidan hisoblash maqsadga muvofiq. Albatta YaIMning soliqqa tortilmaydigan qismini aniqlashda Davlat soliq qo'mitasi tomonidan har yili monitoring tarzda hisoblab boriladigan berilgan soliq imtiyozlari summasi, soliq to'lovchilar tomonidan hisoblab qo'yilgan ammo, to'lanmagan qarzdorlik summasi, shuningdek, soliq to'lovchilar va soliq xizmati organlari tomonidan soliqlarni undirish borasidagi soliq qonunchiligi normalarini turlicha talqin etilishi oqibatida sudlarda ko'rilayotgan ishlar hajmidagi soliq so'mmalarini oson aniqlash imkoni mavjud, chunki, bunday so'mmalarining aniq hajmi ta'kidlaganimizdek soliq xizmati organlarida mavjud bo'ladi.

O'rtacha soliq stavkasi va YaIMning o'rtacha o'sish koeffitsientlarini esa kamida 5 yillik ko'rsatkichlarga asoslanish kerak bo'ladi. YaIMning o'rtacha o'sish koeffitsientlari ko'rsatkichi esa Davlat statistika qo'mitasi tomondan har yili aniqlab boriladi. O'rtacha soliq stavkasini esa jahon amaliyotida qo'llanganidek, barcha soliqlar bo'yicha soliq tushumlari summasini ushbu soliqlarning soliq bazalariga nisbati sifatida aniqlash mumkin. Bu metodning afzalligi shundaki, unda qo'llaniladigan aksariyat ko'rsatkichlar doim tegishli organlar (soliq qo'mitasi va statistika qo'mitasi) tomonidan hisoblab boriladi va ular asosida soliq salohiyatini tez hisoblash mumkin. Shu bilan birgalikda bu erda murakkablik shundan iborat bo'ladiki, o'rtacha soliq stavkasini aniqlashda zarur bo'ladigan jami soliq bazalari summasini aniqlash soliq xizmati organlari mutaxassislari tomonidan malakali tarzda hisoblab

chiqish talab etiladi aks holda esa soliq salohiyatini aniqlashga salbiy ta'sir etib qolishi mumkin.

Shunga qaramasdan umumiy soliq bazasi summasini jami soliq tushumlarining o'rtacha soliq stavkasiga nisbati sifatida ham olish mumkin. Keltirilgan ushbu metodning mohiyatiga sof matematik tarzda yondoshish kerak emas, soliq soliq salohiyatini hajmini ko'paytirish uchun soliq imtiyozlari sonini qisqartirish shart bo'lmaydi. Bunga boshqacha yondoshish kerak bo'ladi, ya'ni soliq imtiyozlarining samaradorlik ko'rsatkichlarini doimiy monitoring qilish asosida soliq to'lovchilar tomonidan suiste'mol qilingan va iqtisodiyotga samara bermayotgan soliq imtiyozlarini qisqartirish lozim bo'ladi va albatta bahsli tarzdagi undirilmay qolinayotgan(amaliyotda bunday bahsli jarayonlar yillab cho'zilib ketish hollari ham mavjud) soliq so'mmalarini kamaytirish zarur. Buning uchun esa soliq to'lovchilarning soliq madaniyati va soliq qonunchiligi borasidagi bilimlarini oshirish lozim bo'ladi.

Milliy iqtisodiyot darajasida soliq salohiyatini aniqlashning boshqacha metod bilan ham hisoblash mumkin. Mazkur metod real soliq salohiyatini aniqlashga xizmat qiladi. Ya'ni:

$$RSP=(YaIM*SYu_{o,r})-(DBIX)-(BI)-(BT)-(SQ)-(SI) (3),$$

Bu yerda:

RSP -real soliq salohiyati;

SYu_{o,r} o'rtacha soliq yuki darajasi(%da);

DBIX-davlat byudjetidan byudjet tashkiloti xodimlariga ajratilgan ish haqi xarajatlari;

BI-byudjetdan qilingan markazlashtirilgan investitsiyalarga qilingan xarajatlar;

BT-byudjetdan yuridik va jismoniy shaxslarga berilgan transfert to'lovlar summasi;

SQ-soliq to'lovchilar tomonidan soliq qarzdorligi summasi;

SI-soliq to'lovchilarga berilgan soliq imtiyozlari summasi.

Umumiy tartibda YaIMdagi soliq yukining ulushi aslida soliq salohiyatini ma'lum darajada (nominal soliq salohiyati) ko'rsatadi. Ammo, uni ma'lum bir ko'rsatkichlarga korrektirovka (qayta tuzatish) qilish uning real hajmini ko'rsatadi. Nominal soliq yukidan real soliq yukini ajratib olish uchun undan davlat byudjetidan byudjet tashkiloti xodimlariga ajratilgan ish haqi xarajatlari, byudjetdan qilingan markazlashtirilgan investitsiyalarga qilingan xarajatlar, byudjetdan yuridik va jismoniy shaxslarga berilgan transfert to'lovlar summasi, soliq to'lovchilar tomonidan soliq qarzdorligi summasi, soliq to'lovchilarga berilgan soliq imtiyozlari summasini ajratib tashlash lozim bo'ladi. Bu yerda yana shu narsaga ham e'tibor berish kerakki, byudjetdan qilinadigan transfert to'lovlari mahalliy byudjetlarga ham tegishli bo'lib, uni chegirish maqsadga muvofiq emas, sababi ular soliq salohiyatining tarkibiga kirmaydi, ammo ish haqiga qilingan xarajatlar esa uni oluvchilarning daromadlarini ko'paytiradi va ular albatta soliq salohiyati hisoblanadi. Real soliq salohiyatini aniqlash davlat byudjetidan qilinadigan xarajatlarni rejalashtirishda aniq holatni ko'rsatib beradi. Soliq qarzdorligini ham e'tiborga olishning zarurligi shundaki, ushbu so'mmalarning umumiy tendentsiyasi ularga muvofiq ravishda byudjetdan moliyalashtirishni amalga oshirmaslikni ifodalaydi, ya'ni ularni e'tiborga olmaslik byudjetdan moliyalashtirishda muammolar keltirib chiqaradi. Shuni ham ta'kidlash lozimki, mazkur metodga zarur bo'ladigan ko'rsatkichlar kamida 5 yillik davrni qamrab olishi zarur bo'ladi.

Milliy iqtisodiyot darajasida soliq salohiyati hajmini aniqroq aniqlash uchun esa uning yalpi ko'rsatkichlarini aniqlash etarli bo'lmaydi. Buning uchun esa hududiy, tarmoq va korxonalar doirasidagi soliq salohiyatini aniqlashni taqozo etadi. Hududlarning soliq salohiyati avvalo ularning soliq resurslariga bog'liq bo'ladi. Ta'kidlash kerakki soliq resurslari soliq salohiyatidan kengroq hajmda bo'ladi va o'z ichiga soliq salohiyatini ham oladi. Shu boisdan hududlarning soliq salohiyatini aniqlashda soliq resurslaridan kelib chiqish zarur bo'ladi:

$HSP = HSR * O'SS * YaIMo'k$ (4),

Bu yerda: HSP-hududning soliq salohiyati;

HSR-hududning soliq resurslari;

YaIMo'k- YaIMning o'rtacha o'sish koeffitsienti.

O'z navbatida HSRning hajmi yalpi hududiy mahsulotga hududda joylashgan soliq to'lovchilar tomonidan yuqori byudjetga to'langan umumdavlat soliqlari summasining chegirilgani va yuqori byudjetdan hududda joylashgan yuridik va jismoniy shaxslarga berilgan barcha turdagi transfert to'lovlari hajmi summasining qo'shilgani natijasi sifatida aniqlanadi, ya'ni:

$HSR = HYaM - (UDS) + (TT)$ (5),

Bu yerda: HYaM - hududiy yalpi mahsulot;

UDS- yuqori byudjetga o'tkazilgan umumdavlat soliqlari

TT-yuqori byudjetdan hududdagi yuridik va jismoniy shaxslarga barcha turdagi transfert to'lovlari.

Ushbu metodning mohiyati shundan iboratki, hududning soliq salohiyatini aniqlashda unga tarkibiy jihatdan yondoshiladi. Yuqori byudjetga o'tkaziladigan umumdavlat soliqlari garchi hududdagi soliq to'lovchilarning moliyaviy resursi bo'lsada, ammo bu erda hududiy yondoshuv bo'lganligi tufayli uni chiqarib tashlab lozim bo'ladi. Chunki, yuqorida aytib o'tganimizdek, hududiy soliq salohiyatini aniqlashdan yana bir maqsad byudjetlararo munosabatlarni tartibga solishda hududlarning haqiqiy imkoniyatlarini aniqlash kerak bo'ladi. Mazkur metod esa hududga nisbatan davlatning byudjet siyosatining yo'nalishlarini aniqlashga yordam beradi. O'z navbatida esa oxirgi besh yil davomida hudud mahalliy byudjeti va unda joylashgan korxon va aholiga yuqori byudjetdan berilgan transfert to'lovlarini soliq resurslari tarkibida hisobga olish kerak bo'ladi. Sababi bu mablag'lar transfert to'lovini oluvchilarning daromadlari manbai sifatida hududning moliyaviy resurslarini ko'paytiradi.

Mazkur jarayonda yana muhim narsa milliy iqtisodiyot darajasida inflyatsiya darajasini e'tiborga olishdir. Chunki, soliq resurslari va

salohiyati aslida nominal yalpi hududiy mahsulotga nisbatan hisoblanadi, demakki, inflyatsiyaning o'rtacha darajasi esa soliq salohiyatining hajmini oshiradi, shu jihatdan yuqorida keltirilgan (5) formulamiz quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$HSR = (HYaM - (UDS) + (TT)) * ID \quad (6).$$

Bu yerda: ID-milliy iqtisodiyotda inflyatsiyaning o'rtacha 5 yillik darajasi(koeffitsientda).

Ushbu metod orqali hududlarning soliq salohiyatini aniqlashda zarur bo'ladigan axborot manbalari hududiy statistik boshqarmasi, moliya boshqarmasi hamda soliq xizmati organlarining ko'rsatkichlari hisoblanadi va tegishli ko'rsatkichlarni aniqlash uchun ma'lumotlar esa aytib o'tilgan organlarning faoliyatida doimiy hisoblab va monitoring qilib boriladi.

Korxonalar doirasida soliq salohiyatini aniqlash soliq salohiyatini aniqlashning eng muhim zaruriy sharti va murakkab bo'g'inidir. Korxonada ishlab chiqarish jarayoni sodir bo'ladi, foyda shakllanadi, qo'shilgan qiymat asosan korxonada kesimida yuzaga keladiki, bular soliq salohiyatining barcha darajalari uchun muhim manba hisoblanadi. Ammo korxonada doirasida soliq salohiyatini aniqlash milliy va hududiy darajadan farqli ravishda anchayin qiyin jarayondir. Chunki, korxonadagi takror ishlab chiqarish jarayoniga juda ko'p omillar ta'sir qiladi, ular esa korxonaning moliyaviy faoliyatiga bevosita va bilvosita ta'sir qiladi.

Korxonalar doirasida soliq salohiyatini aniqlash quyidagi ikki metoddan foydalanish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Birinchi metodning mohiyati shundaki, u korxonaning moliyaviy ko'rsatkichlarining korxonaga kelishi va chiqib ketishiga asoslanadi, ya'ni:

$$KSP = YaT + BT + DMM + TM - SQ - DQ \quad (7),$$

Bu yerda:

KSP- korxonaning soliq salohiyati;

YaT-yalpi tushum(daromad) hajmi;

BT-byudjetdan olingan moliyaviy yordam(qaytarilmaydigan) hajmi;

DMM-da'vo muddati o'tgan va korxonaga balansiga qabul qilish mumkin bo'lgan mablag'lar hajmi;

TM-yuqori tashkilot yoki davlat tomonidan tekinga berilgan mol-mulk va nomoddiy qiymatliklar;

SQ-soliq qarzdorligi summasi;

DQ-shubhali(debitor) qarzlari summasi.

Formuladan ko'rinadiki, byudjetdan olingan moliyaviy yordam (qaytarilmaydigan) hajmi, da'vo muddati o'tgan va korxonaga balansiga qabul qilish mumkin bo'lgan mablag'lar hajmi, tashkilot yoki davlat tomonidan tekinga berilgan mol-mulk va nomoddiy qiymatliklar va shubhali(debitor) qarzlari summasi doimiy yuzaga keladigan moliyaviy resurslar bo'lmasada, ammo ular aksariyat korxonalar(byudjetdan olingan moliyaviy yordamdan tashqari) faoliyatda uchraydi, va ularni hududlar va butunicha iqtisodiyot doirasida oladigan bo'lsak, umumiy yoki hududning soliq salohiyatini aniqlashda sezilarli ta'sirga ega. Shu bilan birgalikda korxonalarining debitorlik va kreditorlik qarzlari o'rtasidagi tafovutning doimiy yoki onda-sonda vujudga kelishi tendentsiyasini ham e'tiborga olish lozim. Agar, bunday tafovut kreditorlik qarzlari ko'pligi tufayli vujudga kelib, u doimiy xarakterga ega bo'lib qolgan bo'lsa, albatta ana shu so'mma hajmiga korxonaning soliq salohiyati kamayadi degan xulosaga kelish mumkin.

Korxonalarining soliq salohiyatini aniqlashning keyingi metodi sifatida soliq bazasiga asoslangan holda soliq salohiyatini baholashning quyidagi mexanizmini keltirildi:

$$KSP = \sum SB * O'SS * O'ID * (\pm TK) \quad (8).$$

Bu yerda:

$\sum SB$ -korxonaga to'laydigan barcha soliqlar va majburiy to'lovlarning soliq bazasi hajmi(so'mda);

O'SS-korxonaga nisbatan o'rtacha soliq stavkasi(foizda);

O'ID-o'rtacha inflyatsiya darajasi(koeffitsientda).

TK-tuzatuvchi koeffitsient.

Ushbu metod har bir korxonaning soliq salohiyatini aniqlashga mo'ljallangan bo'lib, unda korxonalar hisobchisi tomonidan byudjetga hisoblangan va to'langan soliqlarning soliq bazalariga asoslanadi. Korxonalar tomonidan to'lanadigan har bir soliq turi bo'yicha soliq bazasini korxonalar hisobchisi tomonidan tegishli buxgalteriya hisobvaraqlari ma'lumotlari asosida hisoblab chiqish mumkin. Ushbu metodda eng muhim jarayon soliq bazalarini to'g'ri aniqlash hamda tuzatuvchi koeffitsientlarni qo'llash hisoblanadi. Ushbu tuzatuvchi koeffitsientlar kamaytiruvchi va oshiruvchi xarakterda bo'lishi mumkin. Agar korxonaning ishlab chiqarish hajmi oxirgi uch yoki besh yilda kamayish tendentsiyasiga ega bo'lsa, u koeffitsientlarda (avvalgi yillarga nisbatan) hisoblanib, soliq salohiyati natijasiga ko'paytiriladi, agar ishlab chiqarish jarayonida o'sish bo'lsa teskari holat qo'llaniladi.

Ushbu metod korxonaning aniq, ya'ni buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga asoslanganligi tufayli u ancha ishonchli natijalarni beradiki, soliq xizmati organlari tomonidan hech bo'lmaganda yirik va «donor» korxonalarining faoliyatini ularning moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida tahlil etish va soliq salohiyatini hisoblab borish hududning soliq salohiyatini to'g'ri baholashga hamda soliq tushumlarining prognoz ko'rsatkichlarini obyektiv aniqlashga imkon yaratadi. Shu bilan birgalikda mazkur metod asosida aniqlangan natijalar korxonalar boshqaruvi uchun ham muhim manba bo'lib xizmat qilishi shak-shubhasizdir.

Soliq salohiyatini tadqiq qilishda uning soliq yuki darajasi bilan bog'liqligi darajasini ham e'tiborga olish lozim bo'ladi. Soliq salohiyati va soliq yuki darajasi o'rtasidagi bog'liqlik soliq salohiyatining soliq prognozi bilan bog'liqligiga o'xshash, ya'ni ular bir biriga o'zaro aks ta'sirda bo'ladi. Soliq salohiyatini to'g'ri aniqlash va uning taktik va strategik yo'nalishlarini belgilab olish o'z navbatida davlatning soliq yuki borasidagi siyosatining taktik va strategik yo'nalishlarini belgilashga asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. O'z navbatida soliq yukining o'zini tahlil qilish va uning darajasini hududlar, tarmoqlar, korxonalar, jismoniy shaxslar hamda faoliyat turlari bo'yicha tahlili boshqa tomondan ularning

soliq salohiyatini ham ma'lum darajada baholaydi hamda soliq salohiyati darajasiga mos holda (ya'ni soliqlarning adolatlilik tamoyili buzilmagan holda) soliq yukining darajasi o'rtasidagi muvofiqlikni ko'rsatib beradi, shu bilan birgalikda esa tabiiy sharoitlar, davlatning ko'magi natijasida soliq salohiyati oshgan hududlar (tarmoq va korxonalar)da soliq yukining darajasini oshirish soliqlarning adolatlilik tamoyilining buzilmasligini ham ko'rsatib beradi.

Ammo, ularning farqli jihatlarini shundaki, soliq salohiyatini oshirishda subyektiv omillarga nisbatan obyektiv omillarning roli ko'proq, soliq yukida esa aksincha uning darajasi asosan subyektiv omillarga ya'ni davlatning byudjet-soliq siyosatiga ko'proq bog'liq bo'ladi. Demak, ularning darajasiga omillarning ta'siri turlicha bo'lib, ammo ularning o'zaro bog'liqligi to'g'ridan to'g'ri mutunosibdir. Soliq salohiyati muayan obyektida (milliy va hudud, tarmoq, korxonalar) doirasida moliyaviy resurslarni soliq qonunchiligi asosida byudjetga jalb qilinish imkoniyatlarini ko'rsatib bersa, soliq yuki esa soliq salohiyati asosida aniqlangan moliq resurslarining qancha qismini byudjetga olinganligining haqiqiy natijasini ifodalab beradi, ya'ni bu erda soliq yuki soliq salohiyatining amaliy realizatsiyasini ko'rsatib turadi.

Ta'kidanganlarga asoslanib aytish lozimki, soliq yukini borasidagi soliq siyosatini ishlab chiqish va uni amalga oshirishda soliq salohiyatining darajasini e'tiborga olish bir tomondan soliq siyosatining samaradorligini ko'rsatsa, boshqa tomondan soliq salohiyatlaridan samarali foydalanish imkoniyati yaratib, soliq to'lovchilar va byudjet o'rtasidagi o'zaro manfaatlarning kesishuv chegaralarini qisqartiradi.

6.6. Korxonalarda soliqlarni rejalashtirish

Avvalgi bandlarda ta'kidlab o'tganimizdek, soliqlarni prognoz qilish jarayoni soliqlarni rejalashtirish jarayonidan farqli ravishda mikrodarajada amal qilishi hududlarda mahalliy byudjetlarga soliq tushumlari va ularning potetsialini aniqlash jarayonini qamrab oladi. Soliqlarni rejalashtirish esa mikrodarajada korxonalar, ya'ni soliq

to'lovchilarda ular zimmasiga yuklatilgan soliq majburiyatlarini bajarishning moliyaviy rejasi-soliqlarni rejalashtirish shaklida namoyon bo'ladi. Aksariyat iqtisodchi olimlar soliqlarni prognoz qilish va rejalashtirish jarayonlarining mohiyatini izohlashdagi yondoshuvga e'tibor beriladigan bo'lsa, ularni sinonim kategoriyalar bo'lib chiqadi.

Ayrim iqtisodchilar¹³² esa soliqlarni rejalashtirish jarayonini korxonalarda soliq qonunchiligi doirasida soliqlar bo'yicha xarajatlarni minimallashtirish va korxonaning moliviy natijasini maksimallashtirishga qaratilgan moliyaviy rejalashtirishning tarkibiy qismi sifatida izohlaydilar. Bu yerda soliqlarni minimallashtirish deganda mavjud qonunchilikdagi o'zagrishlarni chuqur tahlil qilgan holda mavjud imtiyozlardan to'laqonli foydalanish, soliq majburiyatlarini o'z vaqtida amalga oshirish hisobiga ortiqcha jarimalarni to'lamaqlik hisobiga xarajatlarni kamaytirish nazarda tutiladi. Shu boisdan ham soliqlarni rejalashtirish jarayonida xarajatlarni minimallashtirishni soliqlarni to'lashdan qochish, bo'yin tovlash yoki soliqlarni real hajmdan kam to'lash kabi tushuncha va jarayonlardan farqlanadi. Ba'zi adabiyotlarda¹³³ esa soliqlarni rejalashtirish jarayonini korxonalarda byudjetlash-tirish jarayoni sifatida ham izohlashsa ba'zi iqtisodchilar¹³⁴ soliqlarni byudjetlash-tirish jarayonini esa soliqlarni to'g'ri rejalashtirish oqibatida iqtisod qilib qolingani daromadlar va soliqlarni rejalashtirish jarayoni bilan bog'liq xarajatlar(ish haqi, qo'shimcha to'lovlar, soliqlar bo'yicha to'langan jarimalar va sh.k.)ning solishtirma tahlili sifatida qaraydilar.

Shuningdek, ushbu qayd etib o'tilgan adabiyotlarda korxonada doirasida amalga oshirishning metodlari sifatida korxonaning soliq siyosatini shakllantirish, korxonaning iqtisodiy-huquqiy faoliyatini tahlil

¹³² Qarang: Разник Е.Д., Самсонова И.А. Р. ПРОГНОЗИРОВАНИЕ И ПЛАНИРОВАНИЕ В НАЛОГООБЛОЖЕНИИ: Учебное пособие. – Владивосток: Изд-во ВГУЭС, 2006. 3 с, Васильева М.В. Анализ эффективности управления финансовым результатом деятельности организаций в целях налогового планирования // Управленческий учет, (2009), 11 (ноябрь), 51-61, Киров А.В. Влияние налогового планирования на обеспечение финансовой устойчивости предприятия. Финансы и бизнес, (2009), 3 (осень), 152-153 с, Лепа Р.Н., Дзюба Б.П. Информационное обеспечение оперативного налогового планирования на предприятиях. Налоги и финансовое право. (2012), 3 (март), 208-209 с.

¹³³ Qarang: Халезин : В. Ю. Формирование налогового бюджета. // «Планово-экономический отдел», 2012 год №1, 26-29 с. Блохин К.М. Технология формирования налогового бюджета организации. // "Финансовый менеджмент" 2006. №5, 12 с.


¹³⁴ Барулин. Е. А. Налоговое менеджмент. Учебник. "Финансы и статистика", 2009. 78-86 с.

qilish, xo'jalik munosbatlarini almashtirish, munosabatlarni taqsimlash, soliq to'lovlarini kechiktirish, soliq obyektlarini to'g'ri-to'g'ri qisqartirish va shu kabi metodlarni keltirib o'tadi. Soliqqa tortish muammolari bilan shug'ullanuvchi rossiyalik iqtisodchi olim I. M. Aleksandrov o'zining «Soliqlar va soliqqa tortish» darsligida esa korxonalarda soliqlarni rejalashtirishning to'rt bosqichini ko'rsatib o'tadi. Ya'ni, birinchi bosqichda korxonaning iqtisodiy-huquqiy shaklini va faoliyat turini tanlash, ikkinchi bosqichda korxonaning soliq to'lash nuqtai nazardan qaysi hududda (masalan, offshor hudud, soliq imtiyozlari kamroq berilgan hudud) joylashganligi va uni tahlili, uchinchi bosqichda turli xil shartnomalarni tuzish, soliq qonunchiligidagi soliq imtiyozlari va javobgarlik choralarini tahlil qilib chiqish va oxirgi bosqichda esa bozor talablarini o'rgangan holda korxonaning moliyaviy resurslarini joylashtirishning sxemalarini ishlab chiqish lozimligi ta'kidlaydi.¹³⁵

Ta'kidlash lozimki, bozor munosabatlari sharoitida soliq to'lovchi xo'jalik yurituvchi subyektlar, erkin iqtisodiy faoliyat ko'rsatadi. Ular o'zlarining moliyaviy siyosatini ishlab chiqadi. Bu moliyaviy siyosati tarkibida esa soliqlarni rejalashtirish ham o'rin oladi. Shu boisdan korxonalarda soliqlarni rejalashtirish mexanizmlari korxonalarining individual yondoshuvlariga bog'liq bo'ladi. Shundan kelib chiqqan holda quyida keltirilgan soliqlarni rejalashtirish modellari ham tavsiya xarakteriga egadir. Agar, korxonalarda ushbu tartibda o'zlariga yuklatilgan soliq to'lovlarini rejalashtirish ishlarini tashkil qilsa, korxonaning moliyaviy boshqaruv jarayoni samaradorligini oshirgan bo'ladi deb hisoblanadi.

Ushbu model mohiyati va tuzilishi jihatidan «Korxonalarda soliq majburiyatini bajarishning modeli» deb nomlanadi. Bu modelning mohiyatini shundan iboratki, korxonada soliq majburiyatlari bilan bog'liq jarayonlarning o'zaro ketma-ketlikda ularning kompleks natijalarini aks ettiradi (23-rasm).

¹³⁵ Александров И. М. Налоги и налогообложение Учебник Москва, 2009 Издательско-торговая корпорация «Дашков и К°» Москва, 138 с



23-rasm. Korxonalarda soliq majburiyatlarini bajarish modeli

Korxonalarda moliyaviy rejalashtirish, hisob-siyosati, marketing strategik rejasi, xarajatlarni boshqarish strategiyasi, moliyaviy natijalarni taqsimlash siyosati, debitorlik va kreditorlik qarzlarini boshqarish tamoyillari va shu kabilar soliqlarni rejalashtirish jarayoni bilan u o'zviy holda olib borilish lozim. Modelning to'laqonli samarasi avvalo soliqlarni rejalashtirishdan asosiy maqsad aniqlab olinishiga bog'liq bo'ladi. Bu maqsad aslida korxonaning moliyaviy siyosatining mazmunidan kelib chiqadi. Shu jihatdan olganda uning maqsadi turlicha bo'lishi mumkin. Korxonaning soliq va majburiy to'lovlarni to'lash qobiliyatini aniqlash, korxonaning soliq majburiyati va pul fondlari o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilish, korxonaning soliq majburiyatlarini bajarishiga ta'sir etuvchi omillarni baholash yoki korxonaning soliq va majburiy to'lovlarni to'lashni minimallashtirishning yo'llarini ishlab chiqish kabi maqsadlardan birini asos qilib olish mumkin. Chunki, ta'kidlaganimizdek, boshqa jarayonlarda (masalan, korxonaning strategik moliyaviy siyosati, hisob siyosati, moliyaviy resurslarni boshqarish siyosati)gi rejalashtirilgan yoki amalga oshirilgan tadbirlarni soliqlarni rejalashtirish jarayonidagi takrorlanishlarga yo'l qo'ymaslik kerak, chunki, ortiqcha xarajatlar bilan birga mehnat sarfni oshirib yuboradi.

Soliqlarni rejalashtirishning maqsadini aniqlashda esa qayd etilgan jarayonlarni e'tiborga olish zarur bo'ladi. Modelning keyingi qismini maqsadda belgilangan vazifalarni bajarishning tashkiliy mexanizmlarini shakllantirish hisoblanadi. Bunda esa jarayonni amalga oshiruvchi mutaxassislarni aniqlash va ularning malaka va lavozim xizmatlaridan kelib chiqib vazifalarini belgilash, xizmat qiluvchi bo'linmalarning faoliyatining yo'nalishlarini belgilash, jarayonni amalga oshirish uchun axborotlar bazasini shakllantirish va ularni qayta ishlash hamda qo'llaniladigan metod (statistik, ekonometrik, matematik, ekstrapolatsiyali, ekspertli va shu kabilar)larni aniqlash ishlari amalga oshiriladi. Ta'kidlash kerakki, axborotlar va ularni qayta ishlashda iqtisodiy tahlil va boshqa metodlarga amal qilish, jarayonni amalga oshirishning

metodlarini tanlashda esa aynan samara beruvchi metodlarni tanlash katta ahamiyatga egadir.

Korxonalarda soliqlarni rejalashtirish jarayonida uni amalga oshirish eng murakkab jarayon hisoblanadi. Bu bosqich bir necha muhim tahlil va hisob-kitoblarni amalga oshirishni talab qiladi. Bu avvalo soliq qonunchiligiga ko'ra korxonaga zimmasiga yuklatilgan soliq va majburiy to'lovlarning ro'yxati va uni to'lashning taqvim grafigini tuzib chiqish lozim bo'ladi. Taqvim grafigini tuzishda soliq xizmati organlarining ma'lumotlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Keyingi bosqichda soliq qonunchiligini tahlil qilgan holda soliq to'lovlarni qonuniy kamaytirish imkoniyatlarni aniqlash lozim. Bunda har bir soliq turi bo'yicha Soliq kodeksi va hukumat qarorlari asosida berilgan soliq imtiyozlari va preferentsiyalarni aniqlash, ularni qo'llash tartiblari va muddatlarini aniqlagan holda korxonaga davriy muddatlarda qancha soliq imtiyozlari so'mmalariga ega bo'lishligi hisoblab chiqiladi. Bu yerda ta'kidlash kerakki, bu jarayonda korxonaga iqtisodchi mutaxassislarining soliq qonunchiligidan xabardorligidan kelib chiqib, zarurat hollarda soliq maslahatchilari xizmatidan foydalanish katta ahamiyatga egadir.

Davriy(oy, chorak, yillik) muddatlar bo'yicha korxonaning barcha daromadlar tushumi va xarajatlar nisbatini aniqlab borish va bu muddatlar bo'yicha korxonaning moliyaviy imkoniyatlari va soliq majburiyatlari o'rtasidagi o'zaro muvofiqlikni aniqlagan holda ularni taqqoslash lozim. Buning uchun korxonaning bankdagi asosiy korrespondentsiya hisobvaraqlaridagi debet va kredit oborotlari summasini solishtirish asosida korxonaning moliyaviy imkoniyatlarining soliq majburiyatlari o'rtasidagi nisbat taqqoslanadi. Bu yerda shu narsaga e'tibor berish lozimki, xarajatlar yo'nalishi va ularni amalga oshirishning mavsumiy o'zgarishlarni ham hisobga olish zarur. Ba'zi hollarda korxonaning ishlab chiqarish texnologik xususiyatidan kelib chiqib, eng muhim materiallar va zahiralarni katta hajmda sotib olishni taqozo qilsa, ba'zi vaqtlarda mavsumiy vaqtinchalik ishga qabul qilishni ham talab qiladi. Bu holatlar korxonaning ko'zda tutilmagan

xarajatlarini oshiradi va soliqlarni rejalashtirishga ta'sir qiladi. Soliqlarni rejalashtirishning ushbu bosqichida korxonada yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishni yoki qo'shimcha faoliyatni amalga oshirishni yo'lga qo'yish jarayonining korxonada soliq majburiyatlariga ta'sir etish holatini ham tahlil qilishni taqozo qiladi. Albatta bu jarayonda korxonaning mahsulot(xizmat) sotish jarayoni, marketing tadqiqotlari natijalari, pul mablag'larining kelib tushishi va xarajatlar hajmi o'rtasidagi bog'liqlarni tahlil qilib borish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Korxonaning mahsulotlariga bo'lgan talabning darajasini doim tadqiq etib borish bozor munosabatlarining muhim talablaridan biri sanaladi. Mahsulotlar bozorining konyukturasini prognoz qilmasdan yoki korxonada bilan tuzilgan oldi-sotdi shartnomalarini tahlil qilmasdan turib mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirib borish mablag'larning muzlanishiga olib keladi. Korxonaning debitorlik va kreditorlik qarzlari farq dinamikasini aniqlash, muddati o'tgan(yaqinlashgan) kreditorlik qarzlarini to'lash va debitorlik qarzlarini kelib tushishini aniqlashni amalga oshirish soliqlarni to'g'ri rejalashtirishga xizmat qiladi. Buning uchun korxonaning barcha mablag'larining o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'lar o'rtasidagi nisbatning o'zgarib borish dinamikasini o'rgangan holda korxonada to'lashi zarur bo'ladigan kreditorlik qarzlarining muddatlarini aniqlab ularni amalga oshirishning moliyaviy imkoniyatlar bilan solishtirish kerak bo'ladi. Chunki, kreditorlik qarzlarining hajmi va ularni to'lash muddatlariga amal qilmaslik qo'shimcha jarimalar sifatida xarajatlarni ko'paytiradi. Albatta bunda korxonada kreditorlari tomonidan debitorlik qarzlarining kelib tushish jarayonini tahlil qilgan holda shubhali(moliyaviy intizomga amal qilmaydigan) kreditor korxonalaridan mablag'larni undirishning huquqiy jihatlarini shakllantirishni taqozo etadi.

Korxonalarda soliqlarni rejalashtirishning eng muhim bosqichi bu soliq majburiyatlarini etarlilik darajasini aniqlab borish hisoblanadi. Buni aniqlashda soliq majburiyatlarini bajarishning etarlilik koeffitsietidan

foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun esa korxonaning bankdagi korrespondentsiya hisobvaraqlari(asosiy, valyuta, qo'shimcha)ining debet va kredit oboroti jami so'mmalarining farqini korxonaning shu davrdagi soliq majburiyatlari nisbatini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Ya'ni korxonaning soliq majburiyatlarini bajarish koeffitsienti:

$$SME_k = ((korxonaning\ hisobvaraqlarining\ debet\ va\ kredit\ oboroti\ summasining\ farqi) + (navbatdagi\ oyda\ kelib\ tushishi\ aniqlangan\ debitorlik\ summasi) - (navbatdagi\ oyda\ to'lanish\ muddati\ kelgan\ kreditorlik\ summasi) - (soliqlar\ bo'yicha\ qarzdorlik\ summasi)) / navbatdagi\ oy\ uchun\ jami\ soliq\ majburiyatlari\ summasi.$$

Agar buni matematik ifodalar bilan izohlasak, u quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$SME_k = \frac{HDKF + KTDS - TMKS - SQ}{TSM} \quad (1).$$

Bu yerda shu narsani e'tiborga olish lozimki formuladagi birinchi ko'rsatkich ya'ni, korxonaning hisobvaraqlarining debet va kredit oboroti summasining farqida kredit oboroti summasi ko'p chiqadigan bo'lsa, u holda formula quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$SME_k = \frac{KTDS - HDKF - TMKS - SQ}{TSM} \quad (2).$$

Bu yerda:

HDKF – korxonaning hisobvaraqlarining debet va kredit oboroti summasining farqi;


KTDS - navbatdagi oyda kelib tushishi aniqlangan debitorlik summasi;

TMKS - navbatdagi oyda to'lanish muddati kelgan kreditorlik summasi;

TSM - navbatdagi oy uchun jami soliq majburiyatlari summasi;

SQ - soliqlar bo'yicha qarzdorlik summasi.

Soliqlarni prognoz qilish, soliq salohiyatini aniqlash va korxonalarda soliqlarni rejalashtirish jarayonlari umumiy tartibda soliqlarni rejalashtirishga va u orqali esa byudjetni oqilona rejalashtirishga ta'sir qiladi. Ularning bunday o'zaro bog'liqligi quyidagi rasmda aks ettirilgan (24-rasm).



24-rasm. Korxonalarda soliqlarni rejalashtirish, soliq salohiyati va soliqlarni prognoz qilish jarayonlarining o'zaro bog'liqlik darajalari.

Korxonalarda soliqlarni rejalashtirish jarayoni avvalo korxonada faoliyatini to'g'ri boshqarish va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish maqsadida amalga oshirilsada, boshqa tomondan u korxonalar, tarmoqlar va hududlar doirasida soliq salohiyatini aniqlashga va shu orqali soliqlarni prognoz qilish jarayoniga ta'sir qiladi, qolaversa korxonalar tomonidan to'lanadigan soliqlarning byudjetga bir maromda kelib tushishini ta'minlaydi. Keltirilgan rasmdan ko'rinadiki, korxonalarda soliqlarni rejalashtirish jarayoni soliq prognoziga ta'siri

ikki tomonlama kasb etgan. Bir tomondan soliq salohiyatini aniqlashga xizmat qilib soliqlarni prognoz qilishga ta'sir qilgan bo'lsa, boshqa tomondan soliqlarni prognoz qilish jarayoni natijalariga qarab belgilangan soliq siyosati yo'nalishlari korxonalarining moliyaviy siyosati orqali soliqlarni rejalashtirishga ta'sir qiladi. Bu uchala jarayonni to'g'ri tashkil etish byudjet-soliq siyosatida maqsad qilib belgilangan vazifalarni bajarishga ta'sir qiladi.

Tayanch so'z va iboralar:

Salohiyat, soliq salohiyati, moliyaviy salohiyat, soliq resurslari, moliyaviy resurslar, soliq salohiyatini baholash, soliq salohiyati omillari, reprezentativ soliq tizimi, korxonalarda soliqlarni rejalashtirish, korxonaning soliq majburiyatlarini bajarish koeffitsienti, soliq majburiyatlari, korxonalarda soliq majburiyatlarini bajarish modeli, korxonaga nisbatan o'rtacha soliq stavkasi, korxonaga to'laydigan barcha soliqlar va majburiy to'lovlarning soliq bazasi hajmi, shubhali(debitor) qarzar summasi, soliq qarzdorligi summasi, korxonaning soliq salohiyati, hududiy yalpi mahsulot, YaIMning o'rtacha o'sish koeffitsienti, o'rtacha soliq yuki darajasi, «Soliq pasporti», soliqqa tortiladigan resurs, regressiya tahlili, «soliq resurslarining o'rtacha qiymati», «soliq salohiyati indeksi», Soliq salohiyatiga ta'sir qiluvchi omillar klassifikatsiyasi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Salohiyat va soliq salohiyati tushunchalarining mohiyati nimadan iborat?
2. Moliyaviy salohiyat va soliq salohiyat nimasi bilan farq qiladi?
3. Soliq resurslari va moliyaviy resurslar deganda nimani tushunasiz?
4. Soliq salohiyatini baholash deganda nima tushuniladi?

5. Soliq salohiyatiga ta'sir qiluvchi qanaqa omillar mavjud?
6. Rerezentativ soliq tizimi deganda nima tushuniladi?
7. Xorijiy davlatlar soliq salohiyatini aniqlash mexanizmlarini aytib bering.
8. Korxonalarda soliqlarni rejalashtirish deganda nima tushuniladi?
9. Sizningcha hududning soliq salohiyatini qanday tartibda aniqlagan ma'qul? O'zingizning variantingizni shakllantirishga harakat qilib ko'ring.
10. Korxonaning soliq majburiyatlarini bajarish koeffitsienti qanday aniqlanadi?
11. Soliq majburiyatlari deganda nima tushuniladi?
12. Korxonalarda soliq majburiyatlarini bajarish modelining mohiyatini tushuntirib bering.
13. Korxonaga nisbatan o'rtacha soliq stavkasi nima degani?
14. Hududiy yalpi mahsulot deganda nima tushuniladi?
15. YalMning o'rtacha o'sish koeffitsienti qanday aniqlanadi?


7-BOB. SOLIQ TURLARI BO'YICHA SOLIQLARNI PROGNOZ QILISH TARTIBI

7.1. O'zbekiston soliq tizimida soliqlarni prognoz qilishning umumiy tartibi

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, Respublikamiz soliq tizimida soliqlarni prognoz qilish Davlat soliq xizmati organlari tomonidan alohida metodikalarni qo'llagan holda amalga oshiriladi. Ushbu metodologiyalar mazmunan umumiy metodologiya bo'lib hisoblanadi va ularni qo'llashda esa har bir soliq turining o'ziga xos xususiyatlarini, soliq turi bo'yicha tushumlarning prognoz ko'rsatkichlariga ta'sir qiluvchi omillarning ta'sirini e'tiborga olgan holda qo'llash lozim bo'ladi. Ma'lumki, soliqlarni prognoz qilish jarayoni bu keng qamrovli tahlillar va murakkab hisob-kitoblarni qamrab oladi. Prognoz jarayonini amalga oshirish uchun esa mutaxassislar ekonometrika, statistika, matematika, iqtisodiy tahlil kabi fanlardan xabardor bo'lishi hamda mantiqiy mushohada qila olish qobiliyati(ko'nikmalari)ga ega bo'lishi lozim bo'ladi.

Ushbu keltirilgan metodlar yoki modellarning aksariyatining xususiyatlari avvalgi boblarda keltirib o'tilgan edi. Keyingi vaqtlarda prognoz jarayonida, jumladan soliq tushumlarini prognoz qilishda ham ekonometrik metodlarni qo'llashga keng ahamiyat berilayapti. Ekonometrik modellarning muhim xususiyati shundaki, ular ekstrapolyatsiyalash metodlaridan farqli ravishda prognoz jarayonidagi tanlab olingan obyektning hajmiga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi statistik korrelyatsion bog'liqlarni tavsiflab beradi. Ayniqsa omillar juda ko'p bo'lgan sharoitda va ularning ta'siri turlicha bo'lgan vaqtda ekonometrik metodlarni qo'llash yaxshi samara berishligi ko'p bora isbotlangan. Ekonometrik modellar ichida kross-sektsion metodlar ko'p qo'llaniladigan metodlar sirasiga kirib, bu metod orqali turli xil hududlarga bir xil vaqt oralig'iga tegishli ma'lumotlarga asoslangan holda tahlil qilish

va prognoz qilish amalga oshiriladi. Masalan, Respublikaning barcha hududlariga tegishli soliq tushumlarining tahlilini aniq vaqt(2014, 2015, 2016 va hakoza)ga oid ma'lumotlarga tayanilgan holdagi keyingi davr uchun soliq davrlarga asoslangan tushumlarining hajmi aniqlanadi.



25-rasm. O'zbekiston soliq tizimida soliqlarni prognoz qilishda qo'llaniladigan metodlar.

Kross-sektsion metodlardan farqli ravishda vaqt qatorlari metodlari(modellari) esa aksincha, bir hududga tegishli turli xil davrlarga oid ma'lumotlarga holda tahlil va prognoz jarayonini amalga oshirishda qo'llaniladi. Shuningdek, ushbu metodlar alohida olingan hudud, soliq to'lovchi, tarmoqlar bo'yicha soliq salohiyatini aniqlashda ham qo'llaniladi. Ushbu metodni qo'llashda asosan kamida 10 yillik ma'lumotlar ani olinishi zarur bo'ladi, aks holda prognoz natijalarining past bo'ladi.

Panelli modellar esa bir necha vaqt davrlariga tegishli ma'lumotlarni bir qancha hududlar kesimida tahlil qilish va unga asoslangan holda prognoz ko'rsatkichlarini aniqlashda foydalaniladi. Shu jihatdan olganda panelli modellar mohiyati jihatidan kross-sektsion metodlar va vaqt qatorlari metodlari(modellari)ni o'zida aks ettiradi, chunki, ushbu metodlar(modellar) turli xil davrlar va turli xil hududlarga tegishli ma'lumotlarni bir vaqtda tahlil qilish va prognoz ko'rsatkichlarini aniqlash imkonini beradi.

Determinlashtirilgan modellar esa prognozlashtirilayotgan jarayonga ta'sir etuvchi omillara o'rtasidagi determinlashgan bog'liqlarni va ularning ta'sir darajasini baholashga xizmat qiladi. Ta'kidlanganidek, prognoz jarayonining aniqlik darajasi ko'pincha uning holatiga ta'sir etuvchi omillarning ta'siri darajasini baholashga bog'liq bo'ladi, shu jihatdan olib qaraganda determinlashgan metodlar soliqlarni prognoz qilish jarayonidagi eng murakkab jihatlarning echimini topishga xizmat qiladi.

Amaliyotda soliqlarni prognoz qilish jarayonida ma'lumotlarni tahlil qilishda eng ko'p qo'llaniladigan metodlar sirasiga regression tahlil qilish metodi ham kiradi. Bu metodda soliq tushumlarini tahlil qilish va prognozlashda sonli ma'lumotlar bilan juda ko'p ish ko'riladi va turli kattaliklar orasidagi bog'liqlikni kuzatish, tahlil qilishga to'g'ri keladi. Ushbu metodning asosini berilgan son qiymatlarni tahlil qilishda tushuntiruvchi (X) va tushuntiriladigan (Y) o'zgaruvchilar tashkil qiladi. Agar tushuntiruvchi o'zgaruvchi bitta bo'lsa, u holda bunday tahlil oddiy regressiya deyiladi, agar, tushuntiruvchi ikkita yoki undan ortiq bo'lsa ko'p esa o'lchovli regressiya deyiladi.

Oddiy regressiya metodi esa $Y = \beta_0 + \beta_1 X + \varepsilon = \hat{Y} + \varepsilon$ oddiy regressiya tenglamasi to'g'ri chizig'idan iborat bo'ladi. Bu yerda β_0 va β_1 to'g'ri chiziq parametrlari, ε – tasodifiy xatolik. Agar ular aniq qiymat qabul qilsa, u holda to'g'ri chiziq fiksirlangan bo'ladi. Birinchi parametr β_0 – to'g'ri chiziqning Y – o'qining kesib o'tish nuqtasi bo'lib, $X=0$ da Y ana shu qiymatga erishadi. Ikkinchi parametr β_1 to'g'ri chiziqning og'ishi,

ya'ni Y o'qi bilan hosil qilgan burchagining tangensiga teng yoki X bir birlikka o'zgariganda, Y qanday miqdorga o'zgarishini ko'rsatuvchi kattalikdir.

Eng kichik kvadratlar metodi chiziq hamda berilgan nuqtalar orasidagi masofalar kvadratlari yig'indisi $\sum(\hat{Y}_i - Y_i)^2$ ni minimallashtiradigan to'g'ri chiziq tenglamasini aniqlaydi.

Kichik kvadratlar usuli yordamida izlanayotgan to'g'ri chiziqning Y o'qi bilan kesishish nuqtasi va X o'qi bilan hosil qilgan burchak tangensini topish uchun quyidagi formulalardan foydalaniladi:

$$b_1 = \frac{n \sum_{i=1}^n X_i Y_i - \left(\sum_{i=1}^n X_i \right) \left(\sum_{i=1}^n Y_i \right)}{n \sum_{i=1}^n X_i^2 - \left(\sum_{i=1}^n X_i \right)^2}, \quad b_0 = \frac{\sum_{i=1}^n Y_i}{n} - b_1 \frac{\sum_{i=1}^n X_i}{n},$$

Bu yerda:

n – tanlanma xajmi;

X_i – i -chi qadamdagi kuzatish;

Y_i – i -chi qadamdagi kuzatishning qiymati.

Demak, regressiya tenglamasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi.

$$\hat{Y} = b_0 + b_1 X.$$

Prognoz jarayonida oddiy determinatsiya koeffitsenti ham o'z ahamiyatiga ega. Regression analizning maqsadi Y bog'liq o'zgaruvchi-ning o'zgarish sohasi mos ravishda tanlab olingan erkin o'zgaruvchi X ga qanday ravishda bog'liqliligini aniqlashdan iborat. Regressiya tenglamasini topgandan so'ng, Y_i ning har bir kuzatishdagi qiymatini ikkita – \hat{Y}_i va e_i – tashkil etuvchilarga ajratishimiz mumkin:

$$Y_i = \hat{Y}_i + e_i.$$

Bu yerda: \hat{Y}_i —bu Y ning regressiya tenglamasi to‘g‘ri topilgan hamda X ga ta‘sir etuvchi tasodifiy omillarga ega emas mazmundagi i —tajribadagi hisoblangan qiymati, ya‘ni, \hat{Y}_i X ning tajribadan olingan tanlanma qiymati bo‘yicha Y ning bashorat qilingan qiymati.

Ammo, prognoz jarayonining shaffofligini va omillar bog‘liqligini asoslashda regression tahlil jarayonida R^2 bilan belgilanadigan *oddiy determinatsiya koeffitsentidan* foydalanishga to‘g‘ri keladi. Buning ahamiyati shundaki, bu kattalik bog‘liq o‘zgaruvchi Y ning o‘zgaruvchanligini yoki dispersiyasining erkin o‘zgaruvchi X yordamida tushuntirish mumkin bo‘lgan foiz qismini ko‘rsatadi va quyidagi formula orqali topiladi:

$$R^2 = 1 - \frac{\sum_{i=1}^n (Y_i - \hat{Y}_i)^2}{\sum_{i=1}^n (Y_i - \bar{Y})^2}$$

bu erda $\bar{Y} = \sum_{i=1}^n \frac{Y_i}{n}$ — Y o‘zgaruvchining o‘rta qiymati.

Qayd etish lozimki, soliqlarni prognoz qilish jarayonida regression tahlilni amalga oshirishda chiziqli modellar bilan birgalikda chiziqli bo‘lmagan modellardan ham foydalanishga to‘g‘ri keladi. Jahon amaliyotida (jumladan O‘zbekiston soliq tizimida ham) soliqlarni prognoz qilish jarayonida quyidagi egri chiziqli modellardan ham keng foydalaniladi:

Regressiya Chizig'ining ko'rinishi	Regressiya tenglamisi	Kichik kvadratlar usuli yordamida topiladigan koeffitsientlar
giperbolik	$Y = \beta_0 + \frac{\beta_1}{X} + \varepsilon = \hat{Y} + \varepsilon$	$b_1 = \frac{n \sum_{i=1}^n \frac{Y_i}{X_i} - \left(\sum_{i=1}^n \frac{1}{X_i} \right) \left(\sum_{i=1}^n Y_i \right)}{n \sum_{i=1}^n \frac{1}{X_i^2} - \left(\sum_{i=1}^n \frac{1}{X_i} \right)^2};$ $b_0 = \frac{1}{n} \left(\sum_{i=1}^n Y_i - b_1 \sum_{i=1}^n \frac{1}{X_i} \right)$
Ko'rsatkichli	$Y = \beta_0 * \beta_1^X + \varepsilon = \hat{Y} + \varepsilon$	$\lg b_1 = \frac{n \sum_{i=1}^n X_i \lg Y_i - \left(\sum_{i=1}^n X_i \right) \left(\sum_{i=1}^n \lg Y_i \right)}{n \sum_{i=1}^n X_i^2 - \left(\sum_{i=1}^n X_i \right)^2};$ $\lg b_0 = \frac{1}{n} \left(\sum_{i=1}^n \lg Y_i - \lg b_1 \sum_{i=1}^n X_i \right)$
Darajali	$Y = \beta_0 X^{\beta_1} + \varepsilon = \hat{Y} + \varepsilon$	$b_1 = \frac{n \sum_{i=1}^n \ln X_i \ln Y_i - \left(\sum_{i=1}^n \ln X_i \right) \left(\sum_{i=1}^n \ln Y_i \right)}{n \sum_{i=1}^n (\ln X_i)^2 - \left(\sum_{i=1}^n \ln X_i \right)^2}$ $; b_0 = \exp \left[\frac{1}{n} \left(\sum_{i=1}^n \ln Y_i - b_1 \sum_{i=1}^n \ln X_i \right) \right]$
Eksponentsial	$Y = \beta_0 \exp(\beta_1 X) + \varepsilon = \hat{Y} + \varepsilon$	$b_1 = \frac{n \sum_{i=1}^n X_i \ln Y_i - \left(\sum_{i=1}^n X_i \right) \left(\sum_{i=1}^n \ln Y_i \right)}{n \sum_{i=1}^n X_i^2 - \left(\sum_{i=1}^n X_i \right)^2};$ $b_0 = \exp \left[\frac{1}{n} \left(\sum_{i=1}^n \ln Y_i - b_1 \sum_{i=1}^n X_i \right) \right]$

Logarifmik	$Y = \beta_0 + \beta_1 \lg X + \varepsilon = \hat{Y} + \varepsilon$	$b_1 = \frac{n \sum_{i=1}^n (\lg X_i) Y_i - \left(\sum_{i=1}^n \lg X_i \right) \left(\sum_{i=1}^n Y_i \right)}{n \sum_{i=1}^n (\lg X_i)^2 - \left(\sum_{i=1}^n \lg X_i \right)^2};$ $b_0 = \frac{1}{n} \left(\sum_{i=1}^n Y_i - b_1 \sum_{i=1}^n \lg X_i \right)$
Parabolik	$Y = \beta_0 + \beta_1 X + \beta_2 X^2 + \varepsilon = \hat{Y} + \varepsilon$	$\begin{cases} nb_0 + b_1 \sum_{i=1}^n X_i + b_2 \sum_{i=1}^n X_i^2 = \sum_{i=1}^n Y_i \\ b_0 \sum_{i=1}^n X_i + b_1 \sum_{i=1}^n X_i^2 + b_2 \sum_{i=1}^n X_i^3 = \sum_{i=1}^n X_i Y_i \\ b_0 \sum_{i=1}^n X_i^2 + b_1 \sum_{i=1}^n X_i^3 + b_2 \sum_{i=1}^n X_i^4 = \sum_{i=1}^n X_i^2 Y_i \end{cases}$

Yuqorida ta'kidlanganidek, soliqlarni prognoz qilishning mavjud prognozlashtirishda ko'rsatkichlarning o'tgan davrlardagi dinamikasini inobatga olish imkonini beradigan *Eksponentsial silliqlash metodlaridan* ham foydalaniladi. Ammo, ushbu metodlar orqali doimiy o'zgaruvchi makroiqtisodiy omillarni hamda soliq va byudjet siyosatidagi o'zgarishlarni hisobga olish imkoni bo'lmaydi, bu esa ushbu metodlarning kamchiligi sifatida izohlanadi. Eksponentsial silliqlash metodlarida regression metod orqali hisob-kitoblardan foydalangan holda silliqlash-tirilgan prognoz ko'rsatkichlarini olish uchun foydalaniladi.

Ushbu metodlardan biri bu chiziqli trend metodi hisoblanadi, ushbu metodda asosiy masalalardan biri boshlang'ich qiymatni topish muhim sanaladi va u quyidagicha aniqlanandi:

$$S_0^{[1]} = b_0 - \frac{1-\alpha}{\alpha} b_1;$$

$$S_0^{[2]} = b_0 - \frac{2(1-\alpha)}{\alpha} b_1.$$

Bu yerda:

b_0, b_1 – kichik kvadratlar usuli bilan topilgan koeffitsient baholar;

α – eksponentsial silliqlash parametri ($0 < \alpha < 1$).

Shuningdek, eksponensial o'rtachalarni hisoblashning rekurrent formulalari esa quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$S_t^{[1]} = \alpha y_t + (1 - \alpha)S_{t-1}^{[1]};$$

$$S_t^{[2]} = \alpha S_t^{[1]} + (1 - \alpha)S_{t-1}^{[2]},$$

Bu yerda:

y_t –dynamik qatorning t vaqtidagi qiymati.

Chiziqli trend koeffitsient baholari esa quyidagicha hisoblanadi:

$$\hat{b}_0 = 2S_t^{[1]} - S_t^{[2]};$$

$$\hat{b}_1 = \frac{\alpha}{1 - \alpha} [S_t^{[1]} - S_t^{[2]}]$$

O'z navbatida l -chi qadamdagi prognozni hisoblash quyidagiga teng bo'ladi: $\hat{y}_{t+l} = \hat{b}_0 + \hat{b}_1 \cdot l$.

Eksponensial silliqlash metodlari sirasiga parabolik trendlar ham kiradi. Ushbu trendlarda boshlang'ich qiymatlarni topish quyidagi formulalar orqali aniqlanadi:

$$S_0^{[1]} = b_0 - \frac{1 - \alpha}{\alpha} b_1 + \frac{(1 - \alpha)(2 - \alpha)}{2\alpha^2} b_2;$$

$$S_0^{[2]} = b_0 - \frac{2(1 - \alpha)}{\alpha} b_1 + \frac{(1 - \alpha)(3 - 2\alpha)}{2\alpha^2} b_2;$$

$$S_0^{[3]} = b_0 - \frac{3(1 - \alpha)}{\alpha} b_1 + \frac{(1 - \alpha)(4 - 3\alpha)}{2\alpha^2} b_2,$$

Bu yerda:

b_0, b_1, b_2 –kichik kvadratlar usuli bilan topilgan koeffitsient baholar;

α –eksponensial silliqlash parametri.

Parabolik trendlarda eksponensial o'rtachalarni hisoblashning rekurrent formulalari esa quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$S_t^{[1]} = \alpha y_t + (1 - \alpha)S_{t-1}^{[1]};$$

$$S_t^{[2]} = \alpha S_t^{[1]} + (1 - \alpha)S_{t-1}^{[2]};$$

$$S_t^{[3]} = \alpha S_t^{[2]} + (1 - \alpha)S_{t-1}^{[3]},$$

Bu yerda:

y_t – dinamik qatorning t vaqtdagi qiymati.

O‘z navbatida parabolik trend koeffitsient baholari:

$$\hat{b}_0 = 3[S_t^{[1]} - S_t^{[2]}] + S_t^{[3]},$$

$$\hat{b}_1 = \frac{\alpha}{(1-\alpha)^2} [(6-5\alpha)S_t^{[1]} - 2(5-4\alpha)S_t^{[2]}] + (4-3\alpha)S_t^{[3]},$$

$$\hat{b}_2 = \frac{\alpha}{(1-\alpha)^2} [S_t^{[1]} - 2S_t^{[2]} + S_t^{[3]}] \text{ formulalari bilan aniqlanadi.}$$

l -chi qadamdagi prognoz esa $\hat{y}_{t+l} = \hat{b}_0 + \hat{b}_1 \cdot l + \frac{1}{2}l^2\hat{b}_2$ tenglamasi bilan aniqlanadi.

Eksponensial silliqlash modelinining kamchiligi shundaki, uni qo‘llashda α – eksponensial silliqlash parametrini topishning qiyinligidir. O‘z navbatida eksponensial silliqlash parametrini topishni bir nechta metodlari ham mavjud. Bulardan biri bu odatda «Braun munosabati» deb nom olgan metoddan foydalaniladi va u quyidagicha aniqlanadi:

$$\alpha = \frac{2}{n+1},$$

Bu yerda:

n – dinamik qatorning hisoblangan qiymatlari soni.

Keyingi turlaridan biri esa Meyera munosabati hisoblanadi:

$$\alpha = \frac{\sigma_n}{\sigma_e},$$

Bu yerda:

σ_n – modelning o‘rtacha kvadratik xatosi;

σ_e – dastlabki dinamik qatorning o‘rtacha kvadratik xatosi.

Shuningdek, soliqlarni prognoz qilish jarayonida vaqt qatorlari metodlaridan ham keng foydalaniladi. Vaqt qatorlari metodini qo‘llash orqali prognoz jarayoni uchun muhim bo‘lgan ko‘rsatkichlar: ko‘rsatkichlarning mutloq (absolyut) o‘zgarishi, tushumlar va hisoblangan soliqlarning o‘rtacha mutloq (absolyut) o‘zgarishi, tushumlar va hisoblangan soliqlarning o‘zgarish sur‘ati, tushumlar va hisoblangan soliqlarning qo‘shimcha o‘zgarish sur‘ati, siljuvchi o‘rta qiymat kabi

ko'rsatkichlar aniqlanadi va ular orqali soliq tushumlarini prognoz qilish jarayonidagi o'zgarishlar hamda xatoliklar aniqlanadi.

Bunda ko'rsatkichlarning mutloq (absolyut) o'zgarishi $\Delta y_t = y_t - y_{t-1}$ formulasi yordamida hisoblanadi bu erda y_t vaqt qatorining t ($t=1, 2, \dots, n$) momentdagi qiymatlari.

Tushumlar va hisoblangan soliqlarning o'rtacha mutloq (absolyut) o'zgarishi esa quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\Delta \bar{y} = \frac{y_n - y_1}{n-1}$$

Tushumlar va hisoblangan soliqlarning o'zgarish sur'atini:

$$T_t^p = \frac{y_t}{y_{t-1}} \cdot 100\%$$

formulasi orqali hisoblanadi.

Tushumlar va hisoblangan soliqlarning qo'shimcha o'zgarish sur'atini aniqlash quyidagi tartibda aniqlanadi:

$$T_t^{np} = \frac{y_t - y_{t-1}}{y_{t-1}} \cdot 100\% = T_t^p - 100\%$$

Tushumlar va hisoblangan soliqlarning o'rtacha o'zgarish sur'ati esa

$$\bar{T} = n \cdot \sqrt[n]{T_2^p \cdot T_3^p \cdot \dots \cdot T_n^p} \cdot 100\% = n \cdot \sqrt[n]{\frac{y_n}{y_1}} \cdot 100\%$$

formulasi orqali aniqlanadi, bu erda $T_2^p \cdot T_3^p \cdot \dots \cdot T_n^p$ alohida vaqt oralig'idagi o'zgarish sur'atlari.

Siljivchi o'rta qiymat quyidagi formula bilan hisoblandi:

$$\bar{y}_t = \frac{1}{m} \cdot \sum_{i=t-p}^{t+p} y_i$$

bu erda \bar{y}_t siljivchi o'rta qiymatning t ($t=p+1, \dots, n-p$) momentdagi qiymati;

y_i i momentdagi haqiqiy qiymati.

Masalan, $p=2$ uchun siljivchi o'rta qiymat quyidagicha aniqlanadi:

$$\bar{y}_t = \frac{1}{35}(-3y_{t-2} + 12y_{t-1} + 17y_t + 12y_{t+1} - 3y_{t+2})$$

Shuningdek, $p=3$ uchun siljuvchi o'rta qiymat:

$$\bar{y}_t = \frac{1}{21}(-2y_{t-3} + 3y_{t-2} + 6y_{t-1} + 7y_t + 6y_{t+1} + 3y_{t+2} - 2y_{t+3})$$

Silliqlash uchun qo'llaniladigan modellar aniqlanadi, jumladan:

Doimiy o'sib boruvchi $y_t = b_0 + b_1 \cdot t$ – chiziqli;

O'sishni oshiruvchi:

$$y_t = b_0 + b_1 \cdot t + b_2 t^2 \text{ – parabolik;}$$

$$y_t = b_0 b_1^t \text{ – ko'rsatkichli;}$$

O'sishni kamaytiruvchi:

$$y_t = b_0 + b_1 \ln t \text{ – logarifmik-chiziqli;}$$

$$y_t = b_0 t^{b_1}, b_1 > 1 \text{ – darajali;}$$

$$y_t = b_0 - \frac{b_1}{t} \text{ – shakli o'zgartirilgan giperbola;}$$

$$y_t = b_0 - b_1 e^{-t} \text{ – shakli o'zgartirilgan eksponentsial;}$$

birlashtirilgan:

$$y_t = b_0 + b_1 \ln t + b_2 (\ln t)^2, b_2 < 0 \text{ – logarifmik parabola;}$$

$$y_t = b_0 + b_1 \cdot t + b_2 t^2 + b_3 t^3, b_3 < 0 \text{ – uchinchi darajali ko'phad;}$$

Gipoteza Darbin-Uotson kriteriyasi yordamida tekshirib ko'riladi:

$$d = \frac{\sum_{t=2}^n (\varepsilon_t - \varepsilon_{t-1})^2}{\sum_{t=1}^n \varepsilon_t^2}$$

Soliqlarni prognoz qilish jarayonidagi eng oxirgi bosqichlardan biri bu olingan natijalarning eng optimal variantini tanlash sanaladi. Buning uchun esa qilingan hisob-kitoblarning xatolik darajalari tekshirib ko'riladi. Hisob-kitob kilingan prognoz ko'rsatkichlarining xatoliklari esa quyidagi tartibda aniqlanadi:

Jumladan, absolyut xatolik $\Delta_t = y_t - \hat{y}_t$ formulasi yordamida hisoblansa, prognoz ko'rsatkichlarining nisbiy xatoligi formulasi orqali aniqlanadi.

$$\delta_t = \frac{\hat{y}_t - y_t}{y_t} \cdot 100$$

Prognoz ko'rsatkichlarining o'rtacha mutloq xatoligi

$$|\Delta| = \frac{\sum_{t=1}^n |\hat{y}_t - y_t|}{n}$$

formulasida hisoblanadi.

Prognozning o'rtacha nisbiy xatoligi $|\delta| = \frac{1}{n} \sum_{t=1}^n \left| \frac{\hat{y}_t - y_t}{y_t} \right| \cdot 100$ formulasi

$$S = \left[\frac{\sum_{t=1}^n |\hat{y}_t - y_t|^2}{n} \right]^{\frac{1}{2}}$$

orqali, prognozning o'rtacha kvadratik xatoligi esa formulasi yordamida aniqlanadi.

Ushbu qayd etib o'tilgan soliqlarni prognoz qilish jarayonidagi metodlar umumiy hajmdagi soliq tushumlarini, hududlar kesimida soliq tushumlari hajmini hamda har bir soliq turi bo'yicha alohida tartibda soliqlarni prognoz qilishda keng foydalaniladi.

7.2. Foyda solig'ini prognoz qilish

Yuridik shaxslar to'laydigan soliqlar ichida foyda solig'i byudjet daromadlarini shakllantirishda katta ulushni egallamasada, soliq to'lovchilarning faoliyatini soliqlar vositasida rag'batlantirishda eng muhim instrumentlardan biri hisoblanadi. Soliqlarni prognoz qilish jarayonida yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini prognoz qilishning ahamiyati shundaki, prognoz natijasida olingan ko'rsatkichlar, birinchidan byudjetga soliq tushumlarining hajmini aniqlashga imkon beradi, ikkinchidan, soliqlarni prognoz qilish jarayonida umumiy

tendentsiyalarni ko'rsatib beradi, uchinchidan, foyda solig'iga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash orqali boshqa soliq turlari bo'yicha omillar ta'sirini baholash imkoniyati tug'iladi, to'rtinchidan esa, soliq to'lovchilarning faoliyatini soliqqa oid ko'rsatkichlar asosida tahlil qilish imkoniyati tug'ilib, soliq to'lovchilar faoliyatini boshqarishga zarur bo'ladigan axborotlar majmuasi shakllanadi. Shuningdek, foyda solig'ining prognoz ko'rsatkichlarini aniqlash hududlarga byudjet subsidiyalarini taqsimlash jarayonini muvofiqlashtirishga yordam beradi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini prognoz qilish bir qator bosqichdagi jarayonlarni qamrab oladi. Bu jarayondagi dastlabki bosqich soliqni prognoz qilishning maqsadi aniqlab olinadi. Avvalgi boblarda qayd qilganimizdek, har qanday prognozni amalga oshirish jarayoni uning maqsadini aniqlashdan boshlanadi. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini prognoz qilishda bosh maqsad bu byudjetga ushbu soliq turi bo'icha soliq tushumlarining kelgusidagi hajmini aniqlash bo'lsa, joriy va oraliq maqsadlar sifatida soliq tushumlarini tahlil qilish, prognoz jarayoniga ta'sir etuvchi omillarning ta'siri baholash, soliq to'lovchilarda soliq bazasining shakllanishi va uning dinamik holatini aniqlash, soliq to'lovchilarning foyda olish darajasining oshishi yoki kamayishi tendentsiyalarini aniqlash va shu kabi maqsadlar ham qo'yilishi mumkin. Soliqlarni prognoz qilishda maqsadlarning bunday qo'yilishi prognoz jarayonini qismlarga bo'lish orqali uning samaradorligiga erishish mumkin va prognoz jarayonida qatnashuvchi(amalga oshiruvchi) mutaxassislarning vazifalarini aniqlashtirishga ham yordam beradi. Shu jihatdan olgan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini prognoz qilishni amalga oshiruvchi mutaxassislarning kasbiy malakasi va bajarayotgan xizmat vazifalariga qarab vazifalar taqsimlab olinadi. Prognoz jarayonida obyekt foyda solig'i bilan bog'liq jarayonlar va ko'rsatkichlar bo'lsa, subyekti soliq to'lovchilar korxonalar va tashkilotlar hamda soliq xizmati organlari hisoblanadi. Prognoz qilishda jarayonidagi keyingi bosqichlardan biri prognoz jarayonidagi xizmat qiluvchi

axborotlar manbalarini yig'ish, ularni guruhlagan holda qayta ishlash hisoblanadi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini prognoz qilishning boshqa turlarini prognoz qilishdan muhim farqi ham shundaki, prognoz jarayonida qo'llaniladigan axborotlarni, tahlillarni metodlarni ko'p talab qilishidir. Bu jarayonda prognozni amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan axborotlarni yig'ish va ulardan qanday foydalanish katta ahamiyatga ega. Quyida keltirilayotgan jadvalda foyda solig'i uchun zarur bo'ladigan ko'rsatkichlar va ularning manbalari hamda ahamiyatlari keltirilgan(11-jadval).

11-jadval.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini prognoz qilishda axborotlar bazasi va ularning manbalari

№	Ko'rsatkichlar	Axborot manbai	Ko'rsatkichning prognoz jarayonidagi ishtiroki va ahamiyati
1.	Yalpi ichki mahsulot	Davlat statistika qo'mitasi tomonidan e'lon qilinadigan «O'zbekiston respublikasini ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari to'g'risida axborotlari»	Davlat byudjetiga foyda solig'i bo'yicha soliq tushumlarining tahlilini va uning tushumiga makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning ta'sirini baholaydi, foyda solig'i bo'yicha soliq yukini aniqlashga xizmat qiladi.
2.	Yalpi hududiy mahsulot	Davlat statistika qo'mitasi tomonidan e'lon qilinadigan «O'zbekiston respublikasini ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari to'g'risida axborotlari»	Hududlar doirasida foyda solig'i bo'yicha soliq yukini hamda hududning soliq salohiyatini aniqlashga xizmat qiladi.
3.	Davlat byudjetiga foyda solig'i	Davlat soliq xizmati organlarining «Davlat	Foyda solig'i bo'yicha turli darajadagi byudjetlarga

	tushumlari va soliq bo'yicha qarzdorlikning hajmi ko'rsatkichlari	byudjeti va maqsadli jamg'armalariga tushumlar hisobini yuritish 1-N» shakl hisoboti va «Bank-DSI» dasturiy mahsuli hamd moliya organlarining byudjet ijrosi bo'yicha hisobot ma'lumotlari	solix tushumlarining kelib tushishi va uning tahlilini qilish, foyda solig'i bo'yicha byudjetga soliq tushumlarining yig'iluvchanligini aniqlash, soliq bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarining bajarilish holatini aniqlash, soliq turi bo'yicha soliq qarzdorligining kelib chiqishini aniqlash imkoniyatini beradi.
4.	Korxonalar foydasi yoki zararining shakllanishi va uning manbalari, korxonalar tomonidan byudjetga to'langan soliqlar so'mmasi	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2002 yil 27 dekabrdaqi 140-sonli buyrug'iga 2-sonli ilovasi bilan tasdiqlangan va korxonalar tomonidan tuziladigan «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot - 2-sonli shakl»	Prognoz qilish jarayonida korxonalarining foydasining shakllanish jarayoni, foyda yoki zararlarining turlari, ularning hajmlarini aniqlash imkoniyatini beradi.
5.	Foyda solig'ining bazasi, foyda va zararlarining manbalari, soliq bazasiga qayta qo'shiladigan xarajatlar va chegiriladigan xarajatlar, korxonada foyda solig'i bilan bog'liq imtiyozlar so'mmasi va shu kabi ko'rsatkichlar	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining 2013 yil 4 martdaqi 23, 2013-8-son qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan va korxonalar tomonidan tuziladigan «Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hamda obodonlash-tirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i bo'yicha soliq hisoboti shakllari»	Soliqni prognoz qilish jarayonidagi eng muhim bosqichlardan bo'lgan foyda solig'i bazasi va uning tarkibini aniqlash, soliq bazasiga qayta qo'shiladigan va chegiriladigan xarajatlarning hajmi, korxonalarda soliq turi bo'yicha imtiyozlar so'mmasi va uning maqsadli ishlatilganligini tahlil qilishga sharoit-yaratadi.

6.	Foyda solig'i stavkasi, soliqni undirish mexanizmiga oid o'zgarish ko'rsatkichlari	«O'zbekiston Respublikasining ----- yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli yillar bo'yicha Qarorlari	Soliqni prognoz qilish jarayonida tashqi omillar, jumladan, soliq siyosatidagi o'zgarishlarning ta'sirini baholash imkoniyatini beradi.
7.	Foyda solig'i bazasiga qayta qo'shiladigan xarajatlar ham mahsulot tannarxiga qo'shiladigan xarajatlar	Korxonada buxgalteriyasi tomonidan yuritiladigan «Asosiy ishlab chiqarish xarajatlari», «Davri xarajatlari», «Pul mablag'lari» kabi hisobvaraqlar ma'lumotlari	Foyda solig'i bazasini tahlil qilish, foydani tarkibini tahlil qilish, korxonada xarajatlarni to'g'ri boshqarilganligini tahlil qilishga imkon tug'diradi.
8.	Boshqa ko'rsatkichlar	Korxonaning o'zidagi boshqa hisobot ma'lumotlari, davlat statistika, iqtisodiyot boshqarmalari ma'lumotlari	Foyda solig'ini prognoz qilishda qo'shimcha omillarni tahlil qilish, ularni baholash, soliq prognozidagi xatoliklarni tekshirib ko'rishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Keltirilgan jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlar tashqari yana qo'shimcha ma'lumot va ko'rsatkichlar prognoz jarayonida zarur bo'lib qolishi mumkin. Masalan faoliyat ko'rsatayotgan, faoliyat ko'rsatmayotgan soliq to'lovchilar haqidagi ma'lumotlar davlat soliq inspek tsiyalaridagi soliq to'lovchilarning yagona reestri, statistika organlarining davlat soliq xizmati organlariga taqdim qiladigan axborotlari (bu haqda soliq statistikasini tashkil etish bobida batafsil keltirilgan), shuningdek, Respublika, hududlar bo'yicha korxonalarining foyda olish yoki zarar ko'rish darajasi kabi ma'lumotlar Davlat statistika qo'mitasining «stat uz.» internet sayti va chop etiladigan axborot-tahliliy to'plamlaridan olish mumkin. Foyda solig'ini prognoz qilishda amalga

oshiriladigan jarayonlardan biri soliq to'lovchilarni ma'lum bir guruhlariga ajratib ularning prognoz jarayonidagi ahamiyatini aniqlash hisoblanadi. Soliq to'lovchilarni guruhlashda quyidagi tartibda amalga oshirish ularning soliqlarni prognoz qilish jarayonidagi ta'siri baholash imkonini beradi(12-jadval).

12-jadval.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini prognoz qilish maqsadida soliq to'lovchilarning guruhlanishi

No	Mezon	Guruhlash tarkibi
	Mulkchilik shakllariga ko'ra	Davlat va nodavlat(xususiy, jamoa, aralash)
	Xo'jalik yuritish shakliga ko'ra	Aktsionerlik jamiyatlari, fermer xo'jaliklari, ma'suliyati cheklangan(cheklanmagan) jamiyatlari, shu'ba korxonalari, xo'jalik birlashmalari, qo'shma korxonalar va sh.k)
	Ko'lamiga ko'ra	Kichik korxonalar, mikrofirmalar, yirik korxonalar
	Tashkiliy-moliyaviy tuzilmasiga ko'ra	Bitta shaxsning moliyaviy resursiga, bir necha individlarning moliyaviy resurslariga, ta'sischi korxonalarning moliyaviy resurslari hisobiga, davlat dasturi asosida, davlat kafilligi hisobiga shakllangan soliq to'lovchilar va sh.k.
	Faoliyatining davomiyligiga ko'ra	Barqaror, nobarqaror, vaqtinchalik, tez o'zgaruvchan, monopol soliq to'lovchilar
	Soliq to'lash tartibiga ko'ra	Umumiy, soddalashtirilgan, markazlashgan, xalqaro kelishuv tartibida soliq to'lovchilar
	Soliq imtiyozlariga egaligiga ko'ra	Doimiy (vaqtinchalik)imtiyozga ega bo'lganlar, soliq kanikuliga ega bo'lib kelayotganlar

Soliqlarni prognoz qilish jarayonida soliq to'lovchilarni bunday tartibda guruhlash barcha soliq turlariga tegishli bo'lib, (albatta soliq turining mohiyati va uni undirish mexanizmidan kelib chiqib), soliq to'lovchilarning ma'lumotlarini yig'ish va ularni prognoz qilish jaryoniga tayyorlash va ulardan samarali foydalanishga zamin yaratadi.

Ma'lumki, soliqlarni prognoz qilish jarayoning obyektlari jumlasiga soliq obyekti, soliq bazasi, ularning shakllanishi va hajmi(miqdori)ga ta'sir etuvchi omillar va shu kabilar tashkil etadi. Soliqlarni prognoz qilish jarayonida soliq to'lovchi maqomidagi yuridik va jismoniy shaxslar bo'yicha prognoz jarayonini amalga oshirishda ma'lum bir shartlarga amal qilish ham munosib ahamiyatga egadir. Bu shartlar aynan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'iga ham tegishli bo'lib, unda quyidagi shartlarga amal qilish zarur bo'ladi.

Yuridik shaxslar bo'yicha soliq tushumlarini prognoz qilishning birinchi sharti bu prognoz jarayoni maqsadli bo'lishligi; ikkinchi sharti-prognoz jarayoni mamlakat(hudud)ning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatikchlaridan kelib chiqqan holda hamda byudjet jarayoni bilan uzviy bog'langan bo'lishi lozimligi; uchinchi sharti-prognoz ko'rsatkichlari ko'p variantli bo'lishi va to'rtinchi sharti sifatida soliqni prognozlash jarayonida yuridik shaxslarning moliyaviy hisobotlari, vakolatli organlarning rasmiy axborotlari zarur hollarda so'rov materiallariga asoslanishi va prognoz variantlarini tanlashda ilmiy yondoshgan holda undagi xatoliklarni qaytadan tekshirish lozimligi kabilarni keltirish mumkin.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini prognoz qilishda axborotlarni tegishli manbalardan yig'ib, ularni guruhlashda avvalgi boblarda aytib o'tilganidek, ma'lumotlar bazasi aniqlanayotganda avvalo ularning muhimligi va ishonchligi hamda ushbu ma'lumotlarning prognoz jarayonidagi ahamiyatiga e'tibor qaratiladi. Keyingi bosqichda esa olingan axborotlar guruhlanadi. Bunda axborot va ko'rsatkichlarning soliqni prognoz qilishning qaysi qismiga yoki jarayoniga tegishli ekanligiga ajratilib, ularni sintezlash amalga oshiriladi. Ya'ni, sintezlash orqali tugallanmagan, to'liq aks etmagan va chala xususiyatga ega bo'lgan ma'lumotlar to'ldirilib, ularni bir-butun holga keltiriladi va ularni tahlil va hisob-kitob ishlariga tayyorlab qo'yiladi. Shuningdek, bu bosqichdagi eng e'tibor beriladigan

narsalardan yana biri ma'lumotlarni o'zaro taqqoslash va bir-biriga moslashtirgan holda ularning samaradorligi masalasidir.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, jumladan boshqa soliq turlari bo'yicha ham prognoz qilishni amalga oshirishda avvalgi bobda keltirish o'tilgan umumiy tashkiliy-uslubiy asoslarga tayaniladi. Unga ko'ra yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini prognoz qilishda foydalaniladigan axborot manbalari va ko'rsatkichlarni umumiy, oraliq, moliyaviy, nomoliyaviy, miqdoriy va sifat ko'rsatkichlariga ajratib(-rasimga qarang) ular asosida dastlab tahliliy ishlar keyin esa prognoz ko'rsatkichlarini aniqlash jarayoni amalga oshiriladi. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini prognoz qilishda soliq tushumlari va boshqa ko'rsatkichlarning dinamik holati tahlil qilinadi. Bunda asosiy e'tibor miqdor ko'rsatkichlari-soliq to'lovchilar soni, foyda solig'i to'lovchilari sifatida ro'yxatdan o'tgan korxonalarining faoliyat ko'rsatayotgan va faoliyatini vaqtincha amalga oshirmayotganlari, o'z faoliyatini rasman tugatganlar soni, moliyaviy faoliyatini foyda yoki zarar bilan tugallagan soliq to'lovchilar soni, barqaror ravishda va nobarqaror holda foydaga ega bo'luvchilar soni, soliq imtiyoziga ega bo'lgan soliq to'lovchilar va ular hisobiga byudjetga kelib tushmagan mablag'lar hajmi va uning dinamikasi, soliq qonunchiligiga rioya etilish darajasi kabi ko'rsatkichlar alohida tahlil qilinadi. Shuningdek, prognoz jarayonida asosiy rol o'ynaydigan moliyaviy ko'rsatkichlar ham o'zaro bog'liq holda tahlil qilib chiqiladi. Bunda esa soliq to'lovchilarning yalpi tushumi yalpi daromadi, realizatsiya hajmi, ish haqi fondi, foyda(zarar) hajmi, soliq qarzdorligi, soliq imtiyozlari, debitorlik va kreditorlik qarzlari, mahsulot tannarxiga qo'shiladigan va davr xarajatlari so'mmasi, soliq bazasiga qayta qo'shiladigan xarajatlar va chegiriladigan xarajatlar kabi ko'rsatkichlar alohida tahlil qilib chiqiladi. Bunda esa aytib o'tilganidek, iqtisodiy tahlil, statistika va ekonometrikada qo'llaniladigan tahlilning ilg'or metodlarining qo'llaniladi.

Har qaysi soliq turlari bo'yicha jarayonlarni tahlil qilishda hamda ularga asoslangan holda prognoz ko'rsatkichlarini aniqlashda iloji

boricha kamida 10 yillik ma'lumotlarni, agar ma'lumotlarni taqqoslash bilan bog'liq zaruriy ma'lumotlarni shakllantirish imkoni bo'lmagan taqdirda esa kamida 5 yillik ma'lumotlarga asoslanish zarur. Chunki, ta'kidlaganimizdek, prognoz jarayoni mavhumlikka asoslanganligi sababli uning kelgusidagi holatlarini aniqlashda davriylik oralig'ini kengroq olish talab etiladi, sababi, soliq prognoziga ta'sir etuvchi miqdoriy va sifat ko'rsatkichlar iqtisodiyotning holati, iqtisodiy va byudjet-soliq siyosatining yo'nalishlari hamda soliq to'lovchilarning iqtisodiy faoliyatiga qarab ular o'zgarib turadi, natijada esa prognoz jarayoniga ta'siri turlicha bo'ladi. Agar tahlilda ko'rsatkichlarning davriyligi ko'proq muddatlarni qamrab olsa, ko'rsatkichlarning stixiyali ta'sirining oldini olish imkoniyati paydo bo'ladi. Foyda solig'ining ko'rsatkichlarini tahlil qilishda esa tahlil jarayonida iqtisodiy va statistik tahlil jarayonida ko'p qo'llaniladigan mutloq o'zgarish darajasi, o'rtacha mutloq o'zgarish darajasi, o'zgarish sur'ati, qo'shimcha o'zgarish sur'ati, o'rtacha o'zgarish sur'ati kabi tahlil metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.(Ushbu tahlil metodlarining xususiyatlari avvalgi paragraflarda berilgan).

Yuqoridagi paragraflarda ta'kidlab o'tilganidek, miqdoriy ko'rsatkichlar asosan ko'proq miqdoriy tavsiflash xususiyatiga ega bo'lib, ular foydalanish qulay bo'lsada, ammo, sifat ko'rsatkichlarni izohlay olmaydi, ya'ni tahlilning vaqt qatorlaridan o'rin olgan o'zgarishlarning o'zaro bog'liqligi va ularning aks ta'sirini to'liq ifodala olmaydi. Shu boisdan tahlil jarayonida hodisa va jarayonlarni dinamik qatorlarining bog'liqligi yondoshuviga asoslangan tahlil metodlardan ham foydalaniladi. Bunda esa sifat ko'rsatkichlar hamda ularning miqdor ko'rsatkichlari bilan bog'liqligi jarayonlar tahlil qilinadi. Shu sababli foyda solig'i prognoziga ta'sir etuvchi sifat ko'rsatkichlarni alohida tahlil qilish talab etiladi.

Keltirib o'tilgan ko'rsatkichlar milliy iqtisodiyot darajasidagi holatlarni izohlashga xizmat qiladi, ammo, soliqlarni prognoz qilish jarayonida esa har bir soliq turini prognoz qilish milliy, hududlar hamda

soliq to'lovchi doirasida ham amalga oshirilishni talab qiladi. Bunda esa soliq turining miqdor va sifat ko'rsatkichlari korxonada doirasida biron farqli xususiyatlarga ega bo'ladi, ya'ni, mikroiqtisodiy ko'rsatkichlardan ham foydalaniladi.

Soliqlarni prognoz qilish jarayonidagi eng muhim bosqichlardan biri bu soliq turi bo'yicha soliq tushumlari hajmiga ta'sir etuvchi omillarni to'g'ri aniqlash va ularning ta'sirini baholash hisoblanadi. Prognoz jarayonidagi omillarni to'g'ri aniqlash, ularning ta'sirini obyektiv baholash prognoz ko'rsatkichlariga ta'sir qiladi. Shu boisdan har bir soliq turi bo'yicha soliq tushumlari prognozini aniqlayotganda uning hajmiga ta'sir etuvchi omillarning o'zini aniqlab olish lozim bo'ladi. Foyda solig'ining mohiyatidan kelib chiqqan holda unga ta'sir etuvchi omillar quyidagilar bo'lishi mumkin.

13-jadval.

Foyda solig'i prognoziga ta'sir etuvchi omillar

№	Ko'rsatkichlar	Yillar(ixtiyoriy o'n yil yoki tanlangan yillar)							
1	Soliq to'lovchilar soni:								
	Faoliyat ko'rsatayotganlar								
	Faoliyat ko'rsatmayotganlar								
	Yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar								
	Faoliyatini rasman tugatganlar								
2.	Faoliyatini foyda bilan yakunlagan soliq to'lovchilar soni:								
	Barqaror foyda oluvchilar soni								
	Nobarqaror foyda oluvchilar soni								

3.	Faoliyatini yakunlagan soliq to'lovchilar soni: <ul style="list-style-type: none"> • Ixtiyoriy ravishda • Bankrotligi tufayli 								
4.	Soliq bazasiga qayta qo'shiladigan xarajatlarni amalga oshiruvchilar soni:								
	Doimiy amalga oshiruvchilar soni								
	Ayrim hollar amalga oshiruvchilar soni								
5.	Soliq imtiyoziga ega bo'lganlar soni:								
	To'laligicha ozod etilganlar soni								
	Qisman ozod etilganlar soni: <ul style="list-style-type: none"> • 2 yilga • 5 yilga • 7 yilga • ----- yilga 								
	Soliq bazasini kamaytirishga olib keladigan xarajatlarni amalga oshiruvchilar soni								
	Prezident Qarori yoki Farmoniga ko'ra soliq imtiyozi berilgan soni								
	Berilgan soliq imtiyozlari bo'yicha byudjet yo'qotishlari so'mmasi (---- -- so'mda)								
6.	Soliq stavkasi %								
	Kamaytirilgan stavkada to'laydiganlar soni:								

	<ul style="list-style-type: none"> • %da • %da • %da 								
7.	Soliq to'lovchining foyda solig'i so'mmasining oshish sabablari:								
	Narxning o'zgarishi								
	Korxonada xarajatlarning tejamligiga erishishi								
	Unumdor asosiy fondlarning ko'payishi va ularning samarali ishlatilishi								
	Boshqa sabablar								
8.	Hududda Foyda solig'i bo'yicha "Donor" maqomga ega soliq to'lovchilar soni:								

Keltirilgan jadvaldan ko'rinadiki, foyda solig'i bo'yicha soliq tushumlarini prognoz qilish jarayonida foyda solig'ini xususiyatlaridan kelib chiqib o'ziga xos omillar mavjud bo'ladi. Ular jumlasiga soliq to'lovchilar soni ko'rsatkichi bo'lib, ushbu ko'rsatkichni faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyat ko'rsatmayotganlar, yangidan tashkil etilgan va faoliyatini tugatgan kesimida qarash maqsadga muvofiq bo'ladi. Keyingi muhim omil bu faoliyatini foyda yoki zarar bilan yakunlagan soliq to'lovchilar soni ko'rsatkichi bo'lib, bunda doimiy foyda oluvchi (barqaror) korxonalar, nobarqaror tartibda foyda oluvchi soliq to'lovchilar, faoliyatini zarar bilan yakunlagan soliq to'lovchilar kabi ko'rsatkichlar muhim sanaladi.

Foyda solig'ini bo'yicha prognoz jarayonini amalga oshirishda esa shuningdek, soliq bazasiga qayta qo'shiladigan xarajatlarni amalga oshiruvchilar soni, soliq imtiyoziga ega bo'lganlar soni, soliq to'lovchining foyda solig'i so'mmasining oshish sabablari, hududda Foyda solig'i bo'yicha "Donor" maqomga ega soliq to'lovchilar soni

hamda boshqa omillar kesimida ularning ta'siri o'rtacha 10 yillik ko'rsatkichlar asosida baholanishi lozim bo'ladi. Bu omillarning har biri o'ziga ta'sirga ega bo'lib, ularning ta'siri doirasi ma'lum bir qonuniyatlarga egadir. Ushbu omillarning ta'sirining darajasi esa darslikda keltirilgan -ilovada baholangan.¹³⁶ Demak, foyda solig'i bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarini aniqlashda yuqorida qayd qilingan omillarga oid ko'rsatkichlarni (kamida 10 yillik) aniqlab, ularning ta'sirini esa yuqorida keltirib o'tilgan metodlarni qo'llagan holda ularning ta'siri darajasidagi o'zgarishlarni e'tiborga olish prognoz jarayonida olingan natijalar(ko'rsatkichlar)ning aniqligini oshirishga xizmat qiladi.


7.3. Qo'shilgan qiymat solig'ini prognoz qilish

O'zbekiston soliq tizimida ushbu soliq ilgari Sobiq ittifoq davrida amal qilgan oborot solig'i o'rniga 1991 yil 15 fevralda qabul qilingan «Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan joriy qilingan. Qo'shilgan qiymat solig'ining iqtisodiy mohiyati quyidagilarda ko'rinadi: Birinchidan, qo'shilgan qiymat solig'i o'zida soliqlarning progressiv xususiyatini o'zida aks ettirib, fiskal maqsadlar uchun qulay hisoblanadi. Chunki, qo'shilgan qiymat solig'i bu mazmunan iste'mol solig'i bo'lganligi sababli u ishlab chiqarish va iste'mol tovar (xizmat)larini iste'molini qamrab olganligi sababli uning obyekti keng bo'ladi va byudjetga soliq undirishda katta rol o'ynaydi. Ikkinchidan, qo'shilgan qiymat solig'i oborot solig'idagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etib, soliqlarning adolatlilik tamoyilini o'zida aks ettiradi. Oborot solig'ida har bir ishlab chiqarish va iste'mol bosqichi qamrab olingan bo'lsa, qo'shilgan qiymat solig'ida yakuniy bosqich ya'ni, mahsulot(xizmat)ning realizatsiyasi qamrab olinadi. Uchinchidan, qo'shilgan qiymat solig'i soliq tizimidagi eng muhim jarayonlardan biri soliqlarning yuklanishini o'zida aks ettiradi. Soliqlarning yuklanishi bu

¹³⁶ Ushbu baholash ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, tadqiqot natijalari bo'yicha o'rtacha darajasi olingan.

soliq og'irligining bir soliq to'lovchidan boshqa bir soliq to'lovchiga o'tkazilish jarayoni hisoblanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i soliqlarning yuklanishini ishlab chiqarish va iste'mol, talab va taklif o'rtasida taqsimlab turishi orqali ortiqcha soliq yukining paydo bo'lishi oldini oladi va soliqni imkoniyati borlarga o'tkazib turadi (iste'mol jarayoni bu soliq to'lovchining moliyaviy imkoniyatlarini o'lchashning bir shakli sifatida amal qiladi). To'rtinchidan, qo'shilgan qiymat solig'i bir tomondan davlatning iqtisodiyotga aralashuvida muhim dastak vazifasini o'tash orqali iste'molni tartiblashda va rag'batlantirishda keng foydalanilsa, boshqa tomondan uning(soliqning) o'zi bozor mexanizmlari orqali ham iste'molni tartiblaydi ham ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy faoliyatini tartiblaydi(xarajatlar, iste'mol borasidagi faoliyatining samaradorligini ko'rsatib beradi). Beshinchidan, qo'shilgan qiymat solig'i milliy iqtisodiyotni himoyalashda ham muhim vositachi sifatida yuzaga chiqadi. Ushbu ta'kidlanganlardan ko'rinadiki, qo'shilgan qiymat solig'i soliqlarning barcha funktsiyalari(fiskal, qayta taqsimlovchi, rag'batlantirish, tartiblash)ni o'zida aks ettiradigan kam sonli soliq turlaridan biri hisoblanadi.



26-rasm. Qo'shilgan qiymat solig'i obyekt elementlari.

Soliq qonunchiligiga muvofiq(Soliq kodeksining 238-moddasi) qo'shilgan qiymat solig'ining obyekt sifatida soliq solinadigan oborot va

solliq solinadigan import belgilangan. Solliq solinadigan obyektzni aniqlash uchun esa uning elementlarini aniqlashni taqozo qiladi.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti deganda quyidagilar e'tirof etiladi:

Mol-mulkka bo'lgan mulk huquqini o'tkazish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish, shu jumladan: tovarni va boshqa mol-mulkni jo'natish (sotish) va ustav fondiga (ustav kapitaliga) qo'shilgan hissa;

mol-mulkni bepul berish (ishlarni bepul bajarish, xizmatlarni bepul ko'rsatish), shu jumladan yuridik shaxs xodimlariga ularning mazkur yuridik shaxsdagi faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan shaxsiy ehtiyojlari uchun mol-mulkni bepul berish;

qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) almashtirish uchun mol-mulkni berish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish);

qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda xodimga ish haqi hisobiga yoki muassisa (ishtirokchiga) dividendlar to'lash hisobiga mol-mulk berish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish);

garov bilan ta'minlangan majburiyatlar bajarilmagan taqdirda, garovga qo'yuvchi tomonidan garov narsasini berish;

zayom shartnomalari asosida tovar-moddiy zaxiralarni berish;

bitta yuridik shaxsning bir tarkibiy bo'linmasi tomonidan boshqa tarkibiy bo'linmasiga, (agar tarkibiy bo'linmalar mustaqil solliq to'lovchilar bo'lsa) mol-mulkni berish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish;

mol-mulkni moliya ijarasiga (shu jumladan lizingga) berish;

to'lovni bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan tovarni jo'natish;

mol-mulkni operativ ijaraga berish;

intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqni o'tkazish yoki ulardan foydalanish huquqini berish;

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish joyini aniqlash:

Quyidagi shartlar yoxud ulardan biri mavjud bo'lgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi hududi tovarlarni realizatsiya qilish joyi deb e'tirof etiladi:

tovar O'zbekiston Respublikasi hududida turgan bo'lsa va bitim natijasida O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqarilmaydigan yoki jo'natish yoki tashish boshlangan paytda tovar O'zbekiston Respublikasi hududida turgan bo'lsa.

Quyidagi hollarda O'zbekiston Respublikasi hududi ishlarni, xizmatlarni realizatsiya qilish joyi deb e'tirof etiladi, agar:

ishlar, xizmatlar O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan ko'chmas mulk bilan bog'liq bo'lsa (Bunday ishlar, xizmatlar jumlasiga, xususan, qurilish, montaj, qurilish-montaj, ishga tushirish-sozlash, ta'mirlash, restavratsiya qilish, ko'kalamzorlashtirish ishlari, shuningdek ko'chmas mulkni ijaraga berish kiradi); ishlar, xizmatlar O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan ko'char mulk bilan bog'liq bo'lsa (Bunday ishlarga, xizmatlarga montaj qilish, sozlash, yig'ish, qayta ishlash, ishlov berish, ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kiradi);

xizmatlar haqiqatda O'zbekiston Respublikasi hududida turizm, madaniyat, san'at, ta'lim, jismoniy tarbiya va sport sohasida ko'rsatilayotgan bo'lsa;

ishlarni, xizmatlarni sotib oluvchi faoliyatini O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshirayotgan bo'lsa;

xodimlar berish agar xodimlar sotib oluvchi o'z faoliyatini amalga oshirayotgan joyda ishlayotgan bo'lsa;

ko'char mulk ijaraga berilganda (transport vositalari bunga kirmaydi);

tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) olish bo'yicha vositachi (ishonchli vakil), shuningdek ushbu badda nazarda tutilgan xizmatlarni amalga oshirish uchun shartnomaning (kontraktning) asosiy ishtirokchisi nomidan jalb etuvchi shaxs xizmatlari ko'rsatilganda;

aloqa xizmatlari ko'rsatilganda va shu kabi holatlar.

Soliq solinadigan importni belgilash

O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirilayotgan tovarlar soliq solinadigan importdir (soliq qonunchiligiga muvofiq qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan tovarlar bundan mustasno).

Realizatsiya qilish oboroti amalga oshirilgan sana

Tovarlar jo'natilgan (berilgan) kun, tovarlarni realizatsiya qilish oboroti amalga oshirilgan sanadir. Agar tovarlarni jo'natish amalga oshirilmasa, tovarga bo'lgan mulk huquqi oluvchiga o'tkazilgan kun realizatsiya qilish oboroti amalga oshirilgan sanadir.

Garovga qo'yilgan mol-mulk (tovar) garovga qo'yuvchi tomonidan topshirilganda garov narsasiga bo'lgan mulk huquqi o'tkazilgan sana garovga qo'yuvchi uchun realizatsiya qilish oboroti uchun sana hisoblanadi. Yuridik shaxsning xodimlariga ularning mazkur yuridik shaxsdagi faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan shaxsiy ehtiyojlari uchun ish haqi hisobiga, shu jumladan bepul tovarlar berilganda, ishlar bajarilganda, xizmatlar ko'rsatilganda tovar berilgan, ishlar bajarilgan, xizmatlar ko'rsatilgan hamda hisobvaraqa-faktura va (yoki) ishlar bajarilgani, xizmatlar ko'rsatilgani faktini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar rasmiylashtirilgan kun oborot amalga oshirilgan sanadir.

Tara shartnomada nazarda tutilgan muddatda qaytarilmasa, bu tarani qaytarish uchun belgilangan sana qaytarilishi lozim bo'lgan taraning realizatsiya qilish oboroti amalga oshirilgan sana bo'ladi.

Ishlarni, xizmatlarni realizatsiya qilish oboroti amalga oshirilgan sana quyidagi shartlardan biri bajarilganda boshlanadi:

hisobvaraqa-faktura yozib berilganda;

ishlar bajarilganligi, xizmatlar ko'rsatilganligi faktini tasdiqlovchi hujjatlar rasmiylashtirilganda. Ushbu qism qoidalari boshlanishi bir hisobot davriga, tamomlanishi esa boshqa hisobot davriga to'g'ri keladigan ishlarga, xizmatlarga nisbatan ham qo'llaniladi.

Shartnomaning (kontraktning) amal qilishi davrida ishlarni, xizmatlarni oluvchi ularning natijalaridan o'z ishlab chiqarish faoliyatida doimiy asosda foydalanishi mumkin bo'lgan taqdirda, doimiy (uzluksiz) asosda realizatsiya qilish ishlar bajarilganligini, xizmatlar

ko'rsatilganligini anglatadi. Ishlar, xizmatlar O'zbekiston Respublikasi norezidentidan olingan taqdirda, ishlar, xizmatlar olinganligi to'g'risidagi hujjat rasmiylashtirilgan sana oborot amalga oshirilgan sanadir.

Quyidagilar tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti bo'lmaydi:

soliq to'lovchining xarajatlari sifatida qaraladigan, uning o'z ehtiyojlari uchun tovarlarni berish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish, bitta yuridik shaxsning bir tarkibiy bo'linmasi tomonidan boshqa tarkibiy bo'linmasiga ishlab chiqarish ehtiyojlari (zavod ichki oboroti) uchun (agar tarkibiy bo'linmalar mustaqil soliq to'lovchilar bo'lmasa) mol-mulk berilishi, ishlar bajarilishi, xizmatlar ko'rsatilishi, soliq to'lovchining o'z ehtiyojlari uchun o'z kuchi bilan qurilish, montaj, qurilish-montaj ishlarini bajarishi, qaytariladigan tarani jo'natish, (qaytariladigan tara mahsulot solib jo'natilgan, qiymati ushbu mahsulot qiymatiga kiritilmaydigan hamda shu mahsulotni etkazib berish uchun tuzilgan shartnomada (kontrakt)da belgilangan shartlarda va muddatlarda mahsulot etkazib beruvchiga qaytarilishi lozim bo'lgan taradir. Agar tara belgilangan muddatda qaytarilmasa, bunday tarani berish soliq solinadigan oborotga kiritiladi), yuridik shaxsning ishtirokchisi (muassisi) muassislar (ishtirokchilar) tarkibidan chiqqanda (chiqib ketganda), shu jumladan tugatilganlik (bankrotlik) yoki qayta tashkil etilganlik munosabati bilan chiqqanda (chiqib ketganda) unga dastlabki hissa doirasida mol-mulkni berish, shuningdek oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha sherikka (ishtirokchiga) uning mazkur shartnoma bo'yicha sheriklari (ishtirokchilari) umumiy mulkida bo'lgan ulushi qaytarilayotganda yoki bunday mol-mulk taqsimlanganda mol-mulkni berish, asosiy vositalarni, nomoddiy aktivlarni va tugallanmagan qurilish obyektlarini bepul asosda berish, banklar va sug'urta tashkilotlari tomonidan mol-mulkni o'z filiallariga berish, oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha sherikning (ishtirokchining) ulushi sifatida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni), boshqa mol-mulk va mulkiy huquqlarni berish, tovarlarni va boshqa mol-mulkni qayta ishlash asosida berish, ishonchli boshqaruv

shartnomasi asosida mol-mulkni mulkdordan ishonchli boshqaruvchiga berish, ishonchli boshqaruv shartnomasi tugatilgan taqdirda, mol-mulkni mulkdorga berish, obyekt qiymatini ijaraga beruvchi (lizingga beruvchi) oladigan ijara (lizing) to'lovining bir qismi tarzida qoplash, tovarlardan foydalanishning kafolatli muddati davrida ularni ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha qo'shimcha haq olmasdan ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish va shu kabilar soliq obyeksi hisoblanmaydi.

Qo'shilgan qiymat solig'ining bazasi soliq bazasini aniqlashning umumiy qoidalariga asoslangan holda va uning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda aniqlanadi:

Qo'shilgan qiymat solig'i bazasi = (Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti)-(Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti sifatida tan olinmagan oborotlar) -(soliqdan ozod etilgan oborotlar(imtiyozlar)±(belgilangan muddat ichida soliq bazasiga tuzatish kiritilgan oborotlar hajmi).

Qo'shilgan qiymat solig'i bazasi tovar(xizmat, ish)larni realizatsiya qilishning tarmoqlar, sohalar va faoliyat turlarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib aniqlanadi. Bunda realizatsiya qilinayotgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati asosida, unga qo'shilgan qiymat solig'ini kiritmagan holda belgilanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i bazasini aniqlayotganda agar, soliq to'lovchi korxonalar tovarlar (ishlar, xizmatlar) tannarxidan yoki tovarlar olingan narxdan past narxlarda realizatsiya qilgan bo'lsa, soliq to'lovchining o'z ehtiyojlari uchun o'zi ishlab chiqargan tovarlarni berish, o'z kuchi bilan ishlarni bajarganligi (xizmatlar ko'rsatganligi)dan kelib chiqib belgilanadi.

Tovarlarni qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallardan tayyorlangan taqdirda, soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'ini kiritmagan holda ularni qayta ishlash xizmatlarining qiymati asosida, aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha esa, ularni qayta ishlash

xizmatlari qiymati asosida, aktsiz solig'ini hisobga olgan holda belgilanadi.

Qurilish, qurilish-montaj va ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy ishlar, xizmatlar bo'yicha, shuningdek obyektlarni foydalanishga tayyor holda qurishda shartnomaviy narxlardan kelib chiqqan holda hisob-kitob hujjatlari haq to'lash uchun taqdim etilgan, bajarilgan va buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan ishlarning, xizmatlarning qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymati soliq solinadigan bazadir.

Import qilingan tovarlar realizatsiya qilinganda, soliq solinadigan baza realizatsiya qilinayotgan tovarlarning qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymatidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Bunda soliq solinadigan baza mazkur tovar import qilinganda qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish uchun qabul qilingan qiymatdan past bo'lishi mumkin emas. Aktsiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan bazaga aktsiz solig'ining summasi ham kiritiladi.

Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar realizatsiya qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini ham o'z ichiga oladigan, ularning realizatsiya qilish narxi bilan qoldiq qiymati o'rtasidagi ijobiy farq sifatida belgilanadi. Mol-mulk moliyaviy ijaraga, shu jumladan lizingga berilganda, soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini o'z ichiga oladigan, chiqib ketayotgan aktiv qiymati bilan uning balans (qoldiq) qiymati o'rtasidagi ijobiy farq sifatida belgilanadi, soliq to'lovchi tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlar moliyaviy ijaraga (lizingga) berilganda esa, qo'shilgan qiymat solig'ini o'z ichiga oladigan, chiqib ketayotgan aktivning qiymati soliq solinadigan bazadir.

Qurilishi tugallanmagan obyekt realizatsiya qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini ham o'z ichiga oladigan, qurilishi tugallanmagan obyektни realizatsiya qilish narxi bilan balans qiymati o'rtasidagi ijobiy farq sifatida belgilanadi.

Kredit tashkiloti tomonidan garov bilan ta'minlangan majburiyatni qoplash hisobiga olingan mol-mulk realizatsiya qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini o'z ichiga oladigan, realizatsiya qilish narxi bilan qarzni qoplash hisobiga mazkur garov mol-mulki olingan qarz summasi o'rtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi.

Vositachilik shartnomasi, topshiriq yoki vositachilik xizmatlari ko'rsatish bo'yicha boshqa shartnoma asosida o'zga shaxsning manfaatlarini ko'zlab xizmatlar ko'rsatilgan taqdirda, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini ham o'z ichiga oladigan, ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq (foiz) tariqasida olinishi lozim bo'lgan summadan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Garovga qo'yuvchi garov mol-mulkini garov bilan ta'minlangan majburiyatni bajarish hisobiga topshirgan taqdirda, garovga qo'yuvchining soliq solinadigan oboroti miqdori garovga oluvchi tomonidan realizatsiya qilingan mol-mulk qiymatidan kelib chiqqan, biroq qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda mazkur garovga qo'yilgan mol-mulkka olingan zayom mablag'lari summasidan kam bo'lmagan miqdorda belgilanadi. Garovga topshirilgan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va qurilishi tugallanmagan obyektlar bo'yicha garovga qo'yuvchining soliq solinadigan bazasi qo'shilgan qiymat solig'ini ham o'z ichiga oladigan, ularning realizatsiya qilish narxi bilan balans (qoldiq) qiymati o'rtasidagi ijobiy farqdan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Qaytariladigan tara soliq solinadigan oborotga kiritilgan taqdirda, tara belgilangan muddatda qaytarilmasa, soliq solinadigan baza mazkur taraning qo'shilgan qiymat solig'i summasini ham o'z ichiga oladigan garov qiymati asosida belgilanadi.

Keyinchalik realizatsiya qilish uchun yuridik shaxslar tomonidan davlat rezervidan olingan, narxlari davlat tomonidan tartibga solinishi belgilangan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza realizatsiya qilish

narxi va davlat rezervidan olingan narx o'rtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi. Benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiya qilinganda soliq solinadigan baza ularni realizatsiya qilish qiymati asosida, unga qo'shilgan qiymat solig'i hamda transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq kiritilmagan holda aniqlanadi.

Tovarlarni import qilishda soliq solinadigan bazaga tovarlarning bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadigan bojxona qiymati, shuningdek O'zbekiston Respublikasiga tovarlarni import qilishda to'lanishi lozim bo'lgan aktsiz solig'ining, bojxona bojlarining summalari kiradi.

Soliq bazasini hisoblashda ba'zi hollarda unga o'zgartirishlar kiritilishi mumkin. Bunday o'zgartirish yoki tuzatish kiritish agar, tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilgan bo'lsa, bitim shartlari o'zgar-ganda, narxlar o'zgarganda, sotib oluvchi skidkadan foydalanganda, bajarilgan ishlardan, ko'rsatilgan xizmatlardan voz kechilgan bo'lsa amalga oshiriladi. Ushbu tuzatish va o'zgartirishlar kiritishda bir yillik muddat ichida amalga oshiriladi, tovar(xizmat, ish)ning kafolat muddati belgilangan bo'lsa, u tuzatish kiritish kafolat muddati doirasida amalga oshiriladi.

Agar jadvalga e'tibor beradigan bo'lsak, dunyoning aksariyat davlatlarida qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha umumiy(standart) soliq stavkalari bilan birga pasaytirilgan hamda «nollik» stavkalardan ham foydalaniladi. «Nollik» soliq stavkalari Buyuk Britaniya, Rossiya, Xorvatiya, Serbiya, Argentina, Shvetsiya, Polsha, Irlandiya, Latviya va Isroil davlatlari soliq tizimida keng foydalaniladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i singari murakkab bo'lmasada ammo, qo'shilgan qiymatning yuzaga kelishi va uning harakati ancha keng hisoblanadi. Agar, qo'shilgan qiymat solig'i jahon soliq tizimida joriy qilingan davrdan buyog'ini oladigan bo'lsak, uni hisoblashning asosan to'rtta usuli amal qiladi. Ular quyidagilardir.

Dunyoning ayrim davlatlarida qo‘shilgan qiymat solig‘ining stavkalari¹³⁷

№	Davlat	Qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi(foiz)		Qo‘shilgan qiymat solig‘ining qisqartirilgan nomi	Soliq qonunchiligi byicha soliqning nomlanishi
		Umumiy(standart)	Pasaytirilgan		
1.	Avstriya	20	12 yoki 10	USt.	Umsatzsteuer
2.	Belgiya	21	12 yoki 6	BTW TVA MwSt	Belasting over de toegevoegde waarde Taxe sur la Valeur Ajoutée Mehrwertsteuer
3.	Buyuk Britaniya	20	5 yoki 0	VAT	Value Added Tax
4.	Germaniya	19	7	MwSt./USt.	Mehrwertsteuer/Umsatzsteuer
5.	Irlandiya	23	13,5; 9; 4,8; 0	CBL VAT	Cain Bhreisluacha Value Added Tax
6.	Italiya	22	10; 6; 4	IVA	Imposta sul Valore Aggiunto
7.	Lyuksemburg	17	14; 8; 3	TVA	Taxe sur la Valeur Ajoutée
8.	Polsha	23	8; 5; 0	PTU/VAT	Podatek od towarów i usług
9.	Frantsiya	20	10; 5,5; 2,2	TVA	Taxe sur la Valeur Ajoutée
10.	Shvetsiya	25	12; 6; 0	Moms	Mervärdesskatt
11.	Chexiya	21	15	DPH	Daň z přidané hodnoty
12.	Argentina	21	10,5; 0	IVA (Impuesto al Valor Agregado)	IVA (Impuesto al Valor Agregado)
13.	Meksika	15	0	IVA	IVA (Impuesto al Valor Agregado)
14.	Norvegiya	25	14; 8	MVA	Merverdiavgift
15.	Serbiya	20	8; 0	PDV	Porez na dodatu vrednost
16.	Turkiya	18	8; 1	KDV	Katma deđer vergisi
17.	Shvetsariya	8	3,8; 2,5	MWST, TVA, IVA	Mehrwertsteuer, Taxe sur la valeur ajoutée, Imposta sul valore aggiunto
18.	Xorvatiya	22	0	PDV	Porez na dodanu vrijednost
19.	Urugvay	23	14	IVA	Impuesto al Valor Agregado
20.	Ukraina	20	0	PDV	Podatok na dodanu vartist
21.	Rossiya	18	10; 0	NDS	Nalog na dobavlennyy stoimost

Birinchi usul. Bu «To‘g‘ri qo‘shish usuli» bo‘lib, bu usulda qo‘shilgan qiymatni ish haqi tarzidagi daromadlar va foydaga ajratib olish orqali ularning har biriga qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasini

¹³⁷ <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9D%>.

ko'paytirish orqali aniqlanadi. Ya'ni, $VA = V + M$, 6y erda, V-ish haqi tarzidagi daromadlar, M-olinadigan foyda sifatida qaraladi. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash esa soliq stavkasini ularning yig'indisiga ko'paytirish orqali aniqlanadi. Ya'ni, $R(V+M) = VAT$ (Value Added Tax-qo'shilgan qiymat solig'i). Bu yerda R-soliq stavkasi (inglizcha «rate-stavka, foiz» so'zidan olingan). Ammo, ta'kidlash kerakki bu usulda qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash unchalik to'g'ri bo'lmaydi. Chunki, ish haqi daromadlari qo'shilgan qiymatning tarkibiga kirsada, ammo, foyda hajmi mazmunan qo'shilgan qiymat tarkibida qatnashmaydi, bu usulni qo'llash esa har bir davlatning qo'shilgan qiymat solig'i obyektini va bazani aniqlashtirish tartiblariga ham bog'liq bo'ladi.

Ikkinchi usul. Bu usul «Bilvosita qo'shish usuli» deb ataladi. Bu usulning mohiyati qo'shilgan qiymat tarkibi sifatida xuddi birinchi usuldagi kabi ish haqi daromadlari va foyda hajmi olinib, soliqni hisoblash esa ularning har biriga soliq stavkasini ko'paytirish orqali aniqlanadi. Ya'ni $RV + RM = VAT$.

Uchinchi usul. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblashning uchinchi usuli «To'g'ridan-to'g'ri chegirish usuli» bo'lib, bunda soltib olingan material va mahsulot realizatsiyasining o'rtasidagi farq so'mmasiga soliq stavkasini ko'paytirish orqali soliq so'mmasi aniqlanadi. Ya'ni, $R(O-I) = VAT$. Bu yerda O-mahsulot realizatsiyasi, I-materiallar qiymati.

To'rtinchi usul. «Bilvosita chegirish usuli» bo'lib, buning mohiyati materillarga tegishli va sotilgan mahsulot (xizmat, ish)larga tegishli qo'shilgan qiymat solig'ini alohida hisobga olish hamda qo'shilgan qiymat solig'ini ular o'rtasidagi farq sifatida aniqlash hisoblanadi va u quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi: $RO - RI = VAT$. Bu usul odatda hisobga olish usuli ham deb ataladi. Bizning respublikamizda ham ushbu hisobga olish usulidan foydalaniladi. Qayd qilingan qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblashning usullarini qo'llashning o'ziga xos murakkablik tomonlari ham mavjud. Masalan, birinchi va ikkinchi usul ko'proq mehnat va hisob-kitoblarni talab qilib, ular asosan buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini qayta ishlashni talab qiladi. Ammo, yuqorida aytib

o'tganimizdek, mazkur usullarning qaysi birini tanlash har bir davlatning soliq tizimi xususiyatlaridan kelib chiqib belgilanadi. Hozirgi kunda ko'proq ommalashgan usul sifatida to'rtinchi- «Bilvosita chegirish usuli» bo'lib, bunda xatoliklar kamroq uchrashi mumkin.

Endi bevosita Respublikamiz soliq tizimida qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash tartibiga kelsak, avvalo buning uchun «qo'shilgan qiymat» va «qo'shilgan qiymat solig'i»ning farqini aniqlab olsak. Qo'shilgan qiymat bu korxonada takror ishlab chiqarish jarayonida mahsulot ishlab chiqarish(xizmatlar ko'rsatish) maqsadida sotib olingan materillarni qayta ishlab ularni tayyor mahsulot qilib tayyorlash jarayonida korxonada turli xil qo'shilgan qiymatlarning qo'shilishini ifodalaydi. Masalan, mebel ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonada chetdan yog'och va boshqa materillarni sotib olib uni tayyor mahsulotga keltirish uchun ishlab chiqarish sohasidagi xodimlarga ish haqi, elektr energiya, yoqilg'i-moylash materillari, asosiy vositalarning eskirishi, ishlab chiqarish maqsadida boshqa korxonalarining ayrim xizmatlari(masalan, transport)dan foydalanish va shu kabi xarajatlarni amalga oshirib ma'lum bir qiymat hosil qiladi. Olaylik 1500 mln. so'mlik material sotib olgan bo'lib, ushbu materillar hisobiga yaratilgan (realizatsiya qilingan) mahsulot hajmi 2800 mln.so'mni tashkil etdi. Demak, bu erda korxonada yaratilgan qo'shilgan qiymat $2800-1500=1300$ mln. so'mdan iborat bo'ladi. Bu yerda qo'shilgan qiymatning tarkibini esa xodimlarga ish haqi, elektr energiya, yoqilg'i-moylash materillari, asosiy vositalarning eskirishi, ishlab chiqarish maqsadida boshqa korxonalarining ayrim xizmatlari kabilar tashkil qiladi. Boshqacha qilib aytganda O'zbekiston sharoitida qo'shilgan qiymat deganda sotib olingan mahsulot realizatsiyasi va Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom»ga muvofiq mahsulot(xizmat, ish)larning tannarxiga olib borishi mumkin bo'lgan xarajatlar o'rtasidagi

farq sifatida aniqlanadi. Buni matematik ifodada ko'radigan bo'lsak u quyidagicha bo'ladi:

Qo'shilgan qiymati = (Mahsulot realizatsiyasi qiymati) - (Ishlab chiqarish maqsadlarida sotib olingan materillar va yarim tayyor mahsulotlar qiymati) yoki

Qo'shilgan qiymati = (Mahsulot realizatsiyasi qiymati) - (Korxonada tomonidan «Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom»ga muvofiq mahsulot(xizmat, ish)larning tannarxiga olib borishi mumkin bo'lgan qilgan xarajatlari qiymati).

Bundan ko'rinadiki, qo'shilgan qiymatning tarkibi va hajmi korxonaning xarajatlar siyosatiga ham bog'liq bo'ladi. Ammo, milliy hisoblar tizimi bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat bilan korxonadagi qo'shilgan qiymat o'rtasida farq mavjud bo'ladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari aniqlashda uning tushumiga ta'sir etuvchi omillarni baholash muhim sanaladi. Bu kabi omillarni baholashda esa quyidagi mexanizmdan foydalaniladi:

15-jadval.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha prognoz ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omillarni baholash usuli

B.	Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha:			
1.	Soliq to'lovchilar soni:			
	Faoliyat ko'rsatayotganlar	+		+0,2
	Faoliyat ko'rsatmayotganlar	+		-0,1
	Yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar		+	+0,05
	Faoliyatini rasman tugatganlar	+		-0,1
	QQSni to'layotgan kichik korxonalar soni		+	+0,05
2.	Aylanma hajmi			
	Soliqqa tortiladigan aylanma hajmi	+		+0,2

	Soliqqa tortilmaydigan aylanma hajmi	+		-0,1
	“Nollik” stavka bo'yicha aylanma hajmi		+	-0,05
3.	Soliq imtiyoziga ega bo'lganlar soni:			
	To'raligicha ozod etilganlar soni	+		-0,3
	Qisman ozod etilganlar soni		+	-0,1
4.	Soliq stavkasi %	+	.	+0,2
	“Nollik” stavkada to'laydiganlar soni		+	-0,05
5.	Soliq to'lovchining QQS so'mmasi-ning oshish sabablari:			
	Narxning o'zgarishi	+		+0,05
	Korxonada ishlab chiqarish hajmi-ning oshishi		+	+0,05
	Korxonada mahsulot realizatsiyasi hajmining oshishi	+	.	+0,1
6.	Hududda QQS bo'yicha “Donor” maqomga ega soliq to'lovchilar soni		+	+0,05
7.	Import operatsiyalari bo'yicha aylanma hajmi	+		+0,05
	Eksport operatsiyalari bo'yicha aylanma hajmi		+	-0,05
8.	Manfiy farq so'mmasiga ega bo'lgan korxonalar soni		+	-0,05
9.	QQS bo'yicha boqimanda so'mmasi		+	-0,05
10.	Boshqa omillar		+	±0,05.... -±0,1

Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) O'zbekiston soliq tizimida muhim ahamiyatga ega bo'lgan soliqlardan biri bo'lib, ushbu soliq turi bo'yicha soliq tushumlarining prognoz ko'rsatkichlarini aniqlash byudjet daromadlarini rejalashtirishda katta ahamiyatga ega. Chunki, birinchidan, qo'shilgan qiymat solig'i o'zida soliqlarning progressiv xususiyatini o'zida aks ettirib, fiksial maqsadlar uchun qulay hisoblanadi. Chunki,

qo'shilgan qiymat solig'i bu mazmunan iste'mol solig'i sifatida ishlab chiqarish va iste'mol tovar (xizmat)larini iste'molini qamrab olganligi sababli uning obyekti keng bo'ladi va byudjetga soliq undirish katta rol o'ynaydi. Ikkinchidan, qo'shilgan qiymat solig'i soliq tizimidagi eng muhim jarayonlardan biri – soliqlarning yuklanishini o'zida aks ettiradi. Soliqlarning yuklanishi bu soliq og'irligining bir soliq to'lovchidan boshqa bir soliq to'lovchiga o'tkazilish jarayoni hisoblanadi.

QQS soliqlarning yuklanishini ishlab chiqarish va iste'mol, talab va taklif o'rtasida taqsimlab turishi orqali ortiqcha soliq yukining paydo bo'lishi oldini oladi va soliqni imkoniyati borlarga o'tkazib turadi. Uchinchidan, qo'shilgan qiymat solig'i bir tomondan davlatning iqtisodiyotga aralashuvida muhim dastak vazifasini o'tash orqali iste'molni tartiblashda va rag'batlantirishda keng foydalanilsa, boshqa tomondan uning o'zi bozor mexanizmlari orqali ham iste'molni tartiblaydi. To'rtinchidan, qo'shilgan qiymat solig'i milliy iqtisodiyotni himoyalashda ham muhim vositachi sifatida yuzaga chiqadi.

Ushbu ta'kidlaganlardan ko'rinadiki, qo'shilgan qiymat solig'i soliqlarning barcha funktsiyalari (fiksals, qayta taqsimlovchi, rag'batlantirish, tartiblash) ni o'zida aks ettiradigan kam sonli soliq turlaridan hisoblanadi. QQS bo'yicha soliq tushumlarini prognoz qilishda fikrimizcha quyidagi: soliq to'lovchilar soni, jumladan, faoliyat ko'rsatayotganlar, faoliyat ko'rsatmayotganlar, yangi tashkil etilgan yuridik shahslar, faoliyatini rasman tugatganlar soni, QQSni to'layotgan kichik korxonalar soni, soliqqa tortiladigan aylanma hajmi, soliqqa tortilmaydigan aylanma hajmi, "nollik" stavka bo'yicha aylanma hajmi, to'laligicha va qisman soliq to'lashdan ozod etilganlar soni, umumiy belgilangan stavka va "nollik" stavkada soliq to'laydiganlar soni, soliq to'lovchining QQS so'mmasining oshish sabablari (narxning o'zgarishi, realizatsiyasi hajmining oshishi), hududda QQS bo'yicha "donor" maqomga ega soliq to'lovchilar soni, import operatsiyalari bo'yicha aylanma hajmi, eksport operatsiyalari bo'yicha aylanma hajmi, manfiy

so'mmasiga ega bo'lgan korxonalar soni, QQS boqimanda so'mmasi kabi omillarning ta'sirini baholash lozim bo'ladi.

7.4. Aktsiz solig'ini prognoz qilish

Aktsiz solig'i qadimiy soliq turlaridan biri sanaladi. Uning mohiyatini to'laroq anglash uchun unga tarixiy, etimologik va iqtisodiy mohiyati jihatdan qarash lozim bo'ladi.

Aktsiz solig'ining etimologik mohiyatiga(lug'aviy ma'nosi) keladigan bo'lsak, aktsiz so'zi frantsuz tilida *accise* va lotin tilida *accido*-«qirqib olmoq» degan ma'nolarni angalatadi. Aktsiz so'zining lotin tilidan kirib kelishi *accido*- «qirqib olmoq» ma'nosi bilan birgalikda «*accisum* –kertik, o'yma, tish» kabi ma'nolarga ham ega. Qadimgi Rimda *incision* (*cisa*) (belgi), Qadimgi Gretsiyada *assidere* (yonida o'tirmoq, ya'ni sud ishlari ko'rilayotganda sudya yonida o'tirigan shaxs-aktsiz undiruvchi ma'nosida) kabi ma'nolarda ham qo'llanilgan. Aktsizlarning jahon soliq tizimidagi qo'llanishi uch xil nomda: aktsizlar, aktsiz poshlinalari va aktsiz solig'i nomlari bilan mavjud. Buyuk Britaniyada aktsiz poshlinalari «*excise duty*» deb nomlansa, aktsiz solig'i «*excise tax*» deb nomlangan holda ularning chegaralari ajratiladi. AQShda esa «*excise tax*»(aktsiz solig'i) tushunchasi bilan birgalikda aktsizlarga nisbatan «*internal revenue tax*» tushunchasidan ham foydalaniladi(bu asosan ko'proq ichki iste'mol tovarlarini iste'moliga nisbatan qo'llaniladi).

*Aktsiz solig'i ham boshqa soliqlar singari o'z iqtisodiy mohiyatiga ega.*Aktsiz solig'ining iqtisodiy mohiyati birinchidan uning xuddi qo'shilgan qiymat solig'i kabi yuqori fiskallikka ega bo'lib, davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Aktsiz solig'ining iqtisodiy mohiyatining ikkinchi jihati bu iste'molni tartiblashdagi muhim ahamiyatidir. Aktsiz solig'i qo'shilgan qiymat solig'idan farqli ravishda iste'molni tartiblashda keng makonda amal qilmasligi va u ko'proq davlat mexanizmlari orqali amal qilishidir.

Qo'shilgan qiymat solig'i esa iste'molni tartiblashda asosan bozor mexanizmlariga orqali amalga oshiradi va iste'molning barcha jabhalarini qamrab oladi. Bu jihatdan bu ikki soliq o'zaro farqlanadi. Aktsiz solig'ining iste'mol va shu orqali daromadlarga ta'sir etishini tushuntirish uchun amerikalik olimlar K.R.Makkonnel va S.L.Bryularning mashhur "Ekonomiks" kitobida keltirilgan quyidagi rasmdan foydalanamiz. Ma'lumki, aktsiz solig'ini yuki nazariy jihatdan olib qaralganda ishlab chiqarilayotgan tovarga bo'lgan talab va taklifga bog'liq ravishda iste'molchi va ishlab chiqaruvchi o'rtasida taqsimlanadi. Agar ishlab chiqarilayotgan tovarga bo'lgan talab yuqori bo'lsa yoki talab noelastik bo'lsa, unda aktsiz solig'ining asosiy yuki iste'molchiga tushadi, agarda taklif yuqori bo'lsa yoki taklif noelastik bo'lsa aktsiz solig'i yuki ko'proq ishlab chiqaruvchi zimmasiga tushadi¹³⁸. Umuman olganda aktsiz solig'ining joriy etilishi yoki uning stavkasining oshirilishi ishlab chiqarishda samaradorlikni pasaytirishni keltirib chiqarsa, iste'molning nisbatan kamayishiga olib keladi.

Aktsiz solig'ining iqtisodiy mohiyatining yana bir muhim jihatlaridan biri bu milliy bozorni himoyalashning muhim vositasi sifatidagi rolidir. Davlat o'zining soliq siyosatida milliy bozorni himoyalash (proteksionizm)da soliqlardan foydalanishda aktsiz solig'idan ham keng foydalanadiki, bunda bojxona boji va qo'shilgan qiymat soliqlari bilan birgalikda aktsiz solig'i ham katta ahamiyatga ega bo'ladi. Chetdan kiritiladigan tovarlarga aktsiz soliqlarini joriy etish orqali milliy tovar ishlab chiqaruvchilarning faoliyati himoyalani, ularning faoliyat qilishiga zamin yaratiladi, shu bilan birgalikda iste'molni tartiblashda, ba'zi hollarda esa rag'batlantirish amalga oshiriladi.

Soliq-byudjet tizimida aktsiz solig'i ham muhim ahamiyatga ega. Aktsiz solig'i birinchidan, u xuddi qo'shilgan qiymat solig'i kabi yuqori fiskalikka ega bo'lib, davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda

¹³⁸ Talabning narxga binoan elastikligi bu narxning o'zgarishiga javoban talabning naqadar o'zgarganligini bildiradi. /Iqtisodiyot nazariyasi. A.O'Inasov. A.V.Vahobov. - T.: "Sharq", 2006. - 122 b./

katta ahamiyat kasb etadi. Ikkinchidan, iste'molni tartiblashdagi muhim ahamiyatga ega. Aktsiz solig'i qo'shilgan qiymat solig'idan farqli ravishda iste'molni tartiblashi ko'proq davlat mexanizmlari orqali amalga oshiriladi. Qo'shilgan qiymat solig'i esa, iste'molni tartiblashda asosan bozor mexanizmlari orqali amalga oshiradi va iste'molning barcha jabhalarini qamrab oladi. Bu jihatdan bu ikki soliq o'zaro farqlanadi. Bu soliq turi sanoqli iste'mol tovarlarigagina joriy qilinishi bilan birga ikki xil ahamiyatga molikdir, ya'ni birinchidan, davlat byudjeti daromad qismining asosiy manbalaridan biri bo'lsa, ikkinchidan, aktsiz osti tovarlari (asosan ijtimoiy jihatdan zararli bo'lgan tovarlar)ga bo'lgan ehtiyojni cheklash hamda bu soliqni tovarlar talab va taklifining iqtisodiy regulatori sifatida qarash mumkin. Qo'shilgan qiymat solig'i singari, mamlakatimiz mustaqilligidan so'ng joriy qilingan aktsiz solig'i ham tovar narxini oshiruvchi egri soliq bo'lgani uchun iste'molchi bu soliq og'irligini ko'tarishga majburdir.

Aktsiz solig'ining yana o'ziga xos xususiyati va boshqa soliqlardan farqi shundaki, bunda aktsiz solig'iga tortiladigan tovarlarning xususiyatidan kelib chiqib, soliqni hisoblash tartiblari va usullari ham farqlanadi. Shu bilan soliq stavkalarining foizlarda (advalor) va (yoki) naturada ifodalangan o'lchov birligiga mutlaq summada (qat'iy) belgilanishiga qarab ham soliqlarni hisoblash tartibi farqlanadi. Biz shu boisdan aktsiz solig'ini hisoblashning ayrim turlari bo'yicha hisoblash tartibini keltirib o'tamiz. Amaldagi tartib bo'yicha soliq to'lovchilar aktsiz solig'ini hisoblashda va byudjetga to'lashda joriy to'lovlarni hisoblaydilar. Joriy to'lovlar bo'yicha aktsiz solig'i hisoblanganda quyidagi tartibda amalga oshiriladi.

Aktsiz solig'i bo'yicha joriy to'lovlarni hisoblash = (Soliq davri uchun aktsiz solig'i bo'yicha taxmin qilinayotgan soliq solinadigan baza) x (Soliqning belgilangan stavkasi) - (Aktsiz solig'i to'lab berilgan xom ashyo bo'yicha chegirilishi lozim bo'lgan soliq summasi) / 3.

Aktsiz solig'ini bunday hisoblash va byudjetga joriy to'lovlarni to'lash agar, korxonalar soliq so'mmasi to'langan xom-ashyodan mahsulot

ishlab chiqargan bo'lsa, u holda xom-ashyo to'langan uchun soliq so'mmasi byudjetga hisoblangan soliq so'mmasidan chegirib tashlanadi. Soliq so'mmasining 3 ga bo'linishi esa oyning har dekadasi (o'n kunligi) uchun joriy to'lovlar qilinadi. Amaldagi Soliq kodeksining 239-moddasiga muvofiq tovarlarni va boshqa mol-mulkni daval asosida berish qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliqqa tortish maqsadida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti hisoblanmaydi. Shunga asosan qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallar qiymati ushbu materialni qayta ishlab beruvchi korxonada qo'shilgan qiymat solig'iga tortilmaydi. Mazkur holatda qayta ishlash xizmatlarining qiymatidan kelib chiqib daval xom ashyosini qayta ishlab bergan korxonada qo'shilgan qiymat solig'ini to'laydilar. Mazkur soliq turi bo'yicha soliq tushumlarini prognoz qilishda uning hajmiga ta'sir etuvchi omillarning ta'sirini baholash ham muhim sanaladi. Ta'kidlash lozimki, ushbu soliq bo'yicha tushumlarga ta'sir etuvchi omillar turi xuddi QQSga o'xshaydi, ammo, ayrim o'ziga xos omillar ham mavjud bo'ladi, masalan, aktsiz osti tovarlar soni, soliq stavkalari, har bir aktsizosti tovarlari bo'yicha farqlanishi kabi o'ziga xos omillarni baholash talab etiladi.

Shuningdek, mikrodarajada egri soliqlar jumlasiga kiruvchi aktsiz solig'i bo'yicha soliq tushumlarini prognoz qilishda bizningcha quyidagi metodologiyadan foydalanish lozim deb hisoblaymiz:

AKTSIZ SOLIG'I TUSHUMI PROGNOZI = (Shakllanishi kutilayotgan soliq bazasi) * (O'rtacha soliq stavkasi) * (O'rtacha og'ish koeffitsenti) (1).

Bu yerda:

Shakllanishi kutilayotgan soliq bazasi = (Real soliq to'lovchilar soni) * (Aksiz solig'iga tortiladigan tovarlar oboroti) + (Import operatsiyalari bo'yicha aktsiz solig'iga tortiladigan tovarlarni import qiladigan real soliq to'lovchilar soni) * (Import operatsiyalari bo'yicha aktsiz solig'iga tortiladigan tovarlarning o'rtacha oboroti).

O'rtacha og'ish koeffitsenti = (Soliq prognozi jarayonida asosiy omillar ta'siri) / (Soliq prognozi jarayonida asosiy bo'lmagan omillar ta'siri).

Aktsiz solig'ining o'ziga xususiyati shundaki, uning to'lovchilarining aniqlanishi aktsiz osti tovarlar(aktsiz solig'iga tortiladigan tovarlar)ning soni va bunday tovarlarni ishlab chiqaruvchilarga bog'liq bo'ladi.

Aktsiz to'lanadigan tovarlarni ularning ishlab chiqaruvchilari tomonidan eksportga realizatsiya qilishga¹³⁹, keyinchalik O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqib ketilishi sharti bilan «bojxona hududida qayta ishlash» bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlardan ishlab chiqarilgan qayta ishlash mahsuli bo'lgan aktsiz to'lanadigan tovarlarni topshirishga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda insonparvarlik yordami sifatida, davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan xayriya yordami maqsadida, shu jumladan texnik ko'mak ko'rsatish maqsadida, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo'yicha xalqaro va chet el hukumat moliya tashkilotlari tomonidan berilgan zayomlar (kreditlar) mablag'lari hisobiga, shuningdek grantlar hisobiga yuridik shaxslar tomonidan olib kirilayotgan, aktsiz to'lanadigan tovarlarni import qilishini, aktsiz to'lanadigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aktsiz solig'i solinmaydigan tovarlarni olib kirish normalari doirasida jismoniy shaxslar tomonidan import qilinishi hamda vakolatli davlat organining yozma tasdig'i mavjud bo'lgan taqdirda, telekommunikatsiyalar operatorlari va tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo'yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimi texnik vositalarini import qilinishiga doir operatsiyalar. Shuningdek, hukumat qarorlarida istisno tariqasida belgilanadigan operatsiyalar yoki tovarlarning import (eksport) qilinishi soliq obyektidan chiqarilishi mumkin.

Aktsiz solig'i bo'yicha soliq davri yil choragi hisoblanadi. Aktsiz solig'ining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq

¹³⁹ Ayrim turdagi mahsulotlarning eksport qilinishi jarayoni aktsiz solig'ining obyektini hisoblanadi. Bunday tovarlarning ro'yxati esa O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

xizmati organlariga yilning har choragida, soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi. Soliq to'lovchilar soliq davri mobaynida joriy to'lovlarni kiritish orqali aktsiz solig'ini to'laydilar.

Aktsiz solig'i bo'yicha joriy to'lovlarning summasini aniqlash uchun soliq to'lovchilar joriy soliq davri birinchi oyining 10-kunigacha davlat soliq xizmati organiga joriy soliq davri uchun aktsiz to'lanadigan tovarlarni realizatsiya qilishning taxmin qilinayotgan hajmi hamda aktsiz solig'ining belgilangan stavkasidan kelib chiqib hisoblangan aktsiz solig'ining summasi haqida quyidagi shakldagi ma'lumotnomani taqdim etadilar:

bo'yicha

(aktsiz to'lanadigan tovar nomi)

aktsiz solig'i bo'yicha joriy to'lovlarni hisoblash uchun
MA'LUMOTNOMA

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Summa
Soliq davri uchun aktsiz solig'i bo'yicha taxmin qilinayotgan soliq solinadigan baza	010	
Soliqning belgilangan stavkasi	020	
Soliq solinadigan baza va stavkadan kelib chiqib hisoblangan soliq summasi (010-satr x 020-satr)	030	
Aktsiz solig'i to'lab berilgan xom ashyo bo'yicha chegirilishi lozim bo'lgan soliq summasi	040	
Byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan aktsiz solig'i summasi (030-satr - 040-satr)	050	
Oylik joriy to'lovlar summasi (050-satr / 3)	060	

Aktsiz solig'i bo'yicha joriy to'lovlar har oyning 25-kunidan kechiktirmay yil choragi bo'yicha aktsiz solig'i summasining uchdan bir qismi miqdorida to'lanadi. Ya'ni, joriy oyning 13-kunidan kechiktirmay — joriy oyning birinchi o'n kunligi uchun;

joriy oyning 23-kunidan kechiktirmay — joriy oyning ikkinchi o'n kunligi uchun;

kelgusi oyning 3-kunidan kechiktirmay — hisobot oyining qolgan kunlari uchun.

Aksiz to'lanadigan tovarlarni realizatsiya qilishning taxmin qilinayotgan hajmidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan aksiz solig'i summasi soliq davri uchun byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan aksiz solig'i summasiga nisbatan 10 foizdan ko'proq kamaytirilgan taqdirda, davlat soliq xizmati organi joriy to'lovlarni byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan aksiz solig'ining haqiqiy summasidan kelib chiqib penya hisoblagan holda qayta hisoblashga haqli.

Aksiz solig'ini to'lash hisob-kitoblarni topshirish muddatlaridan kechiktirmay amalga oshiriladi. Import qilinadigan tovarlar bo'yicha aksiz solig'ini to'lash bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi. Aksiz markalari bilan tamg'alanishi lozim bo'lgan import qilinadigan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha aksiz solig'i aksiz markalari olinguniga qadar to'lanadi.

7.5. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini prognoz qilish

Respublikamizda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i mustaqillikning dastlabki yillarida, 1991 yil 15 fevralda qabul qilingan va o'zida 6 ta bo'lim, 27 moddadan iborat bo'lgan «O'zbekiston Respublikasi fuqarolaridan, ajnabiy fuqarolardan va fuqaroligi bo'lmagan shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'g'risida»gi Qonun bilan joriy qilindi. Ushbu qonunga asosan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, ajnabiy fuqarolardan va fuqaroligi bo'lmagan shaxslardan daromad solig'i 1997 yil 24 aprelda qabul qilinib, 1998 yil 1 yanvardan kuchga kirgan va 2008 yil 1 yanvargacha amal qilgan Soliq kodeksi qabul qilinganiga qadar amal qildi. Hozirgi kunda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i yangi tahrirda qabul qilingan va amalda bo'lgan Soliq kodeksi(2020 yildan kuchga kirgan)ga, u asosda ishlab chiqilgan

qonunosti me'yoriy hujjatlar hamda Prezident qarorlari va farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida undirib kelinmoqda.


Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i mohiyati jihatidan aholining qonuniy daromad manbaiga ega bo'lgan toifalarining va ushbu soliq turi bo'yicha soliq to'lash majburiyati yuklatilgan qismiga o'z daromadlari doirasida byudjetga soliq to'lashning majburiyligini bildiradi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i davlat tomonidan aholiga qulay ish o'rinlari va daromad olish imkoniyatlarini yaratib berganligi, davlatning o'zi bergan daromad(ish haqi, mukofotlar)lari hamda aholining ma'lum bir toifalarining iqtisodiy hatti-harakatlari oqibatida qonuniy daromadga ega bo'lganligining sabablari va bir qismini byudjetga yo'naltirilishini xarakterlaydi. Bu yerda davlat aholining daromad manbaiga ega bo'lishining asosiy kafili va daromad beruvchisi sifatida yuzaga chiqadi. Davlatning jamiyatga ko'rsatayotgan ijtimoiy xizmatlarini asosan aholi iste'mol qiladi, shunday ekan, aholining ma'lum bir toifalari(ishga yaroqli, daromad manbaiga ega, layoqat yoshiga etgan)dan soliqlar undirilishi obyektiv ijtimoiy-iqtisodiy zaruratdir.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining byudjet daromadlaridagi ulushining oxirgi o'n yil davomida keskin farqlanmasligi bu davrlar mobaynida aholi jami pul daromadlarida ish haqining ulushi bilan o'rtacha oylik ish haqining avvalgi yilga nisbatan o'sishi o'rtasidagi keskin farqlanishlarning yo'qligi ham ta'sir qiladi. Oxirgi ko'rsatkich shuni anglatadiki, milliy iqtisodiyotimizda makroiqtisodiy barqarorlik asosida iqtisodiy o'sishi ta'minlanib inflyatsiya ko'rsatkichlarining minimal darajada jilovlanib borilmoqda. Aholi daromadlarining yillar davomida o'sishi o'rtasidagi farqning sekinlashishi iqtisodiy nuqtai nazaridan avvalgi yil bazis daromadining yuqoriligi bilan ifodalanadi.

Jismoniy shaxslar oladigan quyidagi daromadlar: O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining O'zbekiston Respublikasidagi va undan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlari, O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlari hamda yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar soliq solinadigan obyekt hisoblanadi. Ammo, qonunchilikka

asosan qat'iy belgilangan soliq solinadigan daromadlarga ega bo'lgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromadlar obyekti hisoblanmaydi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining bazasi jismoniy shaxslar tomonidan qonunchilik asosida oladigan jami daromadlari va ushbu daromadlardan soliqqa tortilmaydigan daromadlarni chegirib tashlangandan qolgan daromadlardan iborat bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga ko'ra jismoniy shaxslarning jami daromadlari to'rtta guruhga ajratiladi:



27-rasm. Jismoniy shaxslarning jami daromadlari tarkibi va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bazasi.

Mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar bu- ish beruvchi bilan mehnatga oid munosabatlarda bo'lgan va tuzilgan mehnat shartnomasiga (kontraktiga) muvofiq ishlarni bajarayotgan jismoniy shaxslarga hisoblanadigan va to'lanadigan barcha to'lovlar hisoblanadi. (Mehnatga

haq to'lash tarzidagi daromadlariga kiruvchi daromadlar Soliq kodeksining 374-moddasida batafsil keltirilgan).

Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlari tarkiban- bu foizlar, dividendlar, mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar, jismoniy shaxslarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'laganidan keyin xususiy korxonada mulkdori, oilaviy korxonada ishtirokchisi hamda fermer xo'jaligi boshlig'i ixtiyorida qoladigan foyda summasi kabi daromadlardan iborat bo'ladi. (Bunday daromadlarning turlari Soliq kodeksining 375-moddasida to'liq keltirilgan).

Moddiy naf tarzidagi daromadlar bu- soliq to'lovchi tomonidan yuridik shaxsdan moddiy naf tarzida olingan daromadlar i tushuniladi. (Soliq kodeksining 376-moddasida ularning turi keltirilgan.)

Jismoniy shaxslarning boshqa daromadlari esa yuqorida keltirilgan daromad guruhlari kirmaydigan va ular tomonidan qonuniy tartibda olinadigan daromadlardan iborat bo'lib, bu kabi daromadlarning to'liq bayoni Soliq kodeksining 377-moddasida batafsil berilgan.

Shu bilan birgalikda yuridik shaxslar tomonidan jismoniy shaxslarga qilgan quyidagi xarajatlari (jismoniy shaxslardan olinadigan daromadlar) soliq obyektiga kirmaydi:

✓ mehnat sharoitlari noqulay bo'lgan ishlarda band bo'lgan xodimlarni mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sut, davolash-profilaktika oziq-ovqati, gazlangan sho'r suv, shaxsiy himoya va gigiena vositalari bilan ta'minlash xarajatlari;

✓ kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladigan to'lovlar, shu jumladan a'zolik badallari hisobidan kasaba uyushmasi a'zolariga beriladigan moddiy yordam;

✓ xodimlarni ish joyiga olib kelish va qaytarib olib ketish xarajatlari;

✓ diniy rasm-rusumlar va marosimlarni, bayram tantanalarini o'tkazish, vakillik xarajatlari, shahar yo'lovchilar transportida xodimlarning xizmat qatnovlari uchun foydalaniladigan yo'l kartochkalarini

olish, shuningdek yuridik shaxsning xodimlarning mehnat va dam olish sharoitlarini ta'minlash bilan bog'liq hamda muayyan jismoniy shaxslarning daromadi hisoblanmaydigan boshqa xarajatlar;

✓ xodimga xizmat vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan maxsus kiyim-bosh, maxsus poyabzal, formal kiyim-bosh berish xarajatlari yoki ularni pasaytirilgan baholarda sotish munosabati bilan qilingan xarajatlar, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda ayrim toifadagi xodimlarni o'z xizmat vazifalarini bajarishi chog'ida oziq-ovqat bilan ta'minlash xarajatlari;

✓ xodim boshqa joyga ishga o'tkazilganda yoxud ko'chib borganda ko'chish, mol-mulkini ko'chirib borish, joy ijarasi (yo'l xarajatlari uchun beriladigan pul) bilan bog'liq xarajatlarni to'lash yoki bu xarajatlarning o'rmini qoplash xarajatlari;

✓ xizmat safarlaridagi kompensatsiya to'lovlari (tasdiqlovchi hujjatlar asosida xizmat safari joyiga borish va u erdan qaytib kelish uchun, shu jumladan joy band qilish uchun haq to'lashni qo'shgan holda haqiqatda amalga oshirilgan to'lovlar, uy-joyini ijaraga olish bo'yicha haqiqatda amalga oshirilgan to'lovlar, qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida xizmat safarida bo'lingan vaqt uchun to'lanadigan kundalik xarajatlar uchun haq);

✓ qonun hujjatlarida nazarda tutilgan normalar doirasida xodimga to'lanadigan kompensatsiya to'lovlari (doimiy ishi yo'lda kechadigan, harakatlanish va (yoki) qatnov tusiga ega bo'lgan, shuningdek vaxta usulida ishlarni bajarishda xodimga kompensatsiya to'lovlari, xizmat ishlari uchun shaxsiy avtomobildan foydalanganlik uchun kompensatsiya to'lovlari, dala ta'minoti);

✓ mehnatda mayib bo'lganlik yoki sog'liqqa boshqacha shikast etganlik bilan bog'liq zararining o'rmini qoplash bo'yicha to'lovlar;

✓ boquvchisi vafot etganligi munosabati bilan to'lovlar;

✓ talabalarning ta'lim olishi uchun O'zbekiston Respublikasining oliy o'quv yurti bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha pulli-kontrakt asosida o'tkaziladigan to'lovlar;

✓ O'zbekiston Respublikasida sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxslarga hayotni uzoq muddatli sug'urtalash bo'yicha to'lanadigan sug'urta mukofotlari;

✓ xodimlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash xarajatlari va shu kabi daromadlar.

Shuningdek, agar, jismoniy shaxs o'z hohishiga ko'ra uning daromadidan daromad solig'ini ushlab qolish haqida iltimosnoma tarzidagi murojaatlarga asoslangan ushlanmalar, sud yoki boshqa organlarning qaroriga binoan biron bir ushlab qolinganda daromadlar jismoniy shaxsning daromadidan soliq hisoblanayotgan soliq bazasidan chegirilmaydi. Agar, jismoniy shaxs chet el valyutasida ifodalangan daromadlarga ega bo'lsa, bundan daromadlar bo'yicha soliq bazasini aniqlashda daromad olingan kundagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha milliy valyutada hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi «Fuqarolik kodeksi»(16-moddasi)da jismoniy shaxslar deganda O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tushuniladi deb ta'rif berilgan. Amaldagi Soliq kodeksining 364-moddasiga ko'ra jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining to'lovchilari bo'lib, soliq solinadigan daromadga ega bo'lgan jismoniy shaxslar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'lovchilari hisoblanadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i mohiyati jihatidan aholining qonuniy daromad manbaiga ega bo'lgan toifalarining va ushbu soliq turi bo'yicha soliq to'lash majburiyati yuklatilgan qismiga o'z daromadlari doirasida byudjetga soliq to'lashning majburiyligini bildiradi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i davlat tomonidan aholiga qulay ish o'rinlari va daromad olish imkoniyatlarini yaratib berganligi, davlatning o'zi bergan daromad (ish haqi, mukofotlar) lari hamda aholining ma'lum bir toifalarining iqtisodiy hatti-harakatlari oqibatida qonuniy daromadga ega bo'lganligining sababi va bir qismini byudjetga yo'naltirilishini xarakterlaydi.

Boshqa soliqlar singari, ushbu soliq turi bo'yicha soliq tushumlarini prognoz qilish jarayonida o'ziga xos bir qator omillarni e'tiborga olish taqazo etiladi. Mazkur soliq turi bo'yicha ham soliq tushumlarini prognoz qilishda umumiy omillar bilan birgalikda, ya'ni, soliq to'lovchi sifatida ro'yxatdan chiqarilganlar soni (ish joylarining qisqarganligi, vafot etganligi, nogiron sifatida ro'yxatga olinganligi, nafaqaga chiqqanligi, soliq imtiyoziga ega bo'lganligi sababli), dastlabki pog'onadagi stavkada to'laydiganlar soni, o'rta pog'onadagi stavkada to'laydiganlar soni, yuqori pog'onadagi stavkada to'laydiganlar soni¹⁴⁰, byudjetga soliq tushumlari oshishining sabablari (eng kam ish haqining minimal miqdorini oshishi, korxonalarda ish haqi fondining oshirilishi, yuqori ish haqi beruvchi korxonalarining ko'payishi, ikki va undan ortiq ish joyidan daromad oluvchilar va deklaratsiya topshiruvchi soliq to'lovchilar sonining oshishi), jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lovchi yuridik shaxslar (soliq agentlari), aholining real pul daromadlarining avvalgi yillarga nisbatan oshishi, aholi jami pul daromadlarida ish haqining ulushi, o'rtacha oylik ish haqining darajasi va avvalgi yilga nisbatan o'sishi, mehnat resurslari soni, iqtisodiyotda band bo'lganlar soni, iqtisodiyotning rasmiy va norasmiy sektorida ish bilan bandlar soni, ish bilan ta'minlashga muhtoj bo'lgan aholi soni dinamikasi, yaratilgan ish o'rinlari soni va shu kabi muhim omillarni ham tahlil qilish asosida ularning ta'sir darajalarini baholab borish zarur.

7.6. Yer solig'ini prognoz qilish

Yer solig'i soliqlarning paydo bo'lishi davridan to hozirgi kunga qadar eng asosiy soliqlardan biri hisoblanadi. Bu soliq Qadimgi Rim, Gretsiya davlatlaridan tortib, Sharq davlatlaridagi qadimgi davlatlarda va keyinchalik feodal tuzum davlatlarida ham asosiy soliq turi sifatida o'rin egallagan. Masalan Qadimgi Rimda yer solig'i mavjud bo'lib, ushbu

¹⁴⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil iyun oyidagi qarori bilan tasdiqlangan Soliq kontseptsiyasiga ko'ra, 2019 yil 1 yanvardan boshlab, soliq stavkasi pog'onali emas, balki, yagona 12 foizda belgilanishi ko'zda tutilmoqda.

soliqdan soliq tushumlarini ko'paytirish va soddalashtirish maqsadida har bir erlarning kadastrlarini aniqlash, har bir mol-mulk va er egalarning deklaratsiyalar topshirish majburiyatlari joriy qilingan. Aslida soliq deklaratsiyasining ham paydo bo'lishi erlardan soliqlarni o'z vaqtida undirish hamda soliq obyektlarini to'g'ri aniqlash zaruratidan kelib chiqqan. Chunki, Rim imperiyasiga qarashli o'z erlaridan tashqari bosib olingan erlardan soliq undirishning murakkablashib borishi davlatga qarashli barcha erlarni ro'yxatga olish va ularning joylashuvi hamda turi(hosil beradigan, dengiz bo'ylaridagi, cho'l va tog'li joylardagi erlar) bo'yicha ro'yxatini olib chiqilgan.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq, Respublikamizda ham erlardan samarali foydalanishni rag'batlantiruvchi va mas'uliyatini oshiruvchi moliya-kredit mexanizmlari joriy etildi, bu borada soliq tizimida yer solig'ining joriy etilishi o'ziga xos ahamiyatga egadir. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan 1993 yil 6 mayda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Yer solig'i to'g'risida»gi qonuni¹⁴¹ bilan joriy qilingan yer solig'ini undirishda uning miqdori ushbu er uchastkasining sifati, qanday joydaligi va suv bilan qanday ta'minlanganligiga qarab belgilanadi. O'z mulkida, egaligida yoki foydalanishida er uchastkalari bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar har yili yer solig'i to'laydigan bo'ldilar. Mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining qaroriga binoan ijaraga er uchastkalari olgan yuridik va jismoniy shaxslar yer solig'i o'rniga mahalliy byudjetga ijara haqi to'laydilar, uning miqdori tomonlarning kelishuvi bo'yicha, lekin qonun hujjatlarida nazarda tutilgan yer solig'ining bir stavkasidan kam va uch stavkasidan ko'p bo'lmagan miqdorda, erlardan qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun foydalanilganda bir stavkasi miqdorida belgilandi. Kimningdir mulkida, egaligida va foydalanishida bo'lgan har bir er uchastkasi uchun yer solig'i stavkalarining miqdorlari er uchastkasining

¹⁴¹ Mazkur Qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997 yil 24 apreldagi 397-I-son «O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksini amalga kiritish tartibi to'g'risida»gi qaroriga muvofiq o'z kuchini yo'qotgan.

sifati, qanday joydaligi va suv bilan qanday ta'minlanganligiga qarab tabaqalashtirilgan holda joriy qilindi.

Bu davrlarda yer solig'ini undirish tartiblari va mexanizmlari takomillashtirilib borildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 10 oktyabrdagi PF-2086-son «Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig'ini joriy etish to'g'risida»gi Farmoniga¹⁴² asosan Respublikada qishloq xo'jaligi ekinzorlaridan foydalanish samaradorligini oshirish, qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining pirovard mehnat natijalaridan iqtisodiy manfaatdorligini ko'chaytirish hamda soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va bir xil qilish maqsadida, 1999 yilning 1 yanvaridan boshlab qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig'i joriy etildi. Mazkur farmonga asosan qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari qo'yidagi umumdavlat va mahalliy soliqlarni ya'ni daromad (foyda) solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, suv resurslaridan foydalan-ganlik uchun soliq, mol-mulk solig'i, yer solig'i, va boshqa mahalliy soliqlar va yig'imglar o'rniga faqat yagona yer solig'ini to'laydilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa er egalari huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xo'jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomil-lashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2017 yil 9 oktyabrdagi PF-5199-son Farmoniga muvofiq Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa er egalari kengashlari tuzilganligi va ularga xalq deputatlari tuman Kengashlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yig'ilishlarida fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa er egalari ekin maydonlaridan foydalanish samaradorligini muhokama qilishda ishtirok etish va o'z xulosasini taqdim etish, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan birgalikda samarali faoliyat yuritayotgan fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa er egalari rag'batlantirish, faoliyatida kamchiliklarga yo'l qo'yayotgan er egalari nisbatan

¹⁴² Mazkur Farmon O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 17 iyundagi PF-4116-sonli «Soliq imtiyozlari tartibga solinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga o'zgartishlar kiritish hamda ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida»gi Farmoniga asosan o'z kuchini yo'qotgan.

jamoatchilik yo'li bilan ta'sir choralari ni ko'rish kabi vazifa va huquqlar berildi, tuman fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa er egalari kengashlari huzurida fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa er egalari ga kompleks xizmat ko'rsatish markazlari tashkil etildi. Shuningdek, mazkur farmonga ko'ra endi barcha fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa er egalari ning ekin maydonlarida ularning takliflarini inobatga olgan holda, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish bo'yicha prognoz hajmlar belgilanadigan bo'ldi. Har yili 1 fevralgacha fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari raislari ichki ishlar organlarining profilaktika inspektorlari bilan birgalikda uyma-uy yurib, hududdagi dehqon xo'jaliklari va tomorqa er egalari ning ekin maydonlarini xatlovdan o'tkazib, ularda yil davomida ekiladigan ekin turlari va etishtiriladigan mahsulot hajmlarini oila ehtiyoji va sotish uchun mo'ljallangan qismlarga ajratgan holda aniqlaydi, mahsulot etkazib berish bo'yicha shartnomalar tuzilishi, ekinlarning to'liq va sifatli ekilishi, agrotexnik tadbirlarning o'z vaqtida amalga oshirilishi yuzasidan jamoatchilik nazorati kuchayadi.

Agar, 2017 yilning o'zida qo'shimcha 1,2 ming gektar maydonda limonariy barpo etildi, 32 ming xonadonga 3,2 mln. ta 90 kunlik tovuq tarqatilib, 2,3 mln. dona tuxum etishtirishga erishildi. Shuningdek, grek yong'og'i, unabi kabi inson salomatligi uchun foydali mevali ko'chatlar ekish tashkil qilinishi, fuqarolarning o'zlariga biriktirib berilgan tomorqa erlaridan qo'shimcha daromad manbai sifatida foydalanishdagi e'tiborsizligi, erdan foydalanish madaniyatining to'laqonli shakllanmaganligi, sohaga oid qonunlarda erdan xo'jasizlarcha foydalanish hollariga nisbatan javobgarlik mexanizmi qat'iy belgilanmaganligi natijasida mavjud 445 ming gektar tomorqa yer uchastkasining 18,9 ming gektaridan samarasiz foydalanish holatlari ham yuz berdi¹⁴³.

Ta'kidlaganimizdek, yerlardan samarali foydalanishda soliq tizimining rag'batlantiruvchilik va tartiblovchilik funksiyasining amaliy

¹⁴³ Qarang: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Dehqon xo'jaliklari va tomorqa er uchastkalaridan samarali foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018 yil 18 martdagi 205-sonli qarori.

jihtadan ishlashini ta'minlash ham katta ahamiyatga ega. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2018 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida» PQ-3454-son qaroriga ko'ra monitoring natijasida ekin erlaridan maqsadli va samarali foydalanib, tuman hokimining prognoz ko'rsatkichlar to'g'risidagi qarorida belgilangan ekin turlarini to'liq ekan, agrotexnika tadbirlarini o'z vaqtida, sifatli bajargan, yilida kamida ikki yoki uch marta yuqori hosil olgan hamda tomorqani obodonlashtirgan, chorva mollari va parrandalarning bosh sonini saqlagan va ko'paytirishga erishgan tomorqa yer egasiga mintaqaning va faoliyatni amalga oshirish joyining xususiyatlarini hisobga olgan holda jismoniy shaxslarning mol-mulkidan olinadigan soliq va jismoniy shaxslarning yer solig'i bo'yicha belgilangan stavkalariga nisbatan 0,7 dan 1,3 gacha pasaytiriluvchi va oshiriluvchi koeffitsientlarni qo'llash sifatida yer solig'i stavkasini pasaytiruvchi koeffitsienti qo'llaniladigan bo'lsa, Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoevning tashabbusi bilan yakka tartibda uy-joy qurish va uy-joyni obodonlashtirish uchun berilgan yer uchastkalarining tomorqa qismida asossiz ravishda qishloq xo'jaligi ekinlari ekmagan yoki uni obodonlashtirmagan yer egalariga nisbatan belgilangan yer solig'i stavkasining uch barobar oshirilgan miqdori qo'llanilishi, dehqon xo'jaligi yuritish uchun uy-joy qurish huquqsiz berilgan yer uchastkalarida qishloq xo'jaligi ekinlari ekmagan yer egalarining yer uchastkasiga bo'lgan huquqi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bekor qilinishi, yer maydonlaridan samarasiz foydalangan, qishloq xo'jaligi ekinlarini to'liq ekmagan, agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirmagan fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalariga nisbatan qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlik choralarining joriy etilishi, fikrimizcha, yerlardan samarali foydalanishning rag'batlantiruvchilik va mas'uliyatni oshirish mexanizmining eng oqilona mexanizmlarining yaratilishi ayni muddao bo'ldi. Tahlillarimizga ko'ra 2018 yil yakunlariga ko'ra yalpi qishloq xo'jalik mahsulotlarining avvalgi yillarga

nisbatan o'sish sur'atlaridan hamda 2018 yilgi prognoz ko'rsatkichi (104.0)dan kamida 1,7 barobar yuqori bo'ladi, o'z navbatida qishloq xo'jalik mahsulotlarining o'rta narxlar indeksida ham sezilarli pasayishi kutilmoqda.

O'zbekiston byudjet-soliq tizimida yer solig'i fiskal xususiyati juda yuqori emas, ya'ni byudjet jami daromadlarida katta ulushni egallamaydi, ammo, soliq bazasini aniqlashning qulayligi va hisoblash mexanizmining osonligi, undirish tartibi va soliq tushumini byudjetlar va turli xil fondlar o'rtasida taqsimlanish jarayonining soddaligi bilan o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Shu narsani ham unutmash kerakki, yer solig'ining stavkalari har yili indeksatsiya qilinib borilmoqda, o'z navbatida qaramasdan birinchidan soliq to'lovchilar sonining unchalik ko'p emasligi va soliq imtiyozlarining ko'proq berilishi jarayoni kuchayib bormoqda. Agar, yer solig'i to'lovchilari soni 2007 yilda 161265 tani tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilda ularning soni 93031 taga tushib qolgan, ya'ni, 7000 yaqin soliq to'lovchiga kamaygan. 2016 yilda qishloq xo'jalik sohasida yer solig'ini to'lovchilar soni 119800 tani, ulardan fermer xo'jaliklar soni esa 97569 tani 2017 yilda esa mos ravishda 143004 ta va 120432 tani tashkil etgan.

Shu bilan birgalikda yer solig'i tarkibida yagona yer solig'i to'lovchilari hisoblangan fermer xo'jaliklariga soliq imtiyozlarining berilishi va ularning o'zaro optimallashtirib borilishi (yiriklashuvi) oqibatida soliq to'lovchilar sonining kamayishiga olib kelgan. Ammo, ularga yer birlashtirilgan yer uchastkalari soni qisqarmagan. Butun dunyoda yer uchastkalariga soliq solish progressiv xarakterga ega. Chunki, soliqlar tiklanmaydigan resurslardan samarali foydalanish va ularga ehtiyotkorlik asosida yondoshishga undaydi. Bundan tashqari yerlar kadastr usuli bo'yicha soliqqa tortiladiki, bu usulda soliq tushumlari yer uchastkalaridan olingan daromadlilik darajasiga bog'liq emas.

Mazmunan olib qaraganda yer solig'i to'lovlaridan tushgan mablag' eng avvalo yerlarni muhofaza qilishni yaxshilashga, yerlarning

unumdorligini oshirishga, irrigatsiya va melioratsiya ishlariga, yerga egalik qiluvchilar va yerdan foydalanuvchilarni, shu jumladan ijarachilarni rag'batlantirishga, yer tuzish ishlarini tashkil etishga, Davlat yer kadastri yuritish va hududni ijtimoiy rivojlantirishga sarflanadiki, ya'ni hozirgi kunda yagona yer solig'i Vazirlar Mahkamasi huzuridagi huzuridagi "Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi" orqali qayd etilgan maqsadlarda sarflanadiki, bu jihatdan olganda yer solig'i nisbatan maqsadli yo'naltirilgan soliqlardan biri sanaladi.

16-jadval.

**Yer solig'ini prognoz qilishda omillar ta'sirining korrelatsion
jadvali**

№	Omilli ko'rsatkichlar	Asosiy omil	Asosiy bo'lmagan omil	Soliq tushumiga ta'siri koeffitsienti. Koeffitsientning maksimum darajasi=1. (+ ijobiy) (-salbiy)
1.	Soliq to'lovchilar soni:			
	Faoliyat ko'rsatayotganlar	+		+0,5
	Faoliyat ko'rsatmayotganlar		+	-0,1
	Yangi tashkil etilgan korxonalar		+	-0,05
2.	Soliq imtiyoziga ega bo'lganlar soni:			
	To'laligicha ozod etilganlar soni	+		-0,1
	Qisman ozod etilganlar soni	+		-0,1
3.	Soliq stavkasi%	+		+0,5
	Kamaytirilgan stavkada to'laydiganlar soni		+	-0,1
4.	Boshqa omillar:			

Yer maydonlarining kengayishi (ajratilishi)		+	+0,5
Qarovsiz yoki latmikor yer maydonlarining yerdan foydalanuvchi hisobiga o'zlashtirilishi		+	-0,1
Tomorqa egalariga tegishli samarasiz foydalangan yer uchastkalari hajmi	+		+0,2
Boniteti pasayib ketish hisobiga foydalanishdan chiqarilgan yer maydonlari		+	-0,05
Fars major holatlar		+	±0,05

Respublikamiz soliq tizimida har bir soliq turini undirish mexanizmi va ular bo'yicha davlat byudjetiga soliqlarning yig'iluvchanlik darajasini oshirish jarayonida soliq tushumlarini to'g'ri va aniq holda prognozlashtirish masalasi muhim ahamiyatga egadir.

Soliqlarni prognoz qilish jarayonida soliqlarni prognoz qilishning omillarining ta'sirchanlik koeffitsientlarini qo'llash metodik jihatdan katta ahamiyatga egadir.

Mazkur jadvalda boshqa soliq turlari kabi yer solig'i bo'yicha byudjetga soliq tushumlarining kelib tushishiga ta'sir etuvchi omillarni asosiy va asosiy bo'lmagan turlarga ajratilib, ularning har birining koeffitsient ko'rsatkichlari aniqlangan. Soliqlarni prognoz qilish jarayoniga barcha omillarning ta'sirining umumiy darajasini 1,0 koeffitsientga teng qilib olinib, har bir omilning ta'siri uning darajasining oshishiga yoki kamayishiga xizmat qiladi. Omillarning soliq tushumlariga korrelatsion bog'liqligi va darajasi soliq turining ichki mohiyatiga qarab ta'sir doirasi ham farqlanadi. Jadvaldan ko'rinadiki, yer solig'i bo'yicha davlat byudjetiga kelib tushishi mumkin bo'lgan ko'rsatkichlarning prognoziga asosan to'rtta omillar, ya'ni soliq to'lovchilar soni, soliq imtiyozlari, soliq stavkalari va boshqa omillarga ajratgan holda ularning prognoz ko'rsatkichiga ijobiy yoki salbiy ta'sir etishi nuqtai nazardan baholandi. Bu yerda yana shu narsaga e'tibor berish zarurki, 2018 yildan boshlab joriy etilgan yakka tartibda uy-joy qurish va uy-joyni

obodonlashtirish uchun berilgan yer uchastkalarining tomorqa qismida asossiz ravishda qishloq xo'jaligi ekinlari ekmagan yoki uni obodonlashtirmagan yer egalariga nisbatan belgilangan yer solig'i stavkasining uch barobar oshirilgan miqdori qo'llanilish tartiblari ham yer solig'i bo'yicha soliq tushumlari prognoziga ta'siri ham e'tiborga olinish zarur deb hisoblaymiz. Fikrimizcha yuqorida qayd etilganidek, ayrim yillarda yer solig'i bo'yicha soliq tushumlari prognozining bajarilmaslik sabablari biri bu prognoz ko'rsatkichlarining to'g'ri aniqlanmaganligidir. Shu boisdan biz taklif etayogan omillarni baholashning korrelatsion modeli ushbu soliq turi bo'yicha soliq tushumlarini prognoz ko'rsatkichlarining obyektivligini ta'minlashga xizmat qilsa, boshqa tomondan byudjetdan ijtimoiy sohalarni bir maromda moliyalashtirish imkoniyati oshadi.

Tayanch so'z va iboralar:

Foyda, foyda solig'i, soliq prognoziga ta'sir etuvchi omillar, jismoniy shaxs, daromad, jami daromad, mulkiy daromadlar, mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar, moddiy naf tarzidagi daromadlar, Aktsiz, aktsizosti tovarlari, xom-ashyo, daval xom-ashyo, dal, «tribut», aktsiz markalari, aylanmadan soliq, solishdan soliq, iste'mol, aktsiz solig'i to'lovchisi, aktsiz solig'i obykti, aktsiz solig'i bazasi, aktsiz solig'i stavkalari, import mahsulotlari, talab, taklif, iste'molchi zimmasidagi soliq, cheklangan normalar, aktsiz solig'ini hisoblash, aktsiz solig'ini byudjetga to'lash, dekada, yer solig'i, bontitet, yer solig'i tushumlariga ta'sir etuvchi omillar.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Foyda solig'iga ta'sir etuvchi omillarga nimalar kiradi?
2. Foyda solig'i prognoz ko'rsatkichlarini aniqlashda qaysi metodlardan foydalaniladi?

3. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning tarixiy xususiyatlarini nimalardan iborat?

4. Jismoniy shaxslarning soliqqa tortiladigan daromadlariga nimalar kiradi?

5. Jismoniy shaxslarning qaysi daromadlari soliqqa tortish obyektini hisoblanmaydi?

6. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini undirishning AQSh, Rossiya va Buyuk Britaniya davlatlarining tajribasi O'zbekiston soliq tizimidagi holat bilan qiyosiy taqqoslang.

7. Aktsiz so'zining lug'aviy ma'nosi nima?

8. Nima uchun oborot solig'i va sotishdan solig'i o'rniga aktsiz va qo'shilgan qiymat soliqlariga o'tildi?

9. Aktsiz solig'ining iste'molni tartiblashdagi roli qanday?

10. Aktsizosti tovarlarni deganda qaysi tovarlar tushuniladi?

11. Aktsizosti tovarlarini belgilash qaysi mezonlarga ko'ra amalga oshiriladi?

12. Aktsiz solig'i va tovarlar iste'molida aktsiz markalarini qo'llashdan asosiy maqsad nima?

13. Aktsiz solig'i qanday hisoblanadi?

14. Aktsiz solig'i bo'yicha qanaqa imtiyozlar belgilangan?

15. Yer solig'ini prognoz qilishda qaysi indikatorlardan foydalaniladi?

GLOSSARIY

TERMIN	Rus tilida	Ingliz tilida	o'zbek tilidagi sharhi
Asosiy vositalar	Основные средства	fixed assets	deb, korxonada ko'p yil foydalaniladigan mehnat qurollari: ya'ni binolar, inshootlar, mashinalar va asbob-uskunalar.
Asosiy vositalar bilan ta'minlanish	Обеспеченность основными средствами	Provision of fixed assets	korxonaning biznes-rejasiga yoki o'tgan yillarga nisbatan asosiy fondlar bilan qurollanish darajasi.
Aktiv (faol) asosiy fondlar	Активные основные средства	Active fixed assets	kuch beradigan mashinalar va asbob-uskunalar, ish mashinalari, o'tkazgich jihozlar, o'lchash va tartibga solish asboblari.
Asosiy fondlarni yangilash koeffitsienti	Коэффициент обновления основных фондов	The coefficient of fixed assets renewal	yangi kelgan asosiy fondlar so'mmasini asosiy fondlarning yil oxiriga bo'lgan qiymatiga bo'lish kerak.
Asosiy (operatsion) faoliyat bo'yicha pul oqimlari	Денежные потоки от основной деятельности	Cash flows from operating activities	xo'jalik jarayonlarini korxonaning pul mablag'lariga,

			foyda miqdoriga tasirini ifodalaydi.
Aylanma mablag'lar	Оборотные средства	current assets	aylanma fondlar, muomala fondlari va boshqa harakatdagi aktivlarda turgan pul mablag'lari.
Boshqaruv tamoyillari	Принципы управления	principles of management	iqtisodiyotning barcha sohalarini boshqarish tizimining tuzilishi va amal qilinishini belgilab beruvchi asosiy qoida.
Boshqaruv tizimi	Системы управления	Control systems	boshqarishning maqsadlari, tarkibi, shakli va usullari majmuasi. U dinamik bo'lib, ijtimoiy – iqtisodiy sharoitlar o'zgarishi bilan uning unsurlarini aniq mazmuni ham o'zgaradi.
Balansni likvidligi	Ликвидность баланса	balance Liquidity	balansdagi likvid bo'lgan mablag'larning majburiyatlarni qoplash darajasi tushuniladi.
Brak mahsulot	Бракная продукция	bar products	tasdiqlangan andoza va texnika shartlarga mos kelmaydigan mahsulot.

<p>"Balans"</p>	<p>Баланс</p>	<p>Balance</p>	<p>lotincha bis – ikki marta, band – tarozi pallasi so'zlaridan tarkib topib, tom ma'noda ikki palla degan ma'noni anglatadi va tenglik tushunchasi sifatida ishlatiladi.</p>
<p>Bir so'mlik tovar mahsulotiga ketgan xarajat</p>	<p>Затраты на один сум товарной продукции</p>	<p>The cost of one sum of commodity products</p>	<p>ishlab chiqarish tannaxrini tovar mahsuloti hajmiga nisbati tariqasida aniqlanadi.</p>
<p>Debitor qarzlari</p>	<p>Дебиторская задолженность</p>	<p>Receivables</p>	<p>aynan tahlil qilinayotgan korxonalar aylanmasida qatnashishi tushuniladi.</p>
<p>Debitorlik qarzlarning aylanish kuni</p>	<p>Оборачиваемость дебиторской задолженности в днях</p>	<p>Accounts receivable turnover in days</p>	<p>debitorlik majburiyatlarining mavjud summasini tahlil etish davrining kelendar kuniga ko'paytirish va sotishdan olingan sof tushum summasiga bo'lish asosida aniqlanadi.</p>

Induktsiya	Индукция	Induction	tadqiqotni yoki biror obyektning (hodisani, jarayonni) xususiylikdan umumiylik sari o'tilishi tushuniladi.
Ichki xo'jalik rezervlar (imkoniyatlari)	Внутрихозяйственные резервы	Intra reserves	xo'jalik yuritish samaradorligini oshirish imkoniyatini aniqlashda ijobiy ta'sir etuvchi omillar harakatini kuchaytirish va ularning salbiy ta'sirini tugatish tushuniladi.
Iqtisodiy-matematik usullar	Экономико-математические методы	Economic-mathematical methods	integral, korrelyatsiya, regressiya, omillar tizimini determinlashgan modellarda aks ettirish, nazariy o'yin kabilar.
Investitsiya faoliyati	Инвестиционная деятельность	Investment activities	nomoddiy aktivlarni sotib olish va sotish, uzoq muddatli moddiy aktivlar sotib olish uchun etkazib beruvchilarga to'langan pullar va unga tenglashtirilgan mablag'lar chiqim

			ustunida aks etiriladi.
Ijtimoiy mehnat unumdorligi	Социальная производительность труда	Social productivity	moddiy ishlab chiqarishda band bo'lgan har bir ishlovchi hisobiga hosil qilingan milliy daromad miqdori bilan o'lchanadi
Individual mehnat unumdorligi	Индивидуальная производительность труда	Individual productivity	individual (yakka tartibda ishlovchining (lokal) uchastka, tsexdagi, korxon, tarmoqdagi) ishlovchining ishlab chiqargan mahsuloti.
Kreditor qarzlari	Кредиторская задолженность	Accouns payable	o'zga korxonalarining aylanma mablag'larining bir qismi aynan tahlil qilinayotgan korxonada aylanmasida qatnashishi tushuniladi.
Kreditorlik qarzlarning aylanish kuni	Оборачиваемость кредиторской задолженности в днях	Accouns payable turnover in days	kreditorlik majburiyatlarining mavjud summasini tahlil etish davrining kelendar kuniga ko'paytirish va sotilgan mahsulotlarning

			ishlab chiqarish tannarxi summasiga bo'lish asosida aniqlanadi.
Leveraj	Ливераж	Leverazh	xususiy kapitalning o'sgan qismi bo'lib, ko'rsatib xususiy kapital rentabelligi koeffitsienti bilan jami investitsiyalar orasidagi farq koeffitsienti olinadi.
Metod(usul)	Метод (способ)	The method (method)	yunon tilidan olingan bo'lib, tabiat hamda jamiyatda sodir bo'layotgan hodisa va jarayonlarni o'rganish va bilish usulidir. Muayyan fanning predmetini o'rganish usuli.
Metodologiya (uslubiyat)	Методология	Methodology	muayyan fanning predmetini o'rgatish usuli, unda qo'llaniladigan yondashuvlar, usullar majmuasi.
Materiallar samarasi	Материалотдача	Materialootdacha	moddiy xarajatlarning bir so'mi hisobiga qancha mahsulot

			ishlab chiqarilganligini ko'rsatadi.
Material sig'imi	Материалоемкость	consumption of materials	bir so'm tovar mahsuloti ishlab chiqarish uchun qancha (necha tiyin) moddiy xarajatlar to'g'ri kelishini ko'rsatadi.
Moliyaviy natija	Финансовый результат	Financial results	korxonada faoliyatining foyda summasi va rentabellik darajasida ifodalangan yakunidir.
Muddatli likvidlik koeffitsienti	Коэффициент срочной ликвидности	Quick ratio	u pul mablag'lari, sof debitorlik qarzlari summasini joriy majburiyatlarga bo'lish orqali aniqlanadi.
Mutlaq likvidlik koeffitsienti	Коэффициент абсолютной ликвидности	Absolute liquidity ratio	u pul mablag'larining joriy majburiyatlariga nisbati sifatida aniqlanadi.
Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti	Коэффициент финансовой независимости	The financial independence	u korxonaning o'z mablag'larining xo'jalik mablag'lari umumiy summasiga nisbati tariqasida aniqlanadi.

<p>Mehnat omillari</p>	<p>Факторы труда</p>	<p>labor Factors</p>	<p>korxonaning ishchi kuchi bilan ta'minlanishi, ish vaqtidan foydalanish va mehnat unumdorligi darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar.</p>
<p>Mehnat vositalari omillari</p>	<p>Факторы средств труда</p>	<p>Factors labor funds</p>	<p>korxonaning asosiy vositalar bilan ta'minlanganligi, tarkibi, texnik holati va ulardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar.</p>
<p>Mehnat predmetlari omillari</p>	<p>Факторы предметов труда</p>	<p>Factors objects of labor</p>	<p>korxonaning xom ashyo va asosiy materiallar bilan ta'minlanganligini hamda ulardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar.</p>
<p>Mahsulotni bir tekisda ishlab chiqarish</p>	<p>Ритмичная производства продукции</p>	<p>Rhythmic production</p>	<p>mahsulotni tuzilgan jadval asosida, mahsulotning oldindan aniqlangan assortimenti va sifatiga muvofiq etkazib berish va sotishni o'z vaqtida ta'minlanishi.</p>

Mahsulot sifati	Качества продукции	quality products	uning barcha mo'ljallangan maqsadda foydalanishga yaroqli xususiyatlarining majmuasi.
Mehnat unumdorligi	Производительность труда	productivity	moddiy ishlab chiqarishda vaqt birligi davomida hosil qilingan mahsulot miqdori bilan o'lchanadi
Moddiy resurslar	Материальные ресурсы	Material resources	ishlab chiqarishning muayyan tsiklida foydalanishda bo'lgan va shu tsiklida ishlab chiqarilgan mahsulot (ish va xizmatlar) tannarxiga o'z qiymatini to'liq o'tkazib boruvchi buyumlar.
Maxsulot tannarxi	Себестоимость продукции	product cost	maxsulotni ishlab chiqarish, sotish va korxonada moliyaviy faoliyati bo'qiyicha barcha xarajatlarning pul orqali ifodalanishi.
Moliyaviy faoliyat	Финансовая деятельность	Financial activities	bo'limida aktsiya chiqarishdan kelib tushgan tushum, uzoq va qisqa muddatli qarzlarni

			kelib tushishi va chiqinlar aks etadi.
Moddiy tekshiruvlar	Материальная проверка	Material inspection	moddiy boyliklar, pul mablag'lari xaqiqiy qoldig'ini buxgalteriya xisobi ma'lumotlari bilan qiyoslash orqali amalga oshiriladi.
Omilli tahlil	Факторный анализ	Factor analysis	natija ko'rsatkichining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va ularning ta'sir doirasini hisoblash usullari majmuasini o'zida ifoda ettirgan tahlildir.
Omillar	Факторы	factors	u yoki bu iqtisodiy ko'rsatkichga ijobiy hamda salbiy ta'sir ko'rsatuvchi faol harakat qiluvchi kuchlar tushuniladi.
Operatsion foyda(asosiy faoliyati foydasi)	Операционная прибыль (прибыль от основной деятельности)	Operating profit (operating profit)	yalpi foydadan davr xarajatlari va boshqa operatsion xarajatlar chegirilishi va asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar qo'shilishi

			natijasida hosil bo'lgan foyda.
Pul oqimlari	Денежные потоки	monetary flows	pul va pul mablag'larining hamda so'm va o'zga ekvivalentlarining kirimi va chiqimi.
Pul ekvivalentlari	Денежные эквиваленты	Cash equivalents	erkin almash-tiriladigan qisqa muddatli, likvidlanadigan, qiymati o'zgarishi xatariga kamroq moyil bo'lgan investitsiyalar.
Pul mablag'lari	Денежные средства	Cash	kassadagi nakd pul va talab bo'yicha beriladigan depozitlar, shuningdek, hisob-kitob. valyuta va o'zga bank hisob raqamlaridagi mablag'lar.
Passiv (nafaol) asosiy vositalar	Пассивные основные средства	Passive fixed assets	binolar, inshootlar va transport vositalari.
Retrospektiv(joriy) tahlil	Ретроспективный (текущий) анализ	Retrospective (current) analysis	hisobot davri tugashi bilan buxgalteriya, statistik va tezkor hisobotlar hamda hisobdan tashqari axborot

			manbalariga asosan o'tkaziladigan tahlil.
Rentabellik	Рентабельность	Profitability	jami ijtimoiy ishlab chiqarish va har bir korxonaning iqtisodiy hamda moliyaviy samaradorligini ifodolovchi ko'rsatkich.
Raqobat	Конкуренция	Competition	lotincha so'zdan olingan bulib, maqsadga erishish uchun kurash, korxonalar o'rtasidagi sof kurashni bildiradi.
Sotilgan mahsulot	Реализованная продукция	products sold	tovarlar iste'molchilarga jo'natilib uning haqi mol yuboruvchilarning bankdagi hisob-kitob raqamiga o'tkazilishi tushuniladi.
Sof mahsulot	Чистая продукция	Net output	tovar mahsulot bilan uni ishlab chiqarishga qilingan moddiy sarflar va asosiy vositalar va nomoddiy faollarning amortizatsiyasi summasi o'rtasidagi farq.

Soliq to'lagunga qadar foyda	Прибыль до уплаты налогов	Profit before tax	umumxo'jalik faoliyatidan kelgan foydaga favquloddagi foydani qo'shilishi va favquloddagi zararni chegirish orqali hosil bo'lgan foyda.
Sof foyda	Чистая прибыль	Net profit	soliq to'lagunga qadar foydadan daromad (foyda) solig'i va foydadan boshqa soliqlar va yig'imlarni chegirilishi orqali aniqlangan foyda.
Taqqoslanadigan mahsulot	Сравниваемая продукция	comparable products	shu yil va undan oldingi yillarda seriyali va ommaviy tartibda ishlab chiqarilgan mahsulotning barcha turlari.
Taqqoslanmaydigan mahsulot	Несравниваемая продукция	comparable products	joriy yilda ishlab chiqarilgan mahsulotdir.
Tovar mahsuloti	Товарная продукция	commercial products	barcha ishlab chiqarish bosqichlarini o'tgan, to'la butlangan, texnika nazorati bo'limidan o'tgan va omborga topshirilgan mahsulot.

Taqsimlanmagan foyda	Нераспределенная прибыль	retained earnings	korxonaning hisobida turgan sof foydasi.
Umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda(hisobot foydasi)	Прибыль от общехозяйственной деятельности	Profit from general economic activity	operatsion foydaga moliyaviy faoliyatning daromadlarini qo'shilishi va moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar chegirilishi orqali hosil bo'lgan foyda.
Ustav kapitali	Уставный капитал	Authorized capital	o'z mablag'lar manbaining asosini tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2020 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2020 yil yanvar.
3. O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi Qonuni. -T.: Xalq so'zi, 1997 yil, 29 avgust.
4. O'zbekiston Respublikasining «Soliq maslahatiga oid faoliyat to'g'risida»gi Qonuni - 2022-yil 4-avgust, O'RQ-787-son
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni. 2017 yil, 7 fevral.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni. 2017 yil, 7 fevral.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-sonli Farmoni. 2022 yil, 28 yanvar.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 yanvardagi «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat Dasturi to'g'risida»gi PF-5308-sonli Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 iyundagi «Mahalliy byudjetlarni shakllantirishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5075-sonli farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 y 18 iyuldagi «Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa

majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5116-sonli farmoni

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 y 10 iyuldagi "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4389-sonli qarori

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 dekabrdaagi "Mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy byudjetlarga tushumlarning to'liqligini ta'minlash bo'yicha soliq va moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrdaagi "O'zbekiston Respublikasining 2018 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-3454-sonli qarori.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 dekabrdaagi «O'zbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo'ljallari to'g'risida»gi PQ-4086-sonli Qarori.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 13 fevraldaagi "Soliq qonunchiligini tubdan takomillashtirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi F-5214-sonli farmoyishi.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 31 maydaagi "Imtiyozlar va preferentsiyalar berish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori PQ-3756-sonli qarori.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 iyundaagi "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3802-sonli qarori.

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundaagi «O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish kontseptsiyasi to'g'risida»gi PF-5468-sonli farmoni.

19. Sh.Mirziyoev. Biz buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O'zbekiston, 425 b.

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruzasi. // Xalq so‘zi. 2017 yil, 16 yanvar.

21. Shavkat Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis Palatalarining Qo‘shma Majlisidagi nutqi. – Toshkent, Xalq so‘zi gazetasi, 2016, 14 dekabr.

22. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: O‘zbekiston, 2017. –104 b.

23. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 32 b.

24. Mirziyoev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 32 b.

25. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 22 dekabr 2017 yil. Toshkent, Xalq so‘zi gazetasi.

26. Barrell, Ray and Dury, Karen and Holland, Dawn, «Macro-Models and the MediumTerm: The NIESR experience with NiGEM», Presentation at 75th International Conference»Policy modeling for European and global issues», 2001, month July.

27. Calvo, Guillermo A., «Staggered prices in a utility-maximizing framework», Journal of Monetary Economics, 1983, volume 12, number 3, pages 343-482, month September.

28. Fogler H.R. A pattern recognition model for forecasting // Management science. 1974, No.8. P. 1178 – 1189.

29. Gheyas I.A., Smith L.S. A Neural Network Approach to Time Series Forecasting // Proceedings of the World Congress on Engineering, London, 2009, Vol 2 [elektronniy resurs]. P. 1292– 296.

30. Gosselin, M.-A. and Lalonde, R... “MUSE: The Bank of Canada’s New Projection Model of the U.S. Economy” Bank of Canada Technical Report, 2005, No. 96.; Gosselin, M.-A., “MUSE: The Bank of Canada’s New Projection Model of the U.S. Economy”, Bank of Canada Review, 2006.

31. Hannes Y.Y., Webb P. Classification and regression trees: A User Manual for Identifying Indicators of Vulnerability to Famine and Chronic Food Insecurity // International Food Policy Research Institute [elektronniy resurs]. 1999. 59 p.

32. Huang W., Nakamoria Y., Wang S. Forecasting stock market movement direction support vector machine // Elsevier: computers and operation research. 2005, Vol. 32. p. 2513 – 2522.

33. Maximum likelihood // The free encyclopedia «Wikipedia» [elektronniy resurs].

34. Mazengia D.H. Forecasting Spot Electricity Market Prices Using Time Series Models: Thesis for the degree of Master of Science in Electric Power Engineering. Gothenburg, Chalmers University of Technology, 2008. 89 p.

35. Pradhan R.P., Kumar R. Forecasting Exchange Rate in India: An Application of Artificial Neural Network Model // Journal of Mathematics Research. 2010, Vol. 2, No. 4. p. 111 – 117.

36. Prajakta S.K. Time series Forecasting using Holt-Winters Exponential Smoothing // Kanwal Rekhi School of Information Technology Journal [elektronniy resurs]. 2004. 13 p.

37. Robidoux, Benoit and Wong, Bing-Sun, «The Canadian Economic and Fiscal Model 1996 version. Part 1. Model structure», Department of finance of Canada, 1998, Working paper, number 5.; Cao, Jian-Guo and Robidoux, Benoit, «The Canadian Economic and Fiscal Model 1996 version. Part 3. Empirical specification and statistical

assessment», Department of finance of Canada, 1998, Working paper, number 7.

38. Zhu J., Hong J., Hughes J.G. Using Markov Chains for Link Prediction in Adaptive Web Sites // 1st International Conference on Computing in an Imperfect World, UK, London, 2002. p. 60 – 73.

39. Diebold, Francis X., «The past, present, and future of macroeconomic forecasting», National Bureau of Economic Research, 1997, NBER working paper, number 6290, month November.

40. Jingfei Yang M. Sc. Power System Short-term Load Forecasting: Thesis for Ph.d degree. Germany, Darmstadt, Elektrotechnik und Informationstechnik der Technischen Universitat, 2006. 139 p.

41. Ricard M. Bird Tax Policy & Economic Development. The JohnsHopkins University Press : Baltimor and London, 1992.

42. Robert Tannenwald The Representative Tax System — Tax Capacity and Tax Effort in the Ocean State (<http://www.ripec.com/rts2k.html>).

43. «Прогнозирование и планирование экономики», под ред. Борисевича В.И., Мн.: 2001.

44. Алексеев Александр и Волчкова Наталья и Денисова Ирина и Левина Ирина и Турдыева Наталья и Халеева Юлия. «Микроэкономическая оценка последствийналоговой реформы», Московский общественный научный фонд, 2004, Научные доклады: независимый экономический анализ, номер 156.

45. Алексеев Александр. «Межстрановая и многоотраслевая вычислимая модель общего равновесия», ЦЭМИ РАН, 2005, Препринт, 280 с.

46. Анисимов С.А. Некоторые методы минимаксной идентификации. Автоматика и телемеханика, 1978, N 6.

47. Бокс Дж., Дженкинс Т. Анализ временных рядов. Прогноз и управление. Выпуск.1,2. М., “Мир”, 1974.

48. В.С.Панфилов. Финансовое и экономическое прогнозирование: методология и практика. М.: Макс Пресс, 2009 - 472 с.

49. Вачугов И.В. Налоги и налоговый потенциал региона. – Н. Новгород: Изд-во Гладкова О.В., 2003.

50. Вачугов И.В. Теоретические основы и пути повышения налогового потенциала региона: Автореф. дис. ...к. э. н.-Нижний Новгород, 2003.

51. Винокурова Г.П. Налоги и налогообложение в Российской Федерации: учебное пособие / Г.П. Винокурова. – Йошкар-Ола: МарГТУ, 2003. – 46 с.

52. Вишнев С.М. Основы комплексного прогнозирования. М.: Наука, 1977. 57-62 с.

53. Глинский Б.А. Моделирование как метод научного исследования. М., 1965. 56 с.

54. Гранберг А.Г. Основы региональной экономики. (<http://edulib.ru/>).

55. Громова Н.М. Основы экономического прогнозирования. Издательство «Академия естествознания», 2006 год, 87-88 с.

56. Jo'raev A.S. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo'llari. – Т.: Fan, 2004. – 224 b.

57. Загайтов И.Б., Яновский Л.П., Раскин В.Г., Дементьев С.Н. Метод «Зонт» в прогнозе колебаний природных условий урожая. Воронеж: С.А.Г.Е., 1996.

58. Ирина Чучуева. Классификация моделей прогнозирования: анализ курса лекций о прогнозе. <http://www.Nabrahabr.ru/post/177633/>.

59. Климова Н.И. Экономический инструментарий регулирования федеративных отношений: Доклад на семинаре Экономические факторы федерализации России. (<http://federalmcart.ksu.ru/conference/seminar4/>).

60. Климова Н.И., Михеева Н.Н., Суспицын С.А. и др. Проект СИРЕНА: влияние государственной политики на региональное развитие. Новосибирск: Изд-во ИЭОПП, 2002.

61. Коростелкина И.А. Комплексная оценка налогового потенциала региона. Управленческий учет, (2013), 3 (март), 47-56 с.

62. Коротаев А. В., Малков А. С., Халтурина Д.А. Законы истории. Математическое моделирование развития Мир-Системы. Демография, экономика, культура. 2-е изд. М.: УРСС, 2007. ISBN 978-5-484-00957-2.

63. Кузьменко В.В., Ефимец Е.А. Институциональный подход к исследованию налогового потенциала и налогового бремени// Сборник научных трудов СевКавГТУ. Серия «Экономика», 2005, №1.

64. Ласло Э. Макросдвиг (К устойчивости мира курсом перемен) / Пер. с англ. Ю.А. Данилова. – М.: Тайдекс Ко, 2004. – 207 с.

65. Матрусов Н.Д. Региональное прогнозирование и региональное развитие России. М. : Наука, 1995, 198 с.

66. Методика распределения средств Фонда финансовой поддержки субъектов Российской Федерации на 2000 г. (<http://budgetrf.ru>).

67. Моисеев Н.Н. Избранные труды (в 2-х томах). Т.2. Междисциплинарные исследования глобальных проблем. – М.: Тайдекс Ко, 2003. – 64 с.

68. Моисеенко И.А. К вопросу о методике оценки налогового потенциала Вестник Северо-Кавказского федерального университета, (2010), 4, 245-249 с.

69. Моисеенко И.А. К вопросу о методике оценки налогового потенциала. Вестник Северо-Кавказского федерального университета, (2010), 4, 245-249 с.

70. Налоги и налогообложение. – 5-е изд. / Под ред. М.В. Романовского, О.В. Врублевской. – СПб.: Питер, 2006. –С. 309.

71. Паскачев А.Б., Садыгов Ф.К., Мишин В.И., Саакян Р.С. и др. Анализ и планирование налоговых поступлений: теория и практика / Под ред. Ф.К.Садыгова.-М.:Издательство экономико-правовой литературы, 2004. 232 с.
72. Поляк Г.Б., Паскачева А.Б., Астафьев М.П. Бюджет и бюджетная система: Учебник для вузов. М.: Юрайт, 2010. –111 с.
73. Попенков Д.Р. Методы оценки налогового потенциала территории //Власть и управление на Востоке России. 2003. № 2.
74. Потенциал // Словарь русского языка: 70000 слов / Под ред. Н.Ю.Шведовой. 22-е. изд. стер. М. : Рус.яз., 1990.
75. Пригожин И., Стенгерс И. Прядок из хаоса. Новый диалог человека с природой. – М.: Эдиториал УРСС, 2000. – 132 с.
76. Рогачев А.Ю. Моделирование налоговых поступлений на примере Сибирского федерального округа /А.Ю.Рогачев // Налоговая политика и практика. - 2006. - №1. - 44-48 с.
77. Россия и проблемы бюджетно-налогового федерализма. М.:Всемирный Банк, 1993, 85 с.
78. Самуэльсон П.А., Нордхаус В.Д. Экономика. - М.: Лаборатория Базовых Знаний, 2000.
79. Сидорова Н.И. Налоги в государственном регулировании экономики. Финансы. - 1996. - № 11. - 26-27 с.
80. Суркова Т.И., Анисимов С.А., Королёв А.Ю. Факторный анализ показателей исполнения бюджета и макроэкономических показателей. Финансы, N 6, 2002.
81. Xaydarov M.T., Ashurova D.S. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni prognozlash tirish. Darslik. T.: “Iqtisod”, 2007.- 185 b.
82. Тихонов Э.Е. Прогнозирование в условиях рынка. Невинномысск, 2006. 221 с.
83. Трунин И.В. Оценка налогового потенциала субъектов федерации и разработка методики распределения Фонда финансовой поддержки регионов на 2008г. -М.:ИППП, 2011 г. – 369 с.

84. Уемов А. И. Логические основы метода моделирования, М.: Мысль, 1971. — 48 с.

85. O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi. «M» harfi. Toshkent. 671 b.

86. Черник Д.Г. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008.-311с.

87. Юткина Т.Ф. Налоги и налогообложение: Учебник. 2-е изд., перераб. И доп. М. : ИНФРА-М, 2002, 124 с.

II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to'plamlar

1. Adilov M.Q. Tadbirkorlik faoliyatida soliqlarni rejalashtirish. T.: "NORMA", 2012.- 420 b.

2. Анисимов С.А., Погорелко И.А. Проблемы прогнозирования налоговых доходов. // Аудит и финансовый анализ. 2003, №1, 26-34 с.

3. Анчишкин А.И. Методология прогнозирования развития народного хозяйства // Вопросы экономики. 1980. № 1. 46-47 с.

4. Архипцева Л.М. Налоговый потенциал: теоретические и практические аспекты использования в планировании налоговых поступлений // «Налоги и налогообложение», 2008, №7, 5-12 с.

5. Астафьева Е. Среднесрочное прогнозирование налоговых поступлений с использованием структурных моделей / Е. Астафьева // Проблемы теории и практики управления. – 2007. - №3. –16-31 с.

6. Бирюков А.Г. К оценке бюджетной обеспеченности регионов. // Финансы. 2001. № 4. 19 с.

7. Богачева О.В. Налоговый потенциал и региональные счёта // Финансы. 2000. № 2 — 3с.

8. Васильева М.В. Методы налогового прогнозирования на макроуровне / М.В.Васильева // Управленческий учет. – 2011. - №6 –63-73 с.

9. Горский И.В. Налоговый потенциал в механизме межбюджетных отношений // Финансы. 1999. № 6. 11с.

10. Едрѳнова В.М. Прогнозирование налоговых поступлений в субъекте Российской Федерации // Финансы и кредит. – 2008. - №17 –51-54 с.

11. Жидикин А.А. Анализ категориального аппарата налогового планирования и прогнозирования. Управленческий учет, (2012), 10 (октябрь), 101-107 с.

12. Каримов Д.М., Самадов А.Б. О некоторых методах прогнозирования налоговых поступлений. // “Иктисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. №1, январь-февраль. 2016 й.

13. Коломиец А.Л. Анализ концептуальных подходов и методов оценки налогового потенциала регионов // Налоговый Вестник. 2000. №1.

14. Коломиец А.Л., Новикова А.И. О соотношении финансового и налогового потенциалов в региональном разрезе // Налоговый вестник. 2000. № 3. 29 с.

15. Мельник Д.Ю., Сосновский С.Н. Налоговое планирование: международные аспекты // Налоговый вестник, № 6 1998, 103 с.

16. Минаков А.В. Модели анализа и прогнозирования налоговой базы и налоговых поступлений / А.В.Минаков // Экономический анализ: теория и практика. – 2005. - №5. – С. 47-52.

17. Мишенина М.С. К вопросу о содержании понятия налогового потенциала региона // Академический вестник, (2009), 4, 167-170 с.

18. Модели и методы налогового прогнозирования на макроуровне

Васильева М.В. Управленческий учет, (2011), 12 (декабрь), 55-63 с.

19. Попова Л.В. Моделирование планирования налоговых поступлений в федеральный бюджет Орловской области / Л.В.Попова // Экономические и гуманитарные науки . - 2012. - № 3. –76-80 с.

20. Рогачев А.Ю. Моделирование налоговых поступлений на примере Сибирского федерального округа /А.Ю.Рогачев // Налоговая политика и практика. - 2006. - №1. - 44-48 с.

21. Слободчиков Д.Н. Оценка налогового потенциала: опыт субъектов Российской Федерации [Текст] / Д.Н.Слободчиков, А.Е.Суглобов // Проблемы теории и практики управления. - 2009. - № 8. - 13-34. с.

22. Суглобов А.Е. Экономическое содержание налогового потенциала в современных моделях экономического развития // Налоги и налогообложение. 2009. № 7.

23. Шогенов А.А. Методические аспекты расчета налогового потенциала региона // Региональная экономика и управление: электронный научный журнал, 2013. - № 4 (28).

24. Elmirzaev S.E. Korporativ moliyani boshqarishda soliq munosabatlarini samarali tashkil etish masalalari. Monografiya. T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2017.-159 b.

25. Toshmatov Sh.A. Korxonalarni rivojlantirishda soliqlarning roli/ Monografiya.-T.: Fan va texnologiya, 2008.-204 b.

26. Toshmurodova B.E. Soliqlar vositasida iqtisodiyotni boshqarish mexanizmi. – T.: Yangi asr avlodi, 2002. – 128 b.

27. Яковлева И.А. О моделях прогнозирования налоговых поступлений / Фундаментальные исследования. – 2008. – № 3 – С. 123-124.

III. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar

1. Meyliev O.R. Hududiy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashda soliqlarning ta'sirchanligini oshirish masalalari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. -T.: TMI, 2018. -27 b.

2. Musagaliev A.J. Yuridik shaxslarni soliqqa tortishni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari. i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. -T.: BMA, 2009. -23 b.

3. Niyazmetov I.M. Soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish orqali soliq tizimi barqarorligini ta'minlash. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. -T.: BMA, 2018. -69 b.

4. Pardaev U.U. Davlat byudjetini prognozlashtirish uslubiyotini takomillashtirish. iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T.:BMA, 2018.-58b.

5. Popova L.V. Modelirovanie planirovaniya nalogovix postupleniy v federalniy byudjet Orlovskoy oblasti / L.V.Popova // Ekonomicheskie i gumanitarnie nauki . - 2012. - № 3. -76-80 s.

6. Urmonov J.J. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini soliq mexanizmi vositasida tartibga solishni takomillashtirish masalalari. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. -T.: BMA, 2018. -65 b.

7. Shernaev A.A. Davlat byudjeti solikli daromadlarining o'ra muddatli istiqbolini belgilash masalalari. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. -T.: BMA, 2009. -20 b.

8. Ergashev I.O. Milliy bozorni himoyalashda aktsiz solig'ini hisoblash uslubiyotini takomillashtirish. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. -T.: BMA, 2011. -22 b.

9. Sobirov Sh.M. Foyda solig'i va uning tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy faoliyatiga ta'siri. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. -T.: BMA, 2008. -20 b.

10. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti.

11. www.mf.uz - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti.

12. www.soliq.uz - O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi sayti.

13. www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti.

14. www.cbu.uz - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti.

15. www.norma.uz - Axborot-huquqiy portali.

MUNDARIJA

KIRISH		3
I – BOB. «SOLIQ STATISTIKASI VA PROGNOZI» FANINING PREDMETI, MAQSADI, VAZIFALARI VA O'RGANISH USULLARI		6
1.1. «Soliq statistikasi va prognozi» fanining predmeti maqsad va vazifalari.....		6
1.2. «Soliq statistikasi va prognozi» fanining tadqiqot predmetini o'rganish metodlari.....		10
1.3. «Soliq statistikasi va prognozi» fanining boshqa fanlar bilan aloqasi.....		18
Tayanch so'z va iboralar.....		21
Nazorat uchun savol va topshiriqlar.....		21
II - BOB. SOLIQ TUSHUMLARI HISOBI VA UNI TASHKIL ETISH		22
2.1. Soliq statistikasi va uning mohiyati.....		22
2.2. Soliq to'lovchilarning hisobini tashkil etish tartibi.....		25
2.3. Soliq to'lovchilarda soliq obyektlarining yuzaga kelishi va ularga oid jarayonlarni hisobga olish.....		36
2.4. Turli darajadagi byudjetlarga soliq to'lovlarining kelib tushishi jarayonini hisobga olish tartibi.....		50
2.5. Soliq tushumlari to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish va ayirboshlash tartibi.....		54
Tayanch so'z va iboralar.....		61
Nazorat uchun savol va topshiriqlar.....		62
III-BOB. SOLIQLARNI PROGNOZ QILISHNING IQTISODIY MOHIYATI		63
3.1. Prognoz va uning yuzaga kelishining ijtimoiy-iqtisodiy shart- sharoitlari.....		63
3.2. Iqtisodiy prognozlar va ularning mohiyati.....		69
3.3. Soliqlarni prognoz qilishning iqtisodiy mohiyati.....		73
3.4. Soliqlarni prognoz qilishning maqsadi, prognozning vazifalari va tamoyillari.....		80
3.5. Soliqlarni prognoz qilish jarayonining tarixiy shakllanishi va unga oid nazariy qarashlar.....		89
3.6. Soliqlarni prognoz qilishni tashkil qilishning xorij tajribasi.....		96

3.7.	Soliqlarni prognozlashtirish va rejalashtirishning mazmuni va ularning o'zaro farqlari.....	104
	Tayanch so'z va iboralar.....	120
	Nazorat uchun savol va topshiriqlar.....	120
IV -BOB.	SOLIQNI PROGNOZ QILISH MODELLARI VA METODLARI.....	122
4.1.	Soliqlarni prognoz qilishda modellar va modellashtirishning ahamiyati va ularning mohiyati.....	122
4.2.	Soliqlarni prognoz qilishda qo'llaniladigan modellar.....	127
4.3.	Jahon amaliyotida qo'llanilgan makroiqtisodiy modellar va ularning soliqlarni prognoz qilishda qo'llanilishi.....	137
4.4.	Soliqlarni prognoz qilish metodlari.....	149
	Tayanch so'z va iboralar.....	172
	Nazorat uchun savol va topshiriqlar.....	172
V -BOB.	SOLIQ TURLARI BO'YICHA TUSHUMLARNI PROGNOZ QILISHNI TASHKIL ETISH VA SOLIQ TUSHUMLARI TAHLILI.....	174
5.1.	Soliqlarni prognoz qilishning maqsadi va uning huquqiy asoslari.....	174
5.2.	Soliqlarni prognoz qilishning axborot manbai va ularni qayta ishlash.....	182
5.3.	Soliq tushumlarini tahlil qilish tartibi va metodlari.....	189
5.4.	Soliqlarni prognoz qilishning bosqichlari va amalga oshirilish tartibi.....	199
	Tayanch so'z va iboralar.....	206
	Nazorat uchun savol va topshiriqlar.....	207
VI-BOB.	SOLIQ SALOHİYATI VA UNI BAHOLASH.....	208
6.1.	Soliq salohiyatining mohiyati va ahamiyati.....	208
6.2.	Soliq salohiyatiga ta'sir etuvchi omillarni baholash mexanizmi	222
6.3.	Soliq salohiyatini hisoblash metodlari.....	229
6.4.	Soliq salohiyatini aniqlashning xorij tajribasi.....	244
6.5.	O'zbekiston byudjet-soliq tizimida soliq salohiyatini aniqlash mexanizmiga kontseptual yondoshuv.....	254
6.6.	Korxonalarda soliqlarni rejalashtirish.....	262
	Tayanch so'z va iboralar.....	271
	Nazorat uchun savol va topshiriqlar.....	271

VII-BOB.	SOLIQ TURLARI BO'YICHA SOLIQLARNI PROGNOZ QILISH TARTIBI.....	273
7.1.	O'zbekiston soliq tizimida soliqlarni prognoz qilishning umumiy tartibi.....	273
7.2.	Foyda solig'ini prognoz qilish.....	284
7.3.	Qo'shilgan qiymat solig'ini prognoz qilish.....	296
7.4.	Aktsiz solig'ini prognoz qilish.....	312
7.5.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini prognoz qilish.....	318
7.6.	Yer solig'ini prognoz qilish.....	324
	Tayanch so'z va iboralar.....	332
	Nazorat uchun savol va topshiriqlar.....	332
	GLOSSARIY.....	334
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	348

XUDOYQULOV SADIRDIN KARIMOVICH

SOLIQ STATISTIKASI VA PROGNOZI

DARSLIK

Toshkent – «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» – 2022

Muharrir:	S.Abdunabiyeva
Texnik muharrir:	M.Tursunov
Musavvir:	A.Shushunov
Musahhili:	B.Baxronova
Kompyuterda sahifalovchi:	S.Tojiyeva

E-mail: nashr2019@inbox.ru. Tel.: +99899920-90-35

№ 3226-275f-3128-7d30-5c28-4094-7907, 10.08.2020.

Bosishga ruxsat etildi 07.11. 2022.

Bichimi 60x84 ¹/₁₆. «Timez Uz» garniturası.

Ofset bosma usulda bosildi.

Shartli bosma tabog'i: 23,5. Nashriyot bosma tabog'i 22,75.

Tiraji: 50. Buyurtma № 135